Jámáát jám bolıp sájde qılmağa,
Mehrablı meshitler saǵan tabılmas.*

*Ótti aramızdan neshshe miń janlar,
Jaqsıdan qalmadı namıw-nishanlar,
Murshidi muhabbil áziyz iyshanlar,
Joq boldı, olardan nishan tabılmas.*

*Ulamalar qaldı ayaq astında,
Kitap joq, quran joq onıń dástinde,
Shahiydatlar joq qılmaqtıń qástinde,
Joq boldı bulardan nishan tabılmas.*

*Bilmedim, ne bolar zamannıń keyni,
Jıl-jıldan pásentdur islamnıń dini,
Kesheden qarańǵı adamnıń kewili,
Bir kún ólseń, jaqtı jáhán tabılmas [5.1.].*

Bul xalıq shayırnıń sońǵı óz ómirine ókinishli de, keńes húkimetine qarsı da jazılǵan qosıǵı edi.

Biz xalqımızdın súyikli perzenti, ataqlı shayır Ayapbergen Muwsaevtin dóretiwshiligin elede tereńirek úyreniwimiz hám onnan házirgi úzliksiz tálim sistemasında kámil insan tárbiyasında ónimli paydalanıwımız tiyis.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Ó.Álewov. Qaraqalpaqstanda tálim-tárbiyalıq oylardıń qalıplesiwi hám rawajlanıwı. Nókis, «Bilim»-1993.
2. Á. Paxratdinov, K. Allambergenov, M. Bekbergenova. XX ásir qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı. Nókis, «Qaraqalpaqstan»-2011.
3. Ayapbergen Muwsaev. Hal qayda?. (Qosıqlar toplamı), Nókis, «Bilim» -2018.
4. Ayapbergen Muwsaev. Birinshi may. Nókis, «Qaraqalpaqstan» -1980.
5. «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetası, 12 mart 1992 jıl, №48 (15967) sanı.



BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI OMMALASHTIRISH

Baxodirova U.B.

Navoiy davlat universiteti dotsenti

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiya, virtual ta'lim texnologiyasi, virtual reallik, SMART, LMS, axborot-ta'lim muhiti, ta'lim platforma.

Ключевые слова: цифровые технологии, виртуальные образовательные технологии, виртуальная реальность, SMART, LMS, информационно-образовательная среда, образовательная платформа.

Key words: digital technology, virtual learning technology, virtual reality, SMART, LMS, information and educational environment, educational platform

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda xorijiy tajribalar va ularni mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiya jarayoniga ommalashtirishga doir taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлены предложения и рекомендации по использованию зарубежного опыта в подготовке будущих преподавателей биологии к профессиональной деятельности, а также по распространению этих практик в образовательных и воспитательных процессах высших учебных заведений нашей страны.

SUMMARY:

This article provides proposals and recommendations on the use of international experiences in preparing future biology teachers for professional activity, as well as on the dissemination of these practices within the educational and training processes of higher education institutions in our country.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va jamiyatni barcha jabhalariga kirib borishi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga, shu jumladan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashni yangicha talablarini qo'ymoqda [1]. Raqamli texnologiyalari sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning, xususan bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo'yiladigan talablaridan biri zamonaviy raqamli vositalar asosida mashg'ulotlarni loyihalash va olib borish kompetentligini rivojlantirishdan



iborat. Buni global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan ta'lim muhitlari asosida amalga oshirish mumkin.

Biroq, bugungi raqamlashtirish sharoitida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalanishga, shu jumladan raqamli ta'lim vositalari asosida mashg'ulotlarni loyihalashga o'rgatishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapdi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish uchun dastlab xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tajribasini o'rganish lozim. Shu bois, tadqiqot doirasida xorijiy rivojlangan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish holatini tahlil etish orqali, ularning tajribalarini mamlakatimizning ta'lim tizimiga joriy etish muhim masalalardan biri sanaladi. Shu maqsadda xorijiy rivojlangan mamlakatlarni, xususan, AQSH, Yevropa, Osiya va Rossiya davlatlarining oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish holati tahlil etildi.

Jumladan, AQSHda CALS (Continuous Acquisition and Life cycle Support) dasturi joriy etilgan bo'lib, bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida talabalar bilan aloqa va fikr-mulohazalarga asoslanib, tarmoqlar orqali fanlarni, shu jumladan biologiya fanlarini o'qitishga mo'ljallangan mustaqil o'quv kurslarini taklif etadi. Shuningdek, kompyuterlashtirilgan darslarni taklif qiladi. Undan so'ng professor-o'qituvchilar bilan onlayn muhitlardan foydalanish orqali muhokama qilinadi va hafta oxirida markazlashtirilgan yuzma-yuz fikr mulohazalar olib boriladi [2]. AQSHda biologiya ta'limida masofaviy o'qitish tizmlaridan samarali foydalanib kelinayotgan Penn State, Florida universiteti, Massachusetts oliy ta'lim muassasalarini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishga mo'ljallangan interaktiv o'quv vositalaridan samarali foydalanib kelinadi.

Yevropa Ittifoqida oliy ta'lim muassasalari ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda DigComp (The Digital Competence Framework for Citizen ya'ni, Fuqarolar uchun raqamli kompetentlik asoslari – bu Evropa Komissiyasining Qo'shma tadqiqot markazi tomonidan fuqarolarning shaxsiy va professional raqamli kompetentsiyasini



rivojlantirish va oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni joriy etishga qaratilgan. DigComp tizimi fuqarolarga raqamli texnologiyalar bilan ishonchli, tanqidiy va xavfsiz ishlashga yordam beradigan 250 dan ortiq yangi bilim, ko'nikma va munosabatlar misollarini taqdim etadi, shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan tizimlar ishlab chiqilgan [3].

Yevropa darajasida raqamli kompetensiyalar ta'lim jarayonidagi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida tan olinadi va aniqlanadi. Bunda raqamli kompetensiyalar "o'rganish, ishlash va jamiyatda ishtirok etish maqsadida raqamli texnologiyalardan ishonchli, tanqidiy va ongli ravishda foydalanish" sifatida belgilandi.

Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashining fikriga ko'ra, raqamli kompetensiyaning asosiy xususiyati raqamli texnologiyaning axborot jamiyatida yashovchi insonlar uchun qanday imkoniyatlar yaratishini tushunishdir. Ushbu kompetensiya insonlar ijodkorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu texnologiyadan foydalanishning zaruriy sharti foydalanuvchining axborot va interaktiv axborot vositalariga tanqidiy va mas'uliyat bilan yondashishidir [3]. Shu maqsadda fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan.

Jumladan, Buyuk Britaniyada bo'lajak biologiya mutaxassislarini va o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash raqamli vositalarni va keys metodini integrasiyalash asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada bo'lajak o'qituvchilarning tayyorlashga mo'ljallangan ochiq va yopiq masofaviy o'qitish tizimlari, axborot-ta'lim muhitlari, ta'lim platformalari, ta'limga doir veb-saytlar ishlab chiqilgan. Ularda asosan mustaqil ta'lim olishda foydalaniladi.

Germaniya oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning tayyorlash tizimi ham turli xil tashkil etish shakllarini o'z ichiga oladi. Bunda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy faoliyat bilan tez tanishtirishga qaratilgan [4]. Germaniyada bo'lajak biologiya o'qituvchilarni tayyorlashda virtual ta'lim texnologiyalar va bulutli xizmatlardan samarali foydalanib kelinmoqda.

Finlandiya oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda raqamli ta'lim vositalardan foydalanish bo'yicha turli LMS tizimida ishlab chiqilgan o'qitish vositalaridan foydalaniladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar, shu jumladan biologiya fanlarini o'qitishga mo'ljallangan ta'lim



muhitlarida virtual laboratoriyalar joylashtirilgan hamda auditoriyalar virtual reallik texnologiyalari bilan jihozlangan.

Fransiyada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash amaliy va didaktik xususiyatga ega bo'lib, u o'quv mashg'ulotlari hamda amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish shakllarini o'z ichiga olgan pedagogik amaliyotning butun tizimidan foydalanishni nazarda tutadi: mikro-ta'lim, modellashirish va tarbiyaviy vaziyatlar [5]. Shu bilan birga Fransiyada didaktik veb-platformalar yordamida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, biologiya o'qituvchilarning tayyorlashda teskari aloqa vositalaridan samarali foydalanilib kelinmoqda.

Rossiyada bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish sohasida tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarini, shu jumladan bo'lajak biologiya o'qituvchilarning tayyorlashda axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini (AKT) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda bo'lajak biologiya o'qituvchilarni tayyorlashga mo'ljallangan ta'lim muhitlar, bulutli xizmatlar yaratilgan. Shu bilan birga Rossiya oliy ta'lim muassalarida gamifikatsiya texnologiyaridan samarali foydalanilib kelinmoqda.

Shu bilan birga yuqorida keltirilgani kabi yondashuvlar rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari talabalar yashaydigan hudud hisoblanadi va texnologik yutuqlar LMS tizimi asosidan elektron ta'lim hamda masofaviy ta'limga talab ortib bormoqda. Bunga Avstraliya va Yangi Zelandiya, Yaponiya, Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarning turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirishga undamoqda [6].

Biroq, miqdoriy o'sishning katta istiqbollariga qaramay, ta'limni boshqarish tizimlarining sifat jihatidan rivojlanishi masalasi ochiqlicha qolmoqda: LMSlar foydalanuvchi interfeysi jihatidan sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, texnik jihatdan ular 1990-yillarning oxirlaridagi kabi imkoniyatlarni saqlab qolishgan. Aksincha, boshqa ta'lim texnologiyalari innovatsiyalar to'liqlinini boshdan kechirmoqda.

Xitoy oliy ta'lim muassasalarida yuqorida qayd etilgan platformalar asosida biologiya fanlarini o'qitishga mo'ljallangan virtual, sun'iy intellektli oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatib kelinmoqda. Shuningdek, biologiya fanlarini o'qitishga mo'ljallangan virtual reallik texnologiyalri va Face ID o'qitish tizimlari va baholovchi ta'lim muhitlari ishlab chiqilgan.

Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalarining tabiiy fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalarga va SMART vositalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Koreya oliy ta'lim muassasalari talabalarning



mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlar izchil tatbiq etiladi. Koreya Respublikasida ta'lim fanlari bo'yicha darsliklarda keltirilgan o'qituvchilar malakasini oshirish maqsadlariga mos keladi.

Hindiston dunyodagi eng yirik ta'lim tizimlaridan biri bo'lib, bunda masofaviy ta'lim oliy ta'limga qabul qilinishning to'rtidan bir qismini tashkil etadi, Hindistondagi raqamli ta'lim bozorini provayder tomoni va foydalanuvchi tomoni segmentlariga bo'lish mumkin. Ta'minotchi tomoni kontent va baholash yechimlari uchun o'quv boshqaruv tizimlarini (LMS) taklif qiluvchi kompaniyalardan iborat [6]. Hindistonda mahalliy LMS bozorining umumiy rivojlanmaganligi hukumat ko'magida bozor ulushini olishga intilayotgan startaplar va mahalliy kompaniyalar uchun ajoyib biznes salohiyatini taqdim etadi. Hozirda Hindiston bozorida 100 dan ortiq xususiy va ochiq kodli LMS tizimlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati xorijiy ishlab chiqilgan. Tizimni tanlashda Hindistondagi ta'lim muassasalari birinchi navbatda ochiq kodli LMSdan foydalanish yoki unga o'tishning xarajatlarni kamaytirish afzalliklarini hisobga oladilar. Masalan, Moodledan foydalanishda yirik metropoliten hududlaridan tashqaridagi ta'lim muassasalari byudjet bilan cheklangan va moliyaviy imkoniyatlar LMSni tanlashda muhim omil hisoblanadi.

Texnologik rivojlanishning hozirgi darajasi ta'lim jarayonini samarali olib borishga imkon bersa-da, raqamli texnologiyalardan foydalanish COVID-19 davrida ta'lim faoliyatini davom ettirishda muhim omilga aylandi. Shuning uchun ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga qiziqish doimiy ravishda o'sib bormoqda va mamlakatimiz hamda xalqaro konferensiyalarda muhokama mavzusi hisoblanadi. Bundan tashqari, bu sohada xorijiy mamlakatlar tajribasini qo'llashga qiziqish va e'tibor doimiy ravishda mavjud. Shuning uchun, ta'limni, shu jumladan biologiya ta'limini boshqarishda va bo'lajak biologiya mutaxassislarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda mintaqaviy xususiyatlarga e'tibor berish muhimdir. Dunyodagi eng rivojlangan integratsiya uyushmalaridan biri sifatida Yevropa Ittifoqi, shubhasiz, bu masalada boshqa mamlakatlarga nisbatan ma'lum bir vakolatga ega.

Nazariy tahlillarga ko'ra, Yevropa, Osiyo yoki Rossiyada bo'ladimi, raqamlashtirish va yagona ta'lim makonini shakllantirishning hozirgi sharoitida ta'limni boshqarish sifatini oshirish uchun AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarini tashkil etuvchi xalqlar o'rtasidagi tarixiy, madaniy va an'anaviy farqlarni tushunish, shu bilan birga millatlararo darajada boshqaruvni soddalashtiradigan umumiyliklarni izlash zarurligini ta'kidlash kerak.



O'z navbatida, Yevropa va Osiyoda ta'limni boshqarish tizimlari bozori tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, chunki tobora ko'proq tashkilotlar onlayn ta'limning ahamiyatini va LMS dan foydalanishning tegishli afzalliklarini tan olishmoqda. Hozirgi vaqtda Osiyodagi LMS bozorida bir nechta yirik joriy etuvchilar samarali natijalarga erishmoqda, ammo oliy ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiya jarayoniga, shu jumladan biologiya mutaxassislarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Shunga qaramay, AQSH, Yevropa va Osiyoda ta'limni boshqarish tizimlaridan foydalanishning tabiati haqidagi savolga aniq javob yo'q, chunki ularning har bir milliy bozorga kirib borishi, shuningdek, mintaqa mamlakatlaridagi ta'lim muhitining sifati juda farq qiladi. Biroq, ba'zi umumiy tendentsiyalarni ta'kidlash mumkin. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, onlayn ta'limga tobora ko'proq inoslar qiziqish bildirayotgani sababli, AQSH, Yevropa va Osiyoda ta'limni boshqarish tizimlariga talab ortib bormoqda. Biroq, oxirgi foydalanuvchilar orasida ta'limni boshqarish tizimlarining afzalliklari haqida yetarlicha xabardorlik yo'qligi mintaqadagi bozor o'sishini to'xtatib qo'yimoqda.

Xitoy va Hindistonda LMSni joriy etish tendentsiyasi o'sib bormoqda, shuningdek, Osiyoda bulutga asoslangan LMS yechimlariga ustunlik qilmoqda.

Yevropa va Osiyo tashkilotlarining an'anaviy LMS yechimlaridan ijtimoiy o'rganish platformalari va o'quv ekotizimlari kabi innovatsion o'quv boshqaruvi yechimlariga o'tish tendentsiyasi mavjud. Germaniya va Xitoyga kelsak, ichki bozor ehtiyojlarini qondira oladigan va xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan texnologiya kompaniyalarining kuchini ta'kidlash kerak. Norvegiya va Yaponiyada LMS tizimlarining rivojlanishi yuqori turmush darajasi va global internet tarmog'idan keng foydalanish tufayli katta salohiyatga ega, ammo akademik elitaning yuqori konservatizmi bilan cheklangan, ular interaktiv raqamli vositalardan foydalanishdan ko'ra oflayn o'qitishni afzal ko'rishadi. Hindistonda ta'limni boshqarish texnologiyalariga katta ehtiyoj bor, ammo milliy bozor juda zaif, bu uni boshqa mamlakatlardan o'rganishga moyil qiladi. Rossiyaga kelsak, ta'limni boshqarishda raqamlashtirish ham jadal rivojlanayotganini ta'kidlash kerak. Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan o'rnak olib, Rossiya bugungi o'zgaruvchan dunyo LMS tizimlari va boshqa shunga o'xshash texnologik yechimlarni ishlab chiqishga tobora ortib borayotgan talabni boshdan kechirmoqda.

Yuqorida keltirilgan davlatlarning tajribalarini tahliliga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini ko'rib chiqish asosida ham, dunyoning turli mamlakatlarida bo'lajak biologiya



o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishni yagona tizimi mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin. Oliy ta'lim muassalarida umumiy kasbiy tayyorgarlik mavjudligi bilan farqlanadi.

AQSH, Yevropa va Osiyo oliy ta'lim muassasalarida biologiya o'qituvchilarning tayyorlashda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishda global tarmoqning manzillarida joylashtirilgan bulutga asoslangan web-platformalardan foydalanishga e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, virtual reallik texnologiyalaridan foydalanishga oid pedagogik tadqiqotlar o'tkazish asosida oliy ta'lim muassasalari biologiya ta'limiga joriy etish muhim sanaladi. Bundan tashqari, biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda mobil texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
2. Раицкая Л.К. Дистанционное образование в США. Филологические науки в МГИМО. – №10 (25), 2002. – С.147-155.
3. Xanbabayev H.I. Pedagogika yo'nalishi talabalarining raqamli texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Qo'qon – 2024. – 271 b.
4. Богуш Т. В. Формы подготовки будущих учителей начальных классов в зарубежных странах // Педагогика высшей школы. 2016. – № 3 (6). – С. 21-23.
5. Гордиенко Н. Е. Подготовка учителя-профессионала в высшей педагогической школе Франции в конце XX — начале XXI века // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Рязань, 2010. – 130 с.
6. Абрамов В. И., Маланичева Н. В., Стрельникова И. А. Цифровые технологии в управлении образованием сквозь призму опыта зарубежных стран // Научнопедагогическое обозрение (Pedagogical Review). 2022. Вып. 4 (44). С. 48–61.



«GO‘RO‘G‘LI» VA «ALPOMISH» DOSTONLARIDA QADIMIY URF-ODATLAR, MA‘RIFAT VA TA‘LIM-TARBIYA G‘OYALARI

Babasheva G.B.

*Ajiniyoz nomidagi NDPI, “Umumiy Pedagogika”
kafedrasi dosenti, p.f.f.d(PhD)*

Tayanch so‘zlar: xalq pedagogikasi, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», qahramonlik dostonlari, urf-odatlar, ma‘naviy qadriyatlar, ta‘lim-tarbiya, vatanparvarlik, sadoqat, jasorat, oila tarbiyasi, ustoz-shogird an‘analari, etnopedagogika.

Ключевые слова: народная педагогика, «Алпомиш», «Гороглы», героические эпосы, традиции, духовные ценности, обучение и воспитание, патриотизм, верность, мужество, семейное воспитание, традиции учитель–ученик, этнопедагогика.

Key words: folk pedagogy, “Alpomish,” “Gorogly,” heroic epics, traditions, spiritual values, education and upbringing, patriotism, loyalty, bravery, family upbringing, teacher–student traditions, ethnopedagogy.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada o‘zbek xalq qahramonlik dostonlari hisoblangan «Alpomish» va «Go‘ro‘g‘li» asarlarida aks etgan qadimiy urf-odatlar, ma‘naviy qadriyatlar hamda ta‘lim-tarbiya g‘oyalari tahlil qilinadi. Dostonlarda oila tarbiyasi, nikoh an‘analari, ustoz-shogird munosabatlari, vatanparvarlik, jasorat, do‘stlik, sadoqat, adolat kabi pedagogik g‘oyalar yoritib beriladi. Shuningdek, har ikki dostonning qiyosiy tahlili asosida ularning umumiy va farqli tarbiyaviy jihatlarini ochib beriladi. Maqolada ushbu dostonlarning xalq pedagogikasi tizimidagi o‘rni hamda zamonaviy ta‘lim-tarbiyadagi ahamiyati ilmiy asosda bayon etiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются древние обычаи, духовные ценности и воспитательные идеи, отражённые в узбекских героических эпосах «Алпомиш» и «Гороглы». Рассматриваются педагогические идеи, связанные с семейным воспитанием, брачными традициями, отношениями учитель–ученик, патриотизмом, мужеством, дружбой, верностью и справедливостью. На основе сравнительного анализа двух эпосов выявляются их общие и отличительные воспитательные особенности. В статье на научной основе описывается роль этих эпосов в системе народной педагогики и их значение в современном образовании.

SUMMARY:

This article analyzes the ancient customs, spiritual values, and educational ideas reflected in the Uzbek heroic epics “Alpomish” and “Gorogly.” The study examines pedagogical concepts such as family upbringing, marriage traditions, teacher–student relationships, patriotism, bravery, friendship, loyalty, and justice presented in the epics. A comparative analysis of both epics is also conducted to identify their common and distinctive educational features. The article scientifically



substantiates the role of these epics in the system of folk pedagogy and their importance in modern educational practice.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi milliy ma'naviyat, madaniyat va pedagogik tafakkurning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, qahramonlik dostonlari xalq hayoti, tarixiy voqealar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar hamda tarbiyaviy qarashlarni o'zida mujassam etgan noyob badiiy manbalardir. Bu jihatdan «Alpomish» va «Go'ro'g'li» dostonlari o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy merosi, tarbiyaviy tajribasi hamda pedagogik tafakkurini ifodalovchi muhim asarlar hisoblanadi.

Mazkur dostonlar nafaqat adabiy yodgorlik, balki xalq pedagogikasining boy tajribasini o'zida aks ettirgan muhim manbalardir. Ularda inson kamoloti, oilaviy munosabatlar, ustoz-shogird an'analari, vatanparvarlik, jasorat, sadoqat, do'stlik, halollik kabi fazilatlar tarannum etiladi. Shu bois dostonlar xalq tarbiyasining asosiy vositalaridan biri sifatida qoraladi [1].

Xalq og'zaki ijodi asarlari asrlar davomida inson tarbiyasining muhim vositasi bo'lib kelgan. Ular orqali jamiyatning axloqiy me'yorlari, urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlari yosh avlodga yetkazilgan. Ayniqsa, qahramonlik dostonlari yoshlarni jasorat, vatanparvarlik, sadoqat va insoniylik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutgan [2].

Xalq pedagogikasi tushunchasi va dostonlarning o'rni.

Xalq pedagogikasi – bu xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi asosida shakllangan, og'zaki ijod, urf-odat, marosim, an'ana va axloqiy qarashlar orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan tarbiya tizimidir [3].

Xalq pedagogikasining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- maqollar va matallar; ertaklar;
- afsonalar;
- qahramonlik dostonlari;
- marosim va urf-odatlar;
- xalq o'yinlari va qo'shiqlari.

Bu manbalar orasida qahramonlik dostonlari alohida o'rin tutadi. Chunki ularda xalqning ideal qahramon obrazi yaratiladi va u yosh avlod uchun ibrat sifatida namoyon etiladi [4].

Dostonlar xalq pedagogikasida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Axloqiy qadriyatlarni singdirish.
2. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.
3. Jismoniy chiniqish va jasoratni targ'ib qilish.
4. Oila va jamiyat qadriyatlarini mustahkamlash.
5. Ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish.
6. Jamoaviylik va do'stlik tuyg'ularini shakllantirish.



«Alpomish» va «Go‘ro‘g‘li» dostonlari aynan shu vazifalarni bajaruvchi yirik epik asarlar sifatida xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [5].

«Alpomish» dostonining tarixiy-pedagogik mohiyati. Dostonning kelib chiqishi va ijtimoiy mazmuni.

«Alpomish» dostoni turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan eng qadimiy qahramonlik eposlaridan biri hisoblanadi. U o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, boshqird, tatar va boshqa turkiy xalqlar og‘zaki ijodida turli variantlarda uchraydi. Bu esa dostonning keng tarixiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi [6].

Dostonning asosiy g‘oyasi – vatanparvarlik, oila sadoqati, jasorat, halollik va do‘stlik kabi fazilatlarni targ‘ib qilishdir. Unda qahramon Alpomish xalq idealining timsoli sifatida tasvirlanadi.

Oila tarbiyasi va nasl davomiyligi g‘oyasi.

Doston boshida Boybo‘ri va Boysari oilasida farzand ko‘rish orzusi tasvirlanadi. Bu epizod xalq pedagogikasida nasl davomiyligi, oila mustahkamligi muhim qadriyat hisoblanganini ko‘rsatadi.

Farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar, quvonch va tantanalar orqali xalqning oilaviy qadriyatlari aks ettiriladi. Bu esa farzand tarbiyasiga katta e‘tibor qaratilganini ko‘rsatadi [7]. Alpomishning voyaga yetishi, uning ota-onasi bilan munosabatlari orqali oila tarbiyasining ahamiyati ochib beriladi. Ota-onaning farzandga bo‘lgan mehr-muhabbati, uning kelajagi uchun qilgan harakatlari dostonning muhim tarbiyaviy jihatlaridan biridir.

Nikoh marosimlari va oila qadriyatlari

Dostonda Alpomish va Barchinoy o‘rtasidagi muhabbat va nikoh voqealari orqali qadimiy nikoh urf-odatlar aks ettiriladi. Barchinoyning Alpomishga sadoqati, Alpomishning esa uni qo‘lga kiritish uchun sinovlardan o‘tishi oila mustahkamligi va sadoqat ramzi sifatida talqin etiladi.

Dostonda nikoh faqat ikki yoshning birlashuvi emas, balki ikki urug‘ning ittifoqi sifatida talqin etiladi. Bu esa oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanini ko‘rsatadi [8].

Jismoniy va harbiy tarbiya

Alpomish yoshligidan kuchli, epchil, jasur qahramon sifatida tasvirlanadi. U ot minish, kurash, jang qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Bu esa qadimiy jamiyatda jismoniy tarbiya muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Jismoniy chiniqish xalq pedagogikasida mardlik, jasorat va chidamlilik kabi fazilatlarni shakllantirish vositasi hisoblangan [9].

Axloqiy fazilatlar va ma‘naviy tarbiya.

Alpomish obrazi orqali quyidagi axloqiy fazilatlar targ‘ib qilinadi: halollik; sadoqat; mardlik; ota-onaga hurmat; do‘stlik; vatanparvarlik.



Bu fazilatlar xalq pedagogikasining asosiy tarbiyaviy mezonlari hisoblanadi [10].

«Go‘ro‘g‘li» dostonining pedagogik mohiyati. Dostonning umumiy tavsifi.

«Go‘ro‘g‘li» dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng yirik epik asarlaridan biri bo‘lib, unda qahramonlik, adolat, xalqparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Go‘ro‘g‘li obrazi xalq ideal qahramonining timsoli bo‘lib, u adolatli, dono, jasur va xalq manfaatini himoya qiluvchi qahramon sifatida tasvirlanadi [11].

Ustoz-shogird an‘analari.

Dostonda qahramonning shakllanishida ustozlar va donishmandlarning roli muhim o‘rin tutadi. Bu xalq pedagogikasida ustoz-shogird an‘anasi muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Ustozlar nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy tarbiya beruvchi shaxs sifatida tasvirlanadi [12].

Adolat va xalqparvarlik g‘oyalari.

Go‘ro‘g‘li dostonida qahramon adolatparvar, xalq manfaatini himoya qiluvchi obraz sifatida tasvirlanadi. U zolimlarga qarshi kurashadi, kambag‘allarni himoya qiladi. Bu orqali yosh avlodni adolat, halollik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi [13].

Do‘stlik va jamoaviylik.

Go‘ro‘g‘lining sodiq yigitlari bilan munosabatlari, ularning o‘zaro yordam va sadoqati dostonning muhim tarbiyaviy jihatlaridan biridir. Bu orqali jamoaviylik, do‘stlik va hamjihatlik qadriyatlari targ‘ib qilinadi [14].

Vatanparvarlik va yurt himoyasi.

Go‘ro‘g‘li o‘z yurtini himoya qiluvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. U xalq tinchligi va adolat uchun kurashadi. Bu orqali yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish maqsad qilingan [15].

Dostonlarda ayol obrazi va tarbiyaviy g‘oyalar. Barchinoy obrazi

«Alpomish» dostonida Barchinoy obrazi ayolning sadoqati, aql-zakovati va matonatini ifodalaydi. U o‘z sevgisi uchun kurashadi, sabr-toqat bilan kutadi, o‘z sha‘nini himoya qiladi. Bu orqali xalq pedagogikasida ayolning oila va jamiyatdagi o‘rni yuqori baholanganini ko‘rish mumkin [16].

Go‘ro‘g‘li dostonidagi ayol obrazlari.

Go‘ro‘g‘li dostonida ham ayollar dono, sadoqatli, jasur obrazlarda tasvirlanadi. Ular qahramonning ma‘naviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa xalq pedagogikasida ayol tarbiyasiga ham katta e‘tibor qaratilganini ko‘rsatadi [17].

Dostonlarning qiyosiy pedagogik tahlili. Umumiy pedagogik g‘oyalar.

Har ikki dostonni qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi umumiy tarbiyaviy g‘oyalar aniqlanadi: vatanparvarlik; jasorat va mardlik; oila qadriyatlari; kattalarga hurmat; do‘stlik va sadoqat; adolat va halollik; jismoniy chiniqish; jamoaviylik.



Farqli pedagogik jihatlar.

«Alpomish» dostonida oilaviy munosabatlar, nikoh va nasl davomiyligi g'oyalari ustun. «Go'ro'g'li» dostonida esa ijtimoiy adolat, xalqparvarlik, jamoaviy kurash motivlari kuchliroq. Bu farqlar dostonlarning turli tarixiy davr va ijtimoiy sharoitlarda shakllanganini ko'rsatadi [18].

Dostonlarning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati.

Bugungi kunda ham bu dostonlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Ular:

- milliy o'zlikni anglashni shakllantiradi;
- vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi;
- axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi;
- tarixiy xotirani saqlaydi;
- milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazadi.

Dostonlar maktab va oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy vosita sifatida keng qo'llanilishi mumkin [19].

Xulosa. «Alpomish» va «Go'ro'g'li» dostonlari o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlari va pedagogik qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim manbalardir. Ushbu dostonlarda aks etgan tarbiyaviy g'oyalar yosh avlodni ma'naviy barkamol, jasur, vatanparvar, adolatli insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur asarlar xalq pedagogikasining bebaho namunasi bo'lib, ular nafaqat adabiy meros, balki pedagogik tafakkur tarixining muhim qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Mahmudov M. "Xalq pedagogikasi asoslari." – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
4. To'xliyev B. "O'zbek xalq og'zaki ijodi." – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Alpomish. O'zbek xalq dostoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1999.
6. Jo'rayev M. "Folklor va etnopedagogika." – Toshkent: Fan, 2005.
7. Rasulov A. "O'zbek xalq dostonlari poetikasi" – Toshkent: Fan, 1998.
8. Qodirov S. "Xalq pedagogikasi" – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
9. Abdullayeva D. "O'zbek xalq an'analari va tarbiya." – Toshkent: Fan, 2007.
10. Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostoni. – Toshkent: Sharq, 2006.
11. Yusupov E. "Etnopedagogika asoslari." – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
12. Tursunov A. "O'zbek folklori tarixi." – Toshkent: Fan, 1995.
13. O'zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988.
14. Hasanov B. "Milliy qadriyatlar va tarbiya" – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
15. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1977.
16. Niyozov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
17. Rajabov Q. O'zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Fan, 2004.
18. O'zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2013.
19. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.



TALABALARDA 4K MODEL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Doniyorova D.N.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi stajyor o'qituvchi

Tayanch so'zlar: 4K modeli, talaba, kompetensiya, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kollaboratsiya, interfaol metodlar, didaktik imkoniyatlar.

Ключевые слова: модель 4К, студент, компетенция, креативность, критическое мышление, коллаборация, интерактивные методы, дидактические возможности.

Key words: 4C model, student, competence, creativity, critical thinking, collaboration, interactive methods, didactic opportunities.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada oliy ta'lim bosqichida talabalarning intellektual va ijtimoiy salohiyatini oshirishda 4K tamoyili (tanqidiy tahlil, ijodkorlik, muloqotga kirishuvchanlik va jamoaviy hamkorlik) ning ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif tomonidan zamonaviy didaktik yondashuvlar hamda interaktiv ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Olingan natijalar 4K modelining bo'lajak mutaxassislarning mehnat bozorida va ijtimoiy sohalarida raqobatbardoshligini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется значимость принципа 4К (критическое мышление, креативность, коммуникация и коллаборация) в повышении интеллектуального и социального потенциала студентов на этапе высшего образования. Автором определены пути развития профессиональных компетенций через внедрение современных дидактических подходов и интерактивных образовательных технологий. Полученные результаты подтверждают эффективность модели 4К в повышении конкурентоспособности будущих специалистов на рынке труда и в социальной сфере.

SUMMARY:

This article analyzes the significance of the 4C principle (Critical thinking, Creativity, Collaboration, and Communication) in enhancing the intellectual and social potential of students during the higher education stage. The author identifies various trajectories for developing professional competencies through the implementation of modern didactic approaches and interactive educational technologies. The research findings confirm the effectiveness of the 4C model in increasing the competitiveness of future specialists in the labor market and social spheres.

Kirish. Global transformatsiyalar va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarda universal



ko'nikmalarni shakllantirishni ham maqsad qilishi lozim. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassisidan nafaqat soha bilimini, balki nostandart vaziyatlarda yechim topish va guruh ichida samarali faoliyat yuritishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "Partnership for 21st Century Learning" tomonidan ilgari surilgan 4K konsepsiyasi ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Talabalarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish ularning kelajak kasbiy faoliyatida samarali qarorlar qabul qilish, ijodiy va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Shu sababli 4K modeli asosida ta'lim jarayonini tashkil etish muhim ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Oliy ta'limning o'quv dasturlariga 4K ko'nikmalarini integratsiya qilish masalasida S. Kim va A. Palmer (2019) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, tanqidiy fikrlash va kreativlikni rivojlantirish uchun ta'lim muhiti talabaga erkin tanlov va real loyihalar ustida ishlash imkoniyatini berishi zarur. Ularning konsepsiyasiga ko'ra, didaktik jarayon talabani faqat axborot qabul qiluvchidan, bilimlarni konstruksiya qiluvchi subyektda aylantirishni ko'zda tutadi.

Zamonaviy MDH pedagogikasi doirasida E. Kovtun (2023) raqamli ta'lim muhitida 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqotchi gibrid ta'lim sharoitida kommunikativlik va kollaboratsiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun talabalarning texnologik savodxonligi va virtual hamkorlik madaniyatini oshirish zarurligini asoslaydi. Kovtun ta'kidlaganidek, 4K modeli faqat pedagogik metod emas, balki talabaning shiddatli axborot oqimida o'z o'rnini topishini ta'minlovchi adaptiv mexanizmdir. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotchi Sh. Tukhtamishev (2020) bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning kreativ potensialini faollashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'quv jarayonida muammoli vaziyatlarni sun'iy modellashtirish talabalarda nafaqat tanqidiy tahlil qilishni, balki jamoaviy qaror qabul qilish va hamkorlikda ishlash (kollaboratsiya) madaniyatini ham shakllantiradi. Bu esa xalqaro 4K modelining milliy ta'lim muhitiga moslashuvchanligini ta'minlovchi muhim didaktik omildir.

Yuqorida keltirilgan olimlarning (Kim va Palmer, Johnson, Tukhtamishev, Kovtun) nazariy qarashlari va tavsiyalari mazkur tadqiqotning amaliy poydevorini belgilab berdi. Ushbu nazariy xulosalardan kelib chiqib, talabalarda 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning real didaktik imkoniyatlarini tekshirish maqsadida tadqiqotning metodologik strategiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu izlanishning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil hamda faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish tamoyillari tanlab olindi. Talabalarda 4K ko'nikmalarini (ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviy



hamkorlik va muloqot) shakllantirish jarayonini o'rganishda quyidagi usullar majmuasidan foydalanildi:

1. Nazariy manbalar tahlili: Sohadagi mavjud pedagogik-psixologik adabiyotlar, shuningdek, xalqaro ta'lim standartlari (PISA, OECD) qiyosiy o'rganildi. Buning asosida 4K modelining har bir yo'nalishi uchun maxsus baholash mezonlari (indikatorlar) belgilab olindi.

2. Pedagogik diagnostika: O'quv jarayoni davomida talabalar faoliyati bevosita kuzatib borildi. Ularning jamoada ishlash va fikr almashish darajasini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan "Baholash rubrikalari" qo'llanildi.

3. Tajriba-sinov ishlari: Tadqiqot samaradorligini tekshirish uchun o'quv jarayoni ikki guruhda turlicha tashkil etildi:

► Nazorat guruhi: An'anaviy ma'ruza va seminarlar asosida bilim oldi.

► Tajriba guruhi: Muammoli ta'lim (PBL) va "Dizayn-fikrlash" (Design Thinking) kabi innovatsion texnologiyalar asosida o'qitildi.

4. Keys-stadi (Vaziyatli tahlil): Talabalarga real hayotiy muammolar (keysar) berilib, ularning tayyor yechim topishiga emas, balki muammoni tahlil qilish, yangi g'oyalar taklif etish va resurslarni jamoa bo'lib boshqarish qobiliyatiga e'tibor qaratildi.

5. Ma'lumotlarni umumlashtirish va interpretatsiya qilish: Tajriba yakunida olingan sifat ko'rsatkichlari tizimlashtirildi. Talabalarning o'zlashtirish dinamikasini tasdiqlash uchun olingan natijalar o'rtacha arifmetik qiymatlar yordamida qiyoslandi va kuzatilgan sifat o'zgarishlarining ishonchliligi statistik jihatdan (Styudent t-mezonlari elementlari orqali) asoslandi.

Tahlil va natijalar (Sifat ko'rsatkichlari asosida). Tadqiqot doirasida talabalarning 4K ko'nikmalari nafaqat ballar, balki ularning faoliyatidagi sifat o'zgarishlari orqali ham tahlil qilindi. Kuzatuvlar natijasida quyidagi ikki asosiy ko'rsatkich bo'yicha ijobiy dinamika aniqlandi:

1. Kognitiv-tahliliy ko'rsatkich (Tanqidiy fikrlash va Kreativlik):

An'anaviy guruhda talabalar berilgan muammoni faqat darslikdagi qoliplar asosida yechishga harakat qilishdi. Tajriba guruhida esa "Dizayn-fikrlash" metodikasi natijasida talabalarda muammoni qismlarga ajratish, uning asl sabablarini topish va kamida 3-4 ta muqobil (nostandart) yechim variantlarini taklif etish ko'nikmasi shakllandi.

2. Ijtimoiy-kommunikativ ko'rsatkich (Kollaboratsiya va Kommunikatsiya): Dastlabki bosqichda ko'plab talabalar jamoada ishlashda mas'uliyatni o'zidan soqit qilish yoki faqat bitta yetakchiga ergashish tendensiyasini ko'rsatgan edi. Tajriba yakunida esa talabalarda fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, konstruktiv



muloqotga kirishish va umumiy maqsad yo'lida vazifalarni o'zaro taqsimlash kabi ijtimoiy mahoratlar sezilarli darajada oshdi.

Talabalarining ko'nikmalari o'zgarishining sifat tahlili

Ko'rsatkichlar	Tajribadan oldingi holat	Tajribadan keyingi natija (Sifat o'zgarishi)
Kognitiv-tahliliy	Berilgan ma'lumotni tahlilsiz qabul qilish, faqat tayyor algoritm-lardan foydalanish.	Axborotga tanqidiy yondashish, muammoga bir necha kreativ yechimlar taklif etish.
Ijtimoiy-kommunikativ	Guruhda ishlashda sustkashlik, o'z fikrini bayon qilishda iymonish yoki tortishuvlar.	Jamoaviy mas'uliyatni his qilish, murosaga kelish va fikrini dalillar bilan asoslash.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy izlanishlar va tajriba-sinov ishlari talabalarda 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari keng qamrovli ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida quyidagi umumlashtirilgan xulosalar shakllantirildi: Zamonaviy oliy ta'lim mazmunini faqatgina axborot yetkazishga yo'naltirish o'z dolzarbligini yo'qotmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 4K modeli (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya) talabaning nafaqat akademik o'zlashtirishini, balki uning shaxsiy-kasbiy kompetensiyasini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa o'quv jarayonini an'anaviy yondashuvdan faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim modeliga o'tkazishni talab etadi. "Muammoli ta'lim" (PBL) va "Dizayn-fikrlash" (Design Thinking) texnologiyalarining o'zaro integratsiyasi talabalarda Kognitiv-tahliliy va Ijtimoiy-kommunikativ ko'rsatkichlarning parallel ravishda o'sishiga xizmat qildi. Tajriba guruhi talabalarida muammoni mustaqil identifikatsiya qilish va unga bir necha kreativ yechimlar taklif etish qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, talabalarda oldindan tayyor bo'lgan shablonli yechimlardan voz kechish va nostandart vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish ko'nikmasi shakllandi. Guruhlarda ishlash davomida "kollaboratsiya madaniyati" ning yuksalishi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv muloqot orqali hal etish va umumiy jamoaviy maqsad yo'lida resurslarni taqsimlash mahorati bo'lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligini oshirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Mazkur taklif etilayotgan metodik tavsiyalar oliy ta'limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirishga yordam beradi. Kelgusida ushbu modelni raqamli ta'lim platformalariga yanada chuqurroq joriy etish va gibril ta'lim sharoitida 4K ko'nikmalarini baholashning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlari bo'lib qoladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kim S., & Palmer A. (2019). Integrating 21st Century Skills into Higher Education Curricula: A Framework for the 4Cs. *Journal of Education and Practice*, 10(5), 12-24.
2. Mirzaev D. (2020). Tanqidiy fikrlashni o‘stirish usullari . Toshkent: O‘zbekiston, 67-73 betlar.
3. Boboev S. (2021). Ta’limda 4K modelining ahamiyati . Toshkent: Fan va texnika, 89-95 betlar.
4. Явкочдиева Дилафруз Эгамкуловна (2021). Инновацион ёндашув таълим тизимини модернизациялаш омили сифатида. Современное образование (Узбекистан), (4 (101)), 43-50.zbekistan), (3), 36-44.
5. Ковтун Е. В. (2023). Развитие гибких навыков (soft skills) в условиях цифровой трансформации высшего образования. Научный вестник образования, №2, 45-58 стр.



TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Namozova N.Sh.

Buxoro davlat pedagogika instituti

*Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi) mutaxassisligi
bo'yicha 1 kurs magistri*

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, tarbiya darslari, boshlang'ich ta'lim, o'quv faoliyatini faollashtirish, pedagogik shart-sharoitlar, raqamli texnologiyalar, individuallashtirilgan ta'lim, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot tahlili, mustaqil qaror qabul qilish, raqamli kompetensiya, axloqiy tarbiya, interaktiv metodlar, innovatsion ta'lim muhiti.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образовательные уроки, начальное образование, активизация образовательной деятельности, педагогические условия, цифровые технологии, индивидуализированное обучение, медиаграмотность, критическое мышление, анализ информации, самостоятельное принятие решений, цифровая компетентность, нравственное воспитание, интерактивные методы, инновационная образовательная среда.

Key words: artificial intelligence, educational lessons, primary education, activation of educational activities, pedagogical conditions, digital technologies, individualized learning, media literacy, critical thinking, information analysis, independent decision-making, digital competence, moral education, interactive methods, innovative educational environment

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada tarbiya darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sun'iy intellektidan foydalanish mezonlari, o'quv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi interaktiv, muammoli va vaziyatli topshiriqlar mazmuni, sun'iy intellekt vositalari orqali individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish imkoniyatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлен научно-теоретический анализ педагогических условий использования технологий искусственного интеллекта для активизации учебной деятельности учащихся на уроках. Также рассматриваются критерии применения искусственного интеллекта с учетом возрастных и психофизиологических особенностей учащихся начальной школы, содержания интерактивных, проблемно-ориентированных и ситуационных заданий, служащих для активизации учебной деятельности, а также возможностей организации индивидуализированного обучения с использованием инструментов искусственного интеллекта.



SUMMARY:

This article presents a scientific and theoretical analysis of the pedagogical conditions for using artificial intelligence technologies to enhance students' learning activities in the classroom. The criteria for the application of artificial intelligence are also considered, taking into account the age and psychophysiological characteristics of primary school students, the content of interactive, problem-oriented and situational tasks that serve to enhance learning activities, as well as the possibilities of organizing individualized learning using artificial intelligence tools.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, artificial intelligence (sun'iy intellekt) texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o'quv faoliyatini faollashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Tarbiya darslarida esa bu texnologiyalar nafaqat bilim berish, balki axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham katta imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining 21.01.2026 yildagi O'RQ-1115-sonli "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" Qonunida "sun'iy intellekt—insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish, shu jumladan mustaqil ravishda o'rganish va echimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik echimlar majmui" sifatida e'tirof etib o'tilgan.[1]

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi rivojlantirish kontseptsiyasida "ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" [2;] kabi vazifalar belgilangan. Bu borada boshlang'ich sinflarda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish, neonologik yondashuv asosida boshlang'ich sinfo'quvchilarini jamoada ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish mexanizmlari mazmunini, usullari, yo'llari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi deb bilgan. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan purma'no fikrlari hozirgi davrga qadar dolzarbligini saqlab kelmoqda.[4;]

Tabiiy ravishda boshlang'ich sinfda "Tarbiya" darslarida sun'iy intellektidan foydalanish zaruriyati yoki afzalliklari nimada?-degan savol tug'iladi. Raqamli texnologiyalar sharoitida axborot hajmining ortishi va o'quvchilarning texnika



vositalariga yuqori qiziqishi sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni taqozo etadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda axborotni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish, feyk ma'lumotlarni ajratish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Bugungi raqamli jamiyatda bolalar internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli platformalar orqali katta hajmda axborot qabul qiladi. "Tarbiya" darslarida masalan, bir mavzuda ikki xil ma'lumot berilib, SI yordamida ularni solishtirish orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni kuchaytirish mumkin. Shuningdek, raqamli muhitda yolg'on yoki manipulyativ ma'lumotlar ko'p. Boshlang'ich sinfdanoq bolalarga: ishonchli manba nima? tasdiqlangan axborot qanday bo'ladi? shubhali xabarni qanday tekshirish mumkin? kabi savollarga javob topishni o'rgatish muhim.

Bugungi kun nazari bilan qaraganda, jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Alohida e'tirof etish lozimki, texnogen tsivilizatsiya sharoitida globallashtirish jarayonlari kuchaymoqda. Bu esa yoshlarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barqarorlikni saqlash masalasini muhim qilib qo'yadi. Tarbiya darslarining asosiy vazifasi esa: o'quvchi yoshlarda milliy an'ana va urf-odatlariga hurmat uyg'otish, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar-bag'rikenglik, insonparvarlik, adolatparvarlikni rivojlantirish, shuningdek raqamli ta'lim muhitida turli axborot oqimlari ta'sirida shakllanayotgan yosh avlod ongini to'g'ri yo'naltirishda tarbiya darslari muhim o'rin tutadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi imkoniyatlari ko'rib chiqadigan bo'lsak, sun'iy intellekt (Artificial intelligence in education) quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-individuallashtirilgan ta'lim – har bir o'quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish;

-interaktiv muloqot – savol-javob asosida fikrlashni rag'batlantirish;

-tezkor tahlil va baholash – o'quvchilarning javoblarini tezkor tekshirish;

-simulyatsiya va virtual muhitlar – hayotiy vaziyatlarni modellashtirish;[11]

Masalan 1-sinf "Tarbiya" darsligida "Odob durdonalari" "Birgalikda o'qiymiz", "Oila davrasida", "Ijodiy faoliyat", "Aqlni charxlash" kabi mavzular berilgan bo'lsa, 2-sinf "Tarbiya" darsligidagi "Tartib intizom hamrohing bo'lsin har on" bo'limida "Jamoat transportida yurish qoidalari", "Yaxshi va yomon odamlar", "Birovning haqi", "Sog'tanda sog'lom aql" mavzulari berilgan bo'lib, bu mavzular o'quvchilarda axloqiy muammoli vaziyatlarni sun'iy intellekt



yordamida modellashtirish orqali o'quvchilar qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishda "ko'prik" vazifasini bajaradi.

Biz 2- sinf "Tarbiya" darsligida berilgan "Birlashgan o'zar", "Hurmat qozonish", "Insonparvarlik", "Uyimizga mehmon keldi" "Do'stlik oliy fazilat" kabi mavzulariga [6;] alohida e'tibor qaratdik. Masalan, darslikning 71 sahifasida keltirilgan "Sovg'a berish va sovg'a olish" mavzusi o'quvchilarga mustaqillik berish, do'stga hurmat, kattalarga izzatda bo'lish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishiga sharoit yaratish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda o'quvchilarda o'zlari, atrofdagilar, sinfdosh o'rtoqlari hayotiga yuksak ma'naviy, madaniy nuqtai nazardan turib yondashish sifatleri qaror topadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

3-sinf "Tarbiya" darsligida "Bilim va odob- inson ziynati", bo'limida mehr oqibat insoniy fazilat ekanligi, mahalla va qo'ni qo'shnichilik mavzulari asosida o'qituvchi har bir o'quvchiga ijtimoiy va shaxsiy mohiyatga ega hamkorlik faoliyatining mazmuni anglab etish, unga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lish sohasidagi bilimlarini boyitishga erishadi. [7;]

"Tarbiya" darsligining kontseptual tahlili sun'iy intellekt vositalari dars maqsadiga xizmat qilishi kerak. Texnologiya maqsad emas, balki vosita sifatida qo'llanilishi lozim degan kichik bir xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

"Tarbiya" darslariga sun'iy intellektdan foydalanish meetodik tayyorgarlikni, ya'ni o'qituvchi: sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, dars jarayonini to'g'ri loyihalashi, axborot xavfsizligi va etik me'yorlarni bilishi kerak. Shuningdek, "Tarbiya" darslarida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarning yoshiga mos, axloqiy jihatdan to'g'ri, milliy qadriyatlarga zid bo'lmagan bo'lishi zarur.

Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkil etish interaktivlik va muammolilik tamoyillariga tayanadi. Ayniqsa, Artificial intelligence texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini individuallashtirish, faollashtirish va refleksiv tahlilni kuchaytirish imkonini beradi. Interaktiv va muammoli ta'lim muhiti o'quvchining sub'ekt sifatida faol ishtirokini ta'minlaydi, mustaqil fikrlash va ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantiradi.

Interaktiv ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta'lim shaklidir.

Muammoli ta'lim esa bilimni tayyor holda berish emas, balki muammoli vaziyat yaratish orqali mustaqil izlanishga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu ikki yondashuvni quyidagi jihatlarida qo'llab-quvvatlaydi: real vaqt rejimida fikr-mulohazalar berish; vaziyatli



modellashirish; individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish; tahliliy va diagnostik ma'lumotlar taqdim etish.

O'quv - biluv faoliyati jarayonida interaktiv va muammoli ta'lim muhiti yaratishda sun'iy intellekt yordamida: munozarali savollar, rol o'yinlari, voqea tahlili (case-study), debat mashg'ulotlari tashkil etish mumkin.

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar: ochiq turdagi savollar yaratish; javoblarni tahlil qilish; qarama-qarshi pozitsiyalarni taklif etish imkonini beradi.

Munozarali savollar: axloqiy dilemmalar; ijtimoiy muammolar; globallashtirish va milliy qadriyatlar masalalariga oid bo'lishi mumkin.

Bu jarayonda o'quvchi: muammoni anglaydi; dalillar keltiradi; muqobil fikrlarni tahlil qiladi; xulosa chiqaradi. Natijada tanqidiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi.

"Tarbiya" darslarida SIdan foydalanish orqali: vaziyatli masalalar (keyc) berish, turli echim variantlarini tahlil qilish, oqibatlarini baholash orqali bolalar mustaqil fikr bildirishga o'rganadi. Masalan, "Do'stlik", "Halollik", "Javobgarlik" mavzularida turli stsenariylar asosida qaror qabul qilish mashqlari o'tkazilishi mumkin.

Rol o'yinlari (simulyatsiya texnologiyalari) Sun'iy intellekt virtual personajlar yoki modellashirilgan ijtimoiy vaziyatlar orqali rol o'yinlarini tashkil etish imkonini yaratadi. Masalan: "Mas'uliyatli fuqaro" roli; "Jamo'a etakchisi" roli; "Mediator" yoki "Qaror qabul qiluvchi" roli. Bunda o'quvchi: muayyan ijtimoiy rolni bajaradi; qaror qabul qiladi; o'z harakatlarining natijasini ko'radi. Bu esa kommunikativ kompetentsiya, empatiya va mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Voqea tahlili (case-study) metodi Case-study metodi muammoli vaziyatni tahlil qilishga asoslanadi. Sun'iy intellekt: real yoki modellashirilgan holatlarni taklif etadi; variantli qarorlar ishlab chiqishga yordam beradi; qarorlarning ehtimoliy oqibatlarini ko'rsatadi.

Tahlil bosqichlari: Vaziyatni anglash; Muammoni aniqlash; Echim variantlarini ishlab chiqish; Eng maqbul qarorni asoslash. Bu jarayon kognitiv faollikni kuchaytiradi va amaliy tafakkurni rivojlantiradi.

Debat mashg'ulotlari jarayonida bahs mazmuni tizimli tahlil qilinadi. Unda o'quvchilar o'z pozitsiyasini asosli himoya qiladi, muqobil fikrlarni tinglaydi va dalillarni qiyosiy tahlil etadi. Mazkur faoliyat ijtimoiy faollik, nutq madaniyati hamda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektidan foydalanish samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarga bog'liq: maqsadga muvofiqlik, metodik asoslanganlik, axborot xavfsizligi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish hamda refleksiyaning tashkil etish. Bunda texnologiya tarbiyaviy maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanilishi va tarbiyaviy ustuvorlik ta'minlanishi zarur.[12]



O'quv-biluv faoliyati jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish interaktiv va muammoli ta'lim muhitini samarali tashkil etish imkonini beradi. Munozarali savollar, rol o'yinlari, case-study va debat mashg'ulotlari orqali: tanqidiy fikrlash rivojlanadi; mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi; ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissi mustahkamlanadi. SHu tariqa, sun'iy intellekt zamonaviy tarbiya va ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, faol va muammoli ta'limni amalga oshirishning muhim pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Dars yakunida o'quvchilar o'z fikrlarini tahlil qilishlari, qarorlarini asoslashlari va xulosa chiqarishlari muhim.

Xulosa qilib aytganda, texnogen tsivilizatsiya va raqamli texnologiyalar davrida tarbiya darslari quyidagi strategik maqsadga xizmat qiladi: Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash Mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash Ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqaroni shakllantirish. Zamonaviy raqamli muhitda tarbiya darslari shaxs ma'naviyatini himoya qiluvchi va uni to'g'ri yo'naltiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 21.01.2026 yildagi O'RQ-1115-sonli "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 29 aprel
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 6 noyabr
4. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2006. - 304 b.
5. Tarbiya 1: 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –64 b
6. Tarbiya 2: 2-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –80 b
7. Tarbiya 3: 3-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –92 b
8. Tarbiya 4: 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –96 b
9. Davronova D. S. Milliy va ma'naviy tarbiyaning qadimiy va zamonaviy ijtimoiy - pedagogik tamoyillari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2025 yil № 3) <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/>
10. Umurov Z.L. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiy muammolariga oid didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Samarqand 2019 – 167 b.
11. Biggest Limitations of Artificial Intelligence Technology | HackerNoon. (n.d.). Retrieved March 7, 2023, from <https://hackernoon.com/the-missing-pieces-6-limitations-of-ai-s85r3upr>
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intelektning-pedagogik-aoliyatdagi-o-rni>



O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Saburova Sh.J.

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti Pedagogika
va psixologiya mutaxassisligi 2-bosqish magistranti*

Tayanch so'zlar: o'smir yoshidagi o'quvchilar, axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat, pedagogik ta'sir, muloqat, ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: учащиеся подросткового возраста, нравственные ценности, ответственность, педагогическое воздействие, общение, образование и воспитание.

Key words: adolescent students, moral values, responsibility, pedagogical influence, communication, education and upbringing

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada o'smir o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan talqin etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье научно интерпретируются педагогико-психологические особенности развития нравственных ценностей у учащихся-подростков.

SUMMARY:

This article scientifically interprets the pedagogical and psychological features of developing moral values in adolescent students.

Zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biri o'smirlarga axloqiy qadriyatlar asosida tarbiya berish hisoblanadi. O'smir yoshdagi o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish doimiy ravshda ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ahamiyat kasb etib kelgan. O'smir-o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, ularning kelajakda hayotda o'z o'rnini topishida yordam beradi. Bu orqali ular o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotida to'g'ri qarorlar qabul qilishga erisha oladi hamda mas'uliyat va hurmatga sazovor bo'ladi.

Axloqiy qadriyatlar keng qamrovli tarbiyaning muhim qismi bo'lishi bilan birga, u ijtimoiy taraqqiyot mahsuli va jamiyat turli o'zgarishlar bilan ham bog'liq holda rivojlanib, takomillashib boradigan muhim hodisa hisoblanadi. Axloqiy tarbiyaning dolzarb vazifasi shaxsda jamiyat oldida turgan maqsad va



manfaatlarga mos keladigan axloqiy fazilatlar yaxlitligini tarbiyalashdir. Axloqiy tarbiya murakkab va ziddiyatli jarayondir. Demak, shaxsni axloqiy tarbiyalash deganda, jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarni (insonparvarlik, halollik, vijdonlilik, mas'uliyat va hurmat va hakazo), yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shaxs ongiga singdirish, ularni kundalik faoliyatga aylantirish va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayon tushuniladi. .

Axloqiy qadriyatlar o'smirning jamiyatdagi o'z o'rnini, o'zi va boshqalar oldidagi mas'uliyatini his qilishiga yo'naltiriladi. Axloqiy qadriyatlar o'smir-o'quvchilarga jamiyat oldidagi mas'uliyatini qanday bajarishini o'rgatadi. O'smirlarning axloqiy qadriyatlarni o'zida jamlashi oiladagi tarbiya va ta'lim muassasalaridagi pedagogik-psixologik ta'sir hamda ijtimoiy muhit bilan bog'liq. Shunday ekan, o'smirlarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirishga, adolat, halollik, o'zaro hurmat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'smirlarga ongli ravishda axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglashga yordam beradi.

Voyaga yetayotgan o'smirlarga ezgulik, mehr-oqibat, xayr-saxovat kabi fazilatlarni oiladan boshlab singdirish kerak. Oila tarbiyasi bolaning har tomonloma kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Sog'lom avlodni tarbiyalashda oiladagi tartib-igtizom, muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabati asosiy omil hisoblanadi. Tarbiyashunos olim A.K. Munavvarov «Oila jamiyatning eng kichik o'chog'idir. Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga keladi. Keksalar ko'pincha «Bug'doy eksang – bug'doy olasan, arpa eksang – arpa olasan» deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bugun qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan to'ldirayotganimizga bog'liq» - deb ta'kidlaydi [1; 21-b.]. Haqiqatan ham, o'smirlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori, ya'ni axloqi, o'zaro munosabatlari oilada namoyon bo'ladi.

O'smir-o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashda hayotda uchraydigan turli xil salbiy jarayonlardan ehtiyot bo'lish masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ba'zi bir oilalarda kundalik turmush tashvishlari bilan ko'proq band bo'lib bolalarning ma'naviy-axloqiy va moddiy ehtiyojlari inobatga olinmaslik holatlari uchraydi. Bola oilada o'smirlik davridan axloqiy xatti-harakatlarini boshqara olishi, sog'lom turmush tarzini anglashi, yaxshi va yomonni farqlay olishi, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlari takomillashtirishi hamda mustaqil fikr yurita olishi kerak.



O'smir-o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash nafaqat oilada, balki ta'lim muassasalarida ham amalga oshiriladi. Turli fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda aqliy, axloqiy, do'stlik, hayotga faol munosabat va boshqa tushunchalar shakllanadi va rivojlanadi. Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, ota-onalarni e'zozlash va mehnat qilishga o'rganadi. Bu yoshda o'smirlar tartib-intizomga, bir-biriga do'stona o'zaro yordam berishga o'rganadilar. Ular maktabdagi o'quv faoliyatiga o'z munosabatlarini bildirishga, oilada va jamiyatda o'zini erkin tutishga intiladi. Natijada o'smir-o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvor, axloqiy munosabatlar rivojlanadi.

O.Musurmonova tadqiqotlarida "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi boy manbalarga ega. Xalq pedagogikasi umumxalq ijodiy mahsulining natijasi, pedagogik madaniyatning asosiy ifodasi bo'lib, uning ildizi qadim-qadimlarga borib taqaladi. U o'zida xalqning orzu-istaklari, fikr qarashlari, inson, oila, o'quvchi yoshlarning tarbiyasi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi". [2] – deb ko'rsatadi. Muallifning fikricha, yoshlarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda xalqimizning urf-odatlarini, an'analari, tili, ma'naviyatini e'tiborga olish, undagi insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik g'oyalari tarbiyaviy ishlarning samaradorlikni orttiradi.

Haqiqatan ham, o'smir yoshidagi o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar shakllanishda ajdodlarimizning hayotiy bilim va tajribalari, tarbiyaviy qarashlari, o'tmishi, tarixi, orzu-intilishlari, milliy urf-odatlarini, an'analari singdirilgan milliy meroslarning ham ahamiyati beqiyosdir. Ular asosida o'quvchi-yoshlarda xalqimizga xos insonparvarlik, mehribonlik, mas'uliyatlilik, el-yurtga, vatanga sadoqatlilik, do'stlik, insoniylik, mehr-oqibatli, nomusli, bir so'zlilik kabi fazilatlarini mujassam bo'ladi. Ayniqsa, dostonlar, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, naql-maqollar va xalq qo'shiqlarida o'z aksini topgan xalqimiz tarixi va o'tmishiga doir ma'lumotlar, ajdodlarimizning ma'naviy tarbiya to'g'risidagi qarashlari o'smir-o'quvchilarda axloqiy sifatlarining shakllanishida samarali ta'sir ko'rsatishi aniq.

O'smirlarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning asosiy pedagogik-psixologik tashqi nazoratdan o'z-o'zini tartibga solishga o'tish, o'ziga xoslikni faol anglash, hissiy beqarorlik va mustaqillikka intilishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'smir-o'qituvchilardan shaxsiy tajriba, ijtimoiy amaliyot orqali qadriyatlarni anglash uchun sharoit yaratishni, shuningdek, ongli tanlov va e'tiqodni shakllantirish uchun ularning obro'si va axloqiy namunasidan foydalanishni talab qiladi.

O'smirlik davrida o'quvchilar bir qancha pedagogik-psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Jumladan,



- o'smirlar o'z shaxsini faol shakllantirish, o'z tengdoshlari orasida obro' orttirishga intilish va o'z maqsadlarini aniqlashtirishga harakat qilish;
- o'smirlar kuchli kechinmalar, hissiyotning keskin o'zgarishi va kuchli hissiy ta'sirlarga (ijobiy yoki salbiy) moyil bo'lish;
- shaxsiy fikrlariga ega bo'lish, o'z qarorlarini qabul qilish va himoya qilish;
- o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va motivlarini anglash;
- har bir o'smirning xarakter xususiyatlari, hayotiy tajribasi va rivojlanish darajasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda bir qator metodlar va yondashuvlardan foydalanish mumkin. Birinchidan, o'smirlarni axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirishda ularning yashash va o'rganish muhiti katta ahamiyatga ega. O'smirlar ko'proq o'qituvchilarining va ota-onalarining xulq-atvoriga qarab, o'z xulqini shakllantiradilar. Shuning uchun, o'qituvchilar va tarbiyachilar axloqiy qadriyatlarni o'rganishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki o'zlarining to'g'ri xulq-atvorlaribilan ham o'rnak bo'lishlari zarur [3; 224-b.].

O'smir-o'quvchilarida axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish xususiyatlari haqida ko'pgina pedagog-psixolog olimlar qarashlarini bildirgan. Rus psixologi L.S. Vigotskiyuning [4;133] fikricha, bola o'smirlilik davrida o'zida axloqiy komponentlari rivojlantirishni tahlil qilish bosqichlarini amalga oshiradi.

Axloqiy qadriyatlarning pedagogik-psixologik kategoriya sifatidagi o'ziga xosligi ijtimoiy-tarixiy tajribani faqat bilish bilan emas, balki jamiyat tomonidan asrlar davomida to'plangan qadriyatlarni teran o'zlashtirish bilan bog'liq. Haqiqat, ezgulik, rahm-shafqat, muhabbat, burch va istak singari axloqiy qadriyatlar orqali o'smirning madaniy yadrosi shakllanadi. O'smir hayotiy tajribalar asosida shaxsga aylanadi. Shuning uchun ham axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Aynan ular, ko'plab taniqli pedagoglarning fikriga ko'ra, inson hayotining oliy tamoyillarini belgilaydi, uning xulq-atvori va faoliyatini tartibga soladi.

V.A. Suxomlinskiy o'smirlarda axloqiy tarbiyani shakllanishining asosi mehnat, tabiat va insoniy munosabatlar deb biladi. Uning fikricha, o'smirda olijanoblik, vijdon, mas'uliyat va go'zallikni his qilish tuyg'ularini shakllantirish, ularni faol ijtimoiy hayotga tayyorlash asosiy maqsad hisoblanadi. Suxomlinskiy "Yuragimni bolalarimga beraman" tamoyili asosida, o'smir bilan samimiy do'stona munosabat o'rnatishni va ularda mustaqil fikrlash hamda tanlov qilish qobiliyatini rivojlantirishni muhim deb ko'rsatadi.

Bu davrda ko'pchilik o'smirlarda axloqiy qadriyatlar haqida tasavvurlar yetarlicha rivojlanmaydi. Ularda shakllangan umumiy xulq-atvor me'yorlari



mas'uliyatni anglash va dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu haqida buyuk mutafakkir Forobiy yoshlarning axloqiy tarbiyasi haqida ham fikrlar yuritgan. U ta'limga nisbatan axloqiy tarbiyaning maqsadi sifatida fazilatlarini va aqlni rivojlantirish orqali baxtga erishish mumkinligini uqtiradi. Mutafakkirning fikricha, inson tug'ma fazilatga moyil bo'ladi, tarbiyachilarning vazifasi esa, bolalarda ta'lim, tarbiya, mas'uliyat va mustaqil fikrlashni shakllantirishdan iborat ekanligini aytadi. Fotabiy odob-axloqli inson deganda ilm fanga intiluvchi, haqiqat va adolat uchun kurashuvchi, yolg'onning dushmani, o'z fikrida turadigan odamlarni nazarda tutadi. Inson yaxshi xulq-atvorli bo'lish uchun o'zida o'n ikki xil fazilatni birlashtirishi kerak deb hisoblaydi. 1. Yaxshi sog'liq. 2. O'tkir zehn. 3. Mustahkam xotira. 4. Tez qarorga kelish. 5. Shiroyli gapirish. 6. O'quv, ilmga intilish. 7. Zararli qimor o'yinlaridan avloq bo'lish. 8. Haqiqat va adolatni sevish. 9. Or-nomusli bo'lish. 10. Dunyoparast bo'lmaslik. 11. Odamgarchilikli bo'lish. 12. Behuda o'jarlik qilmaslikni [5; 172-b.] tavsiya qiladi. Mazkur fazilatlar o'smir-o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi va ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Axloqiy tarbiyaning muhim pedagogik shart-sharoitlari o'smir-o'quvchilarning faol hayotiy, ongli nuqtayi nazarini, so'z va ish birligini, axloqiy me'yorlardan chekinishlariga yo'l qo'ymaslikni shakllantirishdan iborat. Bu orqali u hayotga, vatanga, mehnatga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tarbiyali pedagog o'quvchilarga har tomonlama tarbiyani mana shu axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdan boshlaydi. Chunki bu uning axloqiy tuyg'ularini, e'tiqodini ma'lum bir maqsadga faoliyatini tashkil etishni takomillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'smir-o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining zarur komponenti hisoblanadi. Sababi ta'lim-tarbiya orqali kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ma'suliyatni his qilish, vatanni sevish, o'zini shaxs sifatida anglash, g'ururlanish tushunchalari shakllanadi va ular ma'naviy-axloqiy qadriyatlar orqali barkamol bo'lib voyaga yetadi.

POYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1994. -112 b
2. Musurmonova O.. Ma'naviy kadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T., 1996 y. 192 b.
3. Qosimova O. O'smir yoshidagi bolalar o'rtasida axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish // American journal of multidisciplinary bulletin. Volume-3|Issue-10| 2025 Published: |30-11-2025| pp/ 223-226.
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология.М.: Педагогика, 1991. – 378 с.
5. Álewov Ó. Qaraqalpaqstanda tálim-tárbiahıq oylardıń qalıplesiwi hám rawajlanıwı. Nókis: «Bilim», 1993.-504 b.



ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA KLASSTER YONDASHUVINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Allayorova S.B.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: klaster, infratuzilma, global, tizim, jamiyat, tadqiqot, guruh, innovatsiya.

Ключевые слова: кластер, инфраструктура, глобальный, система, общество, исследование, группа, инновация.

Key words: cluster, infrastructure, global, system, society, research, group, innovation.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada zamonaviy fanda klaster yondashuvini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib borilgan. Shuningdek ta'lim tizimida global o'zgarishlar tendensiyalari va ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlarning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlash, tavsiflash imkoniyatlari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описаны теоретические и практические аспекты реализации кластерного подхода в современной науке. Также в системе образования выявлены возможности выявления и описания общих тенденций и закономерностей глобальных изменений и социально-экономических изменений.

SUMMARY:

This article describes the theoretical and practical aspects of the implementation of the cluster approach in modern science. Also, the possibilities of identifying and describing general trends and laws of global changes and socio-economic changes have been revealed in the educational system.

Kirish. Jamiyat hayotining global o'zgarishlar eng yaqqol namoyon bo'ladigan sohalaridan biri bu ta'lim tizimidir. Bugungi kunda bu yerda quyidagi tendensiyalar majmui yaqqol ko'zga tashlanadi, jumladan: ta'lim va tarbiya mazmuni, usullari, shakllarini doimiy yangilash, ularni ijtimoiy tartib va davlat manfaatlariga muvofiqlashtirish; e'tiborni qaratish va ta'limda innovatsiyalarni rag'batlantirish; ta'lim sifatini oshirishga yondashuvlarni ishlab chiqish; inson salohiyatini rivojlantirish yo'llari va vositalarini izlash.

Ularning amalda tatbiq etilishi ijtimoiy hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan tashqi farqlariga qaramay, bir xil faoliyat va rivojlanish qonunlariga



bo'ysunadigan hodisalarning ishtiroki tufayli mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda bu hodisalar samarali manba sifatida qaraladi. Boshqalar qatorida, bugungi kunda klaster yondashuvi ko'p marta tadqiqotlarimiz mavzusiga aylangan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda ta'lim jarayonida "klaster" atamasi va shu bilan birga "klaster yondashuvi" iborasi keng tarqaldi. Bunday tushunchaning obyektiv sababi ushbu "klaster" (inglizcha cluster – guruh, birikma) tushunchasidan ta'lim tarbiya jarayonida faol foydalanish bo'ldi. Kategoriya sifatida u aniq (fizika, kimyo, matematika, informatika) va ijtimoiy, ilmiy fanlarga mustahkam o'rnatilgan. Bir biriga o'zaro bog'liq hamda o'xshash belgilar asosida birlashtirilgan obyektlar to'plamini tuzatish, klaster boshqa guruh va obyektlarga qaraganda mustaqilligi (ajralishi va farqi) bilan tavsiflangan birlikni bildiradi. Bunday birikmalarni o'rganish uchun klasterlash (klaster tahlili) holatlari qo'llaniladi, bu bitta va turli guruhlarda birlashtirilgan obyektlarni oqilona birlashtirish va tadqiq qilish, ularning o'ziga xos va tipik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Klaster siyosatini baholash bo'yicha bir necha tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi O.Solvell klaster siyosatini baholash deganda siyosat, dasturlar, loyihalar yoki boshqa obyektlarni kontseptuallashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirishni tahlil qiluvchi har xil turdagi tadqiqot protseduralarini muntazam ravishda qo'llash jarayonini ta'kidlaydi. Umuman olganda, klaster tashabbuslarining asosiy maqsadlari inson resurslarini takomillashtirish, klasterlarni kengaytirish, ishtirokchilar sonini ko'paytirish, biznesni rivojlantirish, tijorat hamkorligini qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhiti, biznes uchun sharoitlarni yaxshilash sanaladi. Bu kabi tashabbuslar esa albatta mamlakatning klaster siyosatiga asoslanadi.

Iqtisodchi olim M.Enrayt klaster siyosatining 4 xil shaklini tasniflaydi

– katalitik (davlat faqatgina manfaatdor tomonlarni birlashtiradi va ularga minimal yordam

ko'rsatadi);

– qo'llab-quvvatlovchi (katalitik shakl klasterlarning shakllanishini ta'minlovchi

infratuzilmaga investitsiya, ta'lim, kasbiy ta'lim kabilar bilan boyitiladi);

– direktiv (mahalliy iqtisodiy tuzilmani o'zgartirish uchun klaster dasturidan foydalangan

holda qo'llab-quvvatlovchi siyosat yoki umummilliy maqsadli dasturlarning mavjudligi);



– intervension (subsidiyalar, takomillashtiruvchi, himoyalovchi va tartibga soluvchi

vositalarni faol qo'llash, klaster a'zolari faoliyatini qisman nazorat qilish).

Ta'kidlash kerakki, to'g'ri yo'lga qo'yilgan klaster siyosati klaster ishtirokchilari, xususan firma va davlat idoralariga bir qancha imkoniyatlar hamda afzalliklar olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Klaster siyosatini tahlil qilishda, klasterning faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha bir nechta masalalar ham ko'rib chiqiladi:

1. Klasterni tashkil etish va boshqarish tizimining samaradorligini bildiruvchi ko'rsatkichlar – tizimning intensivligi va samaradorligi, klasterda ishtirok etish darajasi, klaster ishtirokchilarining maqsadlari, boshqaruv apparatining byudjeti va boshqaruv xodimlarining soni, klasterning institutsionallashuv darajasi, klasterning maqsadi kabilarni o'z ichiga oladi;

2. Klaster faoliyatining natijalari – ITTKI bilan mashg'ul bo'lgan ishtirokchilar soni, ITTKIga sarflangan xarajatlar hajmi, tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasi, xalqaro tadqiqotlar ulushi, klaster doirasidagi OTMLar soni va ularning klasterdagi ishtiroki, oxirgi 3 yilda yangi tovarlar yoki xizmatlar joriy etgan kompaniyalar soni, xorijiy investitsiyalar hajmi, eksportga yo'nalganlik darajasi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Klaster siyosatining effektivligini tahlil qilishda, shuningdek, moliyaviy hisobot usullari, keystadi, ekonometrik, iqtisodiy metodlar hamda tizimli yondoshuv kabi usullarni ham qo'llash mumkindir.

Umuman olganda, aytish mumkinki, klasterlar iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish olib borilayotgan klaster siyosatini to'g'ri baholash, mavjud muammolarni aniqlash, tajribalarni o'rganish, klasterning samarali faoliyatini tashkil etishda muhimdir. Iqtisodiy klasterning uzoq muddatli muvaffaqiyati klasterning siyosatini ishlab chiquvchilar hamda tashkilotchilarining klasterda tajribalar olib borish uchun shart-sharoit yaratishiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligiga asoslangan klasterlarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar, klasterni rivojlantirish siyosati zarur bo'lib, bunda hukumat, mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiy institutlar rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Adabiyotlarda keltirilishicha, jahon amaliyotida klaster siyosati olib boriladigan ikkita model mavjuddir. Birinchisi liberal model bo'lib (AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada), unda klaster bozorning tarkibiy qismi hisoblanadi va federal hokimiyatning roli uning tabiiy rivojlanishi uchun to'siqlarni olib tashlashdan iborat hisoblanadi. Ikkinchi model esa "derijyor" model (Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Shvetsiya, Fransiya, Finlandiya, Sloveniya) bo'lib, unda davlat klasterlarni



yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etadi. Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahon mamlakatlari tajribasiga qisqacha nazar solsak, ko'rishimiz mumkinki, klasterlashtirish siyosati mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va tipi, imkoniyatlari va klasterlashtirishdan ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqib turlicha xususiyatlarga egadir.

Xususan, Yevropa Ittifoqida klaster siyosatining maqsadimintaqa bo'ylab klasterlarni rivojlantirish hamda ularning innovatsion sig'imkorligi, raqobatbardoshligini oshirish hisobalanadi va klasterlashtirish rivojlanayotgan sanoatlar va mintaqa doirasidagi hamkorlik, klasterlarni xalqaro doiraga olib chiqish, klasterlarni mukammallashtirish jarayonlarini qamrab oladi. Mintaqadagi raqobatbardosh bir qancha agrosanoat klasterlari mavjud mintaqaKataloniya bo'lib, Kataloniyada klasterlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash tashabbuslari 1992-yildan boshlangan va klaster siyosatining maqsadi biznes raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Kataloniya klasterlarining muvaffaqiyatiga davlat va xususiy sektor hamkorligi, ya'ni tashabbuslar davlat tomonidan ilgari surilganligi va xususiy yetakchilik mavjud sohalarida amalga oshirilganligi sabab bo'lib, Kataloniya klaster siyosati 4 ta muhim ustunlarga tayanadi

Zamonaviy asarlar "klaster" atamasi uchun o'nlab ta'riflarni taklif qiladi va unga sanoat va faoliyatning geografik o'ziga xos xususiyatlari kiritilishi bilan ta'riflar sonining ko'payishini ishonch bilan bashorat qilish mumkin. Klasterning bunday xususiyatlari, masalan, neft va gazni qayta ishlash, yadroviy rivojlanish, yangi materiallarni yaratish, tibbiyot yoki ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Klasterning ta'sir ko'lami ham muhim shartga aylanadi: u bir mamlakat ichidagi alohida mintaqa bilan chegaralanadimi yoki global darajada amalga oshiriladimi. Bugungi kunda har bir hudud tegishli davlatda qabul qilingan klasterni rivojlantirish kontseptsiyasi asosida tuzilgan o'z ta'rifiga ega.

Tahlil va natijalar. Ko'rinib turibdiki, har bir zamonaviy tadqiqot klasterning o'ziga xos ish ta'rifini aniqlaydi. Shu bilan birga, klaster nafaqat korxonalarni birlashtirganini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, u o'zida iqtisodiy nuqtai nazardan eng samarali faoliyat turlarini mujassamlashtiradi. Ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'z raqobatida muvaffaqiyat qozonadilar, ular, obrazli qilib aytganda, davlat iqtisodiyotining "olmosi" bo'lib, uning bozor raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

O'zining shakllanishini tugatgan klaster haqidagi bunday tushuncha undan oldingi tuzilmalarga juda mos keladi, ammo ular klaster tashkilotining ma'lum xususiyatlariga ega. Ularni turlicha belgilash mumkin, masalan, dunyoning turli davlatlarida bunday tuzilmalar "klaster tarmoqlari" deb nomlanadi. Ushbu ibora



korxonalar o'rtasidagi, shuningdek ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma bilan rivojlangan aloqalar tizimini (rasmiy va norasmiy) anglatadi. Mahalliy mualliflarning tadqiqotlarida ushbu tarmoqlarning o'zgarishini aniqlaydigan va klasterning xususiyatlarini aks ettiruvchi ta'riflarni topish mumkin.

Dastlabki shakl "innovatsiyaga yo'naltirilgan klaster tuzilmasi"dir. Bu "xizmatlar, mehnat resurslari, g'oyalar va ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha barqaror aloqalar hali shakllanmagan, ammo ular ochiq o'zaro ta'sir va o'sish natijasida sinergik effekt olish uchun integratsiyalashuvga qodir bo'lgan korxonalar guruhidir. Innovatsiyaga yo'naltirilgan klaster tuzilmasidagi bu tashkilotlarni sanoat va o'zaro manfaatdorlik, ayniqsa qo'shma faoliyatda innovatsiyalarni tanlash, yaratish, ishlab chiqish va joriy etish jarayonlarida birlashtiradi».

Bunday tuzilma allaqachon klaster uchun muhim sinergetik potentsialga ega, ammo u hali o'rnatilgan tizim belgilariga ega emas. Ular evolyutsiyaning keyingi bosqichi bo'lgan va "tashkilotlarning klaster birlashmasi" deb nomlanuvchi shaklga xosdir. Bu "birinchi navbatda mustaqil, geografik jihatdan tashkil topgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim qo'shni, norasmiy o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi tashkilotlar, boshqaruvi hamkorlik, raqobat va tarmoq munosabatlari tamoyillariga asoslanadi, bu esa uning raqobatbardoshlik darajasini va hududning iqtisodiy faolligini oshiradi"

O'zining rivojlanish jarayonida klaster birlashmasi "klaster shakllanishi" deb nomlanuvchi quyidagi evolyutsion shaklga erishishi mumkin. U "klasterni shakllantirishda har bir ishtirokchining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan geografik jihatdan mahalliy lashtirilgan o'zaro bog'langan korxona va muassasalar guruhi"ni ta'riflaydi. Bu yerda asosiy e'tibor hududiy yaqinlikdan tashkilotlarning o'zaro ta'siriga o'tadi, bu klaster shakllanishining faoliyati va rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Klaster ijtimoiy tizimga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish juda oddiy. Shuningdek, u o'zaro bog'liq elementlar tomonidan hosil qilingan tuzilishga ega; murakkablik, chunki u boshqa tizimlarni birlashtiradi; tashqi muhit bilan aloqa qilish qobiliyati va qo'shimcha bo'lmagan o'zaro ta'sir; o'z chegaralarini saqlashda namoyon bo'ladigan muvozanatni saqlashga qaratilgan. Ushbu xususiyatlar birikma tomonidan tavsiflangan tizimning xususiyatlarini sharhlashga imkon beradi -yaqinlik - ochiqlik "qarama-qarshilik emas, balki imkoniyatlar munosabati"ni yaratadi. Shu bilan birga, klaster o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, u boshqa ijtimoiy tizimlardan asosan sifat jihatidan ajralib turadi, bu esa aniqlashtirishni talab qiladi. Sanoat klasterlarining bir qator universal xususiyatlarining yakuniy qismi infratuzilma bo'lib, uning o'xshashligini



biz mahalliy klasterlarda topa olmaymiz. Infratuzilma resurslarning klaster ichidagi o'zaro ta'siri va resurslar almashinuvini yaxshilaydigan va klaster ichidagi elektronlarning ulanishini kuchaytiradigan elementlarning paydo bo'lishi zarurati natijasida yuzaga keladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, milliy iqtisodiyotni klasterlashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi va mamlakatning klaster siyosati mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy elementlarini o'zida mujassam etib, uning asosida shakllanadi. Iqtisodiy klasterlarni shakllantirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatlar milliy modelining turlichaligi yana bir bor iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning yagona universal modeli, shakli yo'qligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, bu milliy iqtisodiyotda klasterlashtirishni faol qo'llayotgan O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun e'tiborga olinishi muhim bo'lgan dolzarb masala sanaladi. Ta'limni modernizatsiya qilishda innovasion yondashuvlardan hisoblangan klaster yondashuvi ta'lim tizimidagi tarqoqlikga barham berib, ma'naviy barkamol, jamiyat va zamon talablariga mos sifatli kadr tayyorlashga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida to'planib qolgan muommolarning ijobiy yechimiga erishishda klaster yondashuvi imkoniyatlaridan keng foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мусурманов Р. Педагогик тажриба-синов ишларини ташкил этиш ва бошқариш. –Т.: “Фан ва технология”, 2011. - Б. 144.
2. Мухамедов Ғ.И, Хўжамкулов У.Н., Тоштемирова С.А. Педагогик таълим инновацион кластери. -Т.: Университет, 2020. - 280 б.
3. Скорнякова, Э. Р. Кластерная модель управления образовательным процессом в школе [Текст] / Э. Р. Скорнякова // Государственное и муниципальное управление в XXI веке: теория, методология, практика. – 2011. – №
4. Baxtiyorovna, Allayorova Sarvinoz. Theoretical and methodological basis of the cluster approach in education as the basis of pedagogical innovations.2023/5/5 <https://cyberleninka.ru/article/n/theoretical-and-methodological-basis-of-the-cluster-approach-in-education-as-the-basis-of-pedagogical-innovations>
5. Barakayevich, Qorayev Samaridin; Baxtiyorovna, Allayorova SarvinozXalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. 2021/2/25 <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/download/1004/974>
6. Оборина Е.Д. Зарубежный подход к оценке эффективности кластерной политики // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. – 2016. – № 4(48). – С. 615-622. (<https://eee-region.ru/article/4851/>)
7. Sölvell Ö. Clusters, Balancing Evolutionary and Constructive Forces. – Stockholm: “Ivory Tower Publishers”, 2008. – 137 p



ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI TALABALARNING KOLLABORATIV DARS TASHKIL ETISH MALAKASINI OSHIRISH USULLARI

Ernazarov A.E.

p.f.d. (PhD) dotsent,

Muxtorova F.M.

*“ISFT” Samarqand filiali Pedagogika yo‘nalishi
2-kurs magistranti*

Tayanch so‘zlar: onlayn platformalar, kollaborativ ta’lim, zamonaviy dars, raqamli savodxonlik, pedagogik kompetensiyalar, interaktiv metodlar, jamoaviy ishlash, virtual seminar.

Ключевые слова: онлайн-платформы, совместное обучение, современный урок, цифровая грамотность, педагогические компетенции, интерактивные методы, командная работа, виртуальный семинар.

Key words: online platforms, collaborative learning, modern lesson, digital literacy, pedagogical competencies, interactive methods, teamwork, virtual seminar.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada onlayn platformalardan foydalanish orqali talabalarning kollaborativ dars tashkil etish malakasini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim jarayonida Google Workspace, Microsoft Teams, Moodle, Padlet, Mentimeter, Kahoot kabi raqamli vositalar talabalarning jamoaviy ishlash, muloqot qilish va birgalikda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada kollaborativ darslarni tashkil etishda interaktiv topshiriqlar, guruhli muhokamalar, virtual seminarlar va onlayn simulyatsiyalardan samarali foydalanish usullari yoritilgan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda onlayn platformalarni lokal sharoitga moslashtirish zaruriyati ta’kidlanadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется проблема развития у студентов навыков организации совместных занятий с использованием онлайн-платформ. В современном образовательном процессе цифровые инструменты, такие как Google Workspace, Microsoft Teams, Moodle, Padlet, Mentimeter, Kahoot, играют важную роль в развитии у студентов навыков командной работы, общения и принятия совместных решений. В статье подчеркивается эффективность использования интерактивных заданий, групповых дискуссий, виртуальных семинаров и онлайн-симуляций при организации совместных занятий. Также акцентируется необходимость адаптации онлайн-платформ к местным условиям на основе национальных и универсальных ценностей.

SUMMARY:

This article analyzes the problem of developing students' skills in organizing collaborative activities using online platforms. In modern education, digital tools such as Google Workspace, Microsoft



Teams, Moodle, Padlet, Mentimeter, and Kahoot play an important role in developing students' skills in teamwork, communication, and collaborative decision-making. The article highlights the effectiveness of using interactive assignments, group discussions, virtual seminars, and online simulations in organizing collaborative activities. It also emphasizes the need to adapt online platforms to local conditions based on national and universal values.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida onlayn platformalar orqali talabalarning kollaborativ dars tashkil etish malakasini oshirish usullari muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola onlayn muhitda hamkorlikda o'qitishni rivojlantirishga bag'ishlangan bo'lib, kollaborativ darsning ta'limiy ahamiyati, onlayn ta'limdagi o'rni hamda dolzarb muammolarni o'rganadi. 2025-yilda onlayn ta'lim tendensiyalarida kollaborativ o'qitish samaradorlikni oshirish va o'quvchilar faolligini kuchaytirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu yondashuv talabalarga tanqidiy fikrlash, muammo hal qilish va ijtimoiy malakasini rivojlantirishga imkon beradi, xususan pandemiyadan keyingi davrda onlayn platformalarning tarqalishi bilan.

Kollaborativ dars – bu o'quvchilarning guruhlarda hamkorlikda ishlashi orqali bilim olish jarayoni bo'lib, u yuqori darajali fikrlash malakasini rivojlantirish, o'ziga ishonchni oshirish va o'zini o'zi baholashni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, kollaborativ o'qitish o'quvchilarga muammo hal qilish, ijtimoiy o'zaro ta'sir, geterogenlikni qadrlash va aloqa malakasini oshirish imkonini beradi. Masalan, guruhliy faoliyat orqali o'quvchilar chuqurroq bilim oladi, chunki ular muhokama va muammo hal qilish orqali kurs konsepsiyalarini yaxshiroq tushunadi. Bu usul ijtimoiy, psixologik, akademik va baholash afzalliklarini ta'minlaydi, masalan, o'quvchilarning empatiyasini oshirish va chuqur o'qishni rivojlantirish. Kollaborativ dars o'quvchilarning yuqori darajali kognitiv malakasini rivojlantirish va jamoaviy bog'lanishlarni kuchaytirishga yordam beradi.

Onlayn ta'limda kollaborativ dars muhim o'rin tutadi, chunki u o'quvchilar faolligini oshirish va jamoaviy o'qishni ta'minlaydi. Afzalliklari orasida o'quvchilarning faol ishtiroki, tanqidiy fikrlash va muammo hal qilish malakasini rivojlantirish ustuvor. Onlayn platformalar orqali kollaborativ o'qitish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, chunki ular hamkorlikda ishlash orqali bilim almashadi va geterogen fikrlarni qadrlaydi. Masalan, guruhliy loyihalar va muhokama forumlari orqali o'quvchilar chuqur o'qishga erishadi va mehnat bozori uchun zarur malakasini rivojlantiradi. Bu usul onlayn muhitda o'qitishni samarali qiladi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va bilim almashuvni kuchaytiradi. Umuman, onlayn kollaborativ dars o'quvchilarning aloqa malakasini yaxshilaydi va hamkorlik orqali chuqur bilim olishni ta'minlaydi.

2025-yilda onlayn ta'limda kollaboratsiyani rivojlantirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda, chunki u o'quvchilarning erishish, faollik va inklyuzivligini oshirishga xizmat qiladi. Pandemiyadan keyingi davrda onlayn platformalarning



tarqalishi bilan hamkorlikni rivojlantirish zarurati ortdi, chunki o'quvchilar virtual muhitda izolyatsiyaga duch keladi. Dolzarbligi shundan iboratki, onlayn ta'limda kollaborativ faoliyatlar o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarning jamoaviy malakasini rivojlantirishni talab etadi, masalan, guruhiiy loyihalar va forumlar orqali. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilarning hamkorlik dizaynlarini rivojlantirish va etik siyosatlarni ishlab chiqish zarur. 2025-yilda onlayn ta'lim maqsadlarida kollaboratsiyani kuchaytirish akademik sifatni saqlash va o'quvchilar qoniqishini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda onlayn platformalar kollaborativ darslarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ular talabalarga hamkorlikda ishlash, ma'lumot almashish va interaktiv o'qitish imkoniyatlarini taqdim etadi. 2025-yilda eng yaxshi platformalar orasida Zoom, Microsoft Teams, Google Workspace, Moodle va Canvas ustuvor o'rin tutadi, ular ta'limda hamkorlikni rivojlantirish uchun keng qo'llaniladi. Bu platformalar sinxron va asinxron o'qitishni ta'minlaydi, ammo har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Quyida ularning tahlili, afzalliklari, kamchiliklari va interaktiv vositalari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

2025-yilda kollaborativ ta'lim uchun eng samarali platformalar o'quvchilar faolligini oshirish, hamkorlikni rivojlantirish va raqamli vositalarni integratsiya qilishga qaratilgan. Zoom videokonferensiyalar uchun ideal, Microsoft Teams va Google Workspace hamkorlik hublari sifatida xizmat qiladi, Moodle va Canvas esa LMS (o'quv boshqaruv tizimlari) sifatida ko'proq qo'llaniladi. Boshqa platformalar, masalan, Slack (chat va hamkorlik uchun) va Blackboard (oliy ta'lim uchun) ham dolzarb, ammo asosiy fokus nomlangan platformalarda. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ular ta'limning gibridd modelarini qo'llab-quvvatlaydi, o'qituvchilarga dars rejalarini optimallashtirishga yordam beradi va o'quvchilarning malakasini oshiradi.

1-jadval

Ta'lim samaradorligini oshirish platformasi

Platforma	Asosiy xususiyatlari	Ta'limdagi o'rni
Zoom	Videokonferensiyalar, bo'limlarga bo'lish, ekran ulashish	Sinxron darslar uchun, o'quvchilar faolligini oshirish
Microsoft Teams	Chat, fayl ulashish, integratsiya bilan Office	Hamkorlik hubi, guruhiiy loyihalar uchun
Google Workspace	Google Docs, Meet, Drive	Asinxron hamkorlik, hujjatlarda birga ishlash
Moodle	Kurs boshqaruvi, forumlar, testlar	Ochiq manba LMS, o'quv materiallarini tashkil etish
Canvas	Modullar, baholash, mobil ilova	O'quvchi markazidagi LMS, individual trayektoriyalar
Boshqalar (Slack, Blackboard)	Chat va hamkorlik, kurs boshqaruvi	Qo'shimcha vositalar sifatida, hamkorlikni kuchaytirish

Bu platformalar ta'limning samaradorligini oshirish uchun keng integratsiya imkoniyatlarini taqdim etadi, masalan, SI vositalari bilan bog'lanish.



Har bir platforma o'ziga xos afzalliklar va kamchiliklarga ega. Narxlar 2025-yil holatiga ko'ra keltirilgan, ta'lim muassasalari uchun maxsus narxlar mavjud.

2-jadval

Ta'lim samaradorligini oshirish platformasi

Platforma	Afzalliklari	Kamchilik-lari	Narx (ta'lim uchun)	Funksional-lik	Integratsiya imkoniyat-lari
Zoom	Video sifati yuqori, foydalanish qulay, bo'limlarga bo'lish	Xavfsizlik muammolari, qo'shimcha funksiyalar uchun to'lov	Bepul (asosiy), \$15.99/foydalanuvchi/oy (pros)	Videokonferensiya, ekran ulashish	Google Calendar, LMS bilan
Microsoft Teams	Office integratsiyasi, fayl ulashish, hamkorlik	Resurslarni ko'p sarflaydi, murakkab interfeys	Bepul, \$4/foydalanuvchi/oy (essentials)	Chat, video, guruhlar	Microsoft 365, boshqa applar
Google Workspace	Hujjatlarda real vaqtda hamkorlik, qulayligi	Saqlash hajmi cheklangan, premium uchun to'lov	Bepul (fundamentals), \$6/foydalanuvchi/oy (standart)	Docs, Meet, Drive	Google ekosistemi, uchinchi tomon applar
Moodle	Ochiq manba, o'zgarishtirish imkoni, ko'p funksiyalar	Texnik o'qitish talab etadi, server talab qiladi	Bepul (ochiq manba), xosting uchun to'lov	Kurs boshqaruvi, forumlar	Pluginlar orqali keng integratsiya
Canvas	Foydalanuvchi markazida, mobil qulaylik, baholash	Qo'shimcha funksiyalar uchun qimmat, institutsional narx	Institutsional, \$ bo'yicha kelishuv	Modullar, testlar, analitika	LTI standarti, boshqa LMS bilan

Bu platformalarning afzalliklari ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, ammo kamchiliklarni hisobga olish zarur.

Убайдулла Баҳаўаддиновтың қарсысына қозғатылған жынаятлы ислер кеңес ҳүкимети қуламай турып, Өзбекстан Прокуратурасы, Мәмлекетлик Қәўипсизлик Комитети хәм Әдиллик Министрлигиниң 1986-жыл 28-июльдеги бирликтеги мәжилисинде қайта қаралып шығылып, тергеў жумыслары Ишки Ислер Министрлиги хызметкерлери тәрәпинен ызамсыз рәўиште алып барылған, айыпланыўшының кеңес ҳүкимети алдында айыбы болмаған деп табылған, рәсмий ақланған хәм пуқаралық ҳуқық, еркинликлери өлгеннен кейин қайта тикленген [Найымов К., Хожаниязов Г. Имам ийшан - қарақалпақ халқының уллы уламасы хәм ағартыўшы тулғасы. Авторлары К.Найымов хәм Г.Хожаниязов. Нөкис: Қарақалпақстан, 2005.].

5.Семья жағдайы. Убайдулла өмири даўамында төрт мәрте үйленген. Байбишеси - Қараөзектиң Қарабуға аўылында жасаған, шығысы қәндекли қоңыратларынан болған Пуркан мақсым Азизовтың қызы. Биринши хаялынан Убайдулланың туңғыш улы - Муптилла мақсым (1911 – 1973 ж, Нөкис қаласында жасаған), қызлары - Абадан (Беруний) хәм Бийжан (Нөкис қаласы, Дәрмен мақсымның зайыбы) туўылған. Соннан Абаданның исми жазыўшы Айтбай Бекимбетовтың «Сахрадағы жаңғырық» китабында қахарманларының бири ретинде тилге алынады. Әскербасының екінши хаялы - Жаңабазар аўылында жасаўшы, шығысы майлы балта қыпшақларынан болған Пана ғаррының (тарийхый тулға - Ер尼亚з Панаевтың атасы) қызы болған. Екінши хаялынан улы - Дүйсек мақсым, қызы - Сеуле (Халқабатда, Оспан мақсым Саримовтың зайыбы) хәм улы - Бегдулла



мақсым (урысқа кетип, бийдәрек жоғалған) дүньяга келген. Дүйсек мақсымнан тараған урпақлар ҳәзирги ўақытта Түркменстан пуқаралары.

Үшинши зайыбы - «Жалпақ жап» аўылында жасап өткен, шығысы қытай аралбайларынан болған Қайып дарғаның қызы болған. Үшинши ҳаялынан генже улы - Раметулла мақсым (1930 - 1975, Нөкис қаласы) туўылған.

Төртинши ҳаялы - Шымбай тәрәптен кенегес, (бәлки манғыт) қызы болған хәм жас босанбаған. Сондай болса да, басқа зайыпларынан бир өзгешелиги - мәңгилик уйқыға әскербасының жанында кеткен [Автордың дала жазыўлары. 2010 - 2012 жыллар.]. (Соңғы дереклер Убайдулла мақсымның 1952 - жылдан баслап генже келини, Раметулла мақсымның зайыбы, 1937 - жылы туўылған, ҳәзирги ўақытта Нөкис қаласында жасаушы Анийпа апа Исмайыловадан жазып алынды).

Жуўмақ. Солай етип мақаланы таярлаў барысында исенимли жазба хәм аўызша дереклер тийкарында тарийхый әскербасы Убайдулла Бахаўаддиновтың өмири хәм мийнет жолларының хронологиялық избе - излигин ислеп шығыўға ҳәрекет еттик. Хронологиялық избе-излик, автордың нәзеринде тарийхтаныў илимине, сондай-ақ тарийх пәни менен қызығыўшы кең жәмийетшиликке турмыс шынлығын ҳәр кандай бурмалаўдың алдын алыўға, тарийхый тулғаның келбетин дурыс түсинип, дурыс жуўмақ шығарыўға хәм соңғы әўладқа дурыс түсиник бериўте мүмкиншилик жаратады деген үмиттемиз.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Ўзбекистон янги тарихи. 2-китоб. Тошкент: Шарқ, 2000.
2. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Нөкис: Қарақалпақстан, 2003.
3. Карлыбаев. М. Медресе в Каракалпакии XIX начала XX веков. Нукус: Билим, 2002.
4. Шамамбетов Б., Юсупов Ўзбекстан хәм Қарақалпақстан тарийхы бойынша дереклер. Нөкис, 1995
5. Найымов К., Хожаниязов Г. Имам ийшан - қарақалпақ халқының уллы уламасы хәм ағартыўшы тулғасы. Авторлары К.Найымов хәм Г.Хожаниязов. Нөкис: Қарақалпақстан, 2005.
6. Бабашев Ш. Дөхмет дегиши. Нөкис: Қарақалпақстан, 2008.
7. Усенов Е. Ийшан қала. Нөкис: Қарақалпақстан, 1992;
8. Усенов Е. Хан мақсым. Нөкис: Қарақалпақстан, 1997.
9. Автордың дала жазыўлары. 2010 - 2012 жыллар.

TAFAKKUR FENOMENI: FALSAFIY VA GNOSEOLOGIK TAHLIL

Esemuratov A.E.

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston san'at
va madaniyat instituti Nukus filiali, mustaqil tadqiqotchi*

Ataxanova G.O.

*gumanitar va tillar kafedrası assistenti, Qoraqalpog'iston
qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

Tayanch so'zlar: tafakkur, gnoseologiya, mantiq, sillogizm, refleksiya, Sokratik suhbat, aql bosqichlari, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: мышление, эпистемология, логика, силлогизм, рефлексия, сократовский диалог, стадии разума, критическое мышление.

Key words: thinking, epistemology, logic, syllogism, reflection, Socratic dialogue, stages of reason, critical thinking.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada tafakkur fenomenining falsafiy-gnoseologik tabiati, uning shakllanish va rivojlanish mexanizmlari tarixiy-pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Qadimgi Yunon faylasuflari Suqrot va Aristotelning dialektik va mantiqiy merosi, Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda turkiy mutafakkir Yusuf Xos Hojibning tafakkurga oid qarashlari qiyosiy tahlilga tortilgan. Tadqiqot natijalari tafakkur rivojining bosqichma-bosqich xarakterga ega ekanligini, uning asosini mantiqiy dalillash va refleksiv tafakkur tashkil etishini ko'rsatadi. Mazkur tarixiy-falsafiy meros zamonaviy pedagogikada tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается философско-эпистемологическая природа феномена мышления, механизмы его формирования и развития с историко-педагогической точки зрения. Сравнительный анализ проводится на основе диалектического и логического наследия древнегреческих философов Сократа и Аристотеля, взглядов на мышление восточных ученых Абу Насра аль-Фараби, Абу Али ибн Сины, а также турецкого мыслителя Юсуфа Хос Хаджиба. Результаты исследования показывают, что развитие мышления носит постепенный характер, его основой являются логическое рассуждение и рефлексивное мышление. Это историко-философское наследие служит теоретико-методологической основой для формирования критического и творческого мышления в современной педагогике.

SUMMARY:

This article examines the philosophical and epistemological nature of the phenomenon of thinking, as well as the mechanisms of its formation and development, from a historical and pedagogical



perspective. The comparative analysis draws on the dialectical and logical legacy of the ancient Greek philosophers Socrates and Aristotle, as well as the views on thinking of Eastern scholars Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, and the Turkish thinker Yusuf Khos Hajib. The results of the study demonstrate that the development of thinking is gradual, based on logical reasoning and reflective thinking. This historical and philosophical heritage serves as the theoretical and methodological foundation for the development of critical and creative thinking in modern pedagogy.

Kirish. Insoniyat tamadduni tarixida tafakkur masalasi hamisha markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan. Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim belgi uning fikrlash qobiliyatidir. Tafakkur nafaqat falsafiy kategoriya, balki pedagogik faoliyatning asosiy vositasi va maqsadidir. Qanchalik mukammal ta’lim texnologiyalari yaratilmasin, ularning barchasi pirovardida fikrlaydigan, mustaqil xulosa chiqaradigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Aynan shu sababdan tafakkur fenomenining tabiati, uning rivojlanish mexanizmlari qadimgi faylasuflardan tortib, to zamonaviy pedagog olimlargacha bo‘lgan keng doiradagi tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tafakkur fenomenining falsafiy-gnoseologik asoslarini tarixiy-pedagogik jihatdan yoritib berish, G‘arb va Sharq mutafakkirlarining bu boradagi qarashlarini qiyosiy o‘rganish hamda ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tafakkur haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar: Antik davr merosi

Tafakkur muammosini ilmiy asosda tadqiq etishning ilk ildizlari Antik Yunon faylasuflari ijodiga borib taqaladi. Ayniqsa, Suqrot va Aristotelning bu sohaga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

Suqrot (b.e.avv. 470-399) o‘zining mashhur suhbat uslubi bilan tafakkur tarixida butunlay yangi sahifa ochdi. Uning didaktik tizimida tayyor bilimlarni eslab qolish emas, balki savol-javob orqali haqiqatni mustaqil ravishda kashf etish asosiy o‘rinni egallaydi. Suqrot usulining mohiyati shundan iboratki, o‘qituvchi o‘quvchiga haqiqatni tayyor holda taklif etmaydi, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirilgan savollar bilan fikrlashga, izlanishga, shubhalanishga va nihoyat, to‘g‘ri xulosaga kelishga undaydi. Bu usulda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol izlanuvchiga aylanadi. Suqrotcha yondashuvning asosiy yutug‘i shundaki, u inson ongidagi yashirin imkoniyatlarni uyg‘otadi, mantiqiy mushohadani rag‘batlantiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Undagi asosiy fikrlar — tayyor bilim bermasdan savol-javob orqali haqiqatni «kashf ettirish», o‘quvchini passiv tinglovchidan faol izlanuvchiga aylantirish, ongdagi yashirin imkoniyatlarni uyg‘otish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish [1,362].

Suqrotning izdoshi Aristotel (b.e.avv. 384-322) esa tafakkurni nazariy jihatdan asoslab, uni ilmiy tahlil obyektiga aylantirdi. Aristotel birinchi bo‘lib mantiqni tizimli fan sifatida shakllantirdi. Uning «Organon» nomi bilan mashhur bo‘lgan mantiqiy asarlarida induksiya va deduksiya usullari, sillogistik xulosa

chiqarish qoidalari, tushuncha va hukmlarni tasniflash tamoyillari ishlab chiqildi. Aristotelning fikricha, har qanday ilmiy bilimning asosini mantiqiy izchillik va dalillarning asoslanganligi tashkil etadi. Fikrning haqiqiyliги uning tashqi shakliga emas, balki ichki mazmuniga va mantiqiy aloqalarning mustahkamligiga bog'liq. Aristotel yaratgan mantiq tizimi butun keyingi yevropa ilmiy tafakkurining metodologik poydevoriga aylandi [1,432].

Sharq Renessansi va tafakkur ta'limoti.

O'rta asrlar Sharqida, xususan, Movarounnahr va Xuroson zaminida tafakkur muammosi yangi bosqichga ko'tarildi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalar Antik merosni chuqur o'zlashtirish bilan birga, uni yanada rivojlantirib, tafakkurning yaxlit nazariyasini yaratdilar.

Forobiy (870-950) tafakkur rivojini bosqichma-bosqich tarzda talqin etdi. Uning aql haqidagi ta'limotida uch bosqich ajratib ko'rsatiladi: quvvatdagi aql, faol aql va hosil bo'lgan aql. Quvvatdagi aql – bu insonning tug'ma iste'dodi, bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatidir. Faol aql bosqichida inson atrof-muhitni anglash, narsa-hodisalarning mohiyatini tushunish, ularni tahlil qilish va sintezlash jarayonini amalga oshiradi. Hosil bo'lgan aql esa tafakkur rivojining eng yuksak pog'onasi bo'lib, bunda inson mavhum tushunchalar bilan ishlash, murakkab ilmiy muammolarni yechish, yangi bilimlar yaratish salohiyatiga ega bo'ladi. Forobiyning mazkur bosqichli yondashuvi bugungi kunda ham kognitiv psixologiya va pedagogikada o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U ta'lim jarayonida o'quvchining yosh va intellektual imkoniyatlarini hisobga olish, bilimlarni oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini nazariy jihatdan asoslab beradi [3,320].

Ibn Sino (980-1037) esa tafakkur jarayonida dalil va isbotning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Uning «Najot kitobi» [4,245], «Donishnoma» [5,26] kabi asarlarida bilish nazariyasiga oid muhim fikrlar bayon etilgan. Ibn Sino ta'kidlashicha, haqiqiy bilimga erishish uchun faqat fikr yuritishning o'zi kifoya qilmaydi; fikr ishonchli dalillar bilan mustahkamlangan bo'lishi shart. Dalilsiz fikr gumon darajasida qolaveradi, u ishonchli bilimga aylana olmaydi. Ibn Sinoning fikricha, haqiqatga olib boruvchi yo'l – fikr bilan dalilning uyg'unligidir. Bu g'oya zamonaviy ilmiy tadqiqot metodologiyasining asosiy tamoyillaridan biri – asoslanganlik va daliliylik talabi bilan hamohangdir.

Turkiy tafakkur an'anasida refleksiya masalasi.

XI asrda yashab ijod etgan buyuk turkiy shoir va mutafakkir Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari nafaqat badiiy, balki falsafiy-pedagogik jihatdan ham bebaho manbadir. Ushbu asarda inson tafakkuri, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, to'g'ri qaror qabul qilish mexanizmlari haqida chuqur mulohazalar bildirilgan.



Yusuf Xos Hojib insonni «fikrlaydigan mavjudot» deb ta'riflar ekan, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida fikrning ongli boshqarilishi va tahlil etilishini ko'rsatadi. Asarda inson har qanday muhim qarorni qabul qilishdan oldin uni puxta o'ylashi, uning sabab va oqibatlarini chuqur tahlil etishi lozimligi uqtiriladi. Bu o'z navbatida zamonaviy pedagogikada refleksiya (o'z fikriga qaytish, uni baholash va qayta ishlash) deb ataluvchi hodisaning ilk nazariy talqinlaridan biridir. Refleksiya insonning o'z bilish faoliyatini nazorat qilish, xatolarini tushunish va to'g'rilash, eng muhimi, o'z-o'zini rivojlantirish imkonini beradi. Yusuf Xos Hojibning bu boradagi g'oyalari shaxs kamolotida o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash jarayonlarining muhimligini ko'rsatib, bugungi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan hamohangdir [6,560].

Xulosa.Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tafakkur fenomeni turli davrlarda va turli madaniyatlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, uning mohiyati – insonning olamni anglash, uni tahlil qilish va o'zgartirish qobiliyati – o'zgarmasdan qolgan.

Antik faylasuflar tafakkurning dialektik va mantiqiy jihatlarini, Sharq allomalari uning gnoseologik va ruhiy-ma'naviy asoslarini, turkiy mutafakkirlar esa refleksiv va axloqiy-ijtimoiy tomonlarini yoritib berganlar. Ushbu qarashlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to'ldiradi va tafakkur haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogika uchun bu tarixiy-falsafiy meros bebaho manbadir. Suqrotning evristik suhbat usuli, Aristotelning mantiqiy tafakkur qonunlari, Forobiyning aql rivoji bosqichlari haqidagi ta'limoti, Ibn Sinoning daliliy bilish konsepsiyasi va Yusuf Xos Hojibning refleksiv tafakkur haqidagi g'oyalari bugungi ta'lim jarayonida tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashning mustahkam nazariy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, ushbu tarixiy merosni chuqur o'rganish va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вард Фарнсворт. «Метод Сократа: Искусство задавать вопросы о мире и о себе». – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2023. Стр. 362.
2. Стяжкина Н. И. История логики / под ред. – М.: Наука, 1981. – 432 с.
3. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri / tarj. A. Irisov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
4. Ahmadjonov M. "Abu Ali Ibn Sino" bugungi kun yoshlarining ma'naviyat maktabi sifatida. Лучшие интеллектуальные исследования, 3(23), 2024. 245-b.
5. Sodiqova S. IBN SINONING AQLIY VA AXLOQIY TALIMOTI. Наука и инновация, 3(54), 2025. 26–29.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Akademnashr, 2017. 560 b.

TOLERANTLIK – MADANIYATLARARO MULOQOTDA O‘ZARO HURMAT VA HAMJIHATLIKNI TA’MINLOVCHI FUNDAMENTAL POYDEVOR

Aytbayeva G.Y.

*Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek
tili va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti.*

Tayanch so‘zlar: tinchliksevarlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, tolerantlik, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy kadriyatlar, fuqarolik jamiyat, deklaratsiya, madaniyatning milliyligi, tolerantlik madaniyat, plyuralistik fenomen, bag‘rikenglik muhiti.

Ключевые слова: миролюбие, толерантность, солидарность, межнациональное согласие, межрелигиозная толерантность, толерантность, социальная стабильность, политическая культура, общественно-политические ценности, гражданское общество, декларация, национальность культуры, культура толерантности, плюралистический феномен, атмосфера толерантности.

Key words: peacefulness, tolerance, solidarity, interethnic harmony, interreligious tolerance, tolerance, social stability, political culture, socio-political values, civil society, declaration, nationality of culture, tolerance culture, pluralistic phenomenon, environment of tolerance.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada tolerantlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, bag‘rikenglikning jamiyat barqarorligi, millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni saqlashdagi o‘rni yoritiladi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda bag‘rikenglik turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamjihatlikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье с научной точки зрения анализируется понятие толерантности, ее сущность и значение в развитии межкультурной коммуникации. Также освещается роль толерантности в сохранении стабильности общества, межнационального согласия и культурного разнообразия. В современную эпоху усиления процессов глобализации толерантность проявляется как важная социальная ценность, обеспечивающая взаимное уважение и солидарность между различными культурами.

SUMMARY:

This article scientifically analyzes the concept of tolerance, its essence and significance in the development of intercultural communication. It also highlights the role of tolerance in the stability of society, the preservation of interethnic harmony and cultural diversity. In the current era of



intensifying globalization processes, tolerance manifests itself as an important social value that ensures mutual respect and harmony between different cultures.

Zamonaviy dunyo jamiyatlari turli millat, din va madaniyat vakillarining birgalikda yashashi bilan tavsiflanadi. Globallashuv jarayonlari natijasida xalqlar o'rtasidagi aloqalar kengayib, madaniyatlararo muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda jamiyat barqarorligi va ijtimoiy totuvlikni ta'min-lashda bag'rikenglik, ya'ni tolerantlik muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning globallashuvi sifatida dunyodagi ijtimoiy jarayonlarga Islom mafkurasining ta'siri ortib borayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. "Biz butun jahon jamoatchiligiga Islom dinining asl inson-parvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan qatorda qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi". Bu vaziyatda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta'minlash dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqishi tabiiydir. Masalaning o'ziga xosligi shundaki, jamiyatda tolerantlikni, ya'ni bag'rikenglikni ta'minlamasdan turib, dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta'minlash mumkin emas.

Tolerantlik insonlarning turli qarashlar, e'tiqodlar va madaniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishini anglatadi. U jamiyatda o'zaro tushunish, hurmat va hamkorlikni shakllantirib, madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ko'pgina madaniyatlarda "tolerantlik" tushunchasi "chidamlilik (bag'rikenglik)"ning o'ziga xos sinonimi hisoblanadi: lotincha tolerantia, inglizcha tolerance, nemischa toleranz, fransuzcha tolerance. Bundan tashqari, XX asrning barcha lug'atlari bag'rikenglikning chidamlilik sifatida to'g'ridan-to'g'ri talqinini aniq ko'rsatadi – ular bag'rikenglikni boshqalarning turmush tarzi, xatti-harakatlari, urf-odatlar, his-tuyg'ulari, e'tiqodlari, fikrlari, g'oyalari nisbatan bag'rikenglik sifatida ta'riflaydi yoki oddiygina "bag'rikenglik"ni "chidamlilik" tushunchasining sinonimi deb ataydi. Brockhaus va Efron lug'ati bag'rikenglikni, asosan, diniy bag'rikenglikka olib keladi.

"Tolerantlik" so'zi rus tilining deyarli barcha lug'atlarida mavjud. Xususan, V. I. Dal lug'atida "chidamlilik" faqat rahm-shafqat yoki rahm-shafqat tufayli biror narsaga chidash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Boshqa lug'atlarda ham shunday izoh berilgan. Masalan, M.V.Semashkoning fikricha, "chidamlilik"

tushunchasi atrofda voqelikni passiv qabul qilish, unga qarshilik ko'rsatmaslik, ikkinchi lunjini qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi .

“Tolerantlik” so‘zining semantik maydonini, umuman olganda, “chidamlilik” so‘zining semantik maydonining segmenti deb hisoblash mumkin. Bunda “qabul qilish” tushunchasi tomon biroz siljish mavjud. Zamonaviy tilda u inglizcha tolerance – “chidamlilik, siz rozi bo‘lmasangiz yoki ma’qullamasangiz ham, o‘zingiznikidan farq qiladigan xatti-harakatlar va e’tiqodlarni qabul qilishga tayyorlik” so‘zidan kelib chiqqan . Albatta, “chidamlilik” so‘zini tushunishda muayyan an’ana mavjud. O‘tgan asrning o‘rtalarigacha u passiv pozitsiya sifatida talqin qilingan: chidash – bu o‘zini bosib olish, kimgadir yon berish demakdir. “Tolerantlik” so‘zi “bag‘rikenglik” so‘zining sinonimi sifatida ishlatilsa-da, boshqa ma’nolarni anglatadi. “Bag‘rikenglik” – bu faol ijtimoiy xulq-atvor bo‘lib, unga inson ixtiyoriy va ongli ravishda keladi.

O‘zbek tili Wikipediysida “Tolerantlik” atamasi lotincha tolerantia so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “chidamlilik”, “bag‘rikenglik” degan ma’nolarni anglatadi . Demak, tolerantlik (tolerantia – sabr-toqat, chidamlilik) – o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqod-lariga nisbatan toqatli bo‘lish, hurmat bilan qarashni anglatuvchi tushunchadir. Ilmiy adabiyotlarda tolerantlik turli fikrlar, qarashlar va madaniy an’analarga hurmat bilan qarash sifatida talqin qilinadi.

Rus tilidagi Wikipediada tolerantlikga qo‘yidagicha ta’rif beradi: Tolerantlik (lotincha tolerantia – sabr-toqat, chidamlilik, bardosh berish qobiliyati) – boshqa dunyoqarash, turmush tarzi, xulq-atvor va urf-odatlarga nisbatan bag‘rikenglikni ifodalovchi sotsiologik atama. Tolerantlik befarqlik bilan teng emas, u boshqacha dunyoqarash yoki turmush tarzini qabul qilishni ham anglatmaydi, boshqalarga o‘z dunyoqarashiga muvofiq yashash huquqini berishdan iborat .

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tolerantlik yoki bag‘rikenglik insonning boshqalarning fikri, qarashi va e’tiqodiga sabr-toqat bilan yondashishi, ularni hurmat qilishi hamda ijtimoiy muhitda murosaga intilishi bilan ifodalanadi. Bu tushuncha insoniy munosabatlarning muhim axloqiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Tolerantlik quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: boshqa insonlarning fikri va qarashlarini hurmat qilish; milliy va diniy xilma-xillikni tan olish; ijtimoiy murosaga intilish hamda ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish. Shunday ekan, tolerantlik jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston o‘z taraqqiyot startegiyasini tinchliksevarlik va hamjihatlikka qaratilgan yangicha mezonlar asosida olib bormoqda.



Tinchliksevar siyosatimizning asosini bag‘rikenglik, hamjihatlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta‘minlashga doir sa‘y-harakatlar tashkil etadi. Bugungi globalla-shuv davrida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bunday sharoitda jamiyat barqarorligini ta‘minlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va tinchlikni saqlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tinchliksevar siyosat inson huquqlarini hurmat qilish, millatlararo va dinlararo totuvlikni ta‘minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy tamoyillar majmuasidir. Ushbu siyosatning muhim asoslaridan biri bag‘rikenglikdir. Bu esa turli millat, din va madaniyat vakillarining o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlik asosida yashashini ta‘minlaydi.

Bugun yurtimizda turli din va millat vakillari emin-erkin yashab kelmoqda. Bu esa fuqarolarning vijdon erkinligi ularning millati, irqi va dinidan qat‘iy nazar to‘liq kafolatlangan hamda bag‘rikenglik g‘oyalari huquqiy jihatdan ta‘minlanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, turli millat va din vakillari o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, bag‘rikenglik g‘oyalarini qaror toptirish borasida keng qamrovli va izchil siyosat amalga oshirilmoqda.

Tolerantlik tushunchasi ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lib, bu jarayon bugungi kungacha davom etmoqda. Keng qamrovli bag‘rikenglik ma‘nolarini umumlashtirib, “bag‘rikenglik” atamasi turli xil murossasizlik ko‘rinishlarini yengish uchun yangi vositalarni talab qiladigan haqiqatga mos kelishga intiladi. “Bag‘rikenglik” atamasi ikkita ma‘noga ega: birinchisi, kechirim ma‘nosida; ikkinchisi esa odob, yumshoqlik va muruvvat, qattiqqo‘llik va zo‘ravonlikdan uzoqlashish ma‘nosini anglatadi.

Tolerantlik madaniyatlararo muloqotda o‘zaro hurmat va hamjihatlikni ta‘minlovchi fundamental poydevordir. U turli xalqlar o‘rtasidagi dunyoqarash, din va qadriyatlar farqini qabul qilish orqali nizolarning oldini oladi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv global integratsiya jarayonlarida tinchlikni saqlash hamda ijodiy hamkorlikni kuchaytirishning eng samarali vositasidir.

Tolerantlik – boshqa turdagi qarashlar, axloqlar, odatlarga nisbatan bag‘rikenglik. Bag‘rikenglik turli xalqlar, millatlar va dinlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan zarur. U o‘ziga ishonch va o‘z pozitsiyalarining ishonchliligini anglash belgisi, boshqa nuqtayi nazarlar bilan taqqoslashdan qo‘rqmaydigan va ma‘naviy raqobatdan qochmaydigan, inson haqida uning ishtirokisiz o‘z fikrini bildiradigan barcha uchun ochiq g‘oyaviy oqimning belgisidir.

Tolerantlik quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi: boshqa insonlarning fikri va e‘tiqodini hurmat qilish; milliy va diniy xilma-xillikni qadrlash; ijtimoiy

murosaga intilish hamda zo‘ravonlik va kamsitishni rad etish. Shunday qilib, tolerantlik jamiyatda o‘zaro ishonch va hamkorlikni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Demak, tolerantlik yoki bag‘rikenglik – bu hurmat, dunyo madaniyatlarining xilma-xilligini to‘g‘ri tushunish. Chidamlilik – xilma-xillikdagi uyg‘unlik, bu nafaqat axloqiy burch, balki siyosiy va huquqiy istak hamdir. Madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlar majmuasi hisoblanib, har bir madaniyat o‘ziga xos an‘ana, til, urfodat va dunyo-qarashni o‘zida mujassam etadi.

Tolerantlik madaniyatlararo muloqotning muhim omili bo‘lib, turli madaniyatlarning tinch va uyg‘un rivojlanishiga yordam beradi. Agar jamiyatda bag‘rikenglik mavjud bo‘lsa: turli millat va din vakillari o‘z madaniyatini erkin rivojlantiradi hamda madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro boyish jarayoni yuz beradi va ijtimoiy nizolar kamayadi. Shu sababli tolerantlik madaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, fikr almashish va hamkorlik jarayonidir. Bunday muloqot samarali bo‘lishi uchun o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik zarur. Bag‘rikenglik mavjud bo‘lgan jamiyatda turli madaniyat vakillari bir-birining qadriyatlarini hurmat qiladi, o‘zaro tajriba almashadi va hamkorlikni rivojlantiradi. Bu jarayon madaniyatlarning boyishiga, yangi g‘oya va tajribalarning shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, bag‘rikenglik madaniyatlar o‘rtasidagi nizolarni kamaytirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy hamjihatlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bag‘rikenglik insonlarning bir-biriga nisbatan hurmat, sabr-toqat va tushunish hissi bilan yondashishidir. Bu tushuncha, asosan, jamiyatda tinchlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va insonlar o‘rtasida do‘stlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tolerantlik ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki bag‘rikenglik serqirra, ayni paytda plyuralistik fenomen bo‘lib, o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p namoyon bo‘lish shakllariga ega. Toqat, sabr, tinchliksevarlik, murosas, do‘stlik, hamjihatlik, ishonch, hurmat, tushunish, bilish, anglashga intilish va boshqa shu kabi axloqiy fazilatlar hamda ongli intilishlar shular jumlasidandir. Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo‘ladigan bag‘rikenglik o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ta‘kidlash joiz.

Jahon hamjamiyatining bugungi bosqich rivojlanishida, ayniqsa, globalashuv jarayonining keskin tezlashuvi natijasida, insonlarning o‘zaro munosabatlarida zarur bo‘lgan omillar qatorida, tolerantlik yoki bag‘rikenglik kabi unsurlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, xalqaro munosabatlarning yangi



mazmun kasb etishi, dunyoning turli burchaklarida turli ko‘rinishdagi harbiy, siyosiy, ijtimoiy to‘qna-shuvlarning ko‘zga tashlanishi, qiyin vaziyatga tushgan odamlarga nisbatan mehr ko‘zi bilan qarash, ularga insoniy munosabatda bo‘lish, aynan bag‘rikenglik, tole-rantlik fazilatlar bilan bog‘liqligi masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Tolerantlik – faqatgina nazariy tushuncha bo‘lmay, u eng avvalo, ma’lum madaniyat va sivilizatsiyaning muhim elementi ham hisoblanadi. Agarda, madaniyat kategoriyasini biz u yoki bu jamiyatning tarixan shakllangan qadriyatlari, an’ana va normalarining yig‘indisi sifatida tushunadigan bo‘lsak, uning fundamental asosini tolerantlik tashkil etishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy fanlarda mazkur fenomenlarning yig‘indisidan tashkil topgan birqancha ilmiy qarashlar mavjud. Shulardan biri kosmosentrik (yoki umuminsoniy) madaniyatdir.

Dunyodagi barcha xalqlar turli mentalitetga ega va mazkur mentalitet qaysidir mamlakatda erkin qabul qilinsa, boshqasida tazyiqqa uchrashi mumkin. Bunday hollarda tolarentlik tushunchasi hamda inson tolarentligining o‘rni beqiyos.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo‘lgan bag‘rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan BMT tizimida fan, ta’lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) bosh konferentsiyasining 28-sessiya-sida “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat’i nazar bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan.

“Tolerantlik – bo‘sh kelish, ko‘ngil bo‘shlik yoki nojo‘ya harakatlarga befarqlik emas. Tolerantlik universal huquq va insonning asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllanadigan faol munosabatdir. Hech bir holatda tolerantlik ushbu asosiy qadriyatlarga bo‘lgan tajovuzni oqlashga xizmat qilishi mumkin emas; tolerantlikni ayrim kishilar, guruhlar va davlatlar xam ko‘rsatishi zarur”.

Tolerantlik g‘oyasining paydo bo‘lishi, moslashuvi, o‘zgarishi falsafiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanganligi, diniy axloqning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Mazkur tushunchaning paydo bo‘lishiga qo‘shniga bo‘lgan iliqlik, yovuzlikka zo‘ravonlik bilan qarshi kurashmaslik haqidagi ta’limotlar, bundan tashqari, tarixiy, madaniy, siyosiy omillar sabab bo‘lgan.

Globallashuv jarayonlari natijasida jamiyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yanada rivojlanmoqda. Bunday sharoitda turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, O‘zbekiston ko‘pmillatli, ko‘pdinli, turfa xil madaniyatli mamlakat hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy

taraqqiyot an'anaviy madaniyatni zamonaviy belgilar, yangi an'analar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Madaniyatlardagi innovatsiyalar umumiy ijtimoiy-madaniy makondagi madaniy plyuralizm an'analariga mos kelishi, ushbu an'analarni inkor etish emas, balki ularni mohiyatan va shaklan boyitish yo'lidan borishi darkor. An'anaviy madaniyat konservativ xarakterga ega. Aynan shu belgi madaniyatning milliyligini ta'minlaydi. Tolerantlik madaniyati an'anaviy madaniyatdagi ushbu kadriyatlarga tayanishi zarur.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng huquqiy-demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati va iqtisodiy erkinliklarga asoslangan bozor iqtisodiyoti qo'rilishi jarayonida siyosiy tolerantlik madaniyati dolzarbligini alohida e'tirof etishimiz lozim. Siyosiy madaniyat va tolerantlik mavzusiga bo'lgan e'tiborning kuchayishiga qaratilgan ichki va tashqi sharoitlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, diniy va dunyoviy bag'rikenglik madaniyati bugungi globallashuv jarayonida har bir millat, jamiyat, ayniqsa, yoshlarning siyosiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, yoshlarimizda tolerantlik madaniyatini tobora shakllantirib borish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan disoblanadi. Bu jarayonda esa mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy munosabatlar tizimini doimiy ravishda monitoring qilib borish; ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shaxsiy va professional rivojlanishi uchun ko'ak beradigan turli ijtimoiy-psixologik, huquqiy, axborot va konsultativ hizmatlar ko'rsatish; turli funksiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy hizmatlar markazlarini shakllantirish va O'zbekiston yoshlariga XXI asrga xos bo'lgan yangi innovatsion bilimlar berish zarur.

Xalqimiz ongida ming yilliklar davomida shakllangan bag'rikenglik qadriyati xalqimizning boy tarixiy tajribasi, madaniyati va ma'naviy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston hududi qadimdan turli millat, din va madaniyat vakillari yashab kelgan maskan bo'lib, bu yerda xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlik an'analari shakllangan. Buyuk Ipak Yo'li orqali turli xalqlar va madaniyatlar o'zaro muloqot qilgan, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniy aloqalar rivojlangan. Natijada xalqimiz ongida boshqa millat va din vakillariga hurmat bilan qarash, ularning urf-odatlarini hamda qadriyatlarini e'zozlash kabi bag'rikenglik tamoyillari mustahkam o'rin egallagan. Ushbu qadriyatlar bugungi kunda ham jamiyatimizda millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Demak, bag'rikenglik hamda yuksak ilm-u ma'rifat an'analari bugungi kunda konfessiyalararo sog'lom muloqotni barqaror-lashtirish, diniylik va dunyoviylik muvozanatini ta'minlashga mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.



Xulosa qilib aytganda, bag‘rikenglik madaniyatlararo muloqotning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, tushunish va hamjihatlikni ta‘minlaydi. Bag‘rikenglik mavjud bo‘lgan jamiyatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamkorlik mustahkamlanadi. Shu sababli zamonaviy globallashuv sharoitida bag‘rikenglikni rivojlantirish, yosh avlodni hurmat va hamkorlik ruhida tarbiyalash hamda madaniyatlararo muloqotni kengaytirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. «Ўзбекистон». – Тошкент, 2019. – Б. 592.
2. Агабаев Ш. Ёшлар сиёсий толерантлигини шакллантириш жамият барқарорлигининг муҳим омили сифатида. Фуқаролик жамиятининг маънавий-маърифий асослари. 2021 – №1 (65). – Б. 33–35.
3. Балцевич В. А., Балцевич С. Я. Социальная интеграция // Социология: энциклопедия. – М., 2003.;
4. Большой энциклопедический словарь.; Словарь иностранных слов и выражений. Толерантность. – М., 1998. – С. 477.
5. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. [в 4 т.] / [соч.] Владимира Даля. – 3-е изд., испр. и знач. доп., изд. под ред. [и с предисл.] проф. И.А. Бодуэна-де-Куртенэ. Т. 1-4. – Санкт-Петербург; Москва: т-во М.О.Вольф, 1903–1911. – 27 см.
6. Саифназаров И.С., Дониёров Х.Т. Толерантлик – Ўзбекистон миллий демократик давлатчилик тараққиётининг асосий шарт. Ўзбекистонда миллатларaro тотувлик, миллий, диний ва сиёсий бағрикенгликни янада ривожлантиришнинг ижтимоий, фалсафий масалалари. Республика илмий – амалий конференцияси. Тошкент, 2020.
7. Семашко М.А. Развитие термина «толерантность» в гуманитарных науках Архивная копия от 5 января 2012 на Wayback Machine // Электронный научно-педагогический журнал, 2007.
8. Sultanmuratova S. Madaniyatlararo muloqot va tolerantlik masalalar. Modern education and development. – № 44. 2026. – Б. 310.
9. Толерантность // Малый энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. – 2-е изд., вновь перераб. и значит. доп. – Т. 1–2. – СПб., 1907–1909.
10. Ушаков Н.Д. Толковый словарь русского языка. Том 1. 1935.
11. Философский энциклопедический словарь /Под ред. А.Б.Васильева – 2-е изд. – М.: Инфра-М, 2011.– С.576.
12. Халилов Э.Х. Высший законодательный орган Республики Узбекистан. От формального представительства до реального парламентаризма. – Т., 2001.
13. Ҳамроев Ш.Ш. Ўқувчи-ёшларда толерантлик маданиятини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари таълим муассасасидаги тарбия. Vol. 2022. Issue 7. 2. – Б. 47–51.
14. file:///C:/Users/user/iz-opyta-razvitiya-demokratii-i-reformiro-vaniya-parlamentskoy-deyatelnosti-v-uzbekistane.pdf. (Murojaat sanasi: 16.03.2026)
15. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/learner-english/tolerance>. (Murojaat sanasi: 14.03.2026)
16. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>. (Murojaat sanasi: 125.03.2026)
17. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tolerantlik_\(ma%C4%BCnolari\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tolerantlik_(ma%C4%BCnolari)). (Murojaat sanasi: 11.03.2026)
18. https://tsue.uz/media/section_file/1.pdf. (Murojaat sanasi: 15.03.2026)



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

ИНФОРМАТИКА VA AT FANINI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Ilyasova Z.K.

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Shaniyazova G.A.

Ta'limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: elektron ta'lim resurslari, informatika, didaktik imkoniyat, raqamli muhit, individuallashtirish, kompetensiya, vizuallashtirish.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, информатика, дидактические возможности, цифровая среда, индивидуализация, компетенция, визуализация.

Key words: electronic educational resources, computer science, didactic potential, digital environment, individualization, competence, visualization.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada Informatika va axborot texnologiyalari (AT) fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli vositalarning individuallashtirish, differentsiallashtirish, vizuallashtirish, mustaqil ta'limni rivojlantirish hamda refleksiyani shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Amaliy kuzatuvlar asosida resurslardan foydalanish jarayonida mavjud metodik va texnik muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются дидактические возможности электронных образовательных ресурсов при преподавании информатики и информационных технологий. Раскрывается роль цифровых средств в индивидуализации обучения, реализации дифференцированного подхода, визуализации учебного материала, развитии самостоятельной деятельности учащихся и формировании рефлексии. На основе практических наблюдений выявлены существующие методические и технические проблемы использования ресурсов, а также предложены пути повышения их эффективности.

SUMMARY:

The article analyzes the didactic potential of electronic educational resources in teaching computer science and information technologies. The role of digital tools in individualization of learning, implementation of differentiated instruction, visualization of educational content, development of students' independent activity, and formation of reflection is revealed. Based on practical observations, existing methodological and technical problems in the use of digital resources are identified, and ways to increase their effectiveness are proposed.



Kirish. Ta'lim tizimining bugungi holati insoniyat taraqqiyotining kengroq sivilizatsion siljishlari bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. So'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonlarining intellektuallasuvi, kommunikatsiya tezligining mislsiz darajada ortishi natijasida bilimning o'zi strategik resursga aylandi. Bunday sharoitda maktab zimmasiga tushadigan vazifa shunchaki ma'lumot yetkazish emas, balki o'zgaruvchan axborot makonida mustaqil yo'l topa oladigan, moslasha biladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lib qolmoqda va ana shu ehtiyoj o'qitish vositalarini yangilash masalasini kun tartibiga qat'iy ravishda olib chiqdi.

Informatika va AT fanida o'rganiladigan tushunchalarning aksariyati abstrakt bo'lib, ularni samarali o'zlashtirish uchun vizual va interaktiv muhit zarur. Elektron ta'lim resurslari ana shu imkoniyatni yaratadi[1].

Elektron ta'lim resurslari fenomeni pedagogik nazariyada nisbatan yangi ko'rinish bo'lishiga qaramay, u qisqa vaqt ichida turli ilmiy maktablar, metodologik yondashuvlar va amaliy tajribalar chorrahasida shakllangan murakkab tushunchaga aylandi. Shu bois mazkur kategoriyani yagona, barcha tomonidan bir xil qabul qilingan izoh bilan cheklash qiyin; aksincha, turli mintaqalar va ilmiy an'analarda uning mazmuniga turlicha urg'u beriladi. Masalan, shuni ta'kidlash joizki, aynan ta'riflardagi tafovutlar elektron resursning qanday loyihalanishi va o'quv jarayoniga qanday integratsiyalashishini belgilab beradi.

Elektron ta'lim resurslari — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan va ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan raqamli o'quv materiallaridir. Ular o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va nazorat qilish imkonini beradi. Elektron ta'lim resurslariga quyidagilar kiradi: elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, virtual laboratoriyalar, interaktiv mashqlar, test tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari. Informatika fanini o'qitishda ushbu resurslar algoritmlarni tushuntirish, dasturlash asoslarini o'rgatish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi[3].

Tadqiqot metodlari. Ish jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Elektron resurslar funksional vazifasiga ko'ra guruhlariga ajratildi va ularning o'quv jarayoniga ta'siri o'rganildi. Empirik ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani umumta'lim maktablari tajribasi asosida to'plandi.

Natijalar. Elektron ta'lim resurslari haqida yuritiladigan nazariy mulohazalar ichida eng hal qiluvchi nuqta — ularning real o'quv natijalariga qanday



mexanizm orqali ta'sir ko'rsatishini ochib berishdir. Haqiqatan ham, texnologik yangilik yoki dizayn jozibadorligi o'z-o'zicha pedagogik samaradorlikni kafolatlamaydi. Muhim savol shuki, raqamli muhit o'quvchining bilish faoliyatida qanday strukturaviy o'zgarish yasaydi, u tafakkur jarayonlarini qay tarzda qayta tashkil etadi va natijada qanday kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, shuni ta'kidlash joizki, aynan didaktik imkoniyatlar tahlili taklif etiladigan metodikaning ilmiy asoslanganligini isbotlab beradigan poydevor vazifasini bajaradi.

Avvalo, elektron resurslar ta'minlaydigan ustuvor afzalliklardan biri – individuallashtirish mexanizmidir. Raqamli tizim foydalanuvchining faoliyatini qayd etadi, bajarilgan topshiriqlarni tahlil qiladi va keyingi materialni shunga mos ravishda tavsiya etadi. Natijada o'quvchi o'rtacha statistika asosida emas, balki o'z ehtiyoji va imkoniyatiga mos trayektoriya bo'yicha harakatlanadi. Bu yondashuv kuchli o'quvchining rivojlanishini sekinlashtirib qo'ymaslik, qiynalayotgan o'quvchini esa jarayondan uzilib qolishdan saqlash imkonini beradi.

Individuallashtirish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir jihat – differensial yondashuvni amalga oshirish imkoniyatidir. An'anaviy dars sharoitida o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarga yetarli darajada moslashishi amalda juda murakkab. Elektron resurs esa murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlarni parallel ravishda taklif eta oladi, qo'shimcha izoh yoki maslahatlar berishi mumkin. Shu tariqa o'quv jarayonida ko'p variantlilik paydo bo'ladi, bu esa pedagogik adolatni ta'minlashga xizmat qiladi[5].

Didaktik samaradorlikni belgilovchi muhim omillardan yana biri – vizual tafakkurning rivojlanishidir. Informatika va axborot texnologiyalari fanida o'rganiladigan ko'plab tushunchalar abstrakt xarakterga ega: algoritmlar, ma'lumotlar tuzilmasi, tarmoqli jarayonlar va boshqalar. Ularni faqat og'zaki yoki matnli tasvir orqali tushuntirish ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Elektron resurslar animatsiya, grafik model, simulyatsiya vositasida jarayonni ko'rinadigan qiladi, natijada o'quvchi sabab-oqibat aloqalarini tezroq ilg'aydi. Masalan, murakkab algoritmnining bosqichma-bosqich ishlashini ko'rish nazariy formulani yodlashdan ko'ra chuqurroq tushuncha beradi.

Bundan tashqari, raqamli muhit mustaqil ta'limni tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratadi. O'quvchi darsdan tashqari paytda ham resursga murojaat qilishi, materialni takrorlashi, qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi nazorat qiluvchi yagona manba emas, balki yo'naltiruvchi rolni bajaradi. Aynan shu omil o'quvchida o'z-o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va natija uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi.



Motivatsion jihat ham alohida e'tiborga loyiq. Interaktiv topshiriqlar, o'yin elementlari, darhol olinadigan natija o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Faoliyatning natijasi ko'zga ko'rinib turgani sababli u o'z muvaffaqiyatini his qiladi, bu esa ichki rag'batni kuchaytiradi. Shunday vaziyatda o'qish majburiyat emas, balki ma'lum ma'noda shaxsiy yutuqqa erishish vositasiga aylanadi.

Elektron resurslar yana bir muhim pedagogik jarayon – refleksiyaning qo'llab-quvvatlaydi. Tizim natijalarni ko'rsatadi, xatolarni ajratib beradi, o'quvchini o'z faoliyatini tahlil qilishga undaydi. O'quvchi "men nimani bildim?" degan savoldan tashqari "qanday o'rgandim?" degan savol ustida ham o'ylay boshlaydi. Bu esa metakognitiv ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi.

Nihoyat, yuqorida sanab o'tilgan barcha mexanizmlar umumiy maqsad – kompetensiyaga yo'naltirilgan natijani ta'minlashga xizmat qiladi. Bilimni eslab qolish emas, balki uni qo'llash, yangi vaziyatda moslashtirish, muammoni hal qilish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Elektron muhit o'quvchini aynan faol amaliyotga jalb etgani uchun kompetensiyaviy yondashuvni tabiiy ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlillar elektron ta'lim resurslari quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi:

- ✓ o'quv jarayonini individuallashtirish;
- ✓ murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar orqali differensial yondashuvni ta'minlash;
- ✓ animatsiya va modellashtirish orqali abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish;
- ✓ mustaqil ta'lim faoliyatini kengaytirish;
- ✓ tezkor teskari aloqa asosida refleksiyaning shakllantirish.

Shu bilan birga, resurslardan foydalanish ko'pincha fragmentar xarakterga ega ekan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi turlicha darajada ekanligi aniqlandi.

Amaliyotda multimedia taqdimotlari keng qo'llanilmoqda, biroq virtual laboratoriyalar va onlayn platformalardan foydalanish ko'rsatkichi pastligicha qolmoqda.

Muhokama. Umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotganiga qaramay, elektron ta'lim resurslarining mavjudligi bilan ularning o'quv natijalariga real ta'siri o'rtasida muayyan nomutanosiblik kuzatilmoqda. Maktablar kompyuter texnikasi bilan jihozlanmoqda, internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlari kengaymoqda, turli platformalar joriy etilmoqda, biroq o'quvchilarning bilim sifati va mustaqil faoliyat ko'rsatkichlari har doim ham kutilgan darajada o'savermaydi. Bu holat



texnologiyani joriy etish jarayoni metodik mexanizmlar bilan yetarli darajada uyg'unlashmaganini anglatadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda elektron resurs o'qituvchi faoliyatining yordamchi elementi sifatida qolib, darsning didaktik yadrosiga aylanmayapti. Masalan, prezentatsiya yoki videomaterial qo'llaniladi, biroq o'quvchining bilish faoliyatini boshqarish, teskari aloqa o'rnatish, natijani adaptiv ravishda baholash imkoniyatlari to'liq ishga solinmaydi. Natijada raqamli muhitdan foydalanish mavjud, ammo uning pedagogik samarasi cheklangan bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani 1, 7, 13 va 31-sonli umumta'lim maktablarida Informatika va AT fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish holati tahlil qilindi.

Quyidagi jadval tajriba-sinov ishlarida qaysi tur ustuvor qo'llanilganini aniq ko'rsatish uchun metodik asos bo'lib xizmat qildi.

Resurs turi	Asosiy vazifasi	O'quv faoliyatiga ta'siri	Odatdagi ko'rinishlari
Axborot beruvchi	Yangi bilimni yetkazish	Tushuncha hosil qiladi	e-darslik, video, prezentatsiya
Amaliy/mashq qildiruvchi	Ko'nikma shakllantirish	Faol bajarish orqali o'rganish	Trenajyor, amaliy topshiriq
Nazorat qiluvchi	Natijani baholash	O'z-o'zini tekshirish va tahlil	Test, kviz, diagnostika
Modellashtiruvchi	Jarayonni vizuallashtirish	Sabab-oqibatni anglash	Simulyatsiya, virtual lab
Kommunikativ	Hamkorlikni tashkil etish	Ijtimoiy o'rganish	Forum, chat, videomuloqot

Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda an'anaviy va raqamli elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'quv jarayonining sifati va natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bosma darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, multimedia taqdimotlari, onlayn ta'lim platformalari hamda virtual laboratoriyalar o'quvchilarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, mazkur resurslardan foydalanishda ayrim tashkiliy, texnik va metodik muammolar mavjud bo'lib, bu holat ularning to'liq samaradorligini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim resurslari yuqori pedagogik salohiyatga ega, ammo ularning samaradorligi metodik integratsiyaga bog'liq.



Agar raqamli vositalar o'quvchining faol ishtirokini, adaptiv boshqaruvni va teskari aloqani ta'minlasa, ular kompetensiyaviy natijalarga olib keladi. Aks holda ular yordamchi vizual material sifatida qolib ketadi.

Tajriba davomida elektron ta'lim resurslari muntazam qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, chorak yakunidagi test natijalariga ko'ra ijobiy baholar ulushi 62% dan 81% gacha oshdi, yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar soni esa 1,4 barobar ortdi. Olingan natijalar elektron ta'lim resurslari qo'llanilgan sharoitda o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari o'rtacha 18–23% ga yaxshilanishini tasdiqladi.

Xulosa. Umumlashtirib aytganda, elektron ta'lim resurslarining didaktik salohiyati to'g'risidagi ilmiy qarashlar ularni o'quv jarayoniga shunchaki qo'shimcha vosita sifatida emas, balki natijaga yo'naltirilgan pedagogik tizim elementi sifatida ko'rish zarurligini anglatadi. Biroq nazariy konstruktsiya qanchalik mukammal bo'lmasin, uning haqiqiy qiymati amaliy sinovda namoyon bo'ladi. Qanday sharoitda, qanday infratuzilma mavjud bo'lgan muhitda, qaysi o'qituvchi va o'quvchilar bilan ishlaganda mazkur imkoniyatlar real natijaga aylanadi.

Elektron ta'lim resurslaridan maqsadli va ilmiy asosda foydalanish Informatika va AT fanini o'qitish sifatini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Kelgusida resurslarni o'quv dasturlariga moslashtirish, o'qituvchilarning raqamli malakasini oshirish va texnik bazani mustahkamlash muhim vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ваганова О.И., Кутепов М.М., Карпова М.А. Информационные технологии обучения бакалавров в высшем учебном заведении // Карельский научный журнал. 2019. Т. 8. № 3 (28). С. 7-10.
2. Сборник материалов участников Международного научно-методического симпозиума «Электронные ресурсы в непрерывном образовании» ("ЭРНО-2010"): Труды Международного научно-методического симпозиума. г.Туапсе. - Ростов н/Д: Изд-воЮФУ, 2010. - 472 с.
3. Трайнев В. А. Электронно-образовательные ресурсы в развитии информационного общества: монография / В. А. Трайнев. - М.: Дашков и Ко, 2015. - 256 с. (Анализ использования ЭОР).
4. Богомолов А. Н. Дидактические функции, возможности и свойства цифровых образовательных ресурсов / А. Н. Богомолов, А. В. Шарапова // Наука и образование. — 2019. (Раскрывает функции: расширение контента, новые виды деятельности, индивидуализация).
5. Ярыгин О.Н. Роль компетентностного подхода в образовательной системе и развитии общества в целом //Вестник Гуманитарного института ТГУ. 2011. № 3. С. 75-78
6. Что такое образовательные информационные ресурсы? // Яндекс. - URL:[https:// ya.ru/neurum/c/nauka-i-obrazovanie/q/chto_takoe_obrazovatelnye_informacionnye_resursy_390a1529](https://ya.ru/neurum/c/nauka-i-obrazovanie/q/chto_takoe_obrazovatelnye_informacionnye_resursy_390a1529).
7. Примеры электронного обучения: микрообучение, геймификация // Flowsparks. - URL: <https://www.flowsparks.com.en2ru.search.translate.google/resources/examples-of-e-learning>.



GLOBAL INTERNET TARMOG'INING O'QUVCHILAR ONGIGA SALBIY TA'SIRI

Yodgorova N.B.

Sharq universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: global internet tarmoq, onlayn, virtual, ijtimoiy tarmoq, Instagram, FaceBook, TikTok, Odnoklassniki, Twitter.

Ключевые слова: глобальная сеть Интернет, онлайн, виртуальный, социальная сеть, Instagram, FaceBook, TikTok, Одноклассники, Twitter.

Key words: global internet network, online, virtual, social network, Instagram, Facebook, TikTok, Odnoklassniki, Twitter.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari global internet tarmog'iga qaramliligini oshib borayotganligi, ularning ongiga salbiy ta'siriga doir fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning global internet tarmog'iga bo'lgan qaramliligini oldini olishga doir taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье изложены мысли о растущей зависимости учащихся средних школ от глобальной сети Интернет и её негативном влиянии на их сознание. Также даны предложения и рекомендации по предотвращению зависимости учащихся от глобальной сети Интернет.

SUMMARY:

This article examines the growing reliance of secondary school students on the global Internet network and its potential negative impact on their mental well-being. Additionally, suggestions and recommendations were provided to help prevent students' dependence on the global Internet network.

Bugungi raqamlashtirish sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari global tarmoq makoniga bog'lanib, aksariyat vaqtini virtual muhitda o'tkazmoqda. Muammo shundaki umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari global tarmoq makonida ko'proq vaqtini tarbiyaga ta'sir etuvchi manbalarni o'qish, videolarni tinglash va foydalanuvchilar bilan turli yozishmalar yozish orqali samarasiz o'tkazmoqda [1]. Shuning uchun bugungi ilgari surilayotgan tadqiqot dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ushbu masalalar bo'yicha Britaniyalik olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'sh vaqlarini ijtimoiy



tarmoqlarda o'tkazadigan o'quvchilar tengdoshlariga qaraganda ko'proq baxtsiz bo'lishini aniqlagan. Bizning izlanishlarimizga ko'ra, ijtimoiy tarmoqda ko'p foydalangan o'quvchi jahildor, e'tiborsiz, berilgan boshqa topshiriqlarni yuzaki bajarish kabi salbiy ta'siri paydo bo'ladi.

Bu borada, O.N.Duvalina [2], A.V.Mordanova [3], N.T.Abdiraman [4]lar izlanishlar olib borgan. Ularning bidirishicha, global internet tarmog'i, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiladigan o'smirlar ko'proq salbiylikni boshdan kechiradilar.

Izlanishlarimiz tahliliga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining faqat real hayotda yuzma-yuz muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin, ammo ijtimoiy tarmoqlar va faol virtual hayot o'quvchilarni bu ko'nikmalardan foydalanilmaydigan vaziyatga qo'yadi, natijada ular rivojlanmaydi va atrofiyaga uchraydi. Ijtimoiylashuv muammolari, kattalar va tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va haqiqiy do'stlarning yo'qligi ijtimoiy tarmoqlardan tez-tez foydalanishga qaramay yo'qolmaydi, ular shunchaki o'quvchi uchun kamroq seziladi.

O'zlarining onlayn faoliyati bilan shug'ullanadigan yosh avlod atrofida ularning e'tiboriga muhtoj bo'lgan haqiqiy insonlar borligini unutishadi. Ular notanish insonlarni uchratish u yoqda tursin, oilasi va do'stlari bilan normal muloqot qila olmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli o'quvchilar haqiqiy do'stlardan ko'ra virtual do'stlarga ko'proq ahamiyat berishadi [5].

Shuningdek, onlayn o'yinlar yoshlar va hatto kattalar uchun ham o'ziga qaram bo'lib qolishi mumkin. Bu tengdoshlar bilan muloqot qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish kabi samaraliroq ishlarga sarflanishi mumkin bo'lgan qimmatli vaqtni yo'qotadi. Bundan tashqari, oila a'zolaridan biri onlayn o'yinlarga shunchalik berilib ketishi mumkinki, oxir-oqibat oilasidan butunlay uzilib qoladi.

Klemson universiteti dotsenti Jozef Meiser va Texas universiteti dotsenti Andrey Mixaylovich Ledbetter onlayn foydalanishning tez-tez depressiya va yolg'izlik kabi muammolarning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganib chiqqan maqola chop etishdi [6].

Meiser va Ledbetter insonlarning onlayn ijtimoiy aloqalarga moyilligi ularning internetdan ko'proq majburiy foydalanishiga olib kelganini aniqladilar. Agar kimdir oflayn ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lmasa, ular onlayn muloqotga ko'proq jalb qilinadi, bu esa internetdan majburiy foydalanishning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy va kommunikativ tajribasi cheklangan va yuzma-yuz muloqotda qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilar onlayn



muloqot muhitini qulayroq deb bilishadi va natijada bunday sharoitlarda muloqotni boshlash ehtimoli ko‘proq, ammo ushbu tadqiqotda Meiser va Ledbetter bunday foydalanuvchilar onlayn muloqotda hali ham xavotirga tushishini aniqladilar.

Shaxslararo xavotir majburiy, ammo shart emas, ortiqcha onlayn foydalanishga olib keladi. Aksincha, onlayn vaqtni ortiqcha o‘tkazadigan umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilari onlayn muloqotni qulay deb bilishadi, ammo real hayotdagi muloqotlarda mavjud bo‘lgan turli xil og‘zaki bo‘lmagan ishoralarning yo‘qligi sababli kommunikativ samaradorligi cheklangan.

Boshqacha qilib aytganda, Meiser va Ledbetterning tadqiqotiga ko‘ra, shaxslarning yuzma-yuz muloqot paytidagi xavotiri onlayn xavfsiz muloqot qilish uchun majburiy istakni uyg‘otadi, bunday muloqotga muvaffaqiyatli urinishlar esa onlayn vaqtni ko‘paytiradi. Shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlarning, ayniqsa yosh foydalanuvchilar orasida keng qo‘llanilishini hisobga olsak, ijtimoiy tarmoqlar endi ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishning muhim vositasidir.

Bizning fikrimizcha, global tarmoq o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan boshqa omillar ham mavjud, masalan, qulay kirish mumkin bo‘lgan pornografik materiallarning katta miqdori, noqonuniy va noo‘rin ma‘lumotlar, ularga kirish deyarli cheklanmagan yoki bu cheklovlarni chetlab o‘tish yo‘llarini internetda bir necha daqiqa vaqt sarflash orqali topish mumkin. Har kim, shu jumladan o‘quvchilar ham pornografik materiallarni qulay yuklab olishi mumkin. O‘quvchilarning ruhiyati va ongi rasmiy ravishda “kattalar uchun” deb belgilangan turli sahnalarga duch kelish orqali travma olishi, bu ularning ijtimoiylashuv mexanizmlariga zarar yetkazishi mumkin.

Bu salbiy jihatlarning barchasi o‘quvchilarning ijtimoiylashuvini sekinlashtiradi, bu esa oxir-oqibat salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Izlanishlarimiz tahlilga ko‘ra, bugungi kunda o‘quvchilar global internet tarmoqda behuda vaqt o‘tkazishga juda ko‘p vaqt sarflamoqdalar. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining faoliyatini kuzatish asosida shuni guvohi bo‘ldikki, o‘quvchilar o‘rtacha 11 yoshida o‘zlarining onlayn profillarini ochishadi. Shuningdek, Instagram, FaceBook, TikTok, Odnoklassniki, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlardan yashirincha foydalanib keladi.

Bu kabi ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning bir nechta sabablarini keltirish mumkin. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish miyamizning zavq markazlarini rag‘batlantiradi. O‘smirlar har safar fotosurati ostidagi do‘stona izohni o‘qiganlarida, “layk” olganlarida va hokazolarda yoqimli his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar. Bu his-tuyg‘ularni yana boshdan kechirish



istagi odamlarni ijtimoiy tarmoqlarga qaytaradi va ularni u yerda tobora ko‘proq vaqt o‘tkazishga majbur qiladi. Yana bir sabab – ko‘p foydalanuvchili veb-saytlarda ishlashda ma’lumotni o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Masalan, VKontakte veb-saytdan foydalanuvchi o‘smir qisqa vaqt ichida juda ko‘p turli xil ma’lumotlarni kichik qismlarda oladi. Bunda o‘smir bir qator muammolarga duch keladi: diqqatning pasayishi, axborotga qaramlik, stress, charchoq, aqlning pasayishi va begonalashuv. Biroq ota-onalarning aksariyati o‘quvchilarning bu faoliyatini bilmaydi.

Shuning uchun bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini global tarmoq makoniga qaramliyligini oldini olish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bu muammolarni yechish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- sport tadbirlarini ko‘lamini oshirish va ularga o‘quvchilarni jalb qilish chora tadbirlarini ishlab chiqish;
- global tarmoqdagi salbiy ma’lumotlarga cheklovlar qo‘yish;
- raqamli texnologiyalarning salbiy ta’siriga oid turli tadbirlar va davra suhbatlarini o‘tkazish hamda videoroliklarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi raqamlashtirish sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari global tarmoq makoniga qaramliyligini oldini olish muhm masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilarni global tarmoq makoniga qaramliyligini oldini olish uchun yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirsanov U.M. Globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalarning inson ongiga salbiy ta’siri // “Sun’iy intellekt texnologiyalarining fan va ta’limda joriy etish tajribasi: muammo va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2026. –B 233-235.

1. Дувалина О.Н., Морданова А.В. Интернет-зависимость среди молодежи // Colloquium journal. 2019. – № 9-6 (33). – С. 128-130.

2. Борисова О.В., Игнатьева А.А. Интернет-зависимость среди студентов России и Германии // Международный журнал экспериментального образования. 2014. № 6-1. С. 76-76.

3. Абдираман Н.Т. Психологическое влияние социальных сетей на учащихся начальных классов // Территория науки. 2018. № 3. – С. 167-171.

4. Гуреева А.Ю., Сизов С.В. «Интернет-зависимость: современное состояние проблемы»/ ГБОУ ВПО Саратовский государственный медицинский университет им. В.И. Разумовского Минздрава России [Электронный ресурс]. URL: <https://medconfer.com/node/5248>

5. Батманов И.Л. 11 законов эффективного воспитания подростка. – М., 2018. – С.52.



ELLIPTIK OPERATORLARGA MOS SPEKTRAL QATORLARNING DEYARLI YAQINLASHISHI UCHUN YETARLI SHARTLAR

Movlonov M.K.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Matematika kafedrası dotsenti*

Oralov J.M.

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,
Matematika yo'nalishi magistranti*

Tayanch so'zlar: elliptik differensial operator, spektral yoyilma, deyarli yaqinlashish, L_p fazolar, operatorning o'z funksiyalari, Sobolev fazolari, Riss o'rtachalari, Furey qatorlari.

Ключевые слова: эллиптический дифференциальный оператор, спектральные разложения, почти сходимость, пространства L_p , собственные функции оператора, пространства Соболева, средние Рисса, ряды Фурье.

Key words: elliptic differential operator, spectral expansions, almost convergence, L_p spaces, eigenfunctions of an operator, Sobolev spaces, Riesz means, Fourier series.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada chegaralangan sohada aniqlangan elliptik differensial operatorlarning o'z funksiyalari sistemasiga nisbatan spektral yoyilmalarning $L_p G$ fazolarda deyarli yaqinlashish xossalari tadqiq etiladi. G.G. Lorens tomonidan kiritilgan deyarli yaqinlashish tushunchasi asosida spektral yoyilmalarning L_p metrikada yaqinlashishini ta'minlovchi zarur va yetarli shartlar aniqlanadi. Ishda asosiy teoremlar va yordamchi lemmalar qat'iy isbotlari bilan bayon qilinadi hamda nazariy natijalarni tasdiqlovchi misollar keltiriladi. Olingan natijalar funksional analiz, spektral nazariya va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida qo'llanilishi mumkin.

РЕЗЮМЕ:

В работе исследуются свойства почти сходимости спектральных разложений по собственным функциям эллиптических дифференциальных операторов, заданных в ограниченной области, в пространствах $L_p G$. На основе понятия почти сходимости, введённого Г.Г.Лоренцем, получены необходимые и достаточные условия сходимости спектральных разложений в метрике L_p . В статье приведены строгие доказательства основных теорем и вспомогательных лемм, а также рассмотрены примеры, подтверждающие полученные



теоретические результаты. Полученные результаты могут быть использованы в функциональном анализе, спектральной теории и теории дифференциальных уравнений в частных производных.

SUMMARY:

This paper investigates the almost convergence of spectral expansions with respect to the eigenfunction systems of elliptic differential operators defined in a bounded domain in $L_p G$ spaces. Based on the concept of almost convergence introduced by G.G. Lorentz, necessary and sufficient conditions ensuring convergence of spectral expansions in the L_p metric are obtained. Rigorous proofs of the main theorems and auxiliary lemmas are presented, and illustrative examples confirming the theoretical results are provided. The obtained results can be applied in functional analysis, spectral theory, and the theory of partial differential equations.

Funksiyalarni elliptik differensial operatorlarning xususiy **funksiyalari** sistemasiga nisbatan qator ko'rinishida yoyish va ushbu qatorlarning yaqinlashish xossalari tadqiq etish funksional analiz hamda matematik fizikaning muhim nazariy masalalaridan biri hisoblanadi. Klassik Furrye qatorlari nazariyasi trigonometrik sistemalar uchun yetarlicha chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, umumiy ko'rinishdagi elliptik differensial operatorlarga mos spektral yoyilmalarning yaqinlashishi murakkab analitik xususiyatlarga ega bo'lib, alohida tadqiqotni talab etadi.

Ko'p o'lchamli $N \geq 2$ holatlarda spektral qatorlarning tekis yaqinlashishi funksiyalardan yuqori darajadagi sillqlik shartlarini talab qiladi. Shu sababli yaqinlashishning umumlashtirilgan tushunchalari, xususan, G.G. Lorens tomonidan kiritilgan **deyarli yaqinlashish** tushunchasi muhim nazariy vosita sifatida qaraladi[1].

L_p fazolarda spektral yoyilmalarning yaqinlashishini masalalari bilan V.A. Il'in [2], Sh.A. Alimov [3] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Biroq elliptik operatorlarga mos spektral yoyilmalarning L_p metrikada deyarli yaqinlashishi masalalari hali to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Mazkur ishning maqsadi elliptik differensial operatorlarga mos spektral yoyilmalarning L_p metrikada deyarli yaqinlashishini ta'minlovchi yetarli shartlarni aniqlash, ularni qat'iy matematik asoslash hamda olingan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

$G \in \square^N$ – chegarasi ∂G yetarlicha sillqli bo'lgan chegaralangan soha bo'lsin. m -tartibli chiziqli differensial operator quyidagi ko'rinishda berilgan deb faraz qilamiz:

$$Lu = \sum_{|\alpha| \leq m} a_\alpha(x) D^\alpha u,$$

bu yerda $a_\alpha(x) \in C^\infty(\bar{G})$, $\alpha = (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_N)$, $|\alpha| = \alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_N$,

$$D^\alpha = (-i)^{|\alpha|} \frac{\partial^{|\alpha|}}{\partial x_1^{\alpha_1} \partial x_2^{\alpha_2} \dots \partial x_N^{\alpha_N}}.$$

L operator G sohada elliptik deb ataladi, agar har qanday $x \in G$ va har qanday uchun $\xi \in \square^N \setminus \{0\}$ vektor uchun quyidagi shart bajarilsa:

$$L_0(x, \xi) = \sum_{|\alpha|=m} a_\alpha(x) \xi^\alpha \neq 0.$$

L operator uchun G sohadagi Dirixle masalasining xususiy qiymatlari ketma-ketligi $\{\lambda_n\}_{n=1}^\infty$ ($|\lambda_1| \leq |\lambda_2| \leq \dots \rightarrow \infty$) va ularga mos ortonormal xususiy funksiyalar sistemasi $\{u_n(x)\}_{n=1}^\infty$ mavjud bo'lsin. $\forall f \in L_2(G)$ funksiya uchun spektral qator qisman yig'indisi quyidagicha aniqlanadi:



$$S(x, f) = \sum_{k=1}^n c_k u_k(x), \quad c_k = (f, u_k) = \int_G f(y) \overline{u_k(y)} dy.$$

$f(x) \in L_2(G)$ funksiya va unga mos spektral qatorning qisman yigʻindilar ketma-ketligi $\{S_n(x, f)\}_{n=0}^{\infty}$ berilgan boʻlsin. Agar har qanday $x \in G$ uchun quyidagi limit mavjud boʻlib, $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1}{n+1} \sum_{j=0}^n S_{m+j}(x, f) = f(x)$ tenglik bajarilsa, u holda $\{S_n(x, f)\}_{n=0}^{\infty}$ ketma-ketlik $f(x)$ funksiyaga deyarli yaqinlashadi deyiladi.

Asosiy teoremlarni isbotlash uchun quyidagi lemmalarni keltiramiz.

Lemma1. Elliptik operator L uchun $\theta(x, y, \lambda) = \sum_{\lambda_n < \lambda} u_n(x) \overline{u_n(y)}$ spektral funksiyasi quyidagi

$$\|\theta(\cdot, y, \lambda)\|_{L_2(G)} \leq C \lambda^{\frac{N}{2m}} \quad (1)$$

tengsizlikni qanoatlantiradi. Bu yerda C — λ va y bogʻliq boʻlmagan oʻzgarmas son, m — operator tartibi, N — fazo oʻlchami.

Isboti. Spektral funksiyani taʼrifidan foydalanamiz:

$$\|\theta(\cdot, y, \lambda)\|_{L_2(G)}^2 = \int_G \left| \sum_{\lambda_n < \lambda} u_n(x) \overline{u_n(y)} \right|^2 dx.$$

Ortonormallik shartidan $(u_n, u_k) = \delta_{nk}$ foydalanib, integralni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \int_G \sum_{\lambda_n < \lambda} \sum_{\lambda_k < \lambda} u_n(x) \overline{u_n(y)} u_k(x) \overline{u_k(y)} dx &= \sum_{\lambda_n < \lambda} \sum_{\lambda_k < \lambda} u_n(y) \overline{u_k(y)} \int_G u_n(x) \overline{u_k(x)} dx = \\ &= \sum_{\lambda_n < \lambda} u_n(y) \overline{u_n(y)} = \sum_{\lambda_n < \lambda} |u_n(y)|^2. \end{aligned}$$

Veylning asimptotik qonuniga koʻra, xususiy qiymatlar soni $N(\lambda) \sim C \lambda^{\frac{N}{m}}$. Xususiy funksiyalarning baholari esa $|u_n(x)| \leq C \lambda_n^{\frac{N-1}{2m}}$ oʻrinishida boʻladi (elliptik operatorlar uchun standart baho [4]).

Shunday qilib:

$$\sum_{\lambda_n < \lambda} |u_n(y)|^2 \leq C \cdot N(\lambda) \cdot \max_{\lambda_n < \lambda} |u_n(y)|^2 \leq C_1 \lambda^{\frac{N}{m}} \cdot \lambda^{\frac{N-1}{m}} = C_2 \lambda^{\frac{2N-1}{m}}.$$

Bundan: $\|\theta(\cdot, y, \lambda)\|_{L_2(G)} \leq C \lambda^{\frac{N}{2m} - \frac{1}{2m}} \leq C' \lambda^{\frac{N}{2m}}$. Lemma1 isbotlandi.

Lemma2. Agar $f \in W_2^l(G)$ boʻlsa, u holda elliptik operator L ga mos xususiy funksiyalar boʻyicha Fyurje koeffitsiyentlari quyidagi tengsizlikni qanoatlantiradi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} |c_n|^2 \lambda_n^{\frac{2l}{m}} \leq C \|f\|_{W_2^l(G)}^2. \quad (2)$$

Isbot. Operator L ning oʻz-oʻziga qoʻshma ekanligidan foydalanamiz. Maʼlumki, $L^k(f)$ funksiyani Fyurje koeffitsiyentlari $\lambda_n^k c_n$ ga teng. Parseval tengligiga koʻra,

$$\|L^k f\|_{L_2(G)}^2 = \sum_{n=1}^{\infty} |\lambda_n^k c_n|^2.$$



Sobolev fazosining ta'rifiga muvofiq, $\|f\|_{W_2^l(G)}$ normasi operator darajalari orqali baholanishi mumkin. Umumiy holatda esa interpolatsiya tengsizliklaridan foydalanib,

$$\sum_{n=1}^{\infty} |c_n|^2 (1 + \lambda_n^2)^{\frac{l}{m}} \leq C \|f\|_{W_2^l(G)}^2.$$

Katta λ_n lar uchun $(1 + \lambda_n^2)^{\frac{l}{m}} \square \lambda_n^{\frac{2l}{m}}$ bo'lganidan $\sum_{n=1}^{\infty} |c_n|^2 \lambda_n^{\frac{2l}{m}} \leq C \|f\|_{W_2^l(G)}^2$. Bu tengsizlik

Furye koeffitsiyentlarining spektral parametrlar bo'yicha kamayishini ifodalaydi va lemma isbotini yakunlaydi.

Lemma3. Agar spektral qatorning Riss o'rtachalari $R_\lambda^\alpha(x, f)$ ma'lum bir $\alpha > 0$ tartibda $f(x)$ funksiyaga $L_p(G)$ metrikada yaqinlashsa, u holda spektral qatorning qisman yig'indilari ham $f(x)$ ga deyarli yaqinlashadi.

Isbot. Batafsil isbot [5] da keltirilgan.

Teorema 1. Faraz qilaylik, $f \in W_2^l(G)$ va $l > \frac{N}{2}$ shart bajarilsin. U holda L elliptik operatorga mos spektral qator $f(x)$ ga $L_2(G)$ metrikada deyarli yaqinlashadi, ya'ni:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sup_{m \geq 0} \left\| \frac{1}{n+1} \sum_{j=0}^n S_{m+j}(\cdot, f) - f(\cdot) \right\|_{L_2} = 0.$$

Buni Furye qatori ko'rinishida yozamiz: $S_k(x, f) = \sum_{p=1}^k c_p u_p(x)$. $\gamma_{n,m,p}$ - qisman yig'indilar soniga qarab o'zgaruvchi koeffitsiyent. Shunday qilib, farq: $\sigma_{n,m}(x) = \sum_{p=1}^{\infty} c_p u_p(\gamma_{n,m,p} - 1)$. Parseval tengligiga ko'ra:

$$\|\sigma_{n,m}\|_{L_2}^2 = \sum_{p=1}^{\infty} |c_p|^2 |\gamma_{n,m,p} - 1|^2.$$

$$p > m \text{ da } \gamma_{n,m,p} - 1 \neq 0, |\gamma_{n,m,p} - 1| \leq 1. \text{ Demak: } \|\sigma_{n,m}\|_{L_2}^2 \leq \sum_{p=m+1}^{\infty} |c_p|^2.$$

Lemma2 dan foydalanamiz. $f \in W_2^l(G)$ bo'lgani uchun:

$$\sum_{p=1}^{\infty} |c_p|^2 \lambda_p^{\frac{2l}{m}} \leq C \|f\|_{W_2^l(G)}^2 < \infty.$$

Katta p lar uchun $\lambda \square p^{\frac{m}{N}}$ (Veyl qonuni). Demak:

$$\sum_{p=m+1}^{\infty} |c_p|^2 = \sum_{p=m+1}^{\infty} |c_p|^2 \lambda_p^{\frac{2l}{m}} \cdot \lambda_p^{-\frac{2l}{m}}.$$

$$\lambda_p^{-\frac{2l}{m}} \leq C p^{-\frac{2l}{N}} \text{ bo'lgani uchun: } \sum_{p=m+1}^{\infty} |c_p|^2 \leq C \left(\sum_{p=m+1}^{\infty} |c_p|^2 \lambda_p^{\frac{2l}{m}} \right) \cdot \max_{p>m} p^{-\frac{2l}{N}}.$$

$l > \frac{N}{2}$ shartida $\frac{2l}{N} > 1$, shuning uchun qator yaqinlashadi va $m \rightarrow \infty$ da nolga intiladi,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sup_{m \geq 0} \|\sigma_{n,m}\|_{L_2} = 0. \text{ Teorema isbotlandi.}$$



Teorema 2. Faraz qilaylik, $f \in W_p^l(G)$, $1 < p < \infty$ va $l > N \left| \frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right| + N$. U holda spektral qator $f(x)$ ga $L_p(G)$ metrikada deyarli yaqinlashadi.

Isboti. $p = 2$ holati Teorema1 da isbotlangan. $p \neq 2$ holni qaraymiz. Riss o'rtachalarini kiritamiz: $R_\lambda^\alpha(x, f) = \sum_{\lambda_n < \lambda} \left(1 - \frac{\lambda_n}{\lambda}\right)^\alpha c_n u_n(x)$. Ma'lumki, elliptik operatorlarga mos spektral yoyilmalarning Riss o'rtachalari $L_p(G)$ metrikada yaqinlashishi uchun quyidagi $\alpha > (N-1) \left| \frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right|$ shart bajarilishi zarur va yetarli.[6]

Lemma3 ga ko'ra, agar Riss o'rtachalari yaqinlashsa, u holda spektral yoyilmaning deyarli yaqinlashishi ham o'rinli bo'ladi.

$$\|R_\lambda^\alpha\|_{L_p(G)} \leq C \lambda^{-\beta} \|f\|_{W_p^l(G)}$$

ko'rinishdagi baho olinadi, bu yerda $\beta > 0$ bo'lishi uchun yuqoridagi l shart bajarilishi zarur. Endi $f \in W_p^l(G)$ shartni hisobga olamiz. Sobolevning joylashish teoremasiga ko'ra

$$W_p^l(G) \subset L_q(G), \quad \frac{1}{q} = \frac{1}{p} - \frac{l}{N}.$$

$f \in L_2(G)$ bo'lishi uchun $q \geq 2$ bo'lishi zarur, ya'ni $\frac{1}{p} - \frac{l}{N} \leq \frac{1}{2} \Rightarrow l \geq N \left(\frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right)$.

$p < 2$ uchun $W_p^l(G) \subset W_2^{l'}(G)$, $l' = l - N \left(\frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right)$. Teorema1 ga ko'ra, $L_2(G)$ da

deyarli yaqinlashish uchun $l' > \frac{N}{2}$ bo'lishi kerak. Demak,

$$l - N \left| \frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right| > \frac{N}{2} \Rightarrow l > N \left| \frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right| + \frac{N}{2}.$$

Shunday qilib, yuqoridagi shart bajarilganda spektral yoyilma $L_p(G)$ metrikada deyarli yaqinlashadi. Teorema isbotlandi.

Natija1. Bir o'lchamli ($N = 1$) holatda, masalan, Sturm-Liouville tipidagi elliptik operator uchun, agar $f \in W_p^l(0,1)$ bo'lsa, u holda:

- $p = 2$ bo'lganda spektral yoyilmaning deyarli yaqinlashishi uchun $l > \frac{1}{2}$ shart yetarli;
 - $p \in (1, \infty)$ bo'lganda esa $l > \left| \frac{1}{p} - \frac{1}{2} \right| + \frac{1}{2}$ shart yetarli.
- Natija2. Laplas operatori $-\Delta u = \lambda u$ uchun:
- $N = 2, p = 2$ holatda $l > 1$ shart yetarli;
 - $N = 3, p = 2$ holatda esa $l > \frac{3}{2}$ shart yetarli.



Keltirilgan natijalar elliptik operatorlar spektral yoyilmalarining yaqinlashish xossalarini konkret operatorlar va fazo o'lchamlari uchun aniq ko'rsatib beradi hamda sonli usullarni asoslashda muhim nazariy mezonlar sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur maqolada elliptik differensial operatorlarga mos spektral yoyilmalarning $L_p(G)$ fazolarda deyarli yaqinlashish masalasi o'rganildi. Ushbu yaqinlashish uchun zarur va yetarli shartlar aniqlanib, ularning qat'iy matematik asoslari keltirildi.

FOYFALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lorentz G.G. A contribution to the theory of divergent sequences // Acta Mathematica. - 1948. - Vol. 80. - P. 167–190.
2. Ильин В.А. Спектральная теория дифференциальных операторов. - М.: Наука, 1991. - 304 с.
3. Алимов Ш.А., Ашуров Р.Р., Пулатов А.К. Спектральные разложения для дифференциальных операторов // Итоги науки и техники. Серия: Современные проблемы математики. Фундаментальные направления. - 1991. - Т. 42. - С. 5-272.
4. Hörmander L. The Analysis of Linear Partial Differential Operators. Vol. III. - Berlin: Springer-Verlag, 1985. - 525 p.
5. Mamedov Y.I. Almost convergence of spectral expansions for elliptic operators // Journal of Mathematical Analysis and Applications. - 2020. - Vol. 485, No. 1. - P. 123–145.
6. Ashurov R.R. Riesz means of spectral expansions for elliptic operators // Differential Equations. - 2015. - Vol. 51, No. 3. - P. 345-358.



O'ZGARUVCHAN ZICHLIKKA EGA YARIM SHAR JISMNING OG'IRLIK MARKAZINI UCH O'LCHOVLI INTEGRAL YORDAMIDA HISOBLASH

Ismoilova Z.T.

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchi*

Tayanch so'zlar: zichlik taqsimoti, og'irlik markazi, uch o'lchamli integral, sferik koordinatalar, notekis zichlik, fizik modellashirish, yarim shar jism, massa hisoblash, markazdan uzoqlik, sferik simmetriya

Ключевые слова: распределение плотности, центр тяжести, тройной интеграл, сферические координаты, неоднородная плотность, физическое моделирование, полушарие, вычисление массы, удалённость от центра, сферическая симметрия.

Key words: density distribution, center of mass, triple integral, spherical coordinates, non-uniform density, physical modeling, hemispherical body, mass calculation, radial distance, spherical symmetry

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada zichligi fazodagi nuqtaning markazdan uzoqligiga bog'liq holda o'zgaruvchi, yuqoriga qaragan yarim shar shaklidagi moddiy jismning og'irlik markazini aniqlash masalasi ko'rib chiqilgan. Jismlarning aksariyat hollarda zichligi bir jinsli bo'lmasligi sababli, bunday tizimlarda massani aniqlash uchun uch o'lchamli integral usul zarur bo'ladi. Zichlik funksiyasi sferik simmetriyaga ega bo'lgani uchun, masala sferik koordinatalarda yechilgan. Avval jismning umumiy massasi hisoblanadi, so'ng og'irlik markazi koordinatalari aniqlanadi. Hisoblashlar natijasida og'irlik markazi koordinatalari ekanligi ko'rsatildi. Bu qiymat bir jinsli yarim shar uchun mavjud bo'lgan $\bar{z} = \frac{3R}{8}$ dan yuqoriroq bo'lib, zichlikning markazdan uzoqlashgan sari ortishi og'irlik markazining yuqoriga siljishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Maqola natijalari og'irlik markazini aniqlashda zichlik taqsimoti muhim rol o'ynashini va uch o'lchamli integral usulining amaliy fizik modellashirishdagi ahamiyatini namoyon etadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается задача определения центра масс полусферического твердого тела, плотность которого изменяется в зависимости от расстояния от начала координат. Поскольку большинство реальных объектов не обладает равномерной плотностью, для вычисления их массы требуется использование тройных интегралов. Благодаря сферической симметрии функции плотности задача решается в сферических координатах. Сначала вычисляется общая масса тела, а затем определяются координаты центра масс. Результаты показывают, что центр масс располагается выше, чем у равномерно плотной полусферы, где $\bar{z} = \frac{3R}{8}$, что подтверждает: увеличение плотности с ростом расстояния от центра смещает центр масс вверх. Полученные выводы демонстрируют важную роль распределения плотности при определении центра масс и



подчеркивают практическую значимость методов тройного интеграла в физическом моделировании.

SUMMARY:

This article investigates the problem of determining the center of mass of a hemispherical solid object whose density varies depending on the distance from the origin. Since most real-world objects do not have uniform density, calculating their mass requires the use of triple integrals. Due to the spherical symmetry of the density function, the problem is solved using spherical coordinates. First, the total mass of the object is computed, and then the coordinates of the center of mass are determined. The results show that the center of mass lies higher than that of a uniformly dense hemisphere, where $\bar{z} = \frac{3R}{8}$, confirming that increasing density with distance from the center shifts the center of mass upward. These findings demonstrate the critical role of density distribution in determining the center of mass and highlight the practical significance of triple integral methods in physical modeling.

Moddiy jismlarning fizik xossalarini aniqlashda ularning massasi va bu massa fazodagi qanday taqsimlangani eng muhim mezonlardan biridir. Oddiy holatlarda jism butun hajmi bo'ylab bir xil tuzilishga ega deb faraz qilinadi, bu esa massani aniqlashda an'anaviy usullardan foydalanishga imkon beradi. Biroq hayotdagi jismlar ko'pincha ichki tarkibi va zichligi jihatidan bir xil bo'lmaydi. Ularning har bir nuqtasida modda miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, yer qobig'i chuqurlik sari o'z zichligini o'zgartiradi, metall jismlar haroratga bog'liq holda kengayadi va zichligi o'zgaradi, sanoatda keng qo'llanilayotgan kompozit materiallar turli moddalarning birikmasidan iborat bo'lganligi sababli, zichligi hududdan hududga farqlanadi. Murakkab tuzilmalar uchun oddiy fizik formulalar yetarli emas, balki zichlikning fazodagi o'zgarishini hisobga oluvchi matematik yondashuv zarur bo'ladi.

Bu holatda massani yoki unga bog'liq fizik kattaliklarni aniqlash uchun uch o'lchamli fazoda matematik integrallash usulidan foydalaniladi. Bu usul nafaqat massani aniq hisoblashga, balki jismning og'irlik markazini aniqlashga ham imkon beradi. Og'irlik markazi - bu jism butun og'irligi yoki massasi go'yoki bitta markaziy nuqtada jamlangandek harakat qiladigan muvozanat nuqtasidir. Bu tushuncha jismning harakati, aylanishi va kuchlarga qanday javob berishini o'rganishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Muhandislik, mexanik jarayonlarni o'rganish, qurilish va materialshunoslik sohalarida og'irlik markazini aniq aniqlash talab etiladi. Zichligi notekis taqsimlangan jismlar uchun bu markazni topish oddiy geometrik usul bilan emas, balki har bir nuqtadagi zichlikni inobatga oluvchi integrallash orqali amalga oshiriladi.

Uch o'lchamli integral matematikasi murakkab jismlarning ichki tuzilmasini, zichlik taqsimotini va jismning muvozanat nuqtasini aniqlashda eng asosiy nazariy vositalardan biri hisoblanadi. Bu maqolada murakkab holat zichligi markazdan uzoqlashgan sari ortib boruvchi yarim shar shaklidagi jismning og'irlik markazini aniqlash masalasi o'rganiladi. Ushbu usul orqali murakkab fizik holatlarni qanday aniqlik bilan tahlil qilish mumkinligi ko'rsatib beriladi. Moddiy jismning massasi fizik kattalik sifatida uning egallagan hajmi va shu hajmda moddaning zichligiga bog'liq holda aniqlanadi. Keng tarqalgan fizik modelga ko'ra, jismning massasi deganda, uning fazodagi butun hajm bo'ylab modda miqdorining yig'indisi tushuniladi. Oddiy holatlarda, ya'ni jism butun hajmi bo'ylab bir jinsli ya'ni bir xil zichlikka ega bo'lsa, massani hisoblash klassik formulaga asoslanadi:

$$M = \rho \cdot V$$

Hayotdagi jismlarning aksariyat qismi notekis zichlikka ega bo'ladi. Jismning har bir nuqtasida zichlik har xil bo'lishi mumkin. Masalan, yer osti qatlamlari, qattiq jismlarning temperaturaga bog'liq kengayishi yoki kompozit materiallar bularning har biri zichlikni makon bo'ylab o'zgaruvchan qilib qo'yadi. Shunday hollarda oddiy $\rho \cdot V$ formulasi o'z kuchini yo'qotadi va jism massasini to'g'ri aniqlash uchun uch o'lchovli integral ya'ni hajm integralidan foydalanish zarur bo'ladi.



Matematik nuqtai nazardan, bu usul quyidagicha ifodalanadi: jism fazodagi biror soha V ni egallagan bo'lsin, va har bir nuqtadagi zichlik $\rho(x, y, z)$ funksiyasi orqali berilgan bo'lsin. U holda jismlarning umumiy massasi M quyidagi integral orqali aniqlanadi:

$$M = \iiint_V \rho(x, y, z) dV$$

Bu yerda:

(x, y, z) jismdagi nuqtaning koordinatalari; $\rho(x, y, z)$ – har bir nuqtadagi zichlik funksiyasi; dV – fazodagi elementar hajm.

Ushbu formula fizikada moddaning hajmiy taqsimotini hisobga olgan holda, jism massasini aniqlash imkonini beradi. Uch o'lchovli integral tushunchasi yordamida zichlikning o'zgaruvchanligini aniq hisobga olish mumkin bo'lib, bu metod og'irlik markazi, inersiya momenti, ichki energiya, bosim taqsimoti kabi ko'plab boshqa fizik kattaliklarni hisoblashning ham nazariy asosini tashkil etadi.

Uch o'lchovli integral jismlarning strukturaviy va fizik xususiyatlarini aniqlashda eng muhim matematik vositalardan biri bo'lib, u murakkab modellarni tahlil qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Quyidagi bo'limlarda bu integralning amaliy qo'llanilishi, xususan, massani hisoblashdagi o'rni batafsil tahlil qilinadi.

Jismlarning og'irlik markazi yoki bu fazodagi shunday nuqtaki, butun jismlarning og'irligi yoki massasi go'yoki shu nuqtada jamlangandek ta'sir qiladi. Og'irlik markazi jismlarning muvozanatini tahlil qilishda, uning harakatini, aylanishini va kuchlar taqsimotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Og'irlik markazi jismlarning har bir nuqtasidagi massaning fazodagi joylashuviga bog'liq bo'lgani uchun, bu nuqtani aniqlashda massani aniqlovchi formuladan, ya'ni uch o'lchovli integral asosidagi yondashuvdan foydalaniladi.

Og'irlik markazi yoki massa markazi bu jismlarning massasi yoki og'irligi go'yoki yagona nuqtada jamlangandek harakat qiladigan markaziy nuqtadir. Agar jism muvozanatga keltirilsa, nuqtadan osilgan holatda barqaror turadi. Bu tushuncha statika, dinamika, konstruksiya muhandisligi, aerokosmik tizimlar va mexanik modelashtirishda muhim o'rin tutadi.

Fazoda har bir nuqtaning zichligi farqli bo'lishi mumkin. Shu sababli, og'irlik markazining koordinatalari har bir nuqtaning massasi va joylashuviga bog'liq bo'ladi.

Moddiy jismlarning muvozanat holati va harakatini o'rganishda og'irlik markazi muhim tushuncha hisoblanadi. Bu nuqta jismlarning dinamikasida, ayniqsa aylanish va kuchlar taqsimotida markaziy rol o'ynaydi. Og'irlik markazi jismdagi barcha massalar go'yoki shu nuqtada to'plangandek ta'sir qiladigan geometrik joydir.

Jismlarning tuzilmasi va zichlik taqsimoti murakkab bo'lishi mumkin. Shu sababli og'irlik markazini aniqlash uchun bizga faqat geometrik shakl emas, balki jismlarning zichlik funksiyasi ham kerak bo'ladi. Bu holatda og'irlik markazi matematik integrallash vositasida aniqlanadi ya'ni jism ichidagi barcha elementar massalarning fazodagi joylashuvi hisobga olinadi.

Endi jismlarning og'irlik markazi koordinatalari $\bar{x}$, $\bar{y}$, $\bar{z}$ quyidagi integral formulalar orqali aniqlanadi:

$$\bar{x} = \frac{1}{M} \iiint_V x \cdot \rho(x, y, z) dV$$

$$\bar{y} = \frac{1}{M} \iiint_V y \cdot \rho(x, y, z) dV$$

$$\bar{z} = \frac{1}{M} \iiint_V z \cdot \rho(x, y, z) dV$$



Bu formulalarda:

$\rho(x, y, z)$ – har bir nuqtadagi massa dm ni $x - o'$ qi bo'yicha tortilayotgan miqdori,

$\bar{x}$ – umumiy og'irlikni $x - o'$ qi bo'yicha balanslovchi qiymat;

Shu kabi $\bar{y}$ va $\bar{z}$ ham fazodagi yondosh o'qlar bo'yicha og'irlikning muvozanat nuqtasini beradi.

Bu formulalar fizikadagi massali o'rtacha qiymat formulalariga o'xshaydi, chunki og'irlik markazi bu jismning massaga bog'liq markaziy joyi. Zichligi o'zgaruvchi yarim shar jismning og'irlik markazini topish:

Masala. Fazoda radiusi R bo'lgan yuqoriga qaragan yarim shar shaklidagi jism ko'rib chiqilmoqda. Bu jismda zichlik fazodagi nuqtaning markazdan ya'ni koordinata boshidan uzoqligiga kvadratik ravishda oshib boradi, ya'ni zichlik funksiyasi quyidagicha berilgan:

$$\rho(x, y, z) = k \cdot \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}$$

Bu yerda k – ijobiy doimiy masalan, zichlik birligi uchun kg/m^4 . Jism yuqoriga qaragan, ya'ni $z \geq 0$ bo'lgan yarim shar shaklida. Jismning og'irlik markazi koordinatalarini $(\bar{x}, \bar{y}, \bar{z})$ toping.

Yechish. Bu masalada zichlik fazodagi koordinatalarning kvadrat yig'indisiga bog'liq bu esa sferik simmetriyani bildiradi. Shuning uchun hisoblashlarni sferik koordinatalarda bajarish maqsadga muvofiq. Jismning shakli sferik simmetriyaga ega bo'lgani uchun masalada siz ko'rayotgan jism bu yarim shar, ya'ni geometrik jihatdan shar simmetriyasiga ega. Bunday jismda x, y, z o'zgaruvchilari orqali integral olish juda murakkab bo'ladi, chunki integrallash sohasi doira va shar sirtlari bilan chegaralangan.

Lekin sferik koordinatalarda bunday shakllar oddiy doiraviy chegaralar orqali ifodalanadi:

$$x = r \sin \varphi \cdot \cos \theta, \quad y = r \cdot \sin \varphi \cdot \sin \theta, \quad z = r \cos \theta$$

Zichlik koordinatalar orqali quyidagicha berilgan: $\rho(x, y, z) = k(x^2 + y^2 + z^2)$.

Bu ifoda jismning har bir nuqtadagi zichligini ya'ni birlik hajmdagi massani ifodalaydi. $k > 0$ – fizik doimiy birligi kg/m^4 bu zichlikning qanday tezlikda o'sishini belgilaydi.

$$dV = r^2 \sin \varphi dr d\varphi d\theta$$

Integrallash sohasi:

$$\begin{cases} 0 \leq r \leq R \\ 0 \leq \varphi \leq \frac{\pi}{2} \\ 0 \leq \theta \leq 2\pi \end{cases}$$

Dekart koordinatalarda: $x^2 + y^2 + z^2 = r^2$. Bu nuqtaning koordinata boshidan markazdan bo'lgan masofasining kvadrati. Demak, zichlikni quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$\rho = k(x^2 + y^2 + z^2) = kr^2$$

$$M = \iiint_V \rho(x, y, z) dV = \iiint_V k^2 \cdot r^2 \cdot r^2 \cdot \sin \varphi dr d\varphi d\theta =$$

$$= k \iiint_V r^4 \sin \varphi \cdot dr \cdot d\varphi \cdot d\theta;$$

Bo'laklarga ajratib hisoblaymiz:

$$M = k \int_0^{2\pi} d\theta \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sin \varphi \cdot d\varphi \int_0^R r^4 dr$$



Uch karrali integralni ketma-ket hisoblaymiz:

$$I_1 = \int_0^{2\pi} d\theta = 2\pi;$$

$$I_1 = \int_0^{\pi} \sin\varphi d\varphi = -\cos\varphi|_0^{\pi} = 1;$$

$$I_3 = \int_0^R r^4 dr = \frac{r^5}{5}$$

U holda:

$$M = k \cdot 2\pi \cdot 1 \cdot \frac{R^5}{5} = \frac{2\pi k R^5}{5}$$

Bu formula sferik simmetriyaga ega, zichligi markazdan uzoqlik bo'yicha kvadratik ortadigan yarim shar jismning massasi qanday aniqlanishini ko'rsatadi. Bu ifoda uch o'lchovli integralning amaliy qo'llanilishi bo'lib, zichlikning notekis taqsimotiga ega jismlar fizikasi uchun muhimdir.

Jism sferik simmetriyaga ega bo'lgani sababli:

$$\bar{x} = 0; \bar{y} = 0$$

Fazoda zichlik markazdan bir tekisda harakat qiladi, va x, y o'qlar bo'yicha muvozanat markazi koordinata markazida qoladi. Bu formula uch o'lchovli jismning og'irlik markazining z - o'qi bo'yicha koordinatasini topish uchun ishlatiladi.

$$\bar{z} = \frac{1}{M} \iiint_V z \cdot \rho(x, y, z) dV$$

$$\bar{z} = \frac{1}{M} \iiint_V \rho \cdot \cos\varphi \cdot k \cdot r^2 \cdot r^2 \cdot \sin\varphi \cdot dr d\varphi d\theta = \frac{1}{M} \cdot k \cdot \iiint_V r^5 \cdot \cos\varphi \cdot \sin\varphi \cdot dr \cdot d\varphi \cdot d\theta$$

Uch karrali integralni ketma ket integrallaymiz:

$$I_1 = \int_0^{2\pi} d\theta = 2\pi$$

$$I_2 = \int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos\varphi \cdot \sin\varphi \cdot d\varphi = \frac{1}{2}$$

$$I_3 = \int_0^R r^5 dr = \frac{R^6}{6}$$

Shuning uchun:

$$M = \frac{2\pi k R^5}{5}$$

$$\bar{z} = \frac{\pi k R^6}{6 \cdot \frac{2\pi k R^5}{5}} = \frac{R^6}{\frac{12}{5} \cdot R^5} = \frac{5}{12} R$$

Natija:

$$\bar{x} = 0; \bar{y} = 0; \bar{z} = \frac{5}{12} R;$$

Zichlik markazdan uzoqlashgan sari ortib boradi bu og'irlik markazining geometrik markazdan yuqoriga siljishiga olib keladi. Oddiy bir jinsli yarim shar uchun $\bar{z} = \frac{3R}{8}$; $\bar{z} = \frac{5R}{12} > \frac{3R}{8}$ ya'ni og'irlik yuqoriroq ko'tarilgan.



Ushbu ishda zichligi markazdan uzoqlashgan sari ortib boruvchi yarim shar shaklidagi jismning og'irlik markazi aniqlangan. Masala sferik simmetriya va zichlikning radial bog'liqligi sababli uch o'lchamli integral yordamida sferik koordinatalarda yechilgan. Hisoblashlar natijasida og'irlik markazi koordinatasi $\bar{z} = \frac{5}{12}R$ ekanligi aniqlangan. Bu qiymat, bir jinsli yarim shar uchun mavjud bo'lgan $\bar{z} = \frac{3R}{8}$ dan yuqoriroq bo'lib, zichlikning markazdan uzoqlashgani sayin ortishi og'irlik markazining yuqoriroq siljishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Maqola zichlik taqsimotining og'irlik markazini aniqlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi hamda uch o'lchamli integral metodining fizik tahlilda amaliy qo'llanilishini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E. Karimov, A. Meliboyev, B. Islomov Oliy matematika. 1-qism. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016. - 432 bet
2. Sh.R. Xurramov Oliy matematika 3-qism: Darslik, "Mehrnuri" Toshkent-2024 - 888 bet.



KONSTRUKTIV SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA SIQUVCHI KUCH TA'SIRIDAGI BRUSLARNING OG'IRLIK OMILI

Ismoilova Z.T.

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchi*

Tayanch so'zlar: brus, siquvchi kuch, og'irlik, konstruktiv samaradorlik, o'zgarmas kesimli brus, pog'ona brus, teng qarshilikli brus, statik kuch, konstruktiv tahlil, material sarfi.

Ключевые слова: колонна, сжимающая сила, собственный вес, конструктивная эффективность, колонна с постоянным сечением, ступенчатая колонна, колонна равного сопротивления, статическая нагрузка, структурный анализ, расход материала.

Key words: column, compressive force, self-weight, structural efficiency, uniform cross-sectional column, stepped column, tapered column, static load, structural analysis, material consumption.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada bruslarning siquvchi kuchlar ostida ishlashida ularning o'z og'irligining ta'siri va turli kesim shakllarining konstruktiv samaradorligi tahlil qilindi. O'zgarmas kesimli, pog'onali va teng qarshilikli bruslarning og'irliklari va ularga ta'sir etuvchi kuchlanishlar solishtirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, teng qarshilikli brus eng yengil va samarali variant sifatida ajralib turdi, uning og'irligi o'zgarmas kesimli brusning og'irligidan 65% va pog'onali brusning og'irligidan 20% kam ekanligi aniqlandi. Statik kuchlar ostida ishlovchi bruslarning og'irligi nafaqat tashqi yuklamalarga, balki ularning o'z og'irligiga ham bog'liq bo'lib, bu holatni hisobga olish konstruksiyaning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Eng maqbul konstruksiyani tanlashda og'irlikni kamaytirish, materialni samarali ishlatish va kuchlanishni optimallashtirish eng asosiy vazifalardan biridir. Ushbu tahlil konstruksiya elementlarining barqarorligini va ishonchligini ta'minlash uchun eng yaxshi dizayn tanlashda yordam beradi.

РЕЗЮМЕ:


В данной статье проанализировано влияние собственного веса брусев при их работе под действием сжимающих сил, а также конструктивная эффективность различных форм сечений. Сравнены веса и возникающие напряжения у брусев с постоянным сечением, ступенчатых и брусев равного сопротивления. По результатам анализа установлено, что брус равного сопротивления является наиболее лёгким и эффективным вариантом: его вес на 65% меньше, чем у бруса с постоянным сечением, и на 20% меньше, чем у ступенчатого бруса. Вес брусев, работающих под действием статических сил, зависит не только от внешних нагрузок, но и от их собственного веса, что имеет важное значение при обеспечении устойчивости конструкции. При выборе оптимальной конструкции основными задачами являются снижение веса, эффективное использование материала и оптимизация напряжений. Данный анализ способствует выбору наилучшего варианта конструкции для обеспечения устойчивости и надёжности её элементов.



SUMMARY:

This article analyzes the impact of the self-weight of columns (braces) and the structural efficiency of different cross-sectional shapes under compressive forces. The weights and stress effects of uniform cross-sectional, stepped, and tapered columns were compared. According to the analysis results, the tapered column emerged as the lightest and most efficient option, with a weight approximately 65% lighter than the uniform cross-sectional column and 20% lighter than the stepped column. The self-weight of columns under static loading is significant not only in relation to the external loads but also in the overall stability of the structure. Accounting for this factor is crucial to ensure the structural integrity. When selecting an optimal design, reducing weight, efficiently using materials, and optimizing stress distribution are among the key tasks. This analysis helps to choose the best design to ensure the stability and reliability of structural elements.

3. Ekologik dunyoqarashning shakllanishi - ta'limni "inson - tabiat-jamiyat" tizimiga qarashlarning yaxlit tizimini ishlab chiqish jarayoni sifatida tavsiflaydi.

4. Ekologik ongni rivojlantirish-ta'limni ekologik qadriyatlar va ma'nolarni ichkilashtirish deb ta'riflaydi.

5. Ekologik javobgarlikni tarbiyalash-tarbiya natijasini shaxsning tabiiy muhitga nisbatan majburiyatlarini qabul qilishi sifatida belgilaydi.

Dissertatsiya matnida ushbu atamalardan tabaqalashtirilgan foydalanish mavzuni o'rganish uchun zarur bo'lgan chuqurlikni ta'minlaydi va kerakli semantik aksanlarni joylashtirishga imkon beradi.

Asosiy qism: Ekologik ta'limning asosiy maqsadi tabiiy muhitda o'z faoliyatining oqibatlarini aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish va u bilan teng huquqli yashashga yo'naltirishdir. Boshlang'ich maktabning o'quv jarayoni kontekstida ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi:

- Ekologiya sohasida tizimli fikrlashni rivojlantirish: boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy tizimlarning ishlashini belgilovchi omillar va ularni o'zgartirishning antropogen omillari to'g'risida yaxlit g'oyani shakllantirish. Vazifa ekologik munosabatlarning universal tabiati to'g'risida bilimlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.
- Ekologik ongning axloqiy va qadriyat poydevorini shakllantirish: yosh avlodda tabiiy ob'ektlarga sub'ektiv munosabatni belgilaydigan ekologik qadriyatlar va e'tiqodlarning barqaror tizimini shakllantirish. Asosiy e'tibor mas'uliyatni rivojlantirish va hayotning barcha shakllarining qadr-qimmatini tan olishga qaratilgan.
- Atrof-muhitni baholashning intellektual apparatini shakllantirish: yosh o'quvchilarda atrof-muhitning ekologik holatini malakali baholash uchun zarur bo'lgan kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish. Vazifaning mazmuni ekologik tahdidlarni tan olish, xavflarni tartiblash va tabiatga ta'sir qilishning kechiktirilgan oqibatlarini bashorat qilishni o'rgatishni o'z ichiga oladi.
- Ekologik asoslangan faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik maqsadga muvofiqlik va barqaror rivojlanish



tamoyillariga mos keladigan operatsion ko'nikmalar va barqaror xulq-atvor modellarini shakllantirish, tabiiy muhit tarkibiy qismlari bilan amaliy hamkorlik jarayonida.

Taqdim etilgan vazifalar to'plami tizimli bo'lib, boshlang'ich maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini integral shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu ularning ekologik jihatdan tasdiqlangan qarorlarni qabul qilishga qodir sub'ektlar sifatida keyingi ijtimoiylashuvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

M. N. Markovaning pozitsiyasiga ko'ra, milliy ekologik ta'lim tizimining samarali ishlashi ekologik madaniyatning tizimogenezini ta'minlaydigan quyidagi asosiy qoidalarni amalga oshirishga asoslangan:

- Doimiylik (uzluksizlik) printsipi: ekologik ta'limni tabiat bilan o'zaro munosabatlarning sub'ektiv tajribasini boyitishning doimiy jarayoni sifatida joylashtirish mantig'ini belgilaydi.
- Holizm (murakkablik) printsipi: ekologik tarbiyaning barcha tarkibiy qismlariga: kognitiv (bilim), affektiv (munosabatlar), konativ (xulq-atvor) va aksiologik (qadriyatlar) ta'sir ko'rsatishni o'z ichiga oladi.
- Fanlararo integratsiya printsipi: ekologik aloqalarning universalligini namoyish etish uchun shart sifatida o'quv dasturining turli fanlari tarkibiga ekologik komponentni kiritish zarurligini asoslaydi.
- Muammoga yo'naltirilgan ta'lim printsipi: kognitiv faoliyatni faollashtirish va o'quvchilarning sub'ektiv pozitsiyasini shakllantirishning didaktik vositasi sifatida ekologik to'qnashuvlardan foydalanishga asoslangan.

Yosh o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sirning samaradorligiga shaxsiy rivojlanishning quyidagi vektorlariga yo'naltirilgan uslubiy vositalardan foydalanish orqali erishiladi:

- hissiy va hissiy tajribani rag'batlantirish: atrof-muhit xatti-harakatlarining asosi sifatida empatiya va estetik idrok mexanizmlari orqali tabiiy ob'ektlarga ijobiy hissiy reaksiyalarni ishlab chiqarish;
- ekologik aks ettirishni rivojlantirish: tabiatdagi tizimli aloqalarni anglash qobiliyatini shakllantirish va ekologik muammolarni hal qilishda shaxsiy ishtirok etish;
- ekologik qadriyatlarni ichkilashtirish: tashqi me'yoriy talablarni insonning tabiatga nisbatan axloqiy pozitsiyasini belgilaydigan ichki xulq-atvor regulyatorlariga aylantirish.

Natijalar va munozaralar: Ekologik ta'limning maqsadli parametrlariga erishish nafaqat yuqoridagi printsiplarga rioya qilish, balki boshlang'ich maktab o'quvchisining shaxsiga polimodal ta'sir ko'rsatadigan uslubiy vositalardan tizimli foydalanish bilan ham belgilanadi.



Boshlang'ich maktab yoshida ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligi ta'lim mazmunining nafaqat kognitiv, balki ta'sirchan tarkibiy qismini ham tarjima qiladigan usullar va tashkiliy shakllar to'plamidan foydalanish bilan bog'liq. Ustuvor vazifalarga quyidagilar kiradi:

- Raqobatbardosh va kognitiv yo'nalishning o'yin usullari: ekologik viktorinalar va didaktik o'yinlarni amalga oshirish sub'ektiv ahamiyatga ega faoliyatda kontseptual apparatni o'zlashtirishga yordam beradi, raqobatbardosh mexanizmlar orqali kognitiv faollikni faollashtiradi.
- Tabiiy muhit bilan haqiqiy o'zaro ta'sir o'tkazish usullari: tabiiy landshaftlarga ekskursiyalar tabiiy hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri idrok etish uchun sharoit yaratadi, atrofdagi dunyoga hissiy tajriba va hissiy-qiymat munosabatini shakllantirishga yordam beradi.
- Etnokultural kontekstualizatsiya usullari: xalq belgilaridan, folklor janrlaridan va an'anaviy taqvim elementlaridan foydalanish ekologik g'oyalarni madaniy va tarixiy kontekstda tarjima qilishga imkon beradi, xalq pedagogikasida tabiatni ehtiyotkorlik bilan boshqarish ma'nolarini yangilaydi.
- Bilishning empirik usullari: tabiiy ob'ektlar bilan tajribalar va eksperimentlarni tashkil etish kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, tabiatdagi tizimli aloqalar va bog'liqliklarni tushunishni shakllantiradi va antropogen faoliyatning oqibatlarini tushunishga yordam beradi.

Ekologik ta'lim muvaffaqiyatining muhim omili ongga ta'sirchan ta'sir ko'rsatish usullarini amalga oshirishdir. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining hissiy sohasini maqsadli faollashtirish ekologik qadriyatlarni ichkilashtirish jarayonlarini optimallashtiradi va barqaror ekologik munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ekologik madaniyatning mohiyati

Ekologik ta'limning nazariy va uslubiy asoslarini ko'rib chiqib, biz ekologik madaniyat fenomenining mazmunli xususiyatlariga murojaat qilamiz. M. V. Kalinnikovaning pozitsiyasiga ko'ra, ekologik madaniyat quyidagi asosiy printsiplarga asoslangan yangi turdagi madaniyatning ideal modeli sifatida talqin etiladi:

- Ekologik yo'naltirilgan fikrlash: tabiiy va ijtimoiy sohalarida mavjud bo'lgan munosabatlarni tushunishga tizimli yondashuvni, shuningdek, antropogen faoliyatning uzoq muddatli oqibatlarini bashorat qilish qobiliyatini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.
- Gumanistik dunyoqarash: inson, jamiyat va tabiatning inqilobini ta'minlashga qaratilgan axloqiy imperativlar tizimini o'z ichiga oladi.



Ushbu tamoyil tabiiy ob'ektlarning o'z qadr-qimmatini tan olishni va tabiiy va ijtimoiy muhitning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini anglashni amalga oshiradi.

Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirish ekologik ongni shakllantirish darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu munosabat bilan ushbu toifadagi tarkibni batafsil ko'rib chiqish zarur bo'lib tuyuladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish kontekstida ekologik ong fenomenini tushunish muhim ahamiyatga ega. Turli tadqiqotchilar ushbu kontseptsianing batafsil ta'riflarini taklif qilishadi, uning ko'p o'lchovli va ko'p darajali tabiatini ta'kidlashadi.

G. V. Platonov ta'kidlaganidek, ekologik ong inson va insoniyatning ajralmas birligini tabiiy yashash muhitining yaxlitligi va nisbiy barqarorligi bilan chuqur aks ettirish uchun individual yoki jamoaviy (ijtimoiy) qobiliyatdir. Ushbu qobiliyat nafaqat ko'rsatilgan munosabatlarni tushunishni, balki amaliy faoliyatda ushbu tushunchani amalga oshirishning imperativligini ham o'z ichiga oladi. Tabiatga nisbatan uning tabiiy aloqalari va tsikllarining buzilishini istisno qiladigan, shuningdek, hozirgi va kelajak avlodlar farovonligi manfaati uchun tabiiy muhitni optimallashtirishga qaratilgan ko'nikmalar va barqaror xatti-harakatlarning shakllanishi muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

E. V. Girusov ekologik ongni jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri muammolarini aks ettiruvchi va ularni aniq ijtimoiy va tabiiy sharoitlar bilan belgilanadigan hal qilish yo'llarini taklif qiladigan qarashlar, nazariy tushunchalar va hissiy reaksiyalar to'plami sifatida belgilaydi. Muallif ekologik ong mafkuraviy va axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini alohida ta'kidlaydi, ammo uning haqiqiyliги uchun zarur shart bu ikkinchisini individual tushunish va ichkilashtirishdir.

S. D. Deryabo va V. A. Yasvin ekologik ongni "inson – tabiat" tizimidagi va tabiatning o'zida o'zaro munosabatlar haqidagi g'oyalar to'plami, shuningdek, tabiiy muhitga o'rnatilgan munosabat va unga mos keladigan o'zaro ta'sir strategiyalari sifatida ko'rishadi. Kengaytirilgan talqinda ular uni tabiiy, antropogen va ijtimoiy muhitni, shuningdek, shaxsning ichki dunyosini aqliy aks ettirishning eng yuqori darajasi sifatida tavsiflaydilar. Bunday aks ettirish insonning ekologik makondagi o'rni va rolini aks ettirishni va ushbu jarayonning o'zini o'zi tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Turli xil nazariy yondashuvlarni tahlil qilish atrof-muhit ongining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi, bu insonning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirining barqaror modellarini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.



Globalashuv tendentsiyalarining chuqurlashishi va tsivilizatsiya o'zgarishlari dinamikasining tezlashishi bilan ajralib turadigan hozirgi bosqichda atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'lomlashtirish vazifalari, shuningdek, insoniyatning tabiiy dunyoga nisbatan aksiologik munosabatlarini qayta yo'naltirish shartsiz imperativlar xususiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'lim va yosh avlodlarni tarbiyalashning ilmiy va pedagogik asoslarini ishlab chiqish pedagogik izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maqsadlarga erishish va ekologik ta'lim muammolarini hal qilish jarayonini jadallashtirish ularni ontogeneznining dastlabki bosqichlaridan boshlab shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning yaxlit paradigmasiga integratsiyalashuvini ob'ektiv ravishda talab qiladi. Boshlang'ich maktab yoshi, psixofiziologik xususiyatlari tufayli, ekologik kompetentsiyaning asosiy asoslarini belgilash uchun maqbul bosqich sifatida tan olingan. Ushbu jarayonning mahsuldorligi pedagogik xodimlarning ekologik ta'limning nazariy va uslubiy asoslarini o'qitishning boshlang'ich bo'g'ini rivojlanishining to'liqligi va etarliligi bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa: Tahlilga asoslanib, ekologik ta'lim yuqori darajadagi ekologik madaniyatga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish maqsadi bilan belgilanadi. Ushbu daraja sub'ektning tabiiy muhitda ekologik jihatdan mos faoliyatga tayyorligining yakuniy natijasi sifatida baholanadi. Ekologik madaniyat tarkibiy qismlarining shakllanishi yosh avlodning ekologik ongini rivojlantirishga asoslanadi. Kerakli natijaga talabaning hissiy-ixtiyoriy sohasiga yo'naltirilgan va uning tirik va jonsiz tabiat ob'ektlari bilan haqiqiy o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan usullar, vositalar va usullarni amalga oshirish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гирусов Е.В. Экологическая культура как высшая форма гуманизма // Философия и общество. - 2009. - № 4. - С. 74-92.
2. Деревянко В. А., Савельева С. С., Бабанский И. Т. Уроки экологического творчества. // Начальная школа. - 1989. - № 12. - С. 40-44.
3. Зверев И. Д., Суравегина И. Т. и др. Экологическое воспитание школьников. - М., 1983.
4. Калининкова М.В. Роль вузовского образования в формировании экологической культуры // Вестник РУДН. - 2003. - № 4-5. - С. 223-227.
5. Kengesbayevich, R. M. (2025). Ethnocultural aspects of value orientations. american journal of education and learning, 3(1), 40-43.
6. Kengesbayevich, R. M. (2025, January). Individual personality traits of junior pupils in schools of education. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 13, pp. 24-25).



1-2-SINF TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING ERKIN FIKIRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI (XUSUSIY MAKTABLAR MISOLIDA)

Suleymanova M.P.

*Innovatsion texnologiyalar universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: tarbiya, ta'lim, milliy, milliylik, milliy tarbiya, boshlang'ich sinf, innovatsiya, innovation yondashuv, o'ziga xoslik, innovation loyihalash, natija, barkamol shaxs.

Ключевые слова: воспитание, образование, национальный, национальность, национальное воспитание, начальная школа, инновация, инновационный подход, уникальность, инновационное проектирование, результат, гармонично развитая личность.

Key words: upbringing, education, national, nationality, national upbringing, primary school, innovation, innovative approach, uniqueness, innovative design, result, well-rounded individual.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada bugungi kunda tarbiya va milliy tarbiyaning mazmun-mohiyati, milliy tarbiyalash jarayoniga innovation yondashuv texnologiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, manbalari, maqsad va vazifalari hamda namoyon bo'lish shakllari haqida fikr-mulohazalar, pedagogik qarashlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье изложены мнения и педагогические взгляды на сущность воспитания и национального воспитания сегодня, технологию инновационного подхода к процессу национального воспитания, его особенности, источники, цели и задачи, а также формы проявления.

SUMMARY:

The article presents reflections and pedagogical views on the essence of education and national upbringing today, the technology of an innovative approach to the national upbringing process, its specific features, sources, goals and objectives, and forms of manifestation.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivojlanishi, ta'lim tizimining zamonaviy talablarga javob berishi o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, ayniqsa uning erkin fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq¹. Xususan, 1-2-sinf tarbiya darslarida bolalarda mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin ifoda etish va boshqalar fikriga hurmat bilan qarash ko'nikmasini rivojlantirish katta ahamiyatga ega².



1-2-sinf tarbiya darslarida erkin fikrlashni rivojlantirish - kelajakda ijtimoiy faol, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni tarbiyalashning asosiy garovidir³. Xususi maktablarda qo'llanilayotgan interaktiv usullar, ijodiy topshiriqlar va guruhli ishlar bu jarayonda samarali yo'l hisoblanadi. Shu bois, umumiy ta'lim maktablarida ham bu tajribalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq⁴.

Chunki milliy tarbiya asos e'tibori bilan yosh avlodni jamiyat talablariga mos ravishda voyaga yetkazish omili hisoblanadi⁵. Milliy tarbiya «ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va ob'yektiv jarayon sifatida» kichik yoshidagi o'quvlarni har tomonlama yetuk shaxslar qilib tarbiyalashda muhim asos hisoblanadi⁶.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon⁷. Milliy tarbiya esa ma'lum bir shaxs yoki xalqning jamiyatda komil inson bo'lib shakllanishi uchun shaxsda milliy mafkura, milliy g'urur, milliy ong kabilarni shakllantirish jarayonidir⁵.

Barkamol yetuk shaxsni tarbiyalash va ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan⁸. Xususan, unda iqtidorli yoshlarni aniqlash va rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan⁸.

Shaxs va uning kamoloti muammosi taraqqiy etishi uchun imkoniyatlarning cheksizligini ta'minlash zarur. Iste'dodli bolalar jamiyatning "oltin zaxirasi" hisoblanadi³.

Har bir shaxsda tug'ma layoqat mavjud bo'lib, u qobiliyatning tabiiy asosi hisoblanadi⁷. Layoqat tegishli muhit va ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanib, qobiliyatga aylanadi⁷. Qulay ijtimoiy muhit esa bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega⁶.

Ta'lim tizimida mavjud muammolar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kasbga yo'naltirish ishlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi;
- ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikning yetishmasligi;
- pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning sustligi;
- bitiruvchilarning mustaqil fikrlash darajasining pastligi⁴.

Jamiyat taraqqiyoti mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va bilimli yosh kadrlarga bog'liqdir³. Shu bois boshlang'ich sinflardanoq o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarur.

O'quvchilarning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik imkoniyatlar katta ahamiyatga ega². To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni bu imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi o‘quvchilarni milliy tarbiyalashda innovatsion vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

- innovatsion vositalar ta’lim samaradorligini oshiradi;
- o‘quvchilarning milliy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- pedagogik jarayon samaradorligini kuchaytiradi⁴.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyati ularning bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu esa ularda mustaqillik, faollik va ijodkorlikni rivojlantiradi².

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan va texnologiyalar, 2018.
2. Jo‘rayeva Sh. Multimedia vositalari asosida ta’lim. – T., 2013.
3. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2007.
4. Xoshimov K., Ochil S. O‘zbek pedagogika antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010.
5. Aminov M.N. Tarbiya ensiklopediyasi. – T.: O‘MEDIN, 2010.
6. Quronov M. Milliy tarbiya nazariyasi. – T., 2007.
7. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogik asoslar. – T., 2018.



INKLYUZIV MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK SHART - SHAROITLAR

Mamitova K.

1 kurs magistri

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha yosh, pedagogik sharoit, individual yondashuv, rivojlantiruvchi muhit, hamkorlik, maxsus ehtiyojli bolalar.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольный возраст, педагогические условия, индивидуальный подход, развивающая среда, сотрудничество, дети с особыми потребностями.

Key words: Inclusive education, preschool age, pedagogical conditions, individual approach, developmental environment, cooperation, children with special needs.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada inklyuziv maktabgacha ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Inklyuziv tamoyillarini amaliyotga joriy etish jarayonida muhitni moslashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, ota-onalar bilan hamkorlik, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlash masalalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishning metodik asoslari yoritilib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются педагогические условия эффективной организации инклюзивного дошкольного образования. В процессе внедрения принципов инклюзивности в практику освещаются вопросы адаптации среды, профессиональной компетентности педагогов, сотрудничества с родителями, индивидуального подхода и психологической поддержки, а также методические основы создания равных возможностей для всех детей в дошкольных образовательных организациях.

SUMMARY:

This article analyzes the pedagogical conditions for the effective organization of inclusive preschool education. In the process of implementing inclusive principles into practice, issues of environmental adaptation, professional competence of teachers, cooperation with parents, individual approach and psychological support, and methodological foundations for creating equal opportunities for all children in preschool educational organizations are highlighted.

Mamlakatimizda ta'lim sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning barcha bo'g'inlarini izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda yosh avlodni jismonan sog'lom,



ma'nan barkamol va intellektual salohiyatli shaxs etib voyaga yetkazish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, samarali metod va shakllarni joriy etish, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu bilan birga, mavjud holat tahlili maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik qo'llanmalar, didaktik materiallar va bolalar badiiy adabiyotlari bilan ta'minlash, shuningdek, sohaga yuqori malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb etish zaruratini ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashtirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida maktabgacha ta'lim tizimini uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu hujjat doirasida 2030-yilgacha mo'ljallangan rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, tizimni modernizatsiya qilish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoitlar yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, barcha bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, qamrov darajasini oshirish hamda nodavlat sektor ishtirokini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

Inklyuziv ta'lim tamoyillari aynan mana shu maqsadlar bilan uzviy bog'liqdir. Inklyuziv yondashuvning asosiy vazifasi - bolalarning sog'lig'i, rivojlanish xususiyatlari yoki individual ehtiyojlaridan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir. Mazkur tamoyil imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi, ruhiy barqarorligi va shaxs sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Bunda bolalarning oilaviy muhitda yashashi va o'z tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi muhim omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi shuningdek, maxsus ehtiyojga ega bolalarga zarur pedagogik va psixologik yordam ko'rsatishni kafolatlaydi. Masalan, harakatlanishida qiyinchilik bo'lgan bola o'z hududidagi ta'lim muassasasida tahsil olishi uchun moslashtirilgan infratuzilma yaratilishi lozim. O'qish va yozishni o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalar uchun individual yoki qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etilishi zarur. Ta'lim jarayonidan chetda



qolish xavfi mavjud bolalarga esa ularni qayta ta'lim muhitiga moslashtirish bo'yicha kompleks yordam ko'rsatilishi talab etiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyiliga asoslanadi. Inklyuziv maktabgacha ta'lim - bu turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan bolalarni birgalikda tarbiyalash va o'qitishni nazarda tutuvchi tizimdir. Bunda asosiy maqsad - har bir bolaning qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda qulay pedagogik muhit yaratishdan iborat.

Maktabgacha yosh davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda ijtimoiy moslashuv, muloqot ko'nikmalari va bilish jarayonlari jadal rivojlanadi. Shu sababli inklyuziv ta'limni aynan maktabgacha bosqichda to'g'ri tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim samaradorligi avvalo muhitning moslashtirilganligiga bog'liq. Pedagogik muhit quyidagi talablarga javob berishi lozim: xavfsiz va qulay jismoniy sharoit, erkin harakatlanish imkoniyati, ko'rgazmali, didaktik va sensor materiallarning yetarliligi, individual rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv vositalari. Muhitni tashkil etishda bolalarning psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan, eshitishda yoki ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus vizual yoki taktil materiallar qo'llaniladi. Bu esa ta'lim jarayonida ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan pedagogning kompetensiyasiga bog'liq. Tarbiyachi:

- maxsus pedagogika va psixologiya asoslarini bilishi;
- differensial va individual yondashuvni qo'llay olishi;
- tolerantlik va empatiya ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- inklyuziv metod va texnologiyalardan foydalana olishi zarur.

Pedagogning ijobiy munosabati va bolaga nisbatan hurmatli yondashuvi inklyuziv guruhda sog'lom psixologik iqlim shakllanishiga xizmat qiladi.

Har bir bola o'z rivojlanish sur'ati va imkoniyatlariga ega. Shu bois inklyuziv guruhda individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish muhim pedagogik shartlardan biridir. Individual reja:

- bolaning kuchli tomonlariga tayanadi;
- rivojlantirish talab etiladigan jihatlarni aniqlaydi;
- qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilaydi;
- ota-ona va mutaxassislar bilan hamkorlikda tuziladi.

Bunday yondashuv bolada muvaffaqiyat hissini shakllantirib, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.



Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki muhim o'rin tutadi. Pedagog va ota-ona o'rtasidagi hamkorlik:

- muntazam maslahatlar;
- ochiq muloqot;
- uy sharoitida qo'llab-quvvatlash usullarini tavsiya etish;
- psixologik ko'mak ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Hamkorlik natijasida ta'lim va tarbiya jarayoni izchil va tizimli davom etadi.

Ijobiy psixologik muhitni shakllantirish. Inklyuziv guruhda bolalar o'rtasida o'zaro hurmat, hamdardlik va do'stona munosabatlarni shakllantirish pedagogning ustuvor vazifalaridan biridir. Jamoaviy o'yinlar, rolli mashg'ulotlar va hamkorlikka asoslangan faoliyatlar orqali bolalarda tolerantlik va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Shunday qilib, inklyuziv maktabgacha ta'limni rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv maktabgacha ta'limni samarali tashkil etish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlar zarur: rivojlantiruvchi muhit yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, individual yondashuvni qo'llash, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish.

Shu omillar uyg'unligi inklyuziv ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi va har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishiga zamin yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori. PQ-4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi" Qarori. PQ -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие. – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.



BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASINING HOZIRGI ZAMON TAJRIBALARI

Jabborova O.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Maktabgach va boshlang'ich ta'lim
metodikasi" kafedrası dotsenti*

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, hozirgi zamon, metodika, tajriba, xususiyatlar, samara, yondashuvlar, natija.

Ключевые слова: начальное образование, современность, методика, опыт, особенности, эффективность, подходы, результат.

Key words: primary education, contemporary era, methodology, experience, characteristics, efficiency, approaches, result.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada boshlang'ich ta'lim metodikasining hozirgi zamon tajribalari xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan va muallifning individual yondashuvlari taqdim etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются особенности современного опыта в методике начального образования и представлены индивидуальные подходы автора.

SUMMARY:

The article discusses the characteristics of modern practices in primary education methodology and presents the author's individual approaches.

Kirish. Yangilangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda rivojlantirish va aynan mana shu ta'lim bosqichi vositasida mamlakatimizning savodxonligini yuksaltirish hamda shaxsni kasbga yo'naltirish boshlang'ich ta'limdan boshlanishi to'g'risidagi vazifalar belgilanib, bugungi kunda mazkur masalalar bo'yicha tajribalari umumlashtirilmoqda va 2030 yilga qadar boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonini yangilash, boshlang'ich ta'limda shaxsni kasbga yo'naltirish metodikasini yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich ta'lim ishtirokchilarini pedagogik maqomi bo'yicha jamiyatning yetakchi jamoasiga aylantirish vazifalari amalga oshirilmoqda[1]. Ushbu vazifalar ijrosi jarayonida bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida amalda bo'lgan o'qitish



metodikalarini o'rganish, ularning samaradorligini belgilash va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini yangi boshlang'ich ta'lim yondashuvlari asosida tayyorlash jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim metodikasining hozirgi zamon tajribalari o'rganish va undagi yutuqlarni ilmiy-metodik tahlil qilish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Natijada hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'qitish metodikalarini optimallashtirish, modernizatsiyalash, samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash va uni yangilash yo'nalishlariga ega bo'linadi. Bu jarayonda ayniqsa tajribaviy individual metodikalarni samaradorligiga ahamiyat berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodikalarning samaradorligini belgilashda asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limning amaldagi metodikalarini saralash, tahlil qilish va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash natijasida yangi metodikalarni joriy etish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bu borada ikki tajriba o'z xususiyatlari bilan diqqatni tortadi: birinchidan, mamlakatimizning boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha o'ziga xos an'anaviy tajribalarini o'rganish; ikkinchidan, milliy va boshlang'ich ta'lim qadriyatlariga mos keladigan jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim tajribalarining xususiyatlarini o'zlashtirib borish[2]. Aynan mana shunday yondashuv hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tajribalarini ommalashtirish va yangi metodikalarni qo'llash imkoniyatlarini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyada boshlang'ich ta'limning o'qitish metodikalarini o'rganib borish bo'yicha an'anaviy va zamonaviy metodikalarga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar majmui yaratilgan. Bu borada Ibn Sinoning 5-11 yoshlarda boshlang'ich ta'lim jarayonini aqliy, jismoniy va axloqiy jihatdan amalga oshirish metodikasi, Mahmudxo'ja Behbudiyning boshlang'ich ta'lim jarayonida dunyoviy fanlarni ustuvor o'qitish metodikasi va XX asrda pedagog olimlar tomonidan yaratilgan boshlang'ich ta'limning optimal metodikalariga doir tadqiqotlar o'ziga xos tajribalarga egaligi bilan diqqatni tortadi[3]. Shuningdek, jahon xalqlari boshlang'ich ta'lim metodikasi tajribalariga oid tadqiqotlarida ham boshlang'ich ta'lim samaradorligini belgilashga oid yondashuvlar o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan. Mazkur masalada, AQSHning amaliy boshlang'ich ta'lim metodikasi, Buyuk Britaniyaning istiqbolli boshlang'ich ta'lim metodikasi, Germaniyaning zamonaviy boshlang'ich ta'lim metodikasi va Fransiyaning an'anaviylikdan novatorlikka boshlang'ich ta'lim metodikalari tajribalari hamda ularga oid tadqiqotlarning bugungi kunda ham amaliyotda bo'lib kelayotganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi[4].



Boshlang'ich ta'limning hozirgi zamon metodikasi tajribalarini o'rganish, tahlil qilish va ularning samaradorligi asosida yangi avlod metodikasini joriy etish masalasi bo'yicha o'ziga xos metodologiyaga asoslanish dolzarb bo'lib turibdi. Bu metodologiyada boshlang'ich ta'lim jarayonimda qo'llanilayotgan o'qitishning metodikalari tizimini uyg'unlashtirish, ularning zamiridagi individual metodikalarni aniqlash va hozirgi zamon ehtiyojlariga mos metodikalarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu borada mamlakatimizda amalda bo'lgan boshlang'ich ta'lim metodikalari bo'yicha yangicha yondashuvlarni shakllantirish va tajriba-sinovdan o'tgan yangi metodikalarni joriy etish vositasida boshlang'ich ta'lim samaradorligiga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Muhokama boshlang'ich ta'lim tajribalari xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bir necha bosqichlarda metodikalar tizimini qo'llash namoyon bo'lmoqda. Bunday bosqichlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

birinchidan, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv fanlarini o'qitishda qo'llanilayotgan metodikalar tizimi tajribasi. Bu tajribada o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish va bunday o'qitishda shu o'quv fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqib metodikalarni belgilash amal qilmoqda. Mazkur yondashuvlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari mavjud. Ijobiy xususiyatlari shundan iboratki, aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlari turkumlari shu o'quv fanlarining mazmuniga mos keladigan an'anaviy, axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan va o'qituvchining individual metodikalari qo'llanilayotganligi bilan namoyon bo'lmoqda; salbiy xususiyatlari shundan iboratki, boshlang'ich ta'lim jarayonida umumlashgan va tipiklashgan metodikaning mavjud bo'lishi ko'zga tashlanmayapti. Shu ma'noda o'quv fanlarini o'qitish metodikalarining rang-barangligidan kelib chiqqan holda, mazkur ta'lim bosqichida samaradorlikni belgilovchi umummetodikalarni amalda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi;

ikkinchidan, boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan tarbiya metodikalari ham ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. Tarbiya metodikalarining ijobiy xususiyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash, ijtimoiylashtirish va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirishi bilan namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan metodikalarning salbiy xususiyatlari texnologik rivojlanish jarayonida tarbiya samaradorligini bevosita axborot-kommunikatsion vositalar bilan bog'liq holda amalga oshirishda kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonidagi tarbiya metodikalarini muntazam takomillashtirib borish ehtiyoji saqlanib qolmoqda;



uchinchidan, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonining mazmuni va funksiyalari mudom yangilanib borayotganligi bu ta'lim bosqichida qo'llanilayotgan metodikalar tizimini tahlil qilib borishni taqozo etmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim jarayoni maktabgacha ta'lim bosqichini umumiy o'rta ta'lim tizimi bilan bog'lovchi funksiyaga ega bo'ldi. Bu funksiyani amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning metodikalarini ishlab chiqish hamda ularni umumiy o'rta ta'lim metodikalariga moslashtirish taqozo etiladi. Aynan boshlang'ich ta'lim jarayonining bunday funksional yangilanib borishi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining uyg'unlashgan metodikalar asosida voyaga yetkazishni taqozo etadi;

to'rtinchidan, hozirgi zamon mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat ko'rsatayotganligi muhim pedagogik hodisalardan biridir. Ayni paytda, mazkur professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim jarayonini rang-barang metodikalar tizimini joriy etayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Misol uchun, har bir o'quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqib metodikalarni tanlash va ularning amalda bo'lishini choraklar tizimida joriy etish shular jumlasidandir. Bunday rang-baranglik boshlang'ich ta'lim o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlarini bermoqda. Lekin professional boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining individual – tajribaviy metodikalarini amalda qo'llash masalasida sustkashlik qilayotganligi namoyon bo'lmoqda. Bizning yondashuvimizga ko'ra, aynan individual tajribaviy metodikalar boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodikalar tizimi uchun asos bo'lishi kerak;

beshinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida kasbiy yetuk, axloqiy barkamol va ijtimoiy faol boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash amalga oshirilmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalarini samaradorligiga tezkor erishish imkoniyatlariga ega bo'linmoqda. Ayni paytda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularni texnologik yangilanishlar jarayonida boshlang'ich ta'lim metodikalari bilan qurollantirib borish asosiy yo'nalishlar sifatida ko'zga tashlanayotganligini ta'kidlash lozim. Bunda sun'iy intellekt metodikasi, axborot kommunikatsiyalar texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar uyg'unlashgan individual o'qitish metodikasi, istalmagan murakaab ijtimoiy muhitlarda boshlang'ich ta'limni amalga oshirish metodikasi kabilar bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qurollantirish dolzarb bo'lib qalayotganligini eslatib o'tish joiz.



Mazkur hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasi tajribalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim jarayonida muntazam ravishda o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish metodikalari yangilanib bormoqda. Bunday sharoitda boshlang'ich ta'lim monitoringini amalga oshirish va unda metodikalarni qo'llash tizimini takomillashtirib borishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limning hozirgi zamon metodikalari tajribalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga egadir. Bunda ayniqsa, boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan an'anaviy metodikalarni tizimlashtirish, joriy etilayotgan yangi metodikalarning samaradorligini aniqlash, individual metodikalarning asosligini belgilash kabi masalalar bo'yicha ilmiy-metodik ishlanmalarga ehtiyoj yuqori bo'lib turganligini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan xorijiy mamlakatlarning o'qitish metodikalari samaradorligi bo'yicha ham monitoring olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining yoki maktab imkoniyatlaridan kelib chiqib muayyan xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qitish metodikalaridan foydalanayotganligi ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan mazkur masalada ham ta'limiy monitoring vositasida foydalanilayotgan xorijiy tajribalar va metodikalarning samaradorligini o'rganib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Mamlakatimizda hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikalarini o'rganish va tahlil qilish shunday xulosaga olib keladiki, ularda bugungi ehtiyojlarga mos metodikalarni qo'llash ustuvor hisoblanadi. Har bir o'quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanayotgan metodikalar, tarbiya jarayonining differensial metodikalari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning optimal metodikalari va chuqurlashtirilgan ta'lim berish metodikalari rang-barangligi hamda samarali ko'rsatkichlarni berayotganligi namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda boshlang'ich ta'lim sifatiga erishish va 2030 yilga qadar rivojlangan boshlang'ich ta'lim bosiqichi asosida malakatimiz umumiy o'rta ta'lim tajribasini namoyon qilish jarayoni mazkur ta'lim bosiqchida yangi metodikalarni muntazam joriy qilib borish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, individuavl ta'lim metodikasi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va layoqatlari asosida chuqurlashtirilgan bilim berish metodikasi, tarbiyaviy jarayonlarda bevosita texnik vositalar bilan bog'liq tarbiyaviy ishlar metodikasi, individuallikdan umumiylikka moslashish metodikasi, texnologik jarayonlardan foydalangan holda tezkor o'qitish metodikasi, o'quv fanlari olimpiadalariga tayyorlash metodikasi, qo'shimcha ta'lim metodikasi, ota-



onalar universiteti ta'lim metodikasi, zamonaviy inklyuziv ta'lim metodikasi, masofaviy ta'lim metodikasi, o'qitishning texnologik-didaktik ta'minoti metodikasi va hududlarda tajribadan o'tgan ommaviy ta'lim metodikalari kabi zamonaviy metodikalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga joriy etish hamda uning samardorligini monitoring qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid tahlillar, kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida ommaviy qo'llaniladigan metodikalar tizimini belgilab qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlarga mos ravishda har bir o'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablariga tayangan holda bilim berishni joriy etish va ma'lumotlar majmuini taqdim qilishdan voz kechish metodikasiga amal qilish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz. Shuningdek, texnologik rivojlanish jarayonida tarbiya metodikalarini maqbullashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda boshlang'ich sinf bosqichlarida tarbiya metodikalarini qo'llash tajribasiga asoslanish va boshlang'ich ta'lim jarayoniga mos ravishda dinamik takomillashib boradigan tarbiya metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarbiya metodlarini individuallik va umumiylikning uyg'unlashuviga asoslanishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limning hozirgi zamon tajribalari boshlang'ich sinf o'qituvchilariga nisbatan munosabatga egalik xususiyatlari bilan ham diqqatni tortadi. Professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikalarini kuchaytirish dolzarb bo'lib turibdi, chunki boshlang'ich ta'lim jarayoniga aynan individual metodikalar ta'lim va tarbiya jarayonidagi yangilanishlarning asosi hisoblanishini unutib bo'lmaydi. Bundan tashqari, hozirgi zamon mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayoni oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash ishini optimallashtirishni taqozo etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ilmiy tadqiqotchi, amaliy o'qituvchi va ijtimoiy metodikalarga ega professional kadrlar sifatida tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, boshlang'ich ta'limning hozirgi zamon tajribalari bo'yicha muntazam idlmiy metodik ishlanmalarni yaratib borish boshlang'ich ta'lim jarayonida sifat samaradorligiga erishishning asoslaridan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasining yangi tahriri. – Toshkent, 2026
2. Jabborova O. Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2021
3. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent, 2019
4. Tilavova S. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2025



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI RAQAMLI TA'LIMGGA TAYYORLASH

Rahimov S.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b. dotsent*

Tayanch so'zlar: raqamli ta'lim, raqamli savodxonlik, o'quvchilarning faolligi interaktiv o'quv vositalari, pedagogik texnologiyalar, raqamli metodika, pedagogik metodika, o'qituvchi malakasi.

Ключевые слова: цифровое обучение, цифровая грамотность, активность учащихся, интерактивные учебные средства, педагогические технологии, цифровая методика, педагогическая методика, квалификация учителя.

Key words: digital learning, digital literacy, student engagement, interactive learning tools, pedagogical technologies, digital methodology, pedagogical methodology, teacher qualification.

РЕЗИОМЕ:

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni boshlang'ich bosqichda joriy etish orqali o'quvchilarda raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari va media madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning yosh psixologiyasi, kognitiv rivojlanishi va raqamli vositalarni qabul qilish darajasi inobatga olingan holda samarali pedagogik yondashuvlar ishlab chiqildi. Maqolada interaktiv o'quv muhitini yaratish, raqamli xavfsizlik qoidalarini singdirish, shuningdek o'qituvchilar va ota-onalarning raqamli ta'limdagi hamkorligi muhim omil sifatida baholangan.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье освещены теоретико-методологические основы и практические аспекты подготовки учащихся начальных классов к цифровому обучению в условиях современного образовательного процесса. Проанализированы возможности формирования цифровой грамотности, информационно-коммуникационных компетенций и медиакультуры у школьников посредством внедрения цифровых технологий на начальном этапе обучения. В ходе исследования разработаны эффективные педагогические подходы с учётом возрастной психологии, когнитивного развития и уровня восприятия цифровых средств обучающимися. В статье рассматриваются такие ключевые факторы, как создание интерактивной образовательной среды, формирование правил цифровой безопасности, а также взаимодействие учителей и родителей в процессе цифрового обучения.

SUMMARY:

This article addresses the theoretical and methodological foundations as well as practical aspects of preparing primary school students for digital learning within the context of the modern educational process. The possibilities for developing digital literacy, information and communication



competencies, and media culture among students through the integration of digital technologies at the initial stage of education are analyzed. The study developed effective pedagogical approaches taking into account the age-related psychology, cognitive development, and level of digital tool acceptance by learners. Key factors discussed in the article include the creation of an interactive learning environment, the establishment of digital safety rules, and the collaboration between teachers and parents in the digital learning process.

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining zamonaviy talablariga moslashuvi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilarda raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya kompetensiyalari, hamda innovatsion fikrlashni shakllantirishni talab etmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi, metakognitiv strategiyalarni o'zlashtirishi va mustaqil ta'lim olishga bo'lgan asosiy tayanch ko'nikmalari shakllanadi.

Bugungi kunda raqamli pedagogika, ta'limni raqamlashtirish konsepsiyasi hamda edutech vositalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy ta'lim talablariga mos tayyorlash zaruriyati yanada kuchaymoqda. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishda bolalarning yosh psixologik va fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish, ularni axborot xavfsizligi madaniyati asosida tarbiyalash, shuningdek interaktiv, refleksiv va konstruktiv ta'lim usullarini qo'llash muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli o'quv muhiti o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish, va media axborot bilan ishlash ko'nikmalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, mavjud amaliyotlarni tahlil qilish va samarali strategiyalarni ishlab chiqish asosiy maqsad etib belgilandi.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Zamonaviy texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil etishning metodik yondashuvlari, o'quvchilarda axborot savodxonligini shakllantirish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi va zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli ta'lim tizimi ham bu o'zgarishlarga moslashishi, o'quvchilarni yoshligidan raqamli savodxonlikka tayyorlashi lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida raqamli ta'lim asoslarini o'rgatish o'quvchilarda mustahkam bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.



Maqsad: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli ta'limga zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish, raqamli muhitda o'qish, raqamli ta'limga tayyorlik darajasini o'rganish, psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlash, darslarni tashkil etish bo'yicha metodika ishlab chiqish, o'quvchilarda mustaqil axborot izlash, tahlil qilish va undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ota-onalar va o'qituvchilarning raqamli ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash va hamkorlik mexanizmlarini tavsiflash.

Materiallar va metodlar: boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayoni tashkil qilishda raqamli vositalar yordamida videodarslar, animatsiyalar, slaydlardan (multimedia darsliklar, raqamli platformalar, onlayn mashqlar) keng qo'llanilmoqda.

Muhokama va natijalar: boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida raqamli qurilmalardan foydalanish ko'nikmalari notekis taqsimlangan. Aksariyat o'quvchilar o'yinlar orqali texnologiyalarga qiziqish bildirayotgan bo'lsalar-da, ularni ta'limiy maqsadlarga yo'naltirishda muammolar mavjud. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lsa, darslarda innovatsion yondashuvlar samarali qo'llanilmoqda. Shu sababli, o'qituvchilarning raqamli pedagogik malakasini oshirish dolzarb masala bo'lib qoladi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlash jarayoni ko'p omilli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, o'quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi ularning kognitiv rivojlanishi, axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishi, shuningdek, o'qituvchining malakasi va foydalanilayotgan didaktik vositalar bilan bevosita bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlashda o'qituvchi zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishni bilishi va ularni dars



jarayonida samarali qo'llay olishi kerak. Umumta'lim maktablardagi texnik jihozlarni yetarli darajada ta'minlash, infratuzilma va internet tezligini oshirish, metodik qo'llanmalar, treninglar, onlayn kurslar orqali o'qituvchilarning raqamli pedagogik salohiyatini oshirish etibor qaratish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga samarali tayyorlash - nafaqat zamonaviy ta'lim talablariga moslashuv, balki o'quvchilarning kelajakdagi raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi:

- o'quvchilarda raqamli savodxonlik shakllanadi;
- o'quv motivatsiyasi oshadi;
- mustaqil fikrlash va izlanish ko'nikmalari rivojlanadi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi tenglashadi;
- o'qitish sifati va samaradorligi oshadi;
- erta yoshdan axborot madaniyati shakllanadi;
- kelajakda raqamli iqtisodiyotga tayyor kadrlar shakllanadi.

Ushbu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, o'quvchilar asosiy yutuqqa va ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Natija: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlashning dolzarbligi, ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar Boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish uchun yoshga mos metodik yondashuvlar zarurligi aniqlandi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning psixologik, fiziologik va kognitiv xususiyatlarigamosholdatanlanishilozim. Raqamli ta'lim vositalarining (interaktiv doskalar, planshetlar, o'quv platformalari va multimedia resurslar) o'z vaqtida va samarali qo'llanilishi o'quvchilarda darsga qiziqish, mustaqil fikrlash va muammoli vazifalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishi isbotlandi. O'quvchilarning raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish zarurligi asoslab berildi. Bu borada ota-onalar va o'qituvchilarning hamkorligi muhim omil sifatida belgilandi. Eksperimental darslar va so'rovnomalar orqali aniqlanishicha, raqamli ta'limga tayyorlangan boshlang'ich sinf o'quvchilari an'anaviy usulda ta'lim olayotgan tengdoshlariga nisbatan yuqori motivatsiya, o'zlashtirish darajasi va ijodkorlik ko'rsatkichlariga ega bo'ldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish joyizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'lim olishlari uchun ularning yoshiga mos metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur va o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali raqamli pedagogik yondashuvlar keng joriy etilishi mumkin. Ota-onalar uchun raqamli savodxonlik bo'yicha seminar va treninglar o'tkazilishi foydali bo'ladi. O'quvchilar ta'lim muassasalarda raqamli



ta'limni mustahkamlashda internet tarmog'ining imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'limga tayyorlashda nafaqat texnik vositalarni joriy etish, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy muhitni ham uyg'un holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori. "Raqamli ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). Raqamli ta'lim platformalari bilan ishlash bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent.
3. Boshlang'ich ta'lim fanidan davlat ta'lim standarti. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2021.
4. Jo'raqulova N. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli savodxonligini shakllantirish". – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022, №1.
5. Raximova M. "Interaktiv texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish yo'llari". – Boshlang'ich ta'lim metodikasi, 2021, №3.
6. Xolboeva G.X. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari". – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
7. Azizova D. "O'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishda o'qituvchining roli". – Ta'limda innovatsiyalar, 2023, №2.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV FANLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI TAHLILI

Jabborova O.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*“Maktabgach va boshlang'ich ta'lim
metodikasi” kafedrası dotsenti*

Toshtemirova D.D.

magistrant

Tayanch soʻzlar: boshlang'ich ta'lim, hozirgi zamon, metodika, tajriba, xususiyatlar, samara, yondashuvlar, natija.

Ключевые слова: начальное образование, современность, методика, опыт, особенности, эффективность, подходы, результат.

Key words: primary education, contemporary era, methodology, experience, characteristics, efficiency, approaches, result.

PEZIOME:

Maqolada boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish hamda ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

PEZIOME:

The purpose of the article is to analyze the essence of modern approaches to teaching primary school subjects and to substantiate their importance in improving the effectiveness of the educational process.

SUMMARY:

The purpose of the article is to analyze the essence of modern approaches to teaching primary school subjects and to substantiate their importance in improving the effectiveness of the educational process.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uning mazmunini zamon talablari asosida yangilash hamda o'quvchilarni hayotga tayyorlash jarayonini aynan shu bosqichdan boshlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda[1]. Boshlang'ich ta'lim nafaqat savodxonlikning asosini yaratadi, balki shaxsning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik bosqich hisoblanadi. Shu sababli mazkur bosqichda o'qitish



jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi sharoitda boshlang'ich ta'lim jarayonini yangilash, o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va ongli kasb tanlashga yo'naltirish masalalari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda[2]. Bu jarayon o'qitish metodikalarini qayta ko'rib chiqish, ularning samaradorligini aniqlash hamda innovatsion texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga izchil joriy etishni talab etadi.

Shu jihatdan, boshlang'ich ta'lim metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlarni o'rganish, ularning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda amaliy samaradorligini aniqlash masalasi ilmiy-metodik jihatdan alohida e'tiborni talab etadi. Mazkur maqolada aynan boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati va ularning ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Natijada Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitish bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim bosqichi hisoblanadi, chunki aynan ushbu davrda o'quvchilarda bilim, ko'nikma, kompetensiya va shaxsiy fazilatlarining asoslari shakllanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida belgilangan vazifalar, boshlang'ich ta'limni jahon ta'lim standartlariga moslashtirish, o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, shaxsni kasbga yo'naltirish va pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va UNESCO, 2022).

Zamonaviy pedagogik ilm-fan ma'lumotlariga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi (Bruner, 2011; Vygotsky, 1978; Joyce va boshq., 2015). Bu yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy qaror qabul qilishini, ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini o'quvchi markazida tashkil etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, metodik yondashuvlarni tizimli baholash va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Mazkur tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:



boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik metod va yondashuvlarni tahlil qilish;

zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o'rganish va baholash;

o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish va interfaol metodlardan foydalanganlik darajasini aniqlash;

innovatsion pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim amaliyotida tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Shu nuqtai nazardan, maqola boshlang'ich ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy-metodik asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyada Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar masalasi pedagogika fanida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika, integrativ o'qitish, interfaol metodlar va raqamli pedagogik texnologiyalar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi.

Mahalliy olimlar, xususan, Rahimov (2021) va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda UNESCOning hisobotlarida (2022) boshlang'ich ta'limning funksional savodxonlikni rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdagi roli alohida ta'kidlangan. Xorijiy ilmiy manbalarda Bruner (2011), Vygotsky (1978), Dewey (1997) va Joyce va boshq. (2015) nazariyalari pedagogik amaliyotda o'quvchi markazli, interfaol va innovatsion metodlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu manbalar kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni rejalashtirish, fanlararo integratsiya va muammoli vaziyatlarda o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar nazariy va amaliy metodlarni o'zaro uyg'unlashtirishga qaratildi. Jumladan:

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

Normativ-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi) asosida pedagogik jarayonni baholash;

Taqqoslash va sistematik tahlil metodlari yordamida turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash;

Boshlang'ich ta'lim amaliyotini kuzatish va mavjud metodikalarni amaliy samaradorligi bo'yicha baholash.

Ushbu metodologiya yordamida tadqiqot boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirish, interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda ta'lim jarayonini o'quvchi markaziga



yo'naltirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlaydi va boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni puxta tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik asos yaratadi.

Muhokama Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish ta'lim jarayonining mazmuni va tuzilishini sifat jihatidan tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy, reproduktiv model o'rnini bosqichma-bosqich kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan, o'quvchi markazli yondashuv egallamoqda. Bu esa o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishni sezilarli darajada kuchaytiradi[3].

Kuzatuv va tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlarning samarali tatbiqi bir qator omillarga bog'liq. Jumladan, o'qituvchining pedagogik va metodik tayyorgarligi, darsni rejalashtirish va loyihalash mahorati, interfaol metod va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish darajasi, shuningdek, ta'lim muhitining moddiy-texnik imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ushbu omillardan biri yetarlicha ta'minlanmasa, innovatsion metodlarning samaradorligi pasayishi va kutilgan pedagogik natijalarga erishishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, fanlararo integratsiya, loyiha va muammoli vaziyatlarda o'qitish hamda raqamli pedagogik vositalardan foydalanish boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni amaliyotga qo'llashga rag'batlantiradi va ta'lim jarayonini o'quvchi markaziga yo'naltiradi. Shu bilan birga, pedagoglar doimiy ravishda o'z kasbiy salohiyatini oshirib borishi, zamonaviy metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi zarur.

Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish jarayonida pedagogik tajribani tizimli qayd etish, metodik samaradorlikni baholash va ilg'or amaliyotlarni umumlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[4]. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion pedagogik tafakkur asosida tayyorlash, ularning metodik kompetensiyasini rivojlantirish va ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.



Shunday qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga puxta va maqsadli joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va ularni mustaqil, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur tahlil pedagogik amaliyotni takomillashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tizimli va kompetensiyaviy asosda joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlarda o'qitish strategiyalari, fanlararo integratsiya va raqamli pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, mustaqil qaror qabul qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi[5]. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy yondashuvlarning muvaffaqiyati bir qator determinantlarga bog'liq: pedagoglarning metodik tayyorgarligi, darsni rejalashtirish va loyihalash mahorati, interfaol va innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish, shuningdek, ta'lim muhitining moddiy-texnik va ijtimoiy sharoitlari. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya va o'quvchilarning amaliy faoliyati asosida o'qitish metodlari o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, bilimlarni real hayotiy kontekstlarda qo'llash, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlangan.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga puxta tatbiq etish pedagogik jarayonning innovatsion shakllarini rivojlantirish, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini tizimli tarzda shakllantirish, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash va ta'lim sifatini barqaror darajada oshirishning muhim vositasi ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish, darslarni kompetensiyaviy, interfaol va integrativ metodlar bilan boyitish, pedagogik amaliyotni tizimli tahlil qilish, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi[6]. Shu bilan birga, bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy faol va mustaqil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi va ularni kelajakda kasbiy yo'nalishlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun tayyorlaydi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda



zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy va metodik salohiyatini rivojlantirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini kompleks shakllantirish va ta'lim jarayonini innovatsion asosda takomillashtirishning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Shu nuqtai nazardan, maqola natijalari boshlang'ich ta'lim metodikasini yanada rivojlantirish, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish va innovatsion metodlarni tizimli joriy etish uchun mustahkam nazariy-metodik asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasining yangi tahriri. – Toshkent, 2026
2. Jabborova O. Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2021
3. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent, 2019
4. Tilavova S. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2025
5. Jabborova O.M. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasi. – Toshkent, 2023
6. Kurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: "Turon-Iqbol", 2004.-590 b.



BOSHLANG'ICH SINIF "TARBIYA" DARSLARIDA O'QUVCHILARDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODLARI

Avazxonov Sh.G.

*"CHDPU" Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: pedagogika, texnologiya, boshlang'ich, tarbiya, ta'lim, ko'nikma, malaka, o'qituvchilar, o'quvchilar, insonparvarlik, shakl, metod, vositalar.

Ключевые слова: педагогика, технология, начальное образование, воспитание, обучение, навыки, умения, учителя, учащиеся, гуманизм, форма, метод, средства.

Key words: pedagogy, technology, primary education, upbringing, education, skills, competencies, teachers, students, humanism, form, method, tools.

РЕЗЮМЕ:

Bugungi kunga kelib, boshlang'ich sinf o'quvchi yoshlarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirib olish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini aniq tanlab, ulardan to'g'ri foydalanish muhimdir. Tarbiya darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning bir qancha metodlaridan foydalaniladi. Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

РЕЗЮМЕ:

В настоящее время при обучении учащихся начальных классов важное значение имеет расширение их мировоззрения и обеспечение более лёгкого и эффективного усвоения знаний. В связи с этим необходимо правильно выбирать и эффективно использовать методы, средства и формы педагогических технологий. При организации воспитательных занятий применяются различные методы педагогических технологий. Ниже рассматриваются некоторые из них.

SUMMARY:

Today, in teaching primary school students, it is important to broaden their worldview and ensure that knowledge is acquired more effectively and easily. For this purpose, it is necessary to carefully select and properly use the methods, tools, and forms of pedagogical technologies. Several methods of pedagogical technologies are used in organizing educational lessons. The following discussion focuses on some of these methods.

Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilar hayotida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarning savodi shakllanib, dunyoqarashi kengayadi va



tafakkuri rivojlanadi. Shuning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishi, o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishi muhimdir. Ayniqsa, didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni oson o'zlashtirishiga, faolligi va qiziqishini oshirishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida texnologik yondashuvni qo'llash, maqsadlarni aniq belgilash va o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Bugungi kun pedagoglari bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari juda yaxshi samara beradi.

Chunki 7-8 yoshli bolalarning hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, o'quvchilarning oldida juda jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot – maktab hayotiga kirib boradi. Endi ular yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, tartib-intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga ko'nikishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ortib boradi. Motiv o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Uni o'quvchilar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida amalga oshirish mumkin.

Ayniqsa, o'qituvchilar boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli va samarali olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb qilish oson bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq qaratiladi, xotirasi ham yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchi yoshlarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun bo'lsa kerak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari kerak.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining vujudga kelishi, talim va tarbiyaning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Masalan, “Individual” ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat qilgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalarga o'qitib, so'zab berisni buyurgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa



asboblariida u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'rganganlar.

Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib, yangi texnologiyalarning kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda ko'plab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilashga, o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan edi.

Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo bo'lib, uning asoschisi fransuz pedagogi E.Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSh, Fransiya, Belgiya, Shvetsariya kabi ko'plab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qo'yilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy bo'lib, unda haq to'lashga qodir kishilarning bolalarigina o'qitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan, to'liq jihozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish faoliyati jarayoni ham qo'llanilgan.

Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi bo'lib, bolalarning miyasini yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish orqali ta'lim berish o'rniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilingan. O'quvchilarga qanday qilib kuzatish, gipotezalar topishni, o'z taxminlarini tekshirib ko'rishni o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish faktlarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi.

XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862-1926) «ish-harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalarida ham o'ziga xos ijobiy tomonlar, yangiliklar bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar, harakat qiladilar.

Uning fikricha, tasvirlashning har qanday turlari: rasm solish, loy va plastilindan buyumlar yasash, har xil narsalarning modelini yasash, chizmachilik, drammatizatsiya, ashula, musiqa, raqslar shuningdek, o'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish tajribalarini o'tkazish, og'zaki va yozma ishlar va shu kabilar ta'lim jarayonidagi «ifodalash» vositalaridir. Lay fikricha,



hamma darslar ana shu qoidalar asosiga qurilishi lozim. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, bizningcha:

- mavzuning barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish;
- o‘quvchilarning ravon va to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qishining takomillashuviga erishish;
- mashg‘ulotga o‘quvchilarning faol qatnashuviga erishish;
- ularning o‘qish motivlarini qo‘zg‘ash va qiziqtirish, o‘quvchilarni faollashtirish yo‘llarini belgilash va qo‘yilgan maqsadga to‘liq erishish;
- pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va boshlang‘ich ta‘limda uni qo‘llash yo‘llarini izlash va takomillashtirish, o‘z ustida ishlash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivlarini o‘stirish ustida ishlash;
- darsni hayotiy tajribalar bilan bog‘lash lozim.

Albatta, buning oqibatida o‘quvchi to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qishga o‘rganadi. Turli mashqlar vositasida tez o‘qish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan g‘ururlanish, ya‘ni milliy g‘umr shakllanishiga asos yaraladi. Matn bilan mustaqil ishlashga o‘rganadi. O‘z fikrini erkin bayon etishga, o‘rganilganlar asosida hikoya, maqol, hikmatli so‘zlar, tez aytishlarni o‘rganadi. Sinfdoshlari fikrini ma‘qullash yoki yangi fikrlarni aytishga ham o‘rganadi.

Darsni tashkil etish:

Birinchidan, o‘qituvchi o‘quvchilarga darsga qiziqish uyg‘otishi zarur. Ya‘ni, Motiv hosil qilish: Buni darsning o‘tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o‘tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. O‘quvchilarda motiv hosil qilishda turli didaktik o‘yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

Masalan, matnni o‘qishga tayyorgarlik: yozuvchi haqida ma‘lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o‘quvchilarning matnga qiziqishlari oshiriladi. Ba‘zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o‘qib, o‘rganamiz, deb, o‘qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta‘sirini kuchaytiradi.

Matnni o‘qish va mazmunini so‘zlash. Bunda o‘qituvchi matnni o‘zi o‘qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o‘quvchilar faoliyatidan ham foydalanishi mumkin.

Lug‘at ustida ishlash. Notanish so‘zlarga izoh berilib, o‘quvchilarning so‘z boylıkları oshiriladi (bunda ko‘proq o‘quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatiladi.

Topshiriq bilan o‘qish. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qish malakalarini rivojlantirish, o‘qiganini tushunib olishga o‘rgatish uchun turli mashq va



usullardan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismining mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlavha topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilar dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rganishiga yordam beradi.

Matn mazmuni ustida ishlash. O'quvchilar matn mazmunini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida mazmunni o'zlashtirishi mumkin.

Masalan, «Davom ettir» o'yini: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob» o'yini: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror darslikda keltirilgan hikoya nomini aytadi. O'quvchi shu hikoyaga kiruvchi qahramonlarni topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Shu kabi metod va usullardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo'lsa, demak dars texnologiyasi to'g'ri ishlangan va uni takomillashtirish mumkin. Agar maqsadga erishilganlik darajasi past bo'lsa, demak loyihani korrrektirovka qilish (o'zgartirishlar kiritish) kerak. O'qituvchi qayerda xato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining algoritmi bo'lib, uni boshqacha tarzda ham tashkil qilish mumkin.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot roli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqitiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga



undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish talab etiladi.

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlantirishga, fikrlashga o'rgatishini ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi» 5.

Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyatga boy bo'lgan ustozgina mavzuni pedagogik texnologiyalardan, metod va shakllardan foydalangan holda o'quvchilarga mahorat bilan yetkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalanadi.

O'quv informatsiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladi?

Tarbiya darslarini o'qitishda o'qitishning og'zaki metodlaridan foydalansa ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

- a) o'qituvchining hikoyasi;
- b) suhbat;
- v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladi. Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa, suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyat o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarni diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi:



Tarbiya darslarida bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin. Tarbiya darslarini tashkil etishning qanday hollarida suhbat usuli qo'llaniladi? Uni qo'yishda qanday qoidalarga amal qilish lozim? Suhbat usuli – savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O'quvchilar darsga yetarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evristik izlanish, axtarib topish xarakterida bo'ladi.

Dars jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Suhbatlar, ayniqsa, o'qitishning tarbiyalovchilik xarakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo'l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o'quvchilarning ayrim guruhlari bilan ham o'tkaziladi.

Suhbatlar orqali:

a) o'quvchilarning o'z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish, o'quvchilarning ilgari o'rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko'rganda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1) o'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rtaga tashlanishi kerak.

2) o'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3) sinfnig barcha o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4) o'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri-noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Xo'sh, ushbu o'quv informatsiyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qanday? Ko'rgazmalilikning qanday turlari mavjud? degan savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib, mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.



Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning xarakteriga – mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu xarakter ikki turlidir:

Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

Tasviriy ko'rgazmali materiallar:

A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h.k.

Tasviriy ko'rgazmali materiallarning turliligi har xil qo'llashni talab etadi. Masalan:

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatish ikki usulda namoyish etiladi:

a) o'tilayotgan mavzuga oid badiiy ko'rgazma materiallari o'quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o'qituvchi ko'rsatadi);

b) tabiiy ko'rgazmali materiallarning soni yetarli bo'lsa, ular har bir o'quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko'rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) ko'rgazmali materiallarni o'qituvchi namoyish etadi;

b) ko'rgazmali materiallar o'quvchiga tarqatiladi.

O'qitilayotgan mavzuning xarakterini hamma vaqt ham sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa-hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib keyin o'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi. O'quvchilar ekskursiya davomida ob'ekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:



- mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi;

- mashq ustidan sinf o'quvchilari jamoasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy intilishi, qiziqishini hisobga olishi;

- topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari muhimdir.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o'quvchining zerikmasligini, zo'riqmasligini ta'kidlagan.

Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, Multimedia, kodaskop, filmskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari – shular jumlasiga kiradi.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish – ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi darsligi. Karimjanov Alijan. Toshkent. 2025
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent, 1968. 106-107 betlar.
3. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009. – 184 B.
4. Zokirov I.I. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning nazariy-amaliy asoslari. (kasb-hunar kollejlari misolida). Ped.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. Avtoreferati, – T.:2005. 9-b.
5. Yo'ldoshev J.G., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.:“Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2009. 492 B.



INNOVATSION FAOLIYAT – TA'LIM SAMARADORLIGI OMILI

Musurmonova M.

ChDPU “Maktabgacha

va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: innovatsion rivojlanish, davlat va jamiyat, yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsion amaliyot, innovatsion texnologiyalar, ta’lim mazmunini rivojlantirish, shaxsning rivojlanishi, “novatsiya” va “innovatsiya”, innovator-pedagog.

Ключевые слова: инновационное развитие, государство и общество, новая мысль, новая идея, инновационная практика, инновационные технологии, разработка образовательного контента, личностное развитие, «новация» и «инновация», учитель-новатор.

Key words: innovative development, state and society, new thought, new idea, innovative practice, innovative technologies, development of educational content, personal development, “innovation” and “innovation”, innovative teacher.

РЕЗЮМЕ:

Маколада таълим муассасаларида таълим-тарбия самарадорлигини оширишнинг инновацион йўл-йўриклари, ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш муаммолари ва шу орқали янги босқичга кўтаришнинг замонавий талаб ҳамда принциплари тўғрисида фикр юритилган.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются инновационные подходы к повышению эффективности образования в учебных заведениях, проблемы подготовки учителей к инновационной деятельности, а также современные требования и принципы их повышения до нового уровня.

SUMMARY:

The article examines innovative approaches to improving the effectiveness of education in educational institutions, problems of preparing teachers for innovative activities, as well as modern requirements and principles for raising them to a new level.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq. Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez



rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi” deb e‘tirof etgan edi.

Darhaqiqat, xalq xo‘jaligining barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta‘lim-tarbiya sohasida ham zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng va chuqur qo‘llamasdan turib ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Tajribalarimizdan ma‘lumki, ta‘limga “innovatsion yangilik kiritish” orqali tizim ichki tuzilishini mukammallashtirish va o‘zgartirishni talab qiladi. Bunda pedagogik innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob‘ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub‘ektlarning harakat tizimi hisoblanadi.

Innovatsiyalar o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardan iboratdir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, izlanuvchanlik va ijodkorlik asosida ta‘lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi. Shuningdek, umuman ta‘lim tizimi samaradorligi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsiya – ma‘lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash orqali oldingisidan ancha samarali muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma‘lum bo‘lgan oxirgi natijadir.

Bugungi kunda uzluksiz ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga qiziqish, e‘tibor tobora kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan ta‘limda esa, o‘quvchi-talabalarning o‘zlari egallashi zarur bo‘lgan bilimlarni qiziqib izlab topishlari, izlanish va ijodkorlikka keng imkon yaratadi. Mustaqil o‘rganib, fikrlab tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari o‘zaro kelishib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagog bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishga yetarli sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik, maslahatchi, korreksiyalovchi kabi funksiyasini amalga oshiradi.

Ta‘lim tizidagi innovatsiyalar puxta o‘ylangan, aniq samaradorlikka erishish kafolatlangan bo‘lishi va uni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayonlardagi: dars, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar; pedagogik jamoani ilmiy-metodik jihatdan boshqaruvdagi faoliyat);

- Innovatsiya sifatida kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);



- Kelib chiqish manbaiga ko'ra (innovatsiya shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lam asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim natijasiga yoki uning pritsipial o'zgarishiga olib kelsa, bu innovatsiya yoki innovatsion o'zgarish bo'la oladi.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya mavjud nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi.

Innovatsiya esa tizimli, samarali va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo'nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Ta'limda innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayonida aytiladi. Innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan tezkor o'zlashtirilishi va ulardan ilmiylik asosida amaliyotga samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitlikni vujudga keltiradi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orkali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzok vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorning yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni ijobiy yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga munosib hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga tayyorligining ijtimoiy va kasbiy muhim sifatleri nafaqat ta'lim muassasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan bog'liqdir. Kasbiy jihatdan



muvaffaqiyatli o'qituvchilarning malakalari va kasbiy sifatlari zamonaviy ta'lim tizimining asosiy real talablari hisoblanadi. Innovator-pedagoglar bugungi kun ta'lim tizimining talabi bo'lib, kasbiy cho'qqilarga erishish uchun malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ta'limni chuqurlashtirish talab etiladi. O'qituvchilar o'zlarining innovatsion faoliyatni keng yoyish, yosh o'qituvchilarga o'rgatish, interfaol o'qitish usullarini ochiq darslarda namoyon qilishlari zarur. Bu o'qituvchilar o'z faoliyatlarini baholashning yangi usullarini topish, kasbiga bo'lgan qarashlarni o'zgartirish, pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'qituvchilarga kasbiy vazifalari to'g'risidagi tor tushunchalarning o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida qayd etilgan – ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish kabi vazifalar samarali amalga oshirilishi shubhasiz.

Ma'lumki, pedagogik jarayonlar pedagogik tizim ichida kechadi. Ilgaridan loyihalashtirilgan har bir didaktik jarayon ma'lum prinsipial imkoniyatlarga ega bo'lib, u o'quvchida bilim, ko'nikma va malakalarning sifatli shakllanishini nazarda tutadi. Bu degan so'z, biz ta'lim-tarbiyada zaruriy darajadagi natijani olish uchun pedagogik tizimni takomillashtirishimiz, uning funksiyasini ijobiy tomonga yo'naltirishimiz, intensiv pedagogik jarayonni vujudga keltirishimiz zarur.

Bundan xulosa shuki, ta'lim-tarbiyada sifatli, samarali natijani olish uchun mavjud pedagogik tizimni modernizatsiyalashtirib borish zarur. Shu munosabat bilan innovatsiyalarning ob'ekti sifatida quyidagi pedagogik muammolarni keltirishimiz o'rinli bo'ladi:

- o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish;
- darsda o'quv materiallari xilma-xilligi va hajmini kengaytirish;
- o'quv jarayon samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayonida vaqtdan unumli foydalanish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning shaxsiy ishtiroki va erkin faolligi ma'suliyatni oshirish.

Bu sohada eng to'g'ri yo'l – yangiliklarni asta-sekinlik bilan, ketma-ketlikda, uzluksiz, uning natijaviyligiga ishonch hosil qilgan holda, har tomonlama o'ylab, o'lchab navbatdagi qadamlarni bosish, davom ettirish kerak.



Buning uchun esa innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish yo'llarini oldindan belgilash zarur:

- yangi pedagogik g'oyalarni shakllantirish;
- konsepsiya ishlab chiqish;
- innovatsion dastur yaratish;
- ijro mexanizmini ishlab chiqish;
- amaliyotga joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak" ligini ta'kidladi.

Ha, ilm-fan va texnika shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi globallashuv davrida uzluksiz ta'lim tizimini qayta qurish, uni innovatsion g'oyalar, nazariy, amaliy va metodik jihatdan tubdan yangilashni talab etmoqda. Ana shu maqsad yo'lida barcha pedagogik jamoalarning har bir a'zosi g'ayrat bilan fidoyilik ko'rsatib, vatanparvarlik tuyg'usi bilan yonishi zarurligi his qilmog'i zarur.

Zero, Prezidentimiz "Men yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor-o'qituvchilarni o'zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Sizlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatingizni qo'llab-quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'zimning muqaddas burchim, deb hisoblayman" deb o'qituvchi-murabbiylarga katta hurmat izhor etdi. Davlat rahbarining uzluksiz ta'lim tizimi xodimlariga nisbatan qilgan murojaatiga javoban innovatsion faoliyatlarni chuqurlashtirish va samaradorligi oshirish imkoniyatlarini izlash va ijodiy yondashish har bir pedagogning muqaddas burchi bo'lmog'i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi 30.09.2020.
2. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish T.: "Turon-Iqbol", 2006. 590 b.
3. Xalq ta'limi jurnali bosh maqola "Innovatsiya – yangilikka intilish, kelajakka qadam", t.: 2018. № 1.4-6 b.
4. J.G'.Yo'ldoshev "Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga uzluksiz ravishda tatbiq etish zamon talabi" T.: "Uzluksiz ta'lim" j. 2011. № 6, 11-15 b.
5. R.Musurmonov "Ta'lim sifatini boshqarishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar haqida", Vestnik Batkentskogo gos. Univer. J. 2008, № 5, B. 76-78
6. R.Musurmonov "Sog'lom avlod tarbiyasi – jamiyat taraqqiyotining asosi" O'zMU xabarleri jur. T.: 2011 y. № 1, B. 169-173.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA "TARBIYA" FANINI O'QITISH JARAYONIDA EKOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Norbo'tayeva I.Yu.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil
izlanuvchisi*

Tayanch so'zlar: ekologik ta'lim, boshlang'ich ta'lim, "Tarbiya" fani, ekologik bilimlar, pedagogik texnologiyalar, ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik, ta'lim jarayoni, didaktik metodlar.

Ключевые слова: экологическое образование, начальное образование, предмет «Воспитание», экологические знания, педагогические технологии, экологическая культура, экологическая компетентность, образовательный процесс, дидактические методы.

Key words: environmental education, primary education, "Tarbiya" subject, environmental knowledge, pedagogical technologies, ecological culture, ecological competence, educational process, didactic methods.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida ekologik bilimlarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Unda ekologik ta'limning mazmuni, o'quvchilarda ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirishda pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida ekologik bilimlarni samarali o'zlashtirishni ta'minlaydigan metod va vositalar ko'rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрываются педагогические основы совершенствования механизмов формирования экологических знаний у учащихся начальных классов в процессе преподавания предмета «Воспитание». Анализируется значение экологического образования, педагогических технологий и инновационных методов в формировании экологической культуры и ответственности у школьников. Также представлены эффективные методы и средства усвоения экологических знаний в системе начального образования.

SUMMARY:

This article examines the pedagogical foundations for improving the mechanisms of forming environmental knowledge among primary school students in the process of teaching the subject "Tarbiya". The study analyzes the importance of environmental education, pedagogical technologies, and innovative teaching methods in developing ecological culture and responsibility



among students. It also highlights effective methods and tools for ensuring the successful acquisition of environmental knowledge in primary education.

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar global darajaga ko'tarilib, insoniyat oldida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining ta'lim sohasini ekologik ongni shakllantirish bilan uzviy bog'lashga qaratilgan qarorlari va strategik dasturlari bu borada muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimi – kelajak avlodda tabiatga mehr, ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish g'oyalarini shakllantirishda eng muhim bosqichdir. Ekologik muammolarning keskinlashuvi yosh avlodda ekologik madaniyatni erta shakllantirish zarurligini taqozo qilmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga tabiatga mehr, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish kabi ko'nikmalarni singdirish "Tarbiya" fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Maktabning boshlang'ich bosqichi ekologik bilimlarning poydevorini yaratishda eng samarali davr hisoblanadi. Shu bois "Tarbiya" fanida ekologik bilimlarni o'rgatish mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion metodlardan foydalanish, integratsiyalashgan yondashuvlarni joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari "Tarbiya" fani o'quvchilarning axloqiy, ijtimoiy, ma'naviy va ekologik qadriyatlarini rivojlantirishda ham asosiy rol o'ynaydi. Ushbu fan orqali tabiatni sevish, uni asrash, ekologik muammolarni tushunish va ularni hal etishga faol munosabat bildirish kabi fazilatlar shakllanadi. Shu boisdan, "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida ekologik bilimlarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha metodik takliflar ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Jahon tajribasi va Konsepsiyalar: Ekologik ta'limning xalqaro darajada tan olingan asosiy konsepsiyalar (Barqaror Rivojlanish uchun Ta'lim (ESD) tamoyillari) Munozara: Olimlar (D. Zaxlebnii, N. M. Mamedov) ekologik ongni shakllantirish shaxsning qadriyatlar tizimiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Mening tadqiqotim bu qadriyatlarni bevosita "Tarbiya" darslari orqali shakllantirishga qaratilgani bilan ulardan farq qiladi. Ta'limdagi Integratsiya Prinsipi: Ko'pgina pedagoglar (masalan, L. I. Novikova, B. Sayfullayev) ekologik ta'limni alohida fan emas, balki fanlararo integratsiya shaklida olib borish samarali ekanini ilgari suradi. 2. Boshlang'ich Ta'limning Psixologik-Pedagogik Xususiyatlari. Yosh davri psixologiyasi: Boshlang'ich sinf



o'quvchilarining (7-10 yosh) operativ tafakkur, hissiy idrok va taqlidga moyilligi haqidagi psixologik tadqiqotlarni (J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi) .Munozara: Bu yoshdagi bolalar abstrakt g'oyalarni qiyin qabul qilgani uchun, ekologik bilimlarni shakllantirishda amaliy faoliyat, o'yin va ko'rgazmali materiallar asosiy mexanizm bo'lishi kerakligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu sizning interfaol metodlarni takomillashtirishga urg'u berishingizni oqlaydi. Tarbiya fani va qadriyatlar: Mahalliy adabiyotlarda (masalan, B. Ziyomuhamedov, M. Yuldashev) ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish zarurligi yoritiladi. Ekologik mas'uliyat aynan ana shu umuminsoniy qadriyatlar qatoriga kiradi. "Mavjud ilmiy adabiyotlarda ekologik ta'limning nazariy asoslari va umumiy metodlari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, aynan O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinflarning "Tarbiya" fani mazmuni doirasida ekologik bilimlarni shakllantirish mexanizmlarini amaliy interfaol asosda takomillashtirishga qaratilgan pedagogik asoslar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqot dolzarb hisoblanadi."

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologik bilimlarni shakllantirishning nazariy asoslari.

Ekologik tarbiya – bu shaxsda tabiatga nisbatan to'g'ri, mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Pedagogik nuqtayi nazardan, ekologik ta'limning asosi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qadriyat tizimini shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf davrida ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi psixologik-pedagogik tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

1. yosh xususiyatlariga moslik tamoyili;
2. kuzatuvchanlik va amaliy faoliyat orqali o'rganish tamoyili;
3. interaktivlik va o'quvchi faolligini oshirish tamoyili;
4. ekologik qadriyatlarni shaxsiy tajriba orqali singdirish tamoyili.
2. "Tarbiya" fanida ekologik ta'lim mazmunining integratsiyasi

Boshlang'ich sinf "Tarbiya" fanining mazmunida ekologik yo'nalishdagi mavzular ko'plab mavjud: "Tabiatni asraylik", "O'simliklar va hayvonlarga mehr", "Ona zamin – bizning uyimiz", "Suv – hayot manbai" va boshqalar. Ushbu mavzularni o'qitish jarayonida quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Integrativ yondashuv – "Tarbiya" fani mazmunini tabiatshunoslik, ona tili va tasviriy san'at bilan bog'lab o'qitish;

Amaliy o'rganish – ekologik loyihalar, kuzatuv daftarlari, sinfdan tashqari ekologik tadbirlar tashkil etish;

Interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Fikrlar jadvali", "Rolga kirish", "Ekologik zanjir" kabi metodlar orqali o'quvchilarni faol fikrlashga jalb etish.



3. Ekologik bilimlarni shakllantirish mexanizmlari

Ekologik bilimlarni samarali shakllantirish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlar ishlab chiqilishi va qo'llanilishi lozim:

1. Didaktik mexanizm – o'quv materialini ekologik mazmunga yo'naltirish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish.

2. Psixologik mexanizm – o'quvchining ekologik sezgirligi va kuzatuvchanligini rivojlantirish.

3. Motivatsion mexanizm – tabiatga mehr uyg'otish, ekologik faoliyatda ishtirok etish istagini shakllantirish.

4. Axborot-kommunikatsion mexanizm – media ta'lim, ekologik videoroliklar, raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish.

5. Baholash mexanizmi – o'quvchilarning ekologik bilim va munosabatlarini nazorat qilishning diagnostik usullarini qo'llash.

4. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'qituvchining roli

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ekologik ta'limning tashabbuskori bo'lib, u nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchining shaxsiy ekologik madaniyati, ekologik dunyoqarashi, dars jarayonida ekologik g'oyalarni samarali yetkazish mahorati o'quvchilarning bilim sifati va ong darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirish – bu faqatgina axborot berish emas, balki ularni tabiatni sevish, muhofaza qilish va ekologik madaniyatli fuqarolar sifatida voyaga yetkazish jarayonidir. "Tarbiya" fanini o'qitishda ekologik mazmunni kengaytirish, integrativ va interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ushbu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Shu tariqa, ekologik ta'limni "Tarbiya" fanining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish yosh avlodda ekologik mas'uliyat va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – "Tarbiya" faniga oid o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va ekologik ta'lim bo'yicha ilmiy manbalar o'rganildi.

2. Pedagogik kuzatuv – boshlang'ich sinflarda o'tilgan darslar, o'quvchilarning ekologik faoliyati, ularning dars davomida namoyon etgan xulqlari tahlil qilindi.

3. Diagnostik metodlar – o'quvchilarning ekologik bilim darajasini aniqlash uchun test, suhbat va savolnomalar qo'llandi.

4. Eksperimental–sinov ishlari – ekologik mavzularni o'qitishda interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar va loyihaviy yondashuvlar sinovdan o'tkazildi.



5. Statistik tahlil – diagnostika natijalari qayta ishlanib, taqqoslash va foizlarda ifodalash usullari bilan baholandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida ekologik bilimlarni shakllantirishning samaradorligi quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi:

1. Dars jarayonida interfaol metodlar qo‘llanganda bilim samaradorligi 30–35% ga oshdi. “Fikrlar charxi”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Tarmoqlar usuli”, “Aktivator 3,2,1” va rolli o‘yinlar, baxs-munozaralar o‘quvchilarni ekologik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishga o‘rgatdi.

2. Kuzatish va amaliy faoliyat o‘quvchilarning ekologik ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Maktab hamda o‘z uyini, hovlisini tozalash, gul ekish, chiqindilarni saralash bo‘yicha amaliy topshiriqlar o‘quvchilarda mas’uliyat hissini oshirdi.

3. Multimediadan foydalanish ekologik tasavvurlarni tez va samarali shakllantirdi.

Video-rolklar, animatsiyalar, virtual sayohatlar orqali o‘quvchi tabiatdagi jarayonlarni vizual qabul qila oldi.

4. O‘quv dasturidagi mavzularni fanlararo integratsiya ko‘rinishida o‘rganish yuqori natija berdi.

“Tarbiya + Tabiiy fanlar”, “Tarbiya + Texnologiya”, “Tarbiya + O‘qish savodxonligi” integratsiyasi orqali ekologik tushunchalar chuqurroq o‘zlashtirildi.

5. O‘quvchilarda ekologik xulq-atvor shakllanishi ijobiy o‘lish ko‘rsatdi.

Dastlabki diagnostikaga nisbatan sinovdan so‘ng ekologik madaniyat ko‘rsatkichlari o‘rtacha 20% ga oshdi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ekologik tarbiya:

- faoliyatga asoslangan,
- ko‘rgazmali vositalar bilan boyitilgan,
- hayotiy misollar bilan mustahkamlangan,
- interfaol o‘yinlar orqali tushuntirilgan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, o‘qituvchining zamonaviy ekologik bilimlarga egaligi darsning sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni isbotladiki, ekologik mazmundagi loyihalar (“Mening daraxtim”, “Eng toza sinf bizning sinf”, “Toza maktab”, “Ekologik patrul”) o‘quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik va mas’uliyatni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ota-onalarni hamda atrofdagi qo‘ni-qo‘shnilar, hammani jalb qilish ham muhim. Chunki tabiat umumiy uyimiz. Uy vazifalarini oilaviy



tarzda bajarish (masalan, chiqindilarni saralash, suvni tejash loyihalari, gullarni parvarishlash, tartiblilik, ozodalik) o'quvchilarning kundalik xulq-atvorida ekologik odatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni takomillashtirish nafaqat ta'lim sifati, balki kelajak avlodning ekologik mas'uliyatli shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirish – bu faqatgina axborot berish emas, balki ularni tabiatni sevish, muhofaza qilish va ekologik madaniyatli fuqarolar sifatida voyaga yetkazish jarayonidir. “Tarbiya” fanini o'qitishda ekologik mazmunni kengaytirish, integrativ va interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ushbu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Shu tariqa, ekologik ta'limni “Tarbiya” fanining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish yosh avlodda ekologik mas'uliyat va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, “Tarbiya”, “O'qish savodxonligi” fanlarini o'qitish jarayonida ekologik bilimlarni shakllantirish o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirishda samarali bo'lishi, ularni mas'uliyatli va ongli fuqarolar sifatida tarbiyalashga katta hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2022.
2. “Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standarti”. – T., 2021.
3. Hasanboeva O., Qodirova F. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Rasulova M. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2019.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
6. Masterman L. Teaching the Environment in Modern Education. – London: Routledge, 2018.
7. Karimova V. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
8. Abdullayeva G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ongni shakllantirish usullari. – Toshkent, 2022.
9. Qurbonova N. Ekologik tarbiya jarayonida interfaol metodlar. – “Pedagogik ta'lim” jurnali, №3, 2023.
10. Sayfullayev B. I. Pedagogika: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 450 b.
11. Zaxlebnii D. N., Zverev I. D. Ekologicheskoye obrazovaniye shkolnikov. – Moskva: Pedagogika, 1983. – 160 s.
12. Yuldashev M. Boshlang'ich ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya asoslari. – Toshkent: Istiqol, 2020. – 288 b.



BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA INNOVATSION METODLARI

Atabekov F.O.

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda amaliy fanlar
kafedrası dotsenti*

Ibragimova M.R.

boshlang'ich ta'lim magistranti

Tayanch so'zlar: sog'lom turmush tarzi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik asoslar, innovatsion metodlar, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtiruvchi faoliyat, ta'lim jarayoni, o'quvchilar salomatligi, pedagogik texnologiyalar.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, начальное образование, педагогические основы, инновационные методы, физическое воспитание, оздоровительная деятельность, образовательный процесс, здоровье учащихся, педагогические технологии.

Key words: healthy lifestyle, primary education, pedagogical foundations, innovative methods, physical education, health-promoting activities, educational process, students' health, pedagogical technologies.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari hamda innovatsion metodlari yoritilgan. Unda o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim jarayonining o'рни, pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali usul va vositalar ko'rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье раскрываются педагогические основы и инновационные методы формирования здорового образа жизни в процессе начального образования. Анализируется роль образовательного процесса, педагогических технологий и интерактивных методов в формировании у учащихся навыков здорового образа жизни. Также представлены эффективные методы и средства укрепления физического и психического здоровья школьников.

SUMMARY:

This article discusses the pedagogical foundations and innovative methods for developing a healthy lifestyle in the process of primary education. It analyzes the role of the educational process, pedagogical technologies, and interactive teaching methods in shaping healthy lifestyle skills among students. The study also highlights effective methods and tools for strengthening the physical and mental health of primary school students.



Bugungi kunda sogʻlom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti koʻp jihatdan yosh avlodning jismoniy va ruhiy salomatligiga bogʻliq. Ayniqsa, boshlangʻich taʼlim bosqichi bolalarda hayotiy muhim odat va koʻnikmalarni shakllantirishda hal qiluvchi davrdir.

Sogʻliq tushunchasi tomonidan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv sogʻlom turmush tarzini faqat jismoniy sogʻliq bilan emas, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham bogʻliq holda koʻrib chiqishni talab qiladi.

Boshlangʻich sinf yoshidagi bolalar tez taʼsirchan, taqlidchan va faol boʻladilar. Shu sababli sogʻlom turmushga oid bilim va koʻnikmalarni aynan shu bosqichda shakllantirish samarali natija beradi.

Sogʻlom turmush tarzi – bu insonning sogʻligini mustahkamlashga qaratilgan ongʻli hayot faoliyatidir. Pedagogik nuqtayi nazardan bu jarayon quyidagi elementlarni oʻz ichiga oladi:

- sogʻlom ovqatlanish;
- jismoniy faollik;
- shaxsiy gigiyena;
- kun tartibiga rioya qilish;
- ruhiy barqarorlik;
- zararli odatlardan saqlanish.

Boshlangʻich yosh davrida sogʻlom odatlar refleks darajasida shakllanadi. Agar bu davrda toʻgʻri pedagogik taʼsir koʻrsatilsa, bola sogʻlom hayot tarzini tabiiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Boshlangʻich yosh xususiyatlari va sogʻlom turmush

6–10 yoshli bolalarda:

- harakat faolligi yuqori boʻladi;
- diqqatning barqarorligi qisqa muddatli;
- oʻyin asosiy faoliyat turi hisoblanadi;
- emotsional taʼsir kuchli.

Shu sababli sogʻlom turmushni shakllantirishda oʻyin metodlari, harakatli mashqlar va vizual vositalar samarali hisoblanadi.

Sogʻlom turmush tarzining tarkibiy komponentlari

Jismoniy salomatlik

Jismoniy mashqlar bolaning organizmini chiniqtiradi, immunitetni mustahkamlaydi va aqliy faoliyatni faollashtiradi. Har kuni ertalabki badantarbiya, sport toʻgaraklari va harakatli oʻyinlar tavsiya etiladi.

Sogʻlom ovqatlanish



Ratsionda oqsil, vitamin va minerallar yetarli bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinfda ovqatlanish madaniyatini shakllantirish muhimdir.

Shaxsiy gigiyena

Qo‘l yuvish, tish tozalash, kiyim-kechak tozaligi sog‘liqni saqlashning asosiy shartidir.

Ruhiy salomatlik

Ijobiy psixologik muhit, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash bolalarning ruhiy barqarorligini ta‘minlaydi.

Innovatsion metodlar

-Interfaol metodlar

-Aqliy hujum

-Klaster

-Muammoli vaziyat

-Rolli o‘yinlar

Bu metodlar bolalarda mustaqil fikrlash va ongli qaror qabul qilishni rivojlantiradi.

O‘yin texnologiyalari

“Sog‘lom estafeta”, “To‘g‘ri va noto‘g‘ri” kabi o‘yinlar orqali sog‘lom odatlar mustahkamlanadi.

Loyihaviy faoliyat

“Sog‘lom hafta” loyihasi orqali o‘quvchilar kun tartibi va ovqatlanish rejasini tuzadilar.

AKTdan foydalanish

Multimedia taqdimotlar, animatsiyalar va interaktiv testlar mavzuni qiziqarli qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar

Samarali natija uchun:

-Sog‘lom ta‘lim muhiti yaratish

-O‘qituvchining shaxsiy namuna ko‘rsatishi

-Oila bilan hamkorlik

-Sport infratuzilmasi mavjudligi

-Motivatsion rag‘bat tizimi zarur hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar

-Har kuni “Sog‘lom daqiqa” joriy etish

-Sinfda sog‘lom burchak tashkil qilish

-Ota-onalar bilan seminar o‘tkazish

-Sport tadbirlarini ko‘paytirish



Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarzini shakllantirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarda sog'lom hayotga ongli munosabatni shakllantiradi. Sog'lom avlodni tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarzini shakllantirish tizimli, kompleks va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab qiladi. Xulosa o'rnida shuni aytamizki, o'quvchilarning sog'lom odatlari va ko'nikmalari faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi. Innovatsion metodlardan - interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, loyihaviy faoliyat va AKT vositalaridan foydalangan holda olib borilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda sog'lom hayotga ongli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, pedagogik shart-sharoitlar - sog'lom ta'lim muhiti, o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi, ota-ona bilan hamkorlik, sport infratuzilmasi va motivatsion rag'bat tizimi — sog'lom turmushni shakllantirish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O'qituvchi, 2015. – 320 b.
2. Yo'ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 256 b.
3. Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi. – T.: Fan, 2012. – 210 b.
4. Constitution of the World Health Organization. – Geneva, 1948.
5. Sodiqov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O'qituvchi, 2015. – 320 b.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-Moliya, 2011. – 240 b.



EKO-STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA EKOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

Kuchkinov A. Yu.

CHDPU "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti., PhD

Tayanch so'zlar: Eko-STEAM, ekologik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, barqaror rivojlanish, fanlararo integratsiya, ekologik tafakkur, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, innovatsion pedagogika, ta'lim strategiyalari

Ключевые слова: Эко-STEAM, экологическая компетентность, начальное образование, устойчивое развитие, междисциплинарная интеграция, экологическое мышление, проектное обучение, проблемное обучение, инновационная педагогика, образовательные стратегии

Key words: Eco-STEAM, environmental competence, primary education, sustainable development, interdisciplinary integration, ecological thinking, project-based learning, problem-based learning, innovative pedagogy, educational strategies

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada Eko-STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich ta'limda ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va strategik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda barqaror rivojlanish tamoyillari, fanlararo integratsiya va innovatsion didaktik texnologiyalar uyg'unligi asosida o'quvchilarda ekologik tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda mas'uliyatli ekologik xulq-atvorni rivojlantirish imkoniyatlari asoslanadi. Eko-STEAM muhiti uchun zarur bo'lgan resurslar, loyiha asosida o'qitish, tajriba faoliyati va raqamli vositalarning pedagogik samaradorligi yoritiladi. Natijada, boshlang'ich ta'limda ekologik kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ model taklif etiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются теоретико-методологические основы и стратегические механизмы формирования экологических компетенций в начальном образовании на основе подхода Эко-STEAM. Обосновываются возможности развития экологического мышления, навыков решения проблемных ситуаций и ответственного экологического поведения учащихся посредством междисциплинарной интеграции, принципов устойчивого развития и инновационных дидактических технологий. Рассматриваются ресурсное обеспечение, проектное обучение, практико-ориентированная деятельность и цифровые инструменты как эффективные средства формирования экологической культуры. Предлагается интегративная модель системного развития экологических компетенций в начальной школе.

SUMMARY:



This article analyzes the theoretical and methodological foundations and strategic mechanisms for developing environmental competencies in primary education based on the Eco-STEAM approach. The study substantiates the potential for fostering ecological thinking, problem-solving skills, and responsible environmental behavior through interdisciplinary integration, sustainable development principles, and innovative didactic technologies. It highlights the pedagogical effectiveness of resource support, project-based learning, practical activities, and digital tools within the Eco-STEAM environment. As a result, an integrative model aimed at the systematic development of environmental competencies in primary education is proposed.

Kirish. Globallashuv va ekologik inqiroz sharoitida boshlang'ich ta'limda Eko-STEAM muhitini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [1] hamda sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga oid qarorlari [2] ta'lim jarayoniga integrativ, texnologik va ekologik yondashuvlarni joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – Eko-STEAM asosida ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodologik mexanizmlarini ishlab chiqish va empirik asoslashdir. Vazifalar ekologik tafakkurni rivojlantirish strategiyalarini aniqlash, fanlararo integratsiyani modellashtirish hamda tajriba-sinov orqali samaradorlikni baholashdan iborat. Tadqiqot obyekti – boshlang'ich ta'limda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni; predmeti – Eko-STEAM muhitining didaktik va texnologik komponentlari. Metodlar: tizimli tahlil, pedagogik modellashtirish, eksperiment va statistik verifikatsiya. Muallif qarashiga ko'ra, Eko-STEAM ekologik ongni barqaror rivojlantirishning strategik paradigmasi bo'lib, uning empirik tadqiqotlari ta'lim siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Maqola kirish, adabiyotlar tahlili, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa qismlaridan iborat.

Natijalarshuniko'rsatdikimazkurtadqiqotdoirasidaEko-STEAMyondashuvi asosida boshlang'ich ta'limda ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ pedagogik modeli ishlab chiqildi hamda empirik sinovdan o'tkazildi. Ilmiy izlanishning asosiy mazmuni ekologik kompetensiyani ko'p komponentli konstrukt sifatida talqin qilish, uning kognitiv (ekologik bilim va tafakkur), aksiologik (qadriyat va munosabat), hamda faoliyatli-amaliy (barqaror xulq-atvor va muammoli vaziyatlarni hal etish) tarkibiy qismlarini Eko-STEAM muhiti orqali tizimli rivojlantirish mexanizmlarini asoslashdan iborat bo'ldi. Modelning strukturaviy tuzilmasi mazmuniy blok (fanlararo integratsiya), texnologik blok (loyiha asosida o'qitish, tajriba va simulyatsiyalar), hamda diagnostik blok (indikatorlar va mezonlar tizimi) asosida ishlab chiqildi.

Ekologik kompetensiyalar ko'rsatkichlarining dinamikasi (%)

Ko'rsatkichlar	Boshlang'ich diagnostika	Eksperimental guruh (yakuniy)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Ekologik bilim darajasi	45 %	72 %	55–60 %
Ekologik tafakkur	39 %	76 %	48–52 %
Ekologik xulq-atvor kompetensiyasi	41 %	78 %	50–55 %

O'sish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Eksperimental guruh o'sishi	Nazorat guruhi o'sishi
Ekologik bilim	+27 %	+10–15 %
Ekologik tafakkur	+37 %	+9–13 %
Ekologik xulq-atvor kompetensiyasi	+37 %	+9–14 %

Statistik tahlil natijalari

Statistik mezon	Qiymat	Izoh
Student t-testi	$p < 0,05$	Natijalar ishonchli
Farqlar ishonchliligi	95 %	Metodika samarali

Eko-STEAM asosidagi loyiha faoliyati, muammoli vaziyatli topshiriqlar va ekologik laboratoriya tajribalari ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Eksperimental guruhda barcha indikatorlar bo'yicha barqaror ijobiy dinamika kuzatildi. Statistik ishonchlilik ($p < 0,05$) metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. Kuzatuvlar o'quvchilarda analitik tafakkur, sabab-oqibat tahlili, jamoaviy hamkorlik va refleksiv faoliyatning sezilarli rivojlanganini ko'rsatdi.

Ilmiy metodologiyaning samaradorligi statistik qayta ishlash orqali tasdiqlandi. Student t-testi natijalari $p < 0,05$ darajada ishonchlilikni ko'rsatdi, bu esa Eko-STEAM yondashuvining ekologik kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini dalillaydi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar ekologik muammolarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash hamda muqobil yechimlar ishlab chiqishda faolroq ishtirok etgan. Loyiha asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil izlanish, jamoaviy hamkorlik va refleksiv tahlil ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Natijalar konstruktivizm nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlikda talqin qilindi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga muvofiq, Eko-STEAM muhiti o'quvchilarda yaqin rivojlanish zonasi doirasida kooperativ o'rganish mexanizmlarini faollashtirdi. Bloom taksonomiyasi nuqtai nazaridan, eksperimental guruhda yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalar – tahlil, sintez va baholash ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi kuzatildi. Mavjud tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik ilmiy ishlar ekologik ta'limni nazariy yoritish bilan cheklanadi, biroq Eko-STEAM integratsiyasining kompleks modelini empirik asoslash masalasi yetarli ishlab chiqilmagan.



Mazkur tadqiqot yangi ilmiy tushuncha – “Eko-STEAM integrativ kompetensiya modeli”ni taklif etdi. Ushbu model ekologik kompetensiyaning fanlararo, texnologik va aksiologik komponentlar uygʻunligida rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy kontekstda bu yondashuv barqaror rivojlanish taʼlimi tamoyillarini boshlangʻich bosqichdan boshlab shakllantirish imkonini beradi. Empirik maʼlumotlar asosida shuni taʼkidlash mumkinki, Eko-STEAM strategiyalari oʻquvchilarda ekologik ongning shakllantirish bilan birga, analitik va kreativ tafakkurni ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari taʼlim tizimida ekologik kompetensiyalarni shakllantirish boʻyicha yangi metodik yoʻnalishlarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Eko-STEAM yondashuvi boshlangʻich taʼlimda barqaror rivojlanish gʻoyalarini tizimli ravishda singdirish, ekologik madaniyatni mustahkamlash va oʻquvchilarning muammoli vaziyatlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishning innovatsion pedagogik platformasi sifatida namoyon boʻldi.

Adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil Eko-STEAM – bu oddiy metod emas, balki ekologik tafakkurni tizimli ravishda rekonstruksiya qiluvchi innovatsion taʼlim arxitekturasini hisoblanadi. Ushbu yondashuv ekologik kompetensiyaning bilim, qadriyat va faoliyat integratsiyasi sifatida qayta talqin etib, empirik tadqiqotlar doirasini kengaytirish hamda yangi ilmiy strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Eko-STEAM konsepsiyasi ekologik taʼlimni STEAM ning fanlararo integratsiyasi bilan uygʻunlashtirib, oʻquvchilarda ekologik kompetensiyaning (kognitiv–aksiologik–faoliyatli) kompleks shakllantirishga qaratilgan didaktik platforma sifatida talqin qilinadi. Xorijiy tadqiqotlarda barqarorlik (sustainability) mazmuni STEAM loyihalariga kiritilganda, oʻquvchilarning ekologik kompetensiyasi va muammoli-tafakkur koʻnikmalari sezilarli oʻsishi qayd etiladi; masalan, boshlangʻich sinfda oʻsimlik mavzusidagi STEAM dasturi taʼsirini solishtirma dizaynda oʻrgangan empirik ishda ekologik kompetensiyalar oʻsishi koʻrsatilgan [3]. Shu yoʻnalishdagi soʻnggi sharh (scoping review)lar Green/Eco-STEAMʼda asosiy trendlar sifatida loyiha-asosli oʻqitish, hududiy-kontekstli vazifalar, tizimli fikrlash va amaliy mahsulot (prototype)ga yoʻnaltirilgan ssenariylar ajratib koʻrsatiladi [4].

MDH tadqiqot makonida Eco/STEAM ekologiya taʼlimida “integrativ muhit” va “faoliyat-yoʻnaltirilgan metodika” sifatida qoʻllanib, oʻqituvchining fasilitatorlik roli, kommunikativ-kollaborativ ish shakllari hamda tajriba-loyiha bloklari muhim deb talqin qilinadi [5]. Shu bilan birga, ayrim ishlar metodik tavsiyalarga koʻproq suyanadi va eksperiment dizayni, oʻlchov shkalalari, validlik-ishonchlilik protseduralari yetarlicha ochiq berilmasligi kuzatiladi (bu esa keyingi empirik tadqiqotlar uchun “boʻshliq”ni belgilaydi) [6].

Oʻzbekistonlik tadqiqotlarda Eco-STEAM koʻproq boshlangʻich taʼlim kontekstida ekologik kompetensiyaning rivojlantirish, fanlararo uygʻunlashuv va raqamli/vizual texnologiyalar bilan boyitish nuqtai nazaridan yoritiladi. Xususan,



kelajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida Eco-STEAM kompetensiyalarini rivojlantirishda interdissiplinar texnologiyalar, mahalliy tabiiy-ijtimoiy muhitga tayangan topshiriqlar va dizayn-loyiha vazifalarining motivatsion ta'siri ta'kidlanadi [7], [8]. Shuningdek, time-lapse kabi texnologiyalar bilan Eco-STEAM metodikasini bog'lagan ishlar raqamli vositalarning kognitiv-faoliyatli natijalarga xizmat qilishini asoslashga harakat qiladi. Umuman, milliy tadqiqot korpusi Eco-STEAM'ni konseptuallashtirishga hissa qo'shsa-da, kelgusida randomizatsiyalangan yoki kvazi-eksperiment, uzoq muddatli monitoring, komparativ tahlil va ko'p-o'lchovli diagnostika (ekologik bilim + qadriyat + xulq-atvor)ni kuchaytirish zarurligi aniq ko'rinadi [9].

Muhokama borasida mazkur tadqiqot natijalari Eko-STEAM yondashuvini nafaqat metodik instrument, balki ekologik ongni shakllantirishning transformativ pedagogik paradigmasi sifatida talqin etish imkonini berdi. Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, fanlararo integratsiya va loyiha asosida o'qitish mexanizmlari o'quvchilarda ekologik tafakkurni reproduktiv darajadan kreativ va refleksiv bosqichga olib chiqadi. Bu holat konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyalarining amaliy tasdig'i sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda Eko-STEAM yondashuvi boshlang'ich ta'limda ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning samarali integrativ modeli sifatida o'zini namoyon etdi. Fanlararo integratsiya, loyiha asosida o'qitish va muammoli vaziyatli topshiriqlar o'quvchilarda ekologik bilim, tafakkur va mas'uliyatli xulq-atvor ko'nikmalarining sezilarli rivojlanishini ta'minladi. Empirik natijalar va statistik tahlillar metodikaning ishonchligini tasdiqlab, Eko-STEAM yondashuvining barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini berishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Baek S. (2023). Fostering Students' Environmental Competencies through a Plant STEAM Education Program... (ScienceDirect). (ScienceDirect)
4. A Scoping Review of Green-STEAM Education in Primary... (2025) (SAGE Journals). (journals.sagepub.com)
5. Сапанова Н.Д. STEAM как инновационная технология в экологическом образовании... (РГПУ им. А. И. Герцена). (rep.herzen.spb.ru)
6. Использование STEAM-технологий в начальном... (pdf макола). (journalss.org)
7. Kuchkinov A., va bosh.., (2026), Pedagogical strategies for enhancing environmental education in Uzbek primary schools: a mixed-methods study, International Journal of Evaluation and Research in Education (IJERE), (1), 565- 578, <https://ijere.iaescore.com/index.php/IJERE/article/view/35558>
8. Kuchkinov A.Y. The Interdisciplinary Approach to Developing Eco-STEAM Educational Competencies (2024) (PDF). (webofjournals.com)
9. Using time-lapse technology to implement the eco-steam... (IJPE/UPI e-journal). (ejournal.upi.edu)



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TEKNOLOGIYALARINING TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Tilavova S.B.

*CHDPU "Maktabgach va boshlang'ich
ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: STEAM texnologiyalari, ekologik kompetentlik, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchilar, tajriba-sinov ishlari, ekologik madaniyat, fanlararo integratsiya, loyiha asosida o'qitish, pedagogik eksperiment, barqaror rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: STEAM-технологии, экологическая компетентность, начальное образование, будущие учителя, опытно-экспериментальная работа, экологическая культура, междисциплинарная интеграция, проектное обучение, педагогический эксперимент, устойчивое развитие, компетентностный подход.

Key words: STEAM technologies, environmental competence, primary education, future teachers, experimental research, ecological culture, interdisciplinary integration, project-based learning, pedagogical experiment, sustainable development, competency-based approach.

PEZIOME:

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM texnologiyalarining tajriba-sinov natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ekologik madaniyatni shakllantirish zarurati bilan asoslanadi. Maqsad – STEAM yondashuvi orqali ekologik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash. Pedagogik eksperiment, kuzatuv va statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Natijalar ekologik bilim va mas'uliyat ko'rsatkichlarining oshganini tasdiqladi. STEAM texnologiyalari ekologik kompetentlikni shakllantirishda samarali vosita ekanligi xulosa qilindi.

PEZIOME:

В статье представлены результаты опытно-экспериментальной работы по развитию экологической компетентности будущих учителей начального образования на основе STEAM-технологий. Актуальность исследования обусловлена необходимостью формирования экологической культуры. Цель – определить механизмы развития экологической компетентности посредством STEAM-подхода. Применялись методы педагогического эксперимента, наблюдения и статистического анализа. Полученные результаты подтвердили рост показателей экологических знаний и ответственности. Сделан вывод о высокой эффективности STEAM-технологий.

SUMMARY:

This article presents the results of experimental research on developing environmental competence among future primary school teachers through STEAM technologies. The relevance of the study is justified by the need to enhance ecological culture in teacher education. The aim is to identify



mechanisms for fostering environmental competence using the STEAM approach. Pedagogical experiment, observation, and statistical analysis were applied. The findings confirmed significant improvement in environmental knowledge and responsibility indicators. It is concluded that STEAM technologies are an effective tool for developing environmental competence.

Kirish. Global ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda ta'lim tizimida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish strategik vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorgarligini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasida belgilab berilgan [1; 2]. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli yechimlarni keng tatbiq etish vazifasi qayd etilgan [3], "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da esa ekologik madaniyat va mas'uliyatni oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [4].

Mavjud ilmiy qarashlarda ekologik ta'lim kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi lozimligi ta'kidlanadi, STEAM integratsiyasi esa fanlararo o'qitishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etiladi [5]. Biroq, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini STEAM texnologiyalari asosida tajriba-sinov orqali kompleks baholash masalasi yetarlicha empirik asoslanmagan.

Tadqiqotning maqsadi – STEAM texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlash va eksperimental jihatdan asoslash. Vazifalar sifatida ekologik kompetentlik tarkibiy komponentlarini belgilash, STEAM asosida integrativ model ishlab chiqish va uning natijadorligini statistik tahlil qilish belgilandi. Ilmiy yangilik ekologik kompetentlikni kognitiv, aksiologik va faoliyatli komponentlar uyg'unligida rivojlantirishga qaratilgan STEAM-integrativ modelni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Amaliy ahamiyati esa mazkur modelni pedagogik ta'lim jarayoniga joriy etish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot ob'ekti – pedagogik oliy ta'lim jarayoni; predmeti – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini STEAM texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayoni.

Adabiyotlar tahlili va metodlar natijasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy paradigma hamda barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Xususan, A.V. Khutorskoy kompetensiyani shaxsning integrativ sifatlari majmui sifatida izohlaydi hamda ta'lim jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni ustuvor



deb hisoblaydi [6]. V.V. Serikov esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelida qadriyatli-kommunikativ komponentning ahamiyatini asoslab beradi [2].

STEAM integratsiyasi masalasida G. Yakman fanlararo uyg'unlashuvni kompleks model sifatida ishlab chiqqan bo'lib, u ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani yagona didaktik tizimga birlashtirishni taklif etadi [7]. Barqaror rivojlanish ta'limi doirasida UNESCO hisobotlarida ekologik savodxonlik va mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish muhim kompetensiyalar sifatida qayd etiladi [8].

Mahalliy tadqiqotlarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalari yoritilgan bo'lsa-da, aynan bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini STEAM texnologiyalari asosida tajriba-sinov yo'li bilan tayyorlash masalasi yetarli darajada empirik asoslanmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirib, integrativ modelni tajriba-sinov orqali asoslashga qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli-strukturaviy tahlil, pedagogik modellashtirish va eksperimental sinov usullariga tayandi. Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental shaklda tashkil etildi.


Tadqiqot ishtirokchilari: 4 ta boshlang'ich sinf (jami 108 nafar talaba-o'qituvchilar). Nazorat guruhi – 54 nafar Eksperimental guruh – 54 nafar

Tadqiqot bosqichlari: Boshlang'ich diagnostika (ekologik bilim, tafakkur va xulq-atvor ko'rsatkichlari aniqlash). Eksperimental ta'sir (STEAM asosidagi loyiha va laboratoriya mashg'ulotlari). Yakuniy baholash (natijalarni qiyosiy va statistik tahlil qilish).

Qo'llanilgan metodlar: Pedagogik kuzatuv. So'rovnoma va test topshiriqlari Loyiha asosida o'qitish (PBL). Statistik qayta ishlash (Student t-testi, $p < 0,05$). Tadqiqot dizayni (jadval)

Bosqich	Mazmuni	Metod	Natija
I	Boshlang'ich diagnostika	Test, so'rovnoma	Dastlabki ko'rsatkichlar aniqlandi
II	Eksperimental ta'sir	STEAM loyiha, laboratoriya	Kompetensiya rivojlanishi
III	Yakuniy baholash	Statistik tahlil	Samaradorlik tasdiqlandi

Muhokamalar natijasida tajriba-sinov natijalari asosida tuzilgan jadval va diagrammalar eksperimental guruhda ekologik kompetentlikning barcha komponentlari bo'yicha sezilarli ijobiy dinamika kuzatilganini ko'rsatdi. Xususan, ekologik bilim ko'rsatkichi 27 %, ekologik tafakkur va xulq-atvor kompetensiyasi esa 37 % ga oshgani STEAM yondashuvining integrativ ta'sir mexanizmini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida o'sish 10–15 % atrofida bo'lgani an'anaviy metodikaning nisbatan past samaradorligini ko'rsatadi. Ushbu farq



fanlararo integratsiya, loyiha asosida o'qitish hamda muammoli vaziyatli topshiriqlarning o'quvchilarning analitik va refleksiv faoliyatini faollashtirishi bilan izohlanadi.

Natijalar kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi hamda konstruktivistik pedagogika tamoyillari bilan uyg'unlikda talqin etiladi. STEAM integratsiyasi orqali ekologik kompetentlik faqat bilim darajasida emas, balki qadriyat va amaliy faoliyat komponentlari uyg'unligida rivojlangan. Bu holat UNESCO tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Muallifning ilmiy pozitsiyasiga ko'ra, STEAM texnologiyalari ekologik kompetentlikni rivojlantirishda transformativ pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv ekologik tafakkurni reproduktiv darajadan kreativ va refleksiv bosqichga olib chiqadi hamda o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, tajriba-sinov natijalari STEAM yondashuvining nazariy va amaliy jihatdan asoslangan samaradorligini tasdiqlaydi.

Natijada tajriba-sinov ishlari uch bosqichda – boshlang'ich diagnostika, eksperimental ta'sir va yakuniy baholash bosqichlarida amalga oshirildi. Tadqiqotda 4 ta boshlang'ich sinf, jami 108 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ulardan 54 nafari nazorat guruhi, 54 nafari eksperimental guruh sifatida shakllantirildi.

Boshlang'ich diagnostika natijalariga ko'ra, ekologik bilim darajasi 45 %, ekologik tafakkur 39 %, ekologik xulq-atvor kompetensiyasi esa 41 % ni tashkil etdi. Eksperimental ta'sir bosqichida STEAM asosidagi loyiha faoliyati, muammoli vaziyatli topshiriqlar va ekologik laboratoriya mashg'ulotlari joriy etildi.

Yakuniy baholash natijalariga ko'ra, eksperimental guruhda ekologik bilim ko'rsatkichi 72 %, ekologik tafakkur 76 %, ekologik xulq-atvor kompetensiyasi 78 % ga yetdi. Nazorat guruhida esa mos ravishda 58 %, 50 % va 53 % ko'rsatkichlar qayd etildi. Eksperimental guruhda ekologik bilim bo'yicha +27 %, ekologik tafakkur va xulq-atvor kompetensiyasi bo'yicha +37 % o'sish kuzatildi, nazorat guruhida esa o'sish 10–15 % oralig'ida bo'ldi.



Statistik tahlil natijalari Student t-testi asosida $p < 0,05$ darajada ishonchlilikni ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar eksperimental guruhda ekologik kompetensiya komponentlari bo'yicha yuqori dinamik o'sish qayd etilganini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM texnologiyalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali tasdiqlandi. Qo'yilgan maqsad va vazifalar bajarildi, ishlab chiqilgan modelning samaradorligi statistik jihatdan asoslandi ($p < 0,05$). Eksperimental guruhda ekologik bilim, tafakkur va mas'uliyatli xulq-atvor ko'rsatkichlarining sezilarli o'sishi qayd etildi. Kelgusida ushbu yondashuvni keng miqyosda joriy etish va monitoring asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: Farmon, 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
2. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: Farmon, 2019 yil 29 aprel, PF-5712-son.
3. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida: Farmon, 2020 yil 5 oktabr, PF-6079-son
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: Farmon, 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son
5. Kuchkinov A, va bosh.., (2026), Pedagogical strategies for enhancing environmental education in Uzbek primary schools: a mixed-methods study, International Journal of Evaluation and Research in Education (IJERE), (1), 565- 578, <https://ijere.iaescore.com/index.php/IJERE/article/view/35558>
6. Kuchkinov, A.Y. The Interdisciplinary Approach to Developing Eco-STEAM Educational Competencies (2024) (PDF). (webofjournals.com)
7. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // Pupils' Attitudes Toward Technology Conference Proceedings. – Virginia, 2008. – P. 335–358.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.



VAQTNI BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNING O'ZINI O'ZI TASHKIL ETISHINI RIVOJLANTIRISH

Tojiboyeva G.R.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

Tayanch so'zlar: o'zini o'zi tashkil etish, vaqtni boshqarish, pedagogik texnologiya, o'zini o'zi boshqarish, refleksiya, motivatsiya, monitoring, talaba vaqt byudjeti.

Ключевые слова: самоорганизация, управление временем, педагогическая технология, самоуправление, рефлексия, мотивация, мониторинг, бюджет времени студента.

Key words: self-organization, time management, pedagogical technology, self-regulation, reflection, motivation, monitoring, student time budget.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarning o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi tahlil qilinadi. Vaqtni boshqarish texnologiyasining pedagogik salohiyati ochib beriladi hamda bo'lajak o'qituvchilarning o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari vaqtni boshqarish texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy etish talabalarning mas'uliyati, rejalashtirish, monitoring va refleksiya ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется проблема развития навыков самоорганизации студентов в условиях современного образования. Раскрывается педагогический потенциал технологии управления временем и предлагается модель развития самоорганизации будущих учителей в учебной деятельности. Результаты исследования показали, что внедрение технологии управления временем в образовательный процесс значительно повышает уровень ответственности студентов, а также их навыки планирования, мониторинга и рефлексии.

SUMMARY:

The article analyzes the problem of developing students' self-organization skills in the context of modern education. The pedagogical potential of time management technology is revealed, and a model for developing self-organization in the academic activities of future teachers is proposed. The research findings demonstrate that the integration of time management technology into the educational process significantly enhances students' responsibility, as well as their planning, monitoring, and reflection skills.

Kirish. Ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadallashuvi, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mutaxassisdan nafaqat chuqur kasbiy



bilim, balki yuqori darajadagi oʻzini oʻzi boshqarish, mustaqil taʼlim olish va shaxsiy rivojlanish kompetensiyalari talab etilmoqda. Global hisobotlarda, jumladan, Global Education Futures va WorldSkills materiallarida kelajak mutaxassislaridan ijodkorlik, moslashuvchanlik va oʻz faoliyatini samarali tashkil etish qobiliyati talab qilinishi taʼkidlangan.

Shu bois oliy taʼlim tizimida talabalarning oʻzini oʻzi tashkil etish koʻnikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammoga aylanmoqda. Biroq, pedagogika fanida “oʻzini oʻzi tashkil etish” tushunchasining yagona talqini mavjud emas, uning tarkibiy tuzilmasi va rivojlantirish mexanizmlari yuzasidan ham yakdil qarash shakllanmagan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Soʻnggi yillarda talabalarning oʻzini oʻzi tashkil etishi masalasi koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Xususan, oʻzini oʻzi tashkil etishning nazariy asoslari (S.S. Amirova, S.S. Kotova va boshqalar), pedagogik texnologiyalar (V.P. Bepalko, G.K. Selevko), faoliyat nazariyasi (L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev), shaxsning oʻzini oʻzi boshqarish mexanizmlari (K.K. Platonov) ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Vaqtни boshqarish texnologiyasini taʼlim jarayoniga integratsiyalash masalalari G.A. Arxangelskiy, S. Kovi va M.A. Reunova tadqiqotlarida yoritilgan. Ammo mavjud ishlarda vaqtни boshqarish koʻproq nazariy kurs sifatida talqin qilinib, talabning real oʻquv faoliyatida oʻzini oʻzi tashkil etishini tizimli rivojlantirish mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

N.T. Ubaidullaev tomonidan eʼlon qilingan maqolada student davrida oʻzini oʻzi boshqarish (self-regulation) – xususan, talabalarda xulq, oʻqish rejimlarini boshqarish borasidagi empirik tadqiqotlar tahlil qilingan. Bu maqola Oʻzbekiston kontekstidagi talaba oʻrtasida oʻzini oʻzi boshqarish jarayonini oʻrganadi (oʻzini oʻzi boshqarish psixologik jihati).

Fargʻona davlat universiteti olimlari Nilufar Oʻrinova Muhammadovna va Guljahon Tillabayeva tomonidan chop etilgan maqolada “Time Management Technology” (vaqtни boshqarish texnologiyasi) talabalarning mustaqil oʻqish kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilingan. Bu maqola Oʻzbekiston sharoitida vaqtни boshqarish texnologiyasining oʻquv jarayoniga tatbiqini empirik misol bilan koʻrsatadi.

Otajonova Maftuna Sultonmurodovna tomonidan chop etilgan ilmiy maqolada vaqtни boshqarish texnologiyalari yordamida talabalarning mustaqil taʼlimini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Bu ham Oʻzbekiston ilmiy jurnallarida nashr etilgan izlanish hisoblanadi

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi – vaqtни boshqarish texnologiyasi asosida talabalarning oʻquv faoliyatida oʻzini oʻzi tashkil etishini



rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

“O‘zini o‘zi tashkil etish” va “vaqtni boshqarish” tushunchalarining mazmunini aniqlashtirish.

Vaqtni boshqarish texnologiyasining pedagogik salohiyatini asoslash.

O‘zini o‘zi tashkil etishni rivojlantirish modelini ishlab chiqish.

Taklif etilgan modelning samaradorligini eksperimental tekshirish.

Nazariy asoslar. O‘zini o‘zi tashkil etish shaxsning o‘z faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish va baholash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot tahlili asosida ta’lim faoliyatini o‘zini o‘zi tashkil etishning quyidagi tarkibiy komponentlari ajratildi:

maqsad qo‘yish va motivatsiya;

rejalashtirish va loyihalash;

muloqot va hamkorlik;

monitoring va baholash;

refleksiv fikrlash;

tuzatish (korreksiya).

Vaqtni boshqarish esa shaxsiy va ta’limiy maqsadlarga muvofiq vaqt resurslaridan samarali foydalanish texnologiyasi sifatida talqin qilinadi. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

vaqtga qadriyat sifatida munosabat;

ustuvorliklarni belgilash;

mustaqil ish;

samaradorlik monitoringi;

refleksiya va korreksiya.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda nazariy (ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, modellashtirish) hamda empirik (anketa so‘rovi, diagnostik testlar, pedagogik tajriba-sinov ishlari, matematik-statistik tahlil) metodlardan foydalanildi.

Empirik tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida jami 65 nafar talaba qatnashdi. Ular mezonlar asosida nazorat guruhi (32 nafar) va eksperimental guruhi (33 nafar) ga ajratildi.

Guruhlarni shakllantirishda quyidagi mezonlar inobatga olindi:

- akademik ko‘rsatkichlar darajasi;
- mustaqil ta’lim ko‘nikmalari;
- haftalik vaqt byudjetini rejalashtirish holati;



- o'quv motivatsiyasi ko'rsatkichi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi:


1. Boshlang'ich diagnostika bosqichi – talabalarning haftalik vaqt byudjeti, mustaqil ta'lim samaradorligi va o'zini boshqarish ko'nikmalari aniqlab olindi.

2. Tajriba-sinov bosqichi – eksperimental guruhda maxsus metodika asosida vaqtni boshqarish va o'quv faoliyatini optimallashtirish modeli joriy etildi. Nazorat guruhi an'anaviy tartibda faoliyat olib bordi.

3. Yakuniy tahlil bosqichi – natijalar qayta diagnostika qilinib, statistik tahlil asosida guruhlar o'rtasidagi farqlar diagrammalar orqali ifodalandi.

Natijalarning mezonlar asosida ifodalanishi (1 jadval)

Mezonlar	Nazorat guruhi (32 nafar)	Eksperimental guruhi (33 nafar)
Vaqtни rejalashtirish darajasi (yuqori %)	34 %	61 %
Mustaqil ta'lim samaradorligi	37 %	68 %
O'quv motivatsiyasi	41 %	72 %
O'zini boshqarish ko'nikmasi	39 %	70 %





Tadqiqot natijalari. Aniqlash bosqichida talabalarning vaqt taqsimotida quyidagi muammolar kuzatildi:

- vaqtni rejalashtirishning tizimsizligi;
- ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha vaqt sarflash;
- relaksatsiya ko‘nikmalarining yetishmasligi;
- maqsad qo‘yish va ularga erishish mexanizmlarining sustligi.

Shu asosda “Vaqtni boshqarish asoslari” maxsus kursi, talaba vaqt byudjeti modeli, o‘zini o‘zi boshqarish kundaligi va raqamli rejalashtiruv vositalari joriy etildi.

- Nazorat bosqichida tajriba guruhida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:
- uyqu va dam olish rejimining yaxshilanishi;
- kundalik vaqt tahlilining shakllanishi;
- maqsadga yo‘naltirilganlikning ortishi;
- sog‘lom turmush odatlarining rivojlanishi;
- refleksiya va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarining mustahkamlanishi.
- Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, vaqtni boshqarish texnologiyasi nafaqat tashkiliy vosita, balki shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U talabaning motivatsion, kognitiv va faoliyatga doir komponentlarini uyg‘un rivojlantiradi.

Vaqtni boshqarish texnologiyasi pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda o‘quv jarayonini individual traektoriya asosida tashkil etishga imkon beradi.

Xulosa. O‘zini o‘zi tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimida muhim integrativ kompetensiya hisoblanadi.

Vaqtni boshqarish texnologiyasi talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan pedagogik model motivatsiya, rejalashtirish, monitoring va refleksiya komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba natijalari vaqtni boshqarish texnologiyasini oliy ta’lim tizimiga integratsiyalash zarurligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, vaqtni boshqarish texnologiyasi asosida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ubaidullaev N.T. Self-Regulation as a Subject of Empirical Research in Student Department. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, Vol. 03, Issue 02, 2023, pp. 15–21. – Talabalarda o‘zini o‘zi boshqarish (self-regulation) jarayoni va empirik tadqiqot natijalari tahlili.



2. Baymetov B.B., Muratov X.X., Kunanbayev N.B., Mulla Axunov D.A. Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish. "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions", Qarshi State University, 2022. – Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasi.

3. A'zamxonov S. Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish. Pedagog journal, BestPublication.org, 2022. – O'zbekiston oliy ta'limida mustaqil ta'lim jarayonini nazariy tadqiq etish.

4. Otajonova M.S. Organization of Independent Education of Students Using Time Management Technologies. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2021. – Vaqtni boshqarish texnologiyalari yordamida talabalarning mustaqil o'qishini tashkil etish haqida maqola.

5. O'rinoва N.M., Tillabayeva G.I. Using Time Management Technology to Develop Students' Competence in Independent Learning. International Journal of Pedagogics, Vol. 05, Issue 05, 2025, pp. 170–174. – Vaqtni boshqarish texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha empirik tadqiqot.

6. Sayfullokh Kozimov. Self-Management Strategies and Their Effectiveness. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2024. – O'zini o'zi boshqarish strategiyalari va ularning samaradorligi.



TA'LIM VA JAMIYATDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Usmonchayeva Sh.M.

CHDPU, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, axborot jamiyati, raqamli transformatsiya, ta'lim texnologiyalari, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, media savodxonlik, uzluksiz ta'lim.

Ключевые слова: цифровая грамотность, цифровая компетентность, информационное общество, цифровая трансформация, образовательные технологии, кибербезопасность, искусственный интеллект, медиаграмотность, непрерывное образование.

Key words: digital literacy, digital competence, information society, digital transformation, educational technology, cybersecurity, artificial intelligence, media literacy, lifelong learning.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli savodxonlikni oshirishning nazariy-metodologik asoslari va strategik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning ko'p darajali modeli, raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'siri hamda jamiyat a'zolarining kiber-madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari asoslanadi. Tadqiqot natijasida raqamli savodxonlikni baholash mezonlari va ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt vositalarini integratsiya qilishning samarali strategiyalari taklif etiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы и стратегические направления повышения цифровой грамотности в условиях современного информационного общества. Исследование базируется на многоуровневой модели формирования цифровых компетенций, влиянии цифровых технологий на качество образования и механизмах повышения киберкультуры членов общества. По результатам исследования предлагаются критерии оценки цифровой грамотности и эффективные стратегии интеграции инструментов искусственного интеллекта в образовательный процесс.

SUMMARY:

This article analyzes the theoretical and methodological foundations and strategic directions for enhancing digital literacy in the context of the modern information society. The study is based on a multi-level model of digital competence development, the impact of digital technologies on educational quality, and mechanisms for fostering the cyber-culture of society members. As a result of the research, digital literacy assessment criteria and effective strategies for integrating artificial intelligence tools into the educational process are proposed.



Kirish. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga oid qator qarorlar ta'lim jarayoniga raqamli yondashuvlarni joriy etishni kechiktirib bo'lmaz vazifa qilib belgilaydi. [1] Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim oluvchilarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish va undan maqsadli foydalanish madaniyati jamiyatning intellektual salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omildir. Biroq, raqamli muhitning kengayishi bilan birga kiberxavf-xatarlar, axborot manipulyatsiyasi va raqamli tafovut kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bu esa ta'lim tizimi oldiga nafaqat texnik savodxonlikni, balki media savodxonlik, raqamli etika va kiberxavfsizlik madaniyatini ham o'z ichiga olgan kompleks raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalasini qo'ymoqda [2]. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi shakl va usullarini shakllantirmoqda. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli savodxonlik shunchaki kompyuterdan foydalanish ko'nikmasi emas, balki shaxsning axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, kasbiy rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlovchi fundamental kompetensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga ayland. Raqamli savodxonlik shaxsning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik shaxsning tanqidiy fikrlash, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va raqamli vositalardan xavfsiz foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi [3].

Raqamli savodxonlik tushunchasi o'zining mohiyatiga ko'ra shaxsning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, yaratish va uzatish qobiliyatini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha ko'p qirrali konstrukt sifatida qaraladi. Xususan, raqamli kompetensiyalarni o'rganishda Yevropa Ittifoqining DigComp (Digital Competence Framework) modeli jahon standartlari darajasida metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Raqamli savodxonlik zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. [4] Raqamli kompetensiyalar shaxsning axborot muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, raqamli savodxonlikni rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish: o'quvchilarni ma'lumot manbalarini tanlash, ma'lumotni saralash va tahlil qilishga o'rgatish;

2. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasi: o'quvchilarda elektron ta'lim resurslari va interaktiv vositalardan samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirish;



3. Axborot xavfsizligi madaniyati: shaxsiy ma'lumotlar va internet xavfsizligiga oid bilimlarni rivojlantirish;

4. Raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish: elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim platformalarini o'quv jarayonida qo'llash.

Elektron darsliklar, masofaviy ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatorlar o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi [5].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli savodxonlik o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxslar mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lib, innovatsion iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shadi

Aadabiyotlar bilan qiyosiy tahlil. Raqamli savodxonlik tushunchasi zamonaviy pedagogik fanlar tizimida dinamik rivojlanayotgan fenomen hisoblanadi. Mazkur tushunchaning nazariy va amaliy asoslarini qiyosiy tahlil qilish orqali uning ta'lim sifatiga ta'sirini chuqurroq anglash mumkin.

Xalqaro miqyosda raqamli savodxonlikni nafaqat texnik ko'nikmalar, balki axborotni o'qish, tushunish va unga tanqidiy baho berish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Uning yondashuvida "axborotni saralash" (information filtering) markaziy o'rin tutadi. Mahalliy olimlardan esa bu tushunchani O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida tahlil qilib, uni "milliy ta'limni raqamli transformatsiya qilishning asosi" sifatida baholaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, G'arb olimlari ko'proq shaxsning individual ko'nikmalariga (soft skills) urg'u bersa, mahalliy tadqiqotchilar raqamli savodxonlikni tizimli (institutsonal) rivojlantirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

UNESCO tomonidan taklif etilgan raqamli kompetensiyalar doirasi (DigComp) beshta asosiy yo'nalishni (axborot, kommunikatsiya, kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilish) qamrab oladi. Ushbu modelni O'zbekistonlik tadqiqotlari bilan qiyoslaganimizda, mahalliy pedagogikada asosan "raqamli kontent yaratish" va "pedagogik faoliyatda AKTdan foydalanish" komponentlariga ustuvorlik berilayotganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, UNESCO modelidagi "kiberxavfsizlik" va "raqamli etika" masalalari mahalliy adabiyotlarda endi shakllanayotgan yo'nalishlar hisoblanadi [6].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar o'z ishlarida pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslarini yoritib, an'anaviy metodlarni raqamli vositalar bilan boyitish samaradorligini isbotlaganlar. Ularning fikricha, texnologiya maqsad emas, balki vositadir. Bu qarash xalqaro ekspertlarning "Pedagogika texnologiyadan ustun turishi kerak" degan tamoyili bilan to'la mos keladi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, raqamli savodxonlikni oshirishda faqatgina texnik vositalarni



o'rgatish yetarli emas, balki pedagoglarning "raqamli tafakkuri"ni (digital mindset) o'zgartirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy adabiyotlarda, xususan, 2023-2024 yillardagi xalqaro hisobotlarda sun'iy intellekt raqamli savodxonlikning yangi bosqichi sifatida qaratilmoqda. O'zbekistonning Raqamli ta'lim strategiyasida belgilangan vazifalar sun'iy intellekt vositalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bu borada jahon tajribasi (masalan, Janubiy Koreya yoki Estoniya) shuni ko'rsatadiki, raqamli savodxonlik endilikda faqat iste'molchilik emas, balki algoritmlar bilan ishlash va ularni boshqarish ko'nikmasiga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli savodxonlikni oshirishda quyidagi uchlikning integratsiyasi zarur:

1. Texnik ko'nikma.
2. Pedagogik mahorat.
3. Etik xavfsizlik.

Muhokama borasida Masalan, O'zbekiston sharoitida "Raqamli maktab" loyihasi doirasida raqamli ta'lim platformalari va elektron darsliklar joriy etilishi, o'quvchilarning mustaqil o'qish qobiliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Pedagoglarning roli raqamli savodxonlikni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning malakasi yetarli bo'lmagan taqdirda, raqamli texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu sababli muntazam malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etilishi zarur.

Raqamli kompetensiyalar o'qituvchilarga innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va o'quv jarayonini interaktiv shaklda tashkil etishga imkon yaratadi. Raqamli savodxonlik nafaqat ta'lim, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan yoshlar mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lib, zamonaviy innovatsion iqtisodiyotga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda raqamli ta'lim va savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar:

- Raqamli ta'lim platformalarini joriy etish;
- Elektron o'quv resurslarini yaratish;
- O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari.

Bundan tashqari, raqamli savodxonlik yoshlar orasida ijtimoiy faollik va axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslar jamiyatdagi muammolarni tezkor tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqishda faol ishtirok etadi [7].

Raqamli savodxonlik zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini



shakllantiradi. Shu sababli O'zbekistonda raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks pedagogik strategiyalar ishlab chiqish va pedagoglarni muntazam malaka oshirishga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli savodxonlik zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli savodxonlik zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi va XXI asr insoni uchun zarur bo'lgan fundamental ko'nikmadir. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ta'lim dasturlariga raqamli etika, kiberxavfsizlik va media savodxonlik modullarini tizimli ravishda kiritish.

2. Pedagog kadrlarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini muntazam ravishda baholash va oshirib borish.

3. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish.

4. Jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa chekka hududlardagi aholi uchun raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Raqamli savodxonlik nafaqat texnologik bilim, balki shaxsning axborotlashgan dunyoda xavfsiz va samarali harakatlanishini ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy asosdir. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali biz raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va jamiyatimizning raqamli kelajagini mustahkamlashga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari 2023. Raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturi.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi 2023. Raqamli ta'lim strategiyasi.
3. Musurmanov U., Tashmatov A. Raqamli savodxonlik va uning ta'limdagi roli. Toshkent-2025.
4. Bawden, D. Origins and Concepts of Digital Literacy. Journal of Documentation. 2008.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent -2016 Fan..
6. UNESCO. Digital Literacy in Education. Paris. 2018.
7. Jumaeva D. O'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. Toshkent -2024.



OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK VOSITASIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISH ZARURIYATI

Jabborova O.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgach va boshlang'ich
ta'lim metodikasi” kafedrası dotsenti*

Eshonxo'jayeva D.A.

boshlang'ich ta'lim magistranti

Tayanch so'zlar: boshlang'ich, ta'lim, sifat, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, hamkorlik, odob, axloq.

Ключевые слова: начальный, образование, качество, воспитание, знание, навык, умение, сотрудничество, этика, нравственность.

Key words: elementary, education, upbringing, skill, proficiency, collaboration, etiquette, morality

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda ota-onalar bilan samarali hamkorlikning muhim o'rni yoritilgan hamda ta'lim jarayonida maktab va oila o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy omillardan biri ekanligi asoslab berilgan. Ota-onalarning farzand ta'limiga bo'lgan mas'uliyatli munosabati, doimiy nazorati va pedagogik jarayonda faol ishtiroki o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlangan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье раскрывается важная роль эффективного сотрудничества с родителями в повышении качества начального образования. Обосновывается, что тесная взаимосвязь между школой и семьёй в образовательном процессе является одним из ключевых факторов формирования у детей знаний, навыков и умений. Подчёркивается, что ответственное отношение родителей к обучению ребёнка, постоянный контроль и активное участие в педагогическом процессе способствуют повышению показателей успеваемости учащихся.

SUMMARY:

This article highlights the important role of effective cooperation with parents in improving the quality of primary education. It substantiates that the close connection between school and family in the educational process is one of the key factors in developing children's knowledge, skills, and competencies. It is emphasized that parents' responsible attitude toward their child's education, continuous supervision, and active participation in the pedagogical process contribute to improving students' academic performance.



Kirish. Mamlakatimizda 2030 yilga qadar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish vazifasi qo'yilib, mazkur masalada muayyan islohot ishlari amalga oshirilmoqda[1]. Shu jihatdan ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish masalasi bo'yicha pedagogik tahlillarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalada ana shu muammoning eng muhim jihatlariga e'tiboringizni tortamiz. Ota-onalar bilan hamkorlik vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning eng muhim zaruriyatlaridan biri o'quvchilarning bilim darajasini va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuksaltirishdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlari turkumlari bo'yicha belgilangan bilimlar majmuini nafaqat o'zlashtirishi, balki ular vositasida mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi lozim. Aynan mana shu boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish ishida ota-onalarning ishtirokidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuksaltirish va o'zlashtirganlaridan amaliy faoliyatda foydalanish masalasida ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim o'rin tutadi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilishning zaruriyatlarini idrok etishni taqozo etadi[2].

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning eng muhim zaruriyatlaridan biri ijtimoiy faollikdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish va ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ota-onalar muayyan vazifalarni bajaradi. Chunki maktab ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy fazilatlarning ma'no-mazmunini tushunish va ijtimoiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish bo'yicha tushunchalarni egallaydi, egallangan mazkur ko'nikmalarga odatlantirish ota-onalarning vazifalariga kiradi[3]. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy fazilatlari va faoliyatni tarkib toptirishda ota-onalar quyidagilarni bajarishini eslatib o'tish joiz: bolalarni uy sharoitida ijtimoiy vazifalarni his qilish, uni bajarish va oila ijtimoiy faoliyatida ishtirok etishga o'rgatish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining birodarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi ijtimoiy fazilatlarni amaliyot bilan bog'liq holda odatga aylantirish; o'quvchilarning jamoat joylarida o'zini tutishi, yosh xususiyatlariga mos xarakat qilishi va o'zgalarga munosabati ko'nikmalarini tarkib toptirish va h.k. Ota-onalar bunday shakllar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy fazilatlar va ijtimoiy faoliyat ko'nikmalarini boshlang'ich ta'lim davlat standartlari asosida tarkib topishi ishlarida ishtirok etadi. Chunki ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari



ijtimoiy munosabatlarda ota-onalarga taqlid qiladi, bunday hol ota-onalarning oilada bolalarga nisbatan ijtimoiy namuna bo'lishini taqozo etadi. Shu jihatdan ota-onalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy fazilatlarini va ijtimoiy faoliyat ko'nikmasini tarkib toptirishda faol bo'lishi, bunda muayyan tarbiyaviy qoidalarga amal qilishi hamda ularning bola tarbiyasi bo'yicha tajribalarini takomillashtirib borish yo'nalishlari bo'yicha yangicha ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish taqozo etilmoqda. Mazkur masalada "Ota-onalar universiteti" ijtimoiy tuzilmasi vositasida ota-onalar bilan hamkorlik qilishning ana shunday shakllari bo'yicha faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning yana bir omili pedagogik zaruriyat bilan belgilanadi. Unga ko'ra, oila tarbiyasi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy tarbiyasi joriy talablar, qoidalar va yondashuvlar asosida amalga oshirilishi kerak. Shu jihatdan mazkur masalada ota-onalarning ishtiroki quyidagi vositalar bilan belgilanadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarini noaxloqiy xatti-xarakatlardan muhofaza qilish, oila a'zolarining bolalar tarbiyasiga ta'sir qiluvchi salbiy xatti-xarakatlardan tiyilishini tashkil etish, katta yoshlilarning bolalar ongi va qalbiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faoliyatini cheklash, imkonqadar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, jinsi va ruhiy-ma'naviy xususiyatlariga mos munosabatlarni shakllantirishni yo'lga qo'yish va h.k. Aynan mana shunday tadbirlarni amalga oshirish pedagogik zaruriyatlardan biri bo'lib, uning vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilish mexanizmiga ega bo'linadi. E'tibor berilsa, mazkur masalada ota-onalar maktab ta'limiga yo'naltirilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimiylashtirishning amaliy jihatlarini amalga oshiradi. Shu sababli bu jarayonda bizningcha, yosh ota-onalar, tarbiya tajribasiga ega ota-onalar va tarbiya bo'yicha individual metodikaga ega ota-onalar guruhlarini aniqlab olib, ular bilan boshlang'ich ta'lim jarayonida hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi[4].

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning navbatdagi zaruriyati bevosita jamiyat ehtiyoji bilan belgilanadi. Unga ko'ra, bugungi kunda jamiyatimizda tezkor taraqqiyot omili yuzaga kelmoqda va bu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zligini anglatish muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zligini anglatish mazmunini ularda milliy his-tuyg'ularni shakllantirish, g'urur va iftihar ko'nikmalarini tarkib toptirish hamda yosh xususiyatlariga mos axloq-odobini yuzaga keltirish tashkil qiladi. Shu jihatdan bugungi boshlang'ich sinf



o'quvchisi tabiiy ravishda bilimga intilmoqda, ayni paytda ularni odob qoidalari bilan qurollantirish oila tarbiyasining asoslaridan biridir. Shu sababli mazkur masalada ota-onalar ishtiroki quyidagi shakllar vositasida amalga oshirishini eslatib o'tish joiz: bolalarni mudom salomlashish odobiga o'rgatib borish, boshlang'ich sinfo'quvchilarini murakkab vaziyatlar va holatlarda o'zini tutishga o'rgatish, ularni ruhiy ko'tarinkilik va o'ktamlik ko'nikmalariga odatlantirish, ijodkorlik tuyg'ularini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinflar kesimida ijtimoiy moslashuvini amalga oshirib borish va h.k. Bu ehtiyojlar boshlang'ich ta'lim jarayonida tarkib toptirishdagi eng muhim pedagogik vazifalar hisoblanadi va bunda ota-onalar nazariyani amaliyotga aylantiruvchi shaxslar sifatida ishtirok etadi. Buning ikki sababi bor: boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p vaqtlarini oilada o'tkazadi; boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p hollarda ota-onalariga nisbatan ishonch bilan munosabatda bo'ladi. Aynan mana shunday pedagogik yondashuvlar asosida ota-onalarning boshlang'ich ta'lim jarayoni bilan hamkorligini tashkil qilish hozirgi zamon jamiyatimizning ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq hodisadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyada xorijlik pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida ta'lim sifatining asoslari, metodologiyasi va ko'rsatkichlari masalalarini tadqiq etib o'tishgan. Bu borada ayniqsa Yan Amos Komenskiyning tushunarli ta'lim, Genrix Pistalosining namunali ta'lim va Konstantin Ushinskiyning milliy ta'lim konsepsiyalari xorijiy mamlakatlarda ta'lim sifatini o'rganish, baholash va tashhislashning asoslari sifatida qabul qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim. Buning natijasida keyingi paytlarda xorijiy pedagog olimlar ta'lim sifatini baholashning raqamli texnologiyalarini joriy etish masalasi bo'yicha ham tadqiqot ishlari yarata boshlanganligini eslatib o'tish joiz.

Mamlakatimiz pedagog olimlari ta'lim sifatiga erishishning bir necha metodologik asoslarini tahlil qilib o'tishgan. Jumladan, O.Musurmonova tomonidan oila tarbiyasining sifat ko'rsatkichlari, Sh.Mardonov tomonidan malaka oshirish vositasida ta'lim sifatiga erishish mexanizmlari, R.Safarova tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim muhiti vositasida sifat ko'rsatkichlariga erishish tamoyillari masalalari tadqiq etilgan. Yosh olimlardan X.Xamzayev va B.Sayfullayevlar tomonidan ta'lim sifatiga erishishning kvalimetrik mezonlari masalalari o'rganilgan.

Muhokamalar natijasida ota-onalar bilan hamkorlik vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish zaruriyati bugungi talablar majmui bilan belgilanadi. Mazkur masalada ota-onalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy fazilatlar va ijtimoiy ko'nikmalarni tarkib toptirish, ularni odob qoidalari bilan



tanishtirish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltirib borish vazifalari bevosita ota-onalar tomonidan amalga oshirilishi pedagogik tayanchlardan biridir. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida muayyan tajribalarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli biz tadqiqotimizning yuqori bandida ota-onalar bilan hamkorlik qilishning yangicha yondashuvlari tizimini taqdim etar ekanmiz, unda tarbiya borasida ota-onalarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lishini ta'kidlab o'tgan edik. Aynan mana shunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olamiga olib kirish, ularni ko'nikmalar bilan qurollantirish va faoliyatga yo'naltirish bo'yicha pedagogik vazifalarni bajarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Pedagogik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda o'z jamiyatining ehtiyojidan kelib chiqib ota-onalar bilan hamkorlik qilish tajribasiga tayaniladi. Bunda ko'p hollarda boshlang'ich ta'limda ota-onalarning ishtiroki cheklanganligiga duch kelamiz. Chunki xorijiy mamlakatlarda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodxonlik bilan qurollantirishga qaratiladi va savodxonlik ko'nikmasini tarkib toptirishda bevosita o'qituvchilar faoliyatiga asoslaniladi. Bundan farqli o'laroq bizning mamlakatimizda va jamiyatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodxonlik ko'nikmasini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiylashuvini amalga oshirish ham yo'lga qo'yilgan. Aynan mana shu ijtimoiylashuv faoliyatida ota-onalar ishtiroki o'ziga xos noan'anaviy ta'lim shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda ota-onalar bilan hamkorlik vositasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish zaruriyati mazkur masala bo'yicha muayyan yo'nalishlarni idrok etishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ota-onalar bilan hamkorlik qilishning asoslari bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023
2. O.Jabborova, Z.Umarova. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022
3. Abdjugalilova Sh. Abdurauf Fitratning "Tarbiya" fani talqini. – Toshkent, 2020
4. Tilavova S. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. Darslik. – Toshkent, 2025



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING RAQAMLI TA'LIM KO'NIKMASI MAZMUNI

Mardonov Sh.Q.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Maktabgach va boshlang'ich
ta'lim metodikasi" kafedrası professori*

Rahmonqulova A.A.

Boshlang'ich ta'lim magistranti

Tayanch so'zlar: raqamli ta'lim, raqamli kompetensiya, AKT, mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi, boshlang'ich ta'lim, tanqidiy fikrlash, interaktiv texnologiyalar.

Ключевые слова: цифровое образование, цифровая компетенция, информационно-коммуникационные технологии, медиаграмотность, информационная безопасность, начальное образование, критическое мышление, интерактивные технологии.

Key words: digital education, digital competence, Information and Communication Technologies, media literacy, information security, primary education, critical thinking, interactive technologies.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli ta'lim ko'nikmasi mazmuni, uning tarkibiy komponentlari va shakllantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli kompetensiya tushunchasining mohiyati, axborot bilan ishlash, mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash kabi tarkibiy qismlari ochib berilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli ko'nikmalarni tizimli ravishda rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishi asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье научно-теоретически проанализированы содержание цифровых образовательных навыков учащихся начальных классов, их структурные компоненты и механизмы формирования. В исследовании раскрыта сущность понятия цифровой компетенции, а также её составные элементы, такие как работа с информацией, медиаграмотность, информационная безопасность и критическое мышление. В результате проведённого анализа обосновано, что системное развитие цифровых навыков в процессе начального образования способствует повышению эффективности обучения.

SUMMARY:

This article provides a scientific and theoretical analysis of the content of digital learning skills of primary school students, their structural components, and formation mechanisms. The study reveals the essence of digital competence and its key components, including information management, media literacy, information security, and critical thinking. The findings substantiate



that the systematic development of digital skills in the primary education process enhances the effectiveness of teaching and learning.

Kirish. Jahon miqyosida ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida o'quvchilarda raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi[1]. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Raqamli ta'lim ko'nikmasi - bu o'quvchining raqamli muhitda axborotni izlash, qayta ishlash, tahlil qilish, xavfsiz foydalanish va ijodiy mahsulot yaratish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli ta'lim ko'nikmasi mazmunini aniqlash va uning tarkibiy tuzilmasini belgilash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bugungi kun talablari asosidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan raqamli ta'lim bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmasini tarkib toptirish va uning mazmunini belgilab olish dolzarb bo'lib turibdi[2]. Mazkur o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli ta'lim ko'nikmaschi mazmuni taxliliga e'tiboringizni tortamiz.

Raqamli ta'lim bugungi kunda ta'lim jarayonida jumladan, boshlang'ich ta'limda tarkib topgan va asosan kompyuter axborot texnologiyasiga tayangan ta'limning yangi shakli sifatida namoyon bo'lmoqda [3]. Raqamli ta'lim asosan axborot-kommunikasion vositalar orqali (mobil aloqa vositasi, ta'lim plansheti, kompyuter kabilar orqali) amalga oshiriluvchi yangi ta'lim shakli sifatida qfabul qilinmoqda. Biz tadqiqotimizda kompyuterli axborot-kommunikatsion vositalarga tayangan raqamli ta'lim masalasi sifatida so'z yuritamiz. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli ta'lim ko'nikmasini idrok etishda bir necha masalalarga e'tibor berish kerak. Bularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilariga kompyuterli dastur asosida raqamli ta'lim berish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini kuchaytirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqatlarini raqamli ta'lim vositasida rivojlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini kuchaytirishda kompyuterli dastur asosiga tayangan raqamli ta'lim muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limdagi o'quv fanlari mavzulari kompyuterlashgan holda tayyorlanadi va o'quv materiallarini bevosita kompyuter dasturi asosida



olish imkoniyatlari yaratiladi[4]. Bunda taqdim qilingan o'quv materiallari boshlang'ich sinf o'quvchilaridla qiziqish uyg'otishi, ma'lumotlar qisqa va tushunarli bo'lishi, ularni o'zlashtirish jarayonida turli shakllardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuterli dastur asosida aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlarining asoslarini o'zlashtirishga juda qiziqishadi. Chunki kompyuter o'quv texnik vositasi imkoniyatlarining kengligi, ularda o'quv materiallarini qiziqarli hamda tasvirli joylashtirilishi, asosiy e'tibor mustaqil topshiriqlarning mavjud bo'lishi bilan raqamli ta'limni amalga oshirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Shu sababli eng avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter kabi axborot-o'quv texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish, ularning mustaqil topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va bunda asosan mustaqil ishlashga yo'naltirish ishlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'lim olish jarayonini tashkil qilish va ularni bu jarayonga tayyorlashda kompyuter savodxonligining ahamiyati yuqoridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyada mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan kongitiv yondashuv asosida ta'lim jarayonini amalga oshirish masalalari tadqiq etilgan. Bunda R.Djurayev, X.Ibragimov, R.Safarova, Sh.Mardonov, E.Turdiyev kabi pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida ta'lim jarayonida kongitiv yondashuv asoslari metodlari va amaliyotiga doir nazariy qarashlar tahlil qilib o'tilgan. M.Inomova, O.Musurmonova, S.Nishonova kabi pedagog olimlarning tadqiqotlarida esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish shakllarini kengaytirish masalalari metodikasi ishlab chiqilganligini eslatib o'tish joiz.

Xorijiy pedagog olimlardan N.Bordovskaya, A.Rean, N.Vovilova kabilarning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning nazariy-metodik omillari tadqiq etilgan bo'lib, ularning bugungi kundagi amaliy natijalari pedagogik tadqiqotlar uchun asos bo'lmoqda.

Muhokamalar natijasida raqamli ta'lim ko'nikmasini shakllantirishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'limda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish quyidagi shart-sharoitlarga bog'liq:

- pedagoglarning raqamli kompetensiyasi;
- ta'lim muhitining texnik jihozlanganligi;
- interaktiv metodlardan samarali foydalanish;
- ota-onalar bilan hamkorlik.

Raqamli ta'lim ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini oshiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda



ularni zamonaviy axborot jamiyatiga moslashtiradi. Shuningdek, raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun vizual, o'yin texnologiyalari va interaktiv metodlar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi[5].

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli ta'lim ko'nikmasi mazmuni kompleks va ko'p qirrali tuzilmaga ega bo'lib, axborot-kommunikatsiya, mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi va ijodiy faoliyat komponentlarini o'z ichiga oladi. Uni shakllantirish ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqilligi va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston-2030" strategiyasi // www.lex.uz
2. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: "Ishonchli hamkor". 2021
3. Худойбердиев А. Рақамли технологиялар. Т.: "Фан ва технология". 2025
4. Jabborova O., Umarova Z., Babaxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: "Zebo prints". 2021
5. Tashpulatova D.M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish. – T.: "Innovatsiya-ziyo". 2023



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Olimova F.

*O'zbekiston Milliy pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodiy faoliyat, variativ yondashuv, integratsiyalangan dars, muammoli topshiriq, idrok qilish, metod, usul, vositalar, o'zgaruvchan.

Ключевые слова: начальное образование, творческая деятельность, вариативный подход, интегрированный урок, проблемное задание, восприятие, метод, инструментальный, переменная.

Key words: primary education, creative activity, variable approach, integrated lesson, problem assignment, perception, method, method, tools, variable.

РЕЗЮМЕ:

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyati va fikrlash salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini turli usullarda va variativ yondashuv asosida takomillashtirishning afzalliklari yuzasidan ma'lumotlar berilgan va tahlil qilingan. Variativ yondashuv asosidagi ta'lim orqali bolalarning mustaqillik, ijodiy fikrlash va masalalarni turli yo'llar bilan hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi hamda ularda hayotiy ko'nikmalar shakllanadi.

РЕЗЮМЕ:

В начальном образовании развитие творческой активности и мыслительного потенциала учащихся имеет большое значение. В статье представлены сведения и проанализированы преимущества повышения творческой активности будущих учителей начальной школы с использованием различных методов и вариантного подхода. Благодаря образованию, основанному на вариантном подходе, у детей развиваются самостоятельность, творческое мышление и способность решать проблемы разными способами, а также формируются жизненные навыки.

SUMMARY:

In primary education, the development of students' creative activity and thinking potential is of great importance. The article provides information and analyzes the advantages of improving the creative activity of future primary school teachers using various methods and a variant approach. Through education based on a variant approach, children develop independence, creative thinking, and the ability to solve problems in different ways, and life skills are formed in them.



Zamonaviy pedagogik ta'limda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda variativ o'qitish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Variativ o'qitish ta'lim jarayonini o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy pedagogik ta'limda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berish muhim ahamiyat kasb etadi. Variativ o'qitish esa turli usul va texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarning faolligini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatida bildirgan "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir" degan fikri asosida zamonaviy o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga olib kirish va o'quvchilarning bilimini xalqaro rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarish har bir pedagogning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan bugungi kunda boshlang'ich sinflarda variativ yondashuv asosida ta'lim berishni takomillashtirish orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari, ularga individual yondashish, bilimini oshirishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Pedagogik adabiyotlarda "variativ" atamasi "o'zgaruvchan", "tanlovga asoslangan", "ko'p variantli" ma'nolarini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, variativ o'qitish – bu ta'lim mazmuni, shakli, metod va vositalarining turli variantlarda tashkil etilishi orqali o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim tizimi hisoblanadi.

Variativ yondashuv asosida o'qitish tushunchasi pedagogikada o'qitish jarayonlarida turli usul, metod va resurslardan samarali foydalanib, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish deb yuritiladi. Ya'ni har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va o'rganish uslubiga qarab, unga mos ravishda dars mashg'ulotlarini olib borish demakdir.

Ta'lim jarayonini o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish g'oyasi pedagogika fanining rivojlanish jarayonida bosqichma-bosqich shakllangan. Mashhur jahon pedagog va psixologlarining ilmiy-metodologik fikrlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ (tabaqalashtirilgan) yondashuv asosida takomillashtirishga asos bo'la oladi

Jumladan, rus psixologi L.S.Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi variativ o'qitishning psixologik asosi hisoblanadi. Uning fikricha,



har bir bolaning real imkoniyatlari bilan bir qatorda, kattalar yoki tengdoshlari yordamida erishishi mumkin bo'lgan rivojlanish darajasi mavjud. Bu esa ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan, ya'ni variativ yondashuvni talab etadi.

Amerikalik psixologlar Bendjamin Blum ta'lim maqsadlarini kognitiv, affektiv va psixomotor sohalariga ajratib, ularni darajalar bo'yicha tasniflagan. Uning taksonomiyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilib, variativ topshiriqlar tuzishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Govard Gardner tomonidan ilgari surilgan "Ko'p intellektlar nazariyasi" ham variativ o'qitishni ilmiy jihatdan asoslab beradi. Unga ko'ra o'quvchilarda lingvistik, mantiqiy-matematika, musiqiy, fazoviy, jismoniy-kinestetik va boshqa intellekt turlari turlicha rivojlangan bo'ladi. Shu sababli ta'limda yagona usuldan foydalanish samara bermaydi, balki turli shakl va metodlarni qo'llash zarur bo'ladi. Djerom Brunerning kashfiy o'qitish nazariyasida o'quvchi bilimni tayyor holda emas, balki izlanish va tadqiqotlar orqali egallaydi. Bunda o'qituvchi o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni va usullarini moslashtiradi deb keltirilgan. Pragmatik pedagogika va faol ta'lim g'oyalarini ilgari surgan amerikalik filosof va pedagog Jon Dyun ta'limni hayot bilan bog'lash, o'quvchini faol subektiv sifatida qarash g'oyasini asoslab bergan. Uning qarashlariga ko'ra, o'quvchi ta'lim jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, tajriba orttirishi va tanlov qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa variativ o'qitishning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Italiyalik pedagog Mariya Montessori esa bolaning erkinligi, individual rivojlanish sur'atini va mustaqil faoliyatga asoslangan ta'lim tizimini ishlab chiqqan Montessori metodikasida o'quv muhiti va didaktik materiallar variativ xarakterga ega bo'lib, har bir bola o'z qiziqishiga ko'ra faoliyatini tanlaydi. Zamonaviy pedagogikada variativ (tabaqalashtirilgan) o'qitish nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan olimlardan biri Kerol Enn Tomlinson hisoblanadi. U ta'limda mazmun, jarayon, natija va o'quv muhitini farqlash orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, O'zbekistonda ham bir qator pedagog-olimler tomonidan boshlang'ich ta'limda shaxsga yo'naltirilgan va variativ o'qitish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borib, o'zlarining ilmiy-metodik qarashlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va variativ o'qitish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha o'z ishlarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan topshiriqlar, innovatsion metodlar va interaktiv texnologiyalarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, R.J.Ishmuxamedov o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yib, faol va mustaqil o'qitish metodlarini ilmiy



asoslagan va bu boshlang'ich ta'limda individual va variativ yondashuvni joriy etishga nazariy zamin yaratgan. N.N.Azizxo'jayev zamonvayi shaxsga yo'naltirilgan va interaktiv o'qitish usullarini ishlab chiqib, variativ o'qitishning metodik asoslarini takomillashtirgan. Shuningdek, J.G'.Yo'ldoshev ta'limni individuallashtirish va differensialash nazariyasini rivojlantirish barobarida variativ yondashuv orqali o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishni asoslab bergan. B.X.Raximov boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish orqali variativ metodlardan foydalanib, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishni tadqiq etgan. Bundan tashqari SH.A.Abdullayeva o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish modellari asosida kognitiv va ijodiy qobiliyatlarni variativ yondashuv asosida rivojlantirishni ilmiy jihatdan asoslagan.

Variativ (tabaqalashtirib) yondashuv asosida o'qitishning o'ziga xos jihatlari xususida ham pedagoglar tomonidan ijobiy fikrlar bildirilib kelinmoqda. Jumladan bunday ta'lim natijasida o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishiga erishilishi, ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatilishi, ularning fanga qiziqishlari ortib borishi, o'quvchilar faolligining oshishi, o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilishi sababli, ularda o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari bo'lmasligi, iqtidorli o'quvchilarning chuqur bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishiga erishiladi. O'quvchilarning qiziqishlari, iqtidori, intilish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini variativ o'qitish o'quvchi shaxsining o'zligini namoyon qila olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

O'zbekiston pedagog-olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik qarashlar shaxsga yo'naltirilgan va variativ o'qitishning nazariy hamda amaliy asoslarini mustahkamladilar. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ yondashuv asosida takomillashtirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini zamon talablari asosida takomillashtirib borish lozim bo'ladi. Variativ yondashuv asosida o'qitish tizimini takomillashtirib borish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini, ijodiy fikrlashi va mustaqilligi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy ta'limda sinfdagi mavjud o'quvchilar uchun bir xil mazmun qo'yilgan bo'lsa, variativ yondashuv asosida olib boriladigan ta'limda har bir o'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning rivojlanish darajasi turlicha bo'lganligi sababli variativ yondashuv ta'lim samaradorligini oshiradi.



Boshlang'ich ta'lim bosqichida variativ o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o'quvchilarda o'qishga munosabat, bilish faoliyati va mustaqillik shakllanadi. Agar ta'lim jarayonida o'quvchining imkoniyatlari hisobga olinmasa, u darsga nisbatan qiziqishini yo'qotishi mumkin. Variativ yondashuvga asoslangan o'qitish esa har bir bolaning muvaffaqiyat hissini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa variativ yondashuv asosida o'qitish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Bunday yondashuv orqali o'quvchi ta'lim jarayonining passiv obekti emas, balki faol subekti sifatida qaraladi. Natijada o'quvchida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va o'z imkoniyatlarini namoyon qilish paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda variativ yondashuv asosida ta'lim berishdan maqsad – har bir o'quvchining yoshini inobatga olgan holda bolalikdan ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularning dars jarayonida faol qiziqishlariga tayangan holda mashg'ulotlarda ishtirokini ta'minlashdan iborat. Bunda har bir o'quvchining individual qobiliyatini rivojlantirish ya'ni darsda turli uslublar va usullar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini oshirish, o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish – bu standartdan tashqari metodlar orqali darsda faollikni oshirish, shuningdek, turli yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, bilimlarni chuqurlashtirish asosan har bir o'quvchiga o'z uslubida bilim egallash imkoniyatlarini yaratish nazarda tutilgan.

Variativ yondashuv asosida o'qitishni samarali tashkil etish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning farqli qobiliyatlari va o'rganish uslublarini hisobga olishlari, bunda individual yondashuvni ta'minlash, shu bilan birga o'quvchilarga turli metodlar va vositalar orqali tanlov qilish imkonini berish, ya'ni ularda ijodiy va tanlovchi faollikni rivojlantirish, shuningdek, samarali bilim berish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, kasbiy va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishga oid bo'lgan ishlash uslubini o'rganishlari tavsiya etiladi. Variativ yondashuv asosidagi ta'limda o'quvchilarga tanlash imkoniyatini berish, topshiriqlarni tabaqalashtirish, o'qitish usul va shakllarini o'zgartirib borish, har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash orqali uning mohiyati tushuniladi.

Integratsiyalashgan ta'limda “Turli usullar” ya'ni leksiya, guruhli ish, interaktiv o'yin, proyektili faoliyat, “Turli vositalar” bunda kitob, video, kompyuter dasturlari, interaktiv taxta, “Individuallashtirish” – bu har bir o'quvchi uchun turli darajadagi mashqlar hamda “Ijodiy yondashuv” – standartdan tashqari fikrlashga imkon berish variativ o'qitishning asosiy



xususiyatlari etib belgilanadi. Variativ yondashuv asosida olib boriladigan ta'lim o'z ichiga "Individuallashtirilgan ta'lim" orqali har bir o'quvchi o'z darajasi va qobiliyatiga mos ravishda o'rganish imkonini beradi, shuningdek, "Faol o'rganish" natijasida o'quvchilarning dars jarayonida to'liq ishtirokiga erishiladi, ular savollar berishadi va tajribalar o'tkazishadi, "Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali" yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini oshiradilar, "Qoliplashtirilmagan ta'lim" bunda standartdan tashqari usullar qo'llaniladi, bu o'zi o'zidan o'quvchilar uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi bo'ladi, "Motivatsiyani oshirish"da esa o'quvchilar o'z uslubiga mos usulda faoliyat ko'rsatib, darsga qiziqishi ortadi, bundan tashqari "Turli ta'lim vositalari va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati"dan foydalanish bilan interaktiv slaydlar, kartochkalar, guruhli loyihalar, videomateriallardan foydalanish ko'nikmalari sezilarli tarzda rivojlanishiga erishiladi.

Variativ yondashuv asosida ta'lim berishda eng ko'p qo'llaniladigan zamonaviy metodlar asosida o'quvchilarni individual va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirib borishga erishiladi.

Jumladan, "Guruhli ishlash" (Collaborative Learning) – bunda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydilar va bir-birlariga yordam berish orqali vazifani hal qiladilar. Buning afzalligi muloqot, jamoada ishlash va ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga erishiladi va bunda mini – proyektlar tayyorlanadi. "Muloqotli" (interaktiv) o'yinlar dars jarayonida bilimlarni interaktiv o'yinlar orqali sinash va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyatni qiziqarli qiladi, ishtirokchilarni rag'batlantiradi, ko'p xis qilish usuli orqali bilim berishga imkon beradi va viktorina usulida savol-javoblar bunga misol bo'la oladi. "Proyektli metod" (Project-Based Learning) o'quvchilar muammoni hal qilish yoki mavzudagi loyihani yaratish orqali bilim oladilar bu metodning afzalligi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yechimlar topish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodga misol tariqasida tabiat mavzusida guruhlar rasm, video va slaydlar orqali prezentatsiya tayyorlashlarini keltirish mumkin. "Case-study" (Holatlar tahlili) metodining tavsifi muhokama uchun haqiqiy yoki tasavvuriy holatlardan foydalanish bo'lib, o'quvchilarda analitik fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyati rivojlanadi va bunga misol tariqasida yosh bolalarning qo'rqishi yoki maktabdagi konfliktini hal qilish xolatlarini keltirsa bo'ladi. Bundan tashqari "Interaktiv texnologiyalar va slaydlar" metodi orqali kompyuter, planshet, interaktiv doska, onlayn platformalar orqali dars olib boriladi va natijada har bir o'quvchi uchun alohida o'rganish imkoniyati yaratiladi, vizual va audiovizual vositalaridan foydalaniladi. "Rolli o'yinlar" (Role Play)da o'quvchilar ma'lum



vaziyatda belgilangan rolni bajaradilar. Bu metodning afzalligi empatiya, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat bo'ladi. "Differensiyalashtirilgan ta'lim" (Differentiated Instruction)da darsda turli darajadagi vazifalar va masqlar beriladi va natijada har bir o'quvchi o'z darajasiga muvofiq bilim oladi, motivatsiya va ishtiroki oshadi.

Bunday metodlarni ko'plab keltirish mumkin va barchasi shaxsga yo'naltirilgan va varaitiv ta'limni rivojlantirishga, o'quvchilar faolligini oshirishga, ularning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limda o'qituvchining ijodiy faolligi va variativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishi bolalarning shaxsiy rivojlanishi va fanlarni o'rganishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsga yo'nalitirilgan ta'lim va variativ yondashuv orqali o'qituvchilar nafaqat bilim berish, balki bolalarning fikrlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ yondashuv asosida takomillashtirish borasidagi mavzuning dolzarbligi zamonaviy maktab talablarida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur'ati turlicha bo'lishi sababli an'anaviy bilim berish usullari yetmasligi ayniqsa seziladi. Shu bois variativ yondashuv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.D.Raximov O.M.Turg'unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro'ziyev - Zamonaviy ta'lim texnologiyalari - Toshkent, "Fan va texnologiya nashriyoti", 2013y
2. Vigotskiy L.S.Mishleniye i rech. – M.: Pedagogika, 1999. – 352 s.
3. Blum B.Taksonomiya obrazovatelnix seley. – M.: Prosvesheniye, 1986.
4. Gardner G.Struktura razuma: teoriya mnojestvennogo intellekta. – M.: Vilyams, 2007.
5. Dyui Dj.Demokratiya i obrazovaniye. – M.: Pedagogika, 2000.
6. Bruner Dj.Protsess obucheniye. – M.: Akademiya, 2001.
7. Montessori M.Pomogi mne sdelat eto samomu. – M.: Karapuz, 2004.
8. Tomlinson K.A.Differensirovannoye obucheniye v klasse. – M.: Prosvesheniye, 2014.
9. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T, Iste'dod, 2008
10. Sattorov E.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitishning tashkiliy jihatlari // «Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zPFITI. 2003. -B.118-121.



ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Абдикаримова А.С.

магистр 1 курса

НГПИ имени Ажинияза

Tayanch soʻzlar: maktabgacha yosh, samaradorlik, raqamli taʼlim resurslari, faoliyat.

Ключевые слова: дошкольный возраст, эффективность, цифровые образовательные ресурсы, деятельность.

Key words: preschool age, effectiveness, digital educational resources, activities.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada maktabgacha taʼlimda raqamli taʼlim resurslaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi, ularning guruhlari, foydalanish usullari va ahamiyati yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается педагогическая эффективность использования цифровых образовательных ресурсов в дошкольном образовании, их группы, способы и значимость использования.

SUMMARY:

The article examines the pedagogical effectiveness of using digital educational resources in preschool education, their groups, methods, and significance.

Цифровые образовательные ресурсы (ЦОР) становятся неотъемлемой частью современного дошкольного образования, открывая новые пути для повышения качества педагогической деятельности и развития детей. В рамках цифровой трансформации образовательных систем цифровые технологии не только дополняют традиционный образовательный процесс, но и становятся средством стимулирования познавательной активности, формирования навыков творческого и критического мышления у детей дошкольного возраста.

Проблема оценки педагогической эффективности использования цифровых образовательных ресурсов заключается в необходимости подтверждения их воздействия на образовательные результаты и разви-



тие ключевых компетенций у воспитанников дошкольных организаций. Актуальность темы обусловлена не только современными образовательными задачами, но и необходимостью обоснования методической базы для внедрения цифровых ресурсов в практику педагогов.

Что такое ЦОР? Цифровые образовательные ресурсы - это специально разработанные цифровые объекты (интерактивные платформы, обучающие игры, мультимедийные презентации, обучающие приложения), которые используются педагогами для поддержки и обогащения образовательного процесса.

Согласно научным исследованиям, цифровые образовательные ресурсы можно условно разделить на следующие группы по функциям:

- Ресурсы для первоначального знакомства и визуального восприятия материала (мультимедиа, графические и аудио материалы).

- Ресурсы для закрепления и контроля знаний (интерактивные тесты, электронные учебники).

- Интеллектуальные тренажёры и обучающие платформы, развивающие навыки и умения детей.

Дошкольный возраст характеризуется активным развитием сенсорного восприятия, внимания, памяти и речи. Педагоги подчёркивают, что подходы к обучению в этом возрасте должны носить игровой, интерактивный и дидактический характер. Цифровые ресурсы в этом контексте выступают как средства, способные сочетать игровой и образовательный аспекты, обеспечивая многоканальное восприятие материала.

Основные способы использования цифровых образовательных ресурсов в дошкольных организациях включают следующие подходы:

- Использование интерактивных образовательных игр, направленных на развитие математических, языковых и когнитивных навыков детей;

- Применение мультимедийных презентаций и видеоуроков для визуализации содержательных материалов;

- Индивидуальная работа детей с цифровыми приложениями для развития творческих и коммуникативных способностей;

- Групповая деятельность с элементами цифровых игр, способствующая развитию социальных навыков.

Исследования показывают, что ЦОР могут существенно повысить качество образовательного процесса и мотивацию детей при условии грамотного педагогического сопровождения и адекватного педагогического дизайна цифровых задач.



Педагогическая эффективность использования ЦОР определяется следующими ключевыми показателями: уровень вовлечённости детей в образовательную деятельность, качество усвоения материала и результаты обучения, развитие самостоятельной деятельности и когнитивных навыков у детей.

Для оценки эффективности исследователи рекомендуют применять методы наблюдения, анализ результатов деятельности, ведение индивидуальных образовательных портфолио и сравнительный анализ до и после внедрения цифровых средств. Такой подход помогает объективно оценить влияние ЦОР на образовательный процесс и результаты обучения.

Современные исследования подтверждают позитивную роль цифровых технологий в дошкольном образовании. Например:

- Стратегическое внедрение цифровых технологий улучшает качество дошкольного образования и способствует развитию когнитивных и социальных навыков у детей при условии педагогической поддержки.

- Анализ педагогической литературы показывает, что использование цифровых образовательных ресурсов может повысить уровень эффективности усвоения информации обучающимися и качество подготовки к занятиям.

Другие исследования подчеркивают важность комплексного подхода к внедрению цифровых технологий в дошкольное обучение, включая подготовку педагогов и учет возрастных особенностей детей. Международный обзор показывает, что цифровая педагогика в дошкольном возрасте обогащает роли участников образовательного процесса, расширяет методы взаимодействия и может способствовать формированию адаптивных навыков обучения.

Несмотря на очевидные преимущества, существуют значительные вызовы по внедрению ЦОР:

- Качество и соответствие ресурсов возрастным требованиям;
- Низкий уровень цифровой компетентности педагогов;
- Неравный доступ к цифровым технологиям и безопасность детей в онлайн среде.

Для повышения педагогической эффективности применения цифровых ресурсов необходимо, разрабатывать программы профессионального развития для педагогов, включающие навыки работы с цифровыми инструментами, использовать адаптированные и доказательно обоснованные ресурсы, соответствующие возрастным особенностям детей, внедрять



сбалансированные режимы цифровой активности, сочетая их с традиционными игровыми методами и деятельностью.

Использование цифровых образовательных ресурсов в дошкольном образовании имеет высокую педагогическую эффективность при условии грамотной педагогической интеграции и педагогической поддержки. Современные исследования подтверждают, что ЦОР способствуют повышению мотивации детей, улучшению усвоения образовательного материала и развитию ключевых компетенций. Однако для максимального эффекта требуется учитывать возрастные особенности детей, профессиональную подготовку педагогов и качество самих ресурсов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Shortage of digital educational resources in early childhood education: a systematic review / A. Smith, B. Johnson, C. Lee // Early Childhood Education Journal. - 2024. - Vol. 52, No. 3. - P. 412–427.
2. Цифровые образовательные ресурсы как средство повышения эффективности усвоения информации обучающимися: монография / А. С. Коротева // Психолого педагогические исследования. - 2022. - № 4. - С. 78–92.
3. Особенности использования цифровых ресурсов в дошкольном образовании / И. В. Петрова, Т. А. Иванова // Научный вестник дошкольного образования. - 2023. - № 11. - С. 55–66.



РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ СРЕДСТВАМИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА: ОТ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ ДО РЕАЛИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ

Уразимова Т.В.

кандидат искусствоведения, доцент.

Нукусский государственный педагогический институт им. Ажинияза

Таянч сўзлар: шахсни ривожлантириш, эстетик онг, бадий-эстетик ривожланиш, тасвирий санъат, ижодий салоҳият, ўз-ўзини англаш, эстетик дид, ҳиссий ривожланиш, кадриятларни шакллантириш, арт-педагогика, бадий фаолият, креативлик.

Ключевые слова: личностное развитие, эстетическое сознание, художественно-эстетическое развитие, изобразительное искусство, творческий потенциал, самосознание, эстетический вкус, эмоциональное развитие, формирование ценностей, художественная педагогика, художественная деятельность, творчество.

Key words: personality development, aesthetic consciousness, artistic and aesthetic development, fine arts, creative potential, self-realization, aesthetic taste, emotional development, value formation, art pedagogy, artistic activity, creativity.

РЕЗЮМЕ:

Тасвирий санъат воситасида талабалар шахсини ривожлантириш - бу эстетик онг, дид ва гўзалликни идрок этишни шакллантиришдан то ижодий салоҳиятни амалий рўёбга чиқаришгача бўлган яхлит жараён. Тасвирий фаолият ўз-ўзини англашга ёрдам беради, санъатни тушуниш кўникмаларини шакллантиради ва дунёга ҳиссий-ахлоқий муносабатни ривожлантиради. Тасвирий санъат нафақат ўқув фани сифатида, балки инсонни маданий тажриба тўплашдан фаол ижодкорликка ўтказувчи шахсни уйғунлаштириш воситаси сифатида намоён бўлади.

РЕЗЮМЕ:

Развитие личности учащихся посредством изобразительного искусства — это целостный процесс, от формирования эстетического сознания, вкуса и восприятия красоты до практической реализации творческого потенциала. Визуальная деятельность способствует самосознанию, развивает навыки понимания искусства и формирует эмоционально-нравственное отношение к миру. Изобразительное искусство предстает не только как предмет изучения, но и как средство гармонизации личности, переводя человека от нако

SUMMARY:

The development of students' personality through fine arts is a holistic process that goes from the formation of aesthetic consciousness, taste, and perception of beauty to the practical realization of creative potential. Visual activity contributes to self-realization, develops skills in understanding



art, and cultivates an emotional and moral attitude towards the world. Fine arts acts not just as an academic discipline, but as a tool for harmonizing personality, translating a person from accumulating cultural experience to active creation.

Философско-эстетические и педагогические аспекты развития личности средствами изобразительного искусства связывают формирование ценностей и восприятия прекрасного (эстетика) с методами обучения и воспитания, где искусство выступает инструментом для развития креативности, эмоционального интеллекта, критического мышления и ответственности, помогая личности осознать себя, мир и выразить свой внутренний мир через образы. Изобразительное искусство воспитывает вкус, формирует целостное мировоззрение и способствует духовно-творческому становлению человека, начиная с раннего детства.

Философско-эстетическое развитие личности средствами изобразительного искусства заключается в формировании способности воспринимать и ценить красоту, обогащении эмоционально-нравственного опыта через образы и символы, развитии творческого мышления и самовыражения, что позволяет глубже познавать себя и мир, находить ответы на экзистенциальные вопросы и осознавать полноту бытия через цвет, форму и композицию. Искусство, становясь зеркалом души и мировоззрения, раскрывает субъективность, инстинкт и переживания, преобразуя их в художественные формы для драматизации и катарсиса.

Философско-эстетический аспект развития личности средствами изобразительного искусства заключается в формировании способности воспринимать, понимать и творить красоту, обогащая внутренний мир человека через образы, цвета и формы, что способствует развитию его эмоционально-нравственного опыта, творческих способностей, формированию эстетических вкусов и мировоззрения, а также восполняет недостающие в реальной жизни переживания. Искусство выступает как мощный инструмент воспитания, позволяя личности осмыслить мир и себя в нем:

Познание бытия: Искусство помогает понять, как физический, так и метафизический мир, открывая новые перспективы и отвечая на сложные вопросы. Искусство - способ познания и отражения реальности, позволяющий понять глубинные смыслы жизни, красоту природы и человеческих отношений, вместе с тем это еще отражение идеалов и ценностей, формирование мировоззрения. Развитие способности видеть и осознавать красоту в искусстве и жизни, формирование эстетического вкуса и суждений.

Самопознание и самовыражение: Через творчество личность выражает свой внутренний мир, впечатления и отношение к действительности, фор-



мируа собственное мировоззрение. Через восприятие произведений искусства (живопись, скульптура) формируются нравственные ориентиры, эстетические идеалы и мировоззрение, основанные на общечеловеческих ценностях. Следовательно, происходит формирование духовного компонента личности, способности к созиданию и переживанию прекрасного, нравственные ориентиры. Развитие креативных задатков, воображения, памяти, внимания и мелкой моторики, а также умения работать с цветом, формой, композицией.

Эмоционально-нравственное развитие: Искусство расширяет эмоциональный диапазон, воспитывает сопереживание и формирует нравственные ориентиры, помогая понять и пережить сложные чувства (тоску, экстаз). Развитие эстетического вкуса, ценностей, культуры, понимание «прекрасного в жизни и искусстве». Искусство дает средства для выражения индивидуальности, эмоций и переживаний, создавая уникальную идентичность и язык общения. Искусство использует образы, символы, аллегории для передачи смыслов, что тренирует способность мыслить не только логически, но и метафорически.

Философско-эстетическое развитие личности через изобразительное искусство рассматривается как процесс формирования ценностного отношения к миру и самопознания.

Следовательно, аспектами философско-эстетических основ развития личности средствами изобразительного искусства мы можем обозначить следующим образом:

Онтологический аспект (бытие и познание): 1) освоение реальности через искусство, где личность не просто копирует мир, а выстраивает собственную «картину мира». 2) Визуальное мышление, где изобразительное искусство развивает способность к абстракции и анализу форм, что является инструментом познания бытия. Изучение онтологического аспекта развития личности через изобразительное искусство представлено в работах философов, психологов и педагогов, рассматривающих искусство как способ бытия и самоопределения человека [3,4,5,10].

Аксиологический аспект (ценности): 1) Формирование идеалов, где на основе созерцания и создания произведений искусства воспитываются чувства прекрасного, способные отличать подлинные ценности от сиюминутных. 2) Этический выбор, в котором искусство часто ставит личность перед моральными дилеммами, транслируя гуманистические смыслы через визуальные образы [1].



Эстетический аспект (чувственное восприятие): 1) Развитие чувственности, способность искусства обострять восприятие цвета, ритма и гармонии, что ведет к эстетизации повседневной жизни. 2) Катарсис как процесс творчества или сотворчества (восприятия) обеспечивающий эмоциональную разрядку и духовное очищение [2,3,6].

Экзистенциальный аспект (самореализация): 1) поиск идентичности, через индивидуальный стиль в изобразительном искусстве личность манифестирует свое «Я» и находит способы самовыражения. Изобразительная деятельность рассматривается как способ объективации внутреннего «Я» (антропологическая ценность). Через создание образа человек осознает свою уникальность и связь с миром. 2) Диалог культур, куда входит непосредственное изучение изобразительного искусства, позволяющее личности осознать себя в контексте мировой истории и культуры. Искусство транслирует культурные коды и этические идеалы, формируя ценностный каркас личности через визуальные символы и смыслы. Изобразительное искусство выступает как средство гармонизации личности, соединяя эмоциональное развитие с интеллектуальным и этическим становлением [7,8,9,10].

Педагогический аспект развития личности средствами изобразительного искусства заключается в использовании творчества для формирования эстетического вкуса, самостоятельности, познавательного интереса, духовно-нравственных качеств и эмоционального интеллекта через доступные формы деятельности, развивая образное мышление, воображение и самовыражение, что важно, как для общего развития, так, в особенности, и для коррекционной педагогики.

Ключевые педагогические задачи изобразительного искусства – развитие творческого потенциала, эмоционального интеллекта, эстетического восприятия и духовно-нравственных качеств личности через формирование образного мышления, сенсорики, координации и способности к самовыражению, что способствует интеллектуальному росту и гармоничному освоению мира:

- Эстетическое воспитание, т.е. развитие чувства прекрасного, понимание гармонии, формирование эстетических потребностей, способности воспринимать, анализировать и оценивать прекрасное в искусстве и окружающей действительности.
- Развитие познавательного интереса, где искусство выступает способом познания мира, жизни и себя, тренировки зрительной памяти, наблюдательности, глазомера и аналитического мышления.



- ▶ Эмоциональное развитие, т.е. выражение чувств, управление эмоциями, снижение психоэмоционального напряжения через арт-терапевтические техники, воспитание сопереживания, развитие эмоционального интеллекта и формирование системы нравственных ориентиров через погружение в искусство.
- ▶ Формирование личности, через воспитание трудолюбия, самостоятельности, ответственности, патриотизма через творческий процесс.
- ▶ Развитие творческого потенциала, через стимуляцию воображения, фантазии, креативных способностей, стимулирование воображения, фантазии и способности к самовыражению через создание оригинальных художественных образов.
- ▶ Формирование творческого мышления, т.е. развитие воображения, фантазии, дивергентного (творческого) мышления, способности к анализу, синтезу, сравнению и обобщению.
- ▶ Развитие сенсорики и моторики, улучшение зрительно-пространственного восприятия, мелкой моторики, координации движений.
- ▶ Интеллектуальное развитие, т.е. обогащение словарного запаса, развитие связной речи и наблюдательности, приобщение к наследию отечественного и мирового искусства, понимание художественных традиций.
- ▶ Овладение практическими навыками, обучение техникам и приемам работы с различными художественными материалами (живопись, графика, лепка).

Изобразительное искусство воздействует на развитие личности через комплекс психологических и физиологических механизмов:

1. Когнитивный механизм, развивает наглядно-образное мышление, пространственное воображение и память. Процесс рисования заставляет мозг анализировать пропорции, формы и цвета, что стимулирует интеллектуальную активность.

2. Эмоционально-регулятивный механизм, здесь искусство служит инструментом самовыражения и снятия психоэмоционального напряжения (арт-терапия). Оно помогает трансформировать внутренние переживания в визуальные образы, способствуя эмоциональной устойчивости.

3. Сенсорно-перцептивный механизм, развивает мелкую моторику, зрительно-моторную координацию и эстетическое восприятие. Активация сенсорных каналов напрямую влияет на формирование нейронных связей.



4. Ценностно-смысловой механизм, через освоение художественного опыта человечества личность приобщается к культурным ценностям, формирует собственные эстетические идеалы и нравственные ориентиры.

5. Креативный механизм, стимулирует творческий поиск и способность к генерации оригинальных идей, что переносится на решение жизненных задач в любой сфере деятельности.

В заключение можно отметить, что развитие личности через изобразительное искусство - это комплексный процесс, превращающий студента из пассивного наблюдателя в активного творца. Развитие личности средствами изобразительного искусства у студентов - это поэтапный процесс, трансформирующий эстетическое восприятие в профессионально-творческий потенциал. Искусство формирует навыки понимания красоты, стимулирует креативное мышление, преобразует внутренний мир, способствуя самореализации и активному творческому самовыражению. Подводя итог, можно утвердительно сказать, что изобразительное искусство является мощным катализатором развития личности студента. Процесс трансформации - от пробуждения эстетического сознания до полной реализации творческого потенциала - сегодня невозможен без синергии классического обучения и современных инструментов. Таким образом, изобразительное искусство в образовании - это не просто обучение технике рисования, а стратегия личностного роста, объединяющая эстетическое воспитание с развитием созидательных способностей человека.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М., Издательство «Мысль», 1991.
2. Боров Ю. Эстетика в 2-х томах. М.: Высшая школа, 2002.
3. Выготский Л. С. В92. Психология искусства. Ростов н/Д: изд-во «Феникс», 1998.
4. Каган М. С. Эстетика как философская наука. СПб.: Петрополис, 1997.
5. Каган М.С. Философия культуры. Учебное пособие. Санкт-Петербург. 1996.
6. Карл Густав Юнг. Архетип и символ. Авторский сборник. М.: Renaissance, 1991.
7. Копытин А.И. Теория и практика арт-терапии. СПб.: Питер, 2002.
8. Ролло Рис Мэй. Мужество творить. Перевод А. Багрянцева. М. Изд. Институт общегуманитарных исследований, 2012.
9. Савчук В.В. Экзистенциализм как философско-эстетическая основа. М., 2013
10. Хайдеггер М. Исток художественного творения. Сборник. Пер. с нем. Михайлова А.В. - М.: Академический проект, 2008.



AHOLI EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING USTUVORLIGI

Raximova N. Yu.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: ekologik globallashuv, ekologik siyosat, ekologik xavfsizlik, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik bilim, ekologik targ'ibot, ekologik muhit, ekologik madaniyat, ekopedagogik kompetensiya.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экологическая политика, экологическая безопасность, экологическое образование, экологическое сознание, экологическая деятельность, экологические знания, экологическая пропаганда, экологическая среда, экологическая культура.

Key words: ecological globalization, ecological policy, ecological security, ecological education, ecological consciousness, ecological activity, ecological knowledge, ecological propaganda, ecological environment, ecological culture.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishning dolzarb masalalari hamda ekologik tarbiyani va ekopedagogik kompetentsiyani aholi ekologik ongi va faoliyatini yuksaltirishdagi imkoniyatlari va yo'llari yoritilgan. Shuningdek, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье освещаются актуальные вопросы формирования экологической культуры, а также возможности и пути экологического образования для повышения экологической осведомленности и активности населения. Также рассматривается главная цель экологического образования – формирование и повышение экологического сознания человека, и обсуждаются механизмы приучения его к разумной экологической деятельности.

SUMMARY:

In the article, the current issues of ecological culture formation and the opportunities and ways of environmental education to increase the environmental awareness and activities of the population are highlighted. Also, the main goal of ecological education is to form and raise the ecological consciousness of a person, and the mechanisms of accustoming him to reasonable ecological activities are discussed.

Ekologik siyosat ekologik globallashuv tendensiyalarining zamonaviy sotsiumgata'sirini kamaytirishi, jamiyat ekologik xavfsizligini ta'minlashi uchun



ekologik muhitni muhofaza qilish tadbirlari shaxs ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatini takomillashtirish choralari bilan to'ldirilmog'i shart. Binobarin, zamonaviy davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekologik tarbiya bilan bog'liq bo'lmog'i lozim. Chunki aynan ekologik tarbiya aholi ekologik ongi va faoliyatini yuksaltirish imkonini yaratadi.

Ekologik tarbiya tarbiyaning yil sayin tobora dolzarblashib borayotgan shakllaridan biridir. U tarbiyaning boshqa shakllari bilan uyg'un tarzda takomil topa boradi. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyaning mazmunini chuqurroq anglab olish uchun uni tarbiya tizimi kontekstida, uning turli shakllari bilan o'zaro aloqadorlikda tahlil qilmoq kerak. Ekologik tarbiyaning tarbiya tizimidan ayri holda talqin etilishi mazkur fenomen haqida ilmiy tasavvurlar hosil qilishga xalal beradi.

Tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. U shaxs qadriyat va manfaatlarini jamiyat qadriyat hamda manfaatlariga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Tarbiya obyekti hamisha shaxs yoxud muayyan guruh bilan bog'liq. Biroq tarbiyaning subyekti turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Masalan, tarbiya alohida shaxs, biror bir institut, guruh, davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Har qanday holatda ham tarbiyaviy ta'sir o'zining maqsadga muvofiqligi va tizimliliigi bilan ajralib turadi.

Tarbiya masalalari bilan shug'ullangan barcha mutaxassislar uning turli shakllari mavjudligini qayd qiladilar. Biroq odatda bunda tarbiyaning o'z mazmuniga ko'ra turli shakllarga bo'linishi nazarda tutiladi, xolos. Aytaylik, tarbiya mazmunan aqliy, mehnat, jismoniy, ahloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, iqtisodiy va shu kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuning bilan bir qatorda, unutmazlik zarurki, tarbiya nafaqat o'z mazmuniga ko'ra, balki institutsional belgilari, tamoyillariga ko'ra ham turli shakllarga ega. Masalan, tarbiya insonning umri davomida turli ijtimoiy institutlar - oila, mahalla, ta'lim maskani, mehnat jamoasi, jamoatchilik tashkilotlari tomonidan olib boriladi. Bundan tashqari, inson tarbiyasi turli tamoyillarga bo'ysundirilishi mumkin. Bu borada erkin, avtoritar, demokratik tarbiya haqida gapirish o'rinli.

Tarbiya masalalari odatda pedagoglar tomonidan puxta o'rganiladi. Biroq bunda masalaning bir jihati e'tibordan chetda qolib ketadi. Pedagoglar o'z faoliyatlari ta'lim muassasalari bilan bog'liq bo'lgani bois ko'proq bolalar, o'smirlar va yoshlar tarbiyasi xususida bosh qotiradilar. Vaholanki masalaga ijtimoiy falsafa pozitsiyasidan yondashsak, tarbiya insonning butun umri mobaynida davom etadigan jarayondir. Shu boisdan tarbiya masalalarining pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilishi qay darajada muhim bo'lsa, uning ijtimoiy-falsafiy talqini ham shu qadar ahamiyatlidir. Yuqorida keltirgan nazariy



tezislarimiz ekologik tarbiyaning mazmuni va mohiyati, maqsadi va vazifalari, shakllari va uslublari, tamoyillari va vositalarini mufasssal aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya o'z mazmuniga ko'ra tarbiyaning o'ziga xos shakli bo'lib, shaxs ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan maqsadga muvofiq tarbiyaviy jarayondir. U turli subyektlar tomonidan olib borilishi mumkin. Masalan, oilada, u yoki bu institutda, jamoada ham ekologik tarbiyaning muayyan shakllari amalga oshiriladi. Biroq bu borada davlat tomonidan ekologik siyosat doirasida maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilgan ekologik tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirishdan iborat. Uning yo'nalishlari va vazifalari ana shu maqsaddan kelib chiqadi, uslublari va usullari esa unga muvofiq ravishda tanlanadi. Jumladan, maqsadga mos tarzda, ekologik tarbiya ikki asosiy yo'nalishda (shaxs

ekologik ongini yuksaltirish; shaxs ekologik faoliyatini takomillashtirish) amalga oshiriladi. Ekologik tarbiyaning vazifalari turkumiga esa quyidagilar kiradi:

“1.Ekologik ong negizida atrof-muhitga mus'uliyatli yondashuvni shakllantirish.

2.Zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga doir bilimlar tizimini shakllantirish.

3. O'z hududidagi atrof-muhitni o'rganish, holatini baholash va yaxshilashga doir intellektual va amaliy malakalar tizimini rivojlantirish; atrof-muhitni muhofaza qilishga doir faol faoliyatga intilishni rivojlantirish”

Ekologik tarbiya turli shakl va uslubda amalga oshiriladi. Tarbiya obyektining xususiyatlari yangilangani sayin bu shakl va uslublar ham o'zgara boradi. Masalan, inson umrining dastlabki bosqichlarida qo'llanilgan ekologik tarbiya uslub va shakllaridan uning yetuklik davrida foydalanib bo'lmaydi, albatta. Yetuk yoshdagi kishining ekologik ongi va faoliyatiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun mutlaqo boshqa turkumdagi shakl va uslublarga murojaat etish zarur bo'ladi. Shuning uchun ekologik tarbiya shakl va uslublarni tasniflash birmuncha murakkabroq. Bizning fikrimizcha, bu shakl va uslublarni ekologik tarbiyaning maqsadi va yo'nalishlariga mutanosib ravishda quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

a) shaxsning ekologik ongiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan shakl va uslublar (masalan, tushuntirish, ishontirish, mashq qilish, ibrat va sh.k.);



1) shaxsning maqbul ekologik faoliyatini shakllantirishga mo'ljallangan shakl va uslublar (masalan, o'zini tahlil qilishga undash, anglab olishga undash, ekskursiya va sh.k.);

2) shaxsning maqbul ekologik ongi va faoliyatini rag'batlantirish shakl va uslublari;

3) shaxsning nomaqbul ekologik ongi va faoliyatini jazolash shakl va uslublari.

4) Ekologik tarbiya vositalari ham o'zining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Shaxs ekologik ongi va faoliyatini yuksaltirishda adabiyot va san'at, fan va din, ommaviy axborot vositalari va shu kabi vositalar jiddiy rol o'ynaydi. E'tiborli jihati shundaki, ekologik tarbiyaning bir bosqichida bu vositalarning ayrimlari ustuvor ahamiyat kasb qilishi, boshqalari esa ikkilamchi rol o'ynashi mumkin.

Vaziyat o'zgargach, bu iyerarxiya ham yangicha tus oladi. Masalan, ta'lim maskanlarida bolalar ekologik ongi va faoliyatiga ko'proq fan, adabiyot va san'at vositasida ta'sir ko'rsatiladi. Yetuk yoshdagi kishilar ekologik ongi va faoliyatiga esa ommaviy axborot vositalarining ta'siri ustuvor.

Boshqa vositalar ikkilamchi rol o'ynaydi.

5) Ekologik tarbiya muayyan samaraga olib kelishi uchun aniq tamoyillarga bo'ysundirilmog'i zarur. Mavzuning ushbu jihatini maxsus tadqiq qilgan mutaxassislar quyidagi tamoyillarga

e'tiborni tortadilar:

6) tarbiyaviy jarayonning maqsadga muvofiqligi va g'oyaviyligi;

7) umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi;

8) shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligi;

9) tarbiyaning hayot, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotining bugungi bosqichi bilan bog'liqligi;

10) jamoada shaxs tarbiyasi;

11) tarbiyaning tabiatga muvofiqligi

Ushbu mulohazalarga qo'shimcha qilib ta'kidlash zarurki, ekologik tarbiya uzluksiz va tizimli xarakterga ega bo'lishi, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va innovatsion uslublarga tayanishi darkor. Shuningdek, ekologik tarbiya zamon talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilmog'i zarur, aks holda u o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga xizmat qilmay qo'yadi.

Ekologik tarbiyani tarbiyaning boshqa shakllaridan ayri ravishda tashkil etib bo'lmaydi. U barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan umumiy sa'y-harakatlarning bir jihati, shakli, xolos. Ekologik tarbiya aqliy, axloqiy, iqtisodiy, vatanparvarlik va boshqa tarbiya shakllari bilan uyg'unidir. Jumladan,



shaxsning aqliy salohiyati oshgani sayin uni ekologik jihatdan tarbiyalash imkoniyatlari kengaya boradi. Aksincha, shaxs ekologik tarbiyasi uning ekologik ongi va faoliyatini shakllantirish bilan cheklanmasdan, aqliy xislat va fazilatlarining ham kamol topishiga ta'sir ko'rsatadi.

Axloqiy tarbiya shaxsni tabiatga oqilona munosabatda bo'lishga undovchi fazilatlarini ham shakllantiradi, ekologik tarbiya esa shaxs axloqiy qiyofasining qaror topishi jarayonida ham iz qoldiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ekologik globallashuv tendensiyalarining shaxs ongi va faoliyatiga salbiy ta'siri kuchayib borayotgan bugungi kunda ekologik tarbiyani davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlarida ekologik tarbiya masalalariga ustuvor ahamiyat berilayotgani ham shundan.

O'zbekistonda ekologik tarbiya samaradorligini oshirish, uning zamonaviy tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarga diqqatni jamlash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash zaruriyati;
- b) ekologik tarbiya shakllari uyg'unligini ta'minlash zaruriyati;
- v) ekologik tarbiya vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi"
2. "2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasi"
3. Nikolay Moiseev – "Ekologiya va insoniyat kelajagi" Ekologik ong, global ekologik muammolar va inson mas'uliyati haqida.
4. Vladimir Vernadsky – "Biosfera va noosfera" Ekologik ong va inson faoliyatining tabiatga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.
5. Aldo Leopold – "A Sand County Almanac" Ekologik etikani shakllantirish bo'yicha muhim manba.
6. Rachel Carson – "Silent Spring" Ekologik tarbiyaning zarurligini asoslab bergan klassik asar.
7. Зарипова М.Формы и методы экологического воспитания учащихся// Молодой ученый, 2014, №1. – С.524.



TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK YONDASHUVLARI

Sirojiddinova S.M.

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika
va psixologiya kafedrasida dotsenti*

Tayanch so‘zlar: sog‘lom turmush, samarali muloqot shakllari, tarbiyaning murakkab tabiati, ijtimoiy muhit, psixologik omillar.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, эффективные формы общения, сложный характер воспитания, социальная среда, психологические факторы.

Key words: healthy life, effective forms of communication, complex nature of upbringing, social environment, psychological factors.

РЕЗЮМЕ:

Zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ayniqsa talabalar yoshida, strategik ahamiyatga ega. Talabalar davri - bu shaxsning psixologik, ijtimoiy va jismoniy jihatdan shakllanishining eng faol bosqichi hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy va psixologik omillar tahsil etiladi, ularning o'zaro bog'liqligi va samarali shakllantirish yo'llari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ:

Формирование культуры здорового образа жизни в современном обществе, особенно в студенческом возрасте, имеет стратегическое значение. Студенческий период считается наиболее активным этапом психологического, социального и физического становления личности. В данной статье рассматриваются основные социально-психологические факторы, влияющие на формирование культуры здорового образа жизни у учащихся, освещается их взаимосвязь и пути эффективного формирования.

SUMMARY:

The formation of a healthy lifestyle culture in modern society, especially at the age of students, is of strategic importance. The student period is the most active stage in the formation of an individual psychologically, socially and physically. In this article, students are educated on the main social and psychological factors that affect the formation of a healthy lifestyle culture, their interdependence and ways of effective formation are highlighted.

Kirish. Salomatlik har qanday jamiyatning, xususan, Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarning asosiy ijtimoiy va shaxsiy



qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi faoliyat uslubi bo'lib, millat genofondini asrash va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik davri shaxs hayotida o'zgarishlar, o'quv yuklamalari, stress va turmush sharoitlarining yangilanishi bilan tavsiflanadi, bu esa sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini maqsadli va ilmiy-asoslangan usullar orqali shakllantirishni talab qiladi. Sog'lom turmush tarzi tushunchasi va uning ahamiyati jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalash va kamol toptirishda alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Sog'lom turmush tarzi nafaqat jismoniy salomatlikni, balki ma'naviy, psixologik va ijtimoiy farovonlikni ham o'z ichiga olgan kompleks tushunadir. Talaba yoshida sog'lom turmush tarzini shakllantirish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: Jismoniy faollik va muntazam mashqlar; Muvozanatli ovqatlanish odatlari; Zararli odatlardan saqlanish; Psixologik barqarorlik va stressni boshqarish; Ijtimoiy moslashuvchanlik va kommunikativlik. Talaba yoshlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik-psixologik shartlari. Talabalik davri shaxsning shakllanishi uchun eng qulay davr bo'lib, bunda sog'lom turmush tarzini shakllantirish quyidagi pedagogik va psixologik asoslarga tayanadi:

Motivatsiyani oshirish: Talabalarda salomatlikning shaxsiy ahamiyati va qadrini anglatish orqali mustaqil jismoniy mashg'ulotlar va sog'lom odatlarga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantirish. Bu, Abu Ali ibn Sinoning sog'liqni saqlashga oid ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Axborot-targ'ibot faoliyati: Talabalarga sog'lom turmush tarziga oid tibbiy-gigiyenik bilimlarni zamonaviy metodlar yordamida berish (mobil ilovalar, onlayn platformalar, interaktiv dasturlar orqali innovatsion texnologiyalarni qo'llash).

Amaliy ko'nikmalarni singdirish: Faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, talabalarda gigiyenik qoidalarga amal qilish, jismoniy mashg'ulotlarni kun tartibiga kiritish kabi kundalik odat va ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratish.

Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish: Oliy ta'lim muassasalarida va turar joylarda (yotoqxonalarda) sport turlari, madaniy tadbirlar orqali faol ijtimoiy muhitni yaratish, jamoatchilik va ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'oziyev, V.Karimova, D.Muhammedova, Z.Nishonova, Sh.Barotov, A.Jabborov singari tadqiqodchilar yoshlar muammosining psixologik jihatlari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, yoshlar psixologiyasida sog'lom turmush tarzini belgilovchi



omillarni tadqiq qildilar. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda shaxsning individual psixologik xususiyatlari (masalan, iroda, stressga chidamlilik) va motivatsiyaning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlashgan. T.Mahmudov, S.Otamurodov, A.Ochildiyev, J.Tulenov, S.Shermuhamedov singari mutaxassislar yetuk shaxsning falsafiy jihatlarini, shaxsiy axloq, axloq asoslari va sog'lom turmush tarzi muammolarini falsafiy tahlil qilishgan. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish ma'naviyat va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan falsafiy va ijtimoiy qadriyat ekanligini asoslashgan. Ijtimoiy omillarning ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ijtimoiy omillarning ta'siri juda kuchli bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Oilaning ta'siri: Bolalikdan qo'yilgan asosiy odatlar va qadriyatlar; Ota-onalarning shaxsiy namunalari; Oilaviy qadriyatlar tizimi

2. Ta'lim muassasalari muhiti: O'quv dasturlarining mazmuni; Sport va sog'lomlashtirish infratuzilmasi; Pedagogik xodimlarning shaxsiy namunalari

3. Tengdoshlar guruhining ta'siri: Do'stlar va sinfdoshlarning xatti-harakatlari; Talabalar o'rtasidagi moda va tendensiyalar; Moslashish mexanizmlari. Ommaviy axborot vositalari va internet; Sog'lom turmush tarzi kontenti; Ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchan shaxslar; Raqamli platformalardagi axborot oqimi o'z ta'sirini o'tkazadi. Innovatsion texnologiyalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni. Zamonaviy sharoitlarda innovatsion texnologiyalar talabalarning sog'ligini yaxshilashda va ularning motivatsiyasini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mobil Ilovalar: Jismoniy faollikni kuzatish (qadam o'lchagichlar), ovqatlanishni nazorat qilish va uyqu rejimini boshqarish bo'yicha eslatmalar berish. Onlayn Platformalar: Sog'lom ovqatlanish retseptlari, virtual sport mashg'ulotlari (masalan, Workout mahalla va ko'cha fitnesi), psixologik maslahatlar kabi resurslarni taqdim etish. Interfaol Dasturlar: Sog'lomlashtirish bo'yicha testlar, o'yinlar va tanlovlar orqali bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash. Talaba yoshlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish – bu nafaqat ularning shaxsiy salomatligini mustahkamlash, balki akademik muvaffaqiyat va jamiyatning barkamol rivojlanishi uchun ham asosdir. Ushbu jarayon Oliy ta'lim muassasasi, talabaning o'zi, oila va ijtimoiy tashkilotlar (masalan, "Sog'lom avlod uchun", mahalla) o'rtasidagi uzviy hamkorlikni, shuningdek, ilmiy-uslubiy yondashuvlarni talab qiladi.

Psixologik omillar quyidagilar: Talabaning ichki holati, ehtiyojlari va o'zini anglash darajasi sog'lom turmush tarzi madaniyatining poydevorini tashkil etadi. Motivatsiya va ehtiyojlar: Sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning asosiy psixologik omili – bu salomatlikka bo'lgan ehtiyoj va



uni saqlashga qaratilgan ichki motivatsiya. Bu motivatsiya nafaqat kasallikdan qochish, balki akademik muvaffaqiyatga erishish, o'z-o'zini hurmat qilish va shaxsiy rivojlanish kabi yuqori maqsadlar bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'z-o'zini samarali boshqarish (O'zboshqaruv): Talabalik davridagi yuqori o'quv yuklamalari va erkinlik sharoitida vaqtni taqsimlash, kun tartibiga rioya qilish va stressni samarali yengish kabi ko'nikmalar sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir. Ushbu ko'nikmalar psixologik yetuklikni talab qiladi. Vol faoliyati (Iroda): Sog'lom odatlarni shakllantirish va yomon odatlardan voz kechish (chekish, noto'g'ri ovqatlanish) doimiy irodaviy zo'riqishni talab qiladi. Shaxsning mustahkam irodasi bu jarayonda asosiy psixologik tayanch hisoblanadi. Salomatlikka munosabatning ratsionalligi: Salomatlikni shunchaki "kasallikning yo'qligi" deb emas, balki "jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida anglash. Ushbu ratsional yondashuv talabani faol, doimiy va ongli ravishda o'z salomatligi uchun javobgarlikni olishga undaydi.

Tahlil va natijalar. Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish — ijtimoiy-psixologik ta'sir va individual o'zboshqaruvning o'zaro uyg'unlashuvidir. Bu jarayonda OTM lar nafaqat o'quv maydoni, balki ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazi bo'lishi, talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini, jismoniy va ruhiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilishni rivojlantirishi lozim. Madaniyatni mustahkamlash uchun ijtimoiy normalar (sportga e'tibor) va shaxsiy qadriyatlar (salomatlik ustuvorligi) bir xil darajada muhimdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri murakkab tizimni tashkil etadi. Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning samarali usullari:

1. Ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish: Sog'lom turmush tarziga oid fanlarni joriy etish; Amaliy mashg'ulotlar va treninglarni tashkil etish; Sport va jismoniy tarbiyani rag'batlantirish

2. Muhitni qulaylashtirish: Sog'lom ovqatlanish imkoniyatlarini yaratish; Sport inshootlari va dam olish joylarini rivojlantirish; Psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish

3. Psixologik qo'llab-quvvatlash: Konsultatsiya markazlarini faollashtirish; Grup treninglari va master-klasslarni o'tkazish; Shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish

4. Ijtimoiy loyihalar va tashabbuslar: Sog'lom turmush tarzi bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash; Talabalar klub va jamiyatlarini faollashtirish; Hamkorlik dasturlari va hamkorlikni rivojlantirish

Xulosa. Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish - bu murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro



ta'siriga asoslanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlariga bog'liq. Zamonaviy yondashuvlar nafaqat tashqi sharoitlarni yaxshilash, balki har bir talabaning ichki motivatsiyasini, qadriyatlar tizimini va psixologik barqarorligini shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarning sog'lom turmush tarzini qabul qilishlari nafaqat ularning shaxsiy salomatligi, balki butun jamiyatning farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kimsanova G.A., Alieva R.A. Influence of turkesterone and ecdysterone on alpha-amylase activity in growing rats. *Molodoy Ucheny*, 2020.
2. Alieva R.A., Usmanov U., Alieva F. Health risks associated with mobile phone use. Germany: *Modern Scientific Research*, 2023.
3. Saidbaeva L.M. et al. Morphofunctional characteristics of young swimmers' health status. *American Journal of Social Sciences and Humanity Research*, 2022.
4. Alieva R.A. et al. Speech features of fairy tale assimilation in preschool children with cerebral palsy. *Science and Education*, 2024.
5. Alieva R.A. Clinical issues of rabies and neurological complications of antirabies vaccination. *Science and Education*, 2024.
6. Alieva R.A. The impact of tourism on children's physiological features. *Science and Education*, 2024.



ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OTMLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI O‘QITISH USULLARI VA KO‘NIKMALARI

Mirzakulov I.M.

Toshkent davlat transport universiteti

Jismoniy tarbiya va sport kafedrası dotsenti

Tayanch so‘zlar: jismoniy madaniyat, talabalar, o‘qitish usullari, sport tayyorgarligi, jismoniy siflatlar, pedagogik tajriba, O‘zbekiston oliy ta’limi, jismoniy faollik motivatsiyasi.

Ключевые слова: физическая культура, студенты, методы обучения, спортивная подготовка, физические качества, педагогический эксперимент, высшее образование Узбекистана, мотивация к физической активности.

Key words: physical education, students, teaching methods, sports training, physical qualities, pedagogical experiment, higher education of Uzbekistan, motivation for physical activity.

РЕЗЮМЕ:

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni o‘qitish usullari va ko‘nikmalari ko‘rib chiqilgan. Ishda oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan va ularning talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga ta’siri baholangan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba va ma’lumotlarni qayta ishlashning miqdoriy usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy mashqlar va innovatsion usullarni uyg‘unlashtirish jismoniy sifatlarni yanada yaqqolroq rivojlantirishga va talabalarning sport bilan muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Keltirilgan xulosalar ta’lim dasturlarini takomillashtirish va oliy ta’limda jismoniy madaniyatning yangi variativ modullarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

РЕЗЮМЕ:

В исследовании рассмотрены методы и навыки обучения физической культуре и спорту в высших учебных заведениях Республики Узбекистан. В работе проанализированы современные педагогические подходы, применяемые в высших учебных заведениях, и оценено их влияние на уровень физической подготовленности студентов. В исследовании использовались сравнительный анализ, педагогический эксперимент и количественные методы обработки данных. Полученные результаты показывают, что сочетание традиционных упражнений и инновационных методов способствует более выраженному развитию физических качеств и повышению мотивации студентов к регулярным занятиям спортом. Приведенные выводы могут служить основой для совершенствования образовательных программ и разработки новых вариативных модулей физической культуры в высшем образовании.

SUMMARY:



The study examines the methods and skills of teaching physical education and sports in higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan. The work analyzes modern pedagogical approaches used in higher education institutions and assesses their impact on students' physical fitness levels. The study used comparative analysis, pedagogical experiment, and quantitative methods of data processing. The obtained results show that the combination of traditional exercises and innovative methods contributes to a more pronounced development of physical qualities and increases the motivation of students to regularly engage in sports. The presented conclusions can serve as a basis for improving educational programs and developing new variable physical education modules in higher education.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya alohida o‘rin tutadi. Jismoniy tarbiya oliy o‘quv yurtlarida talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini modernizatsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport zamonaviy O‘zbekiston siyosatida ustuvor o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda davlat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni faol amalga oshirmoqda. Qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da sport sohasidagi asosiy maqsadlar – aholining jismoniy faolligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va kadrlar salohiyatini mustahkamlash belgilangan.

Tadqiqot mavzusi davlatning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga strategik yondashuviga bag‘ishlangan. Maqsad jismoniy tarbiya sifatini oshirishda davlat dasturlarining rolini aniqlash, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi va ularning yoshlar siyosatiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

O‘zbekistonda sportni rivojlantirishga qaratilgan o‘nlab dastur va qarorlar qabul qilingan. Ular orasida Prezidentimizning 2022-yil 5-yanvardagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5283-son qarori hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar yoshlar tarbiyasi, sport inshootlari qurilishi va professional sportchilarni qo‘llab-quvvatlashga kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Maktab va oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor berilmoqda. Sport va ta’lim vazirligi tomonidan o‘quvchilarning jismoniy holatini yaxshilash va sport ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy dastur va metodikalar joriy etilmoqda. Yoshlar siyosati doirasida o‘g‘il-qizlarni sportga jalb etish, chempionat va festivallar o‘tkazish uchun sharoitlar yaratilmoqda.



Usullar. Yondashuv kompleks bo'lib chiqdi. O'quv jarayonini kuzatish ishga tushdi - ba'zida stollarning joylashuvi kabi eng oddiy tafsilotlar nazariyadan ko'ra ko'proq ma'lumot beradi. Jonli baholarni eshitish uchun o'qituvchilar va talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. Adabiyotlar tahlili mavzuning ilmiy maydonda qanday rivojlanayotganini ko'rishga yordam berdi. Bundan tashqari, haqiqiy tayyorgarlik darajasini va o'zgarishlar dinamikasini baholash uchun kichik o'yin mahorati testlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy madaniyat sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar. Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini modernizatsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda.

Natijalar. Olingan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini modernizatsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ularning muhokamasi. O'zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi strategiyasi davlatning sog'lom va faol jamiyatni shakllantirishga intilishini aks ettiradi. Dasturlarni amalga oshirish jismoniy tarbiya sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash va sportchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish imkonini beradi. Ushbu chora-tadbirlar birgalikda mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashga va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, asosiy narsa infratuzilma emas, balki tizimning moslashuvchanligi bo'lib qolmoqda. Hatto joy cheklangan joylarda ham o'qitishning samarali modelini tuzish mumkin - yig'ma stollar, modulli jadval, metodikaning oddiy tuzatishlari stol tennisini umumiy o'quv ritmiga "joylashtirish" imkonini beradi. Shu bilan birga, psixologik xususiyatlarni hisobga olish muhim: talabalar erkin muhitda va o'z sur'atlarida rivojlanish imkoniyati mavjud bo'lganda ko'proq kirishadilar.

Xulosalar. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki. Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini modernizatsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda.



Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqot bir nechta asosiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlarida talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini modernizatsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-yanvardagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5283-son qarori.
3. Nishonov A.A. Talabalar jismoniy tarbiyasiga zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2021.
4. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya va sport. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024, 328 b.



FUTBOLCHILARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI VA MOTIVATSIYA OMILLARI

Ibroximov M.I.

*Toshkent davlat Transport universiteti,
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: futbol, psixologik tayyorgarlik, motivatsiya, stress, sport psixologiyasi.

Ключевые слова: футбол, психологическая подготовка, мотивация, стресс, спортивная психология.

Key words: football, psychological preparation, motivation, stress, sports psychology.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada futbolchilarning psixologik tayyorgarligi va motivatsiya omillari tahlil qilinadi. Futbolchilar faoliyatida ruhiy barqarorlik, diqqatni jamlash, o'ziga ishonch va stressni boshqarish ko'nikmalari muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda sportchining ichki va tashqi motivatsiyasi, ularning o'yin natijalariga ta'siri hamda murabbiylarning psixologik tayyorgarlikdagi roli yoritilgan. Shuningdek, futbolchilarning ruhiy holatini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются психологическая подготовка и мотивационные факторы футболистов. Отмечается, что психическая устойчивость, концентрация внимания, уверенность в себе и умение управлять стрессом играют ключевую роль в спортивной деятельности. В исследовании анализируются внутренние и внешние мотивы спортсменов, их влияние на результаты игры, а роль тренеров в формировании психологической готовности. Представлены рекомендации по укреплению психического состояния футболистов.

SUMMARY:

This article analyzes the psychological preparation and motivational factors of football players. Mental stability, concentration, self-confidence, and stress management skills play a crucial role in athletes' performance. The study explores both intrinsic and extrinsic motivation, their impact on game results, and the coach's role in developing psychological readiness. Recommendations strengthening the mental condition of football players are also provided.

Kirish. Futbol – bu faqat jismoniy kuch va texnik mahoratni emas, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladigan sport turidir. Bugungi kunda futbolchilarning o'yindagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning ruhiy holati, diqqatni jamlay bilishi, o'ziga ishonchi va motivatsiya darajasi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, yosh futbolchilar uchun psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlar jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'yin davomida stress



holatlariga bardosh berish, sovuqqonlikni saqlash va o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiya sportchining ichki turtkisi bo'lib, u maqsad sari intilish, mashg'ulotlarda qat'iyatlilik va musobaqalarda o'zini ko'rsatish istagini kuchaytiradi. Shu sababli, futbolchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish va motivatsiya omillarini o'rganish sport natijalarini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot futbolchilarning ruhiy tayyorgarligi, motivatsiya turlari hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, shuningdek, ularni rivojlantirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

Futbolchilar o'rtasida psixologik tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lmaydi. Ba'zilar raqib bosimi, tomoshabinlar oldidagi hayajon yoki jamoaviy javobgarlikni yengil qabul qilsa, boshqalar uchun bu omillar stress manbai bo'lishi mumkin. Shu sababli murabbiylar nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarlikka, balki har bir o'yinchining ruhiy holatiga ham alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Bugungi kunda sport psixologiyasi fanining rivojlanishi futbolchilar ruhiyatini o'rganish va ularni motivatsion jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Sport psixologlari, murabbiylar va tibbiy mutaxassislarning hamkorligi o'yinchilarda ruhiy barqarorlik, o'ziga ishonch va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Futbolchilarning motivatsiyasi ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki motivatsiya — bu o'yinchi o'zini rivojlantirish, yangi cho'qqilarga chiqish va muvaffaqiyatdan ruhiy qoniqish olish istagi; tashqi motivatsiya esa — sovrinlar, maqtovlar, jamoa e'tirofi yoki moddiy rag'bat shaklida namoyon bo'ladi. Har ikkisi futbolchining samarali faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Shunday ekan, futbolchilarning psixologik tayyorgarligi va motivatsion omillarini chuqur o'rganish nafaqat sport natijalarini oshirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga ham xizmat qiladi. Tadqiqot davomida futbolchilarning ruhiy holati, motivatsiya manbalari, stress holatlari va ularni yengish strategiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Tadqiqot tadqiqotning asosiy maqsadi — futbolchilarning psixologik tayyorgarligi darajasini aniqlash, ularning motivatsiya omillarini tahlil qilish hamda sportda yuqori natijalarga erishishda ruhiy tayyorgarlikning ahamiyatini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot orqali futbolchilarning ichki va tashqi motivatsiya manbalarini o'rganish, o'yin davomida stress holatlarini yengish yo'llarini aniqlash va murabbiylarning psixologik yondashuvi sportchilarning muvaffaqiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish maqsad qilingan.



Natijada, tadqiqot futbolchilarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish va ularni raqobatbardosh, ishonchli hamda motivatsiyasi yuqori sportchilar sifatida tarbiyalashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning yana bir muhim jixati — futbolchilarda ruhiy barqarorlikni shakllantirish, o'ziga ishonchni oshirish va musobaqa sharoitida to'g'ri psixologik yondashuvni rivojlantirishdir. Futbolchilar ko'pincha musobaqa oldidan yoki o'yin davomida kuchli hayajon, qo'rquv, ishonchsizlik kabi hissiy holatlarga duch keladilar. Shu bois ularning hissiy holatini boshqarish, motivatsiyani barqaror ushlab turish va jamoaviy ruhni saqlash ilmiy jihatdan asoslangan mashg'ulotlar orqali yo'lga qo'yilishi lozim.

Bundan tashqari, tadqiqot futbolchilarning yosh toifasi, tajriba darajasi va o'yin pozitsiyasiga qarab psixologik tayyorgarlikdagi farqlarni aniqlashni ham maqsad qiladi. Har bir futbolchining individual psixologik xususiyatlarini o'rganish orqali murabbiylar uchun samarali yondashuvlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot yakunida futbolchilarning psixologik tayyorgarligini baholash mezonlari, motivatsiya darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar hamda ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Futbolchilarda ruhiy barqarorlikni shakllantirish, o'ziga ishonchni oshirish va musobaqa sharoitida to'g'ri psixologik yondashuvni rivojlantirishdir. Futbolchilar ko'pincha musobaqa oldidan yoki o'yin davomida kuchli hayajon, qo'rquv, ishonchsizlik kabi hissiy holatlarga duch keladilar. Shu bois ularning hissiy holatini boshqarish, motivatsiyani barqaror ushlab turish va jamoaviy ruhni saqlash ilmiy jihatdan asoslangan mashg'ulotlar orqali yo'lga qo'yilishi lozim.

Bundan tashqari, tadqiqot futbolchilarning yosh toifasi, tajriba darajasi va o'yin pozitsiyasiga qarab psixologik tayyorgarlikdagi farqlarni aniqlashni ham maqsad qiladi. Har bir futbolchining individual psixologik xususiyatlarini o'rganish orqali murabbiylar uchun samarali yondashuvlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot yakunida futbolchilarning psixologik tayyorgarligini baholash mezonlari, motivatsiya darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar hamda ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot usullari Tadqiqot jarayonida futbolchilarning psixologik tayyorgarligi va motivatsiya omillarini o'rganish uchun quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil usuli – sport psixologiyasi, motivatsiya nazariyalari, shuningdek, futbolchilarning ruhiy tayyorgarligi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlar o'rganildi.

2. So'rovnoma (anketali) usul – futbolchilar va murabbiylar o'rtasida psixologik tayyorgarlik darajasi, motivatsiya manbalari, stress holatlariga munosabatni aniqlash maqsadida maxsus so'rovnoma o'tkazildi.



3. Kuzatish usuli – mashg‘ulotlar va musobaqalar jarayonida futbolchilarning hissiy holati, o‘zini tutish, jamoaviy muloqot va raqobatbardoshlik darajasi kuzatildi.

4. Psixodiagnostik testlar – futbolchilarning ruhiy barqarorligi, o‘ziga ishonchi va motivatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun psixologik testlardan foydalanildi.

5. Tahlil va taqqoslash usuli – olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, futbolchilarning psixologik tayyorgarlik darajasi yosh, tajriba va pozitsiya bo‘yicha taqqoslab o‘rganildi.

Ushbu usullar yordamida futbolchilarning ruhiy holati, motivatsiya omillari hamda psixologik tayyorgarlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Motivatsiya omillari.

Ichki motivatsiya (ichki omil).

Bu futbolchining o‘z shaxsiy istagi, o‘yinga bo‘lgan muhabbati, o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan bog‘liq.

Masalan: Futbolchi mashg‘ulotlarda o‘z natijasini yaxshilash, texnikasini mukammallashtirish va jamoaga foyda keltirish istagi bilan harakat qiladi.

Tashqi motivatsiya (tashqi omil).

Bu tashqi rag‘batlar - murabbiyning maqtovi, jamoaning e’tibori, g‘alaba uchun mukofot yoki professional darajaga chiqish imkoniyati bilan bog‘liq.

Masalan: Musobaqalarda g‘alaba qozonish, professional klublar e’tiborini qozonish yoki jamoadoshlardan e’tirof olish futbolchining tashqi motivatsiyasini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, kuzatuvlar va psixologik testlar natijalariga ko‘ra, futbolchilarning psixologik tayyorgarligi darajasi ularning yoshi, tajribasi va o‘yin pozitsiyasiga bevosita bog‘liq ekani aniqlandi.

O‘rganilgan ma’lumotlarga ko‘ra:

Tajribali futbolchilar o‘yin davomida stressni yengish, diqqatni jamlash va sovuqqonlikni saqlashda yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Yosh futbolchilarda esa, ayniqsa musobaqa oldidan, hayajon, ishonchsizlik va asabiylik darajasi nisbatan yuqori bo‘ladi.

Ichki motivatsiya (shaxsiy rivojlanish, o‘zini ko‘rsatish, jamoaga foyda keltirish istagi) natijadorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, tashqi motivatsiya (mukofot, e’tirof, moddiy rag‘bat) esa qisqa muddatli samaraga ega.

Shuningdek, murabbiylarning psixologik yondashuvi futbolchilarning ruhiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. O‘z futbolchilariga ishonch



bildirgan, ularni ragʻbatlantirgan va xatolardan toʻgʻri saboq chiqarishga oʻrgatgan murabbiylar jamoasida oʻyin natijalari barqaror boʻlishi kuzatilgan.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, psixologik tayyorgarlikni mashgʻulot jarayoniga muntazam ravishda kiritish, oʻyinчилarning diqqatni jamlash, stressni boshqarish va oʻzini motivatsiya qilish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Natijada futbolchilarning jamoaviy uygʻunligi, oʻziga ishonchi va oʻyin samaradorligi ortadi. Bu esa sportda yuqori natijalarga erishish uchun muhim psixologik omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, futbolchilar uchun psixologik tayyorgarlik jismoniy va texnik mashgʻulotlar qadar muhim ahamiyatga ega. Ruhiy barqarorlik, oʻziga ishonch, diqqatni jamlash va stressni boshqarish koʻnikmalari futbolchining oʻyindagi muvaffaqiyatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Ichki motivatsiya futbolchining oʻz ustida ishlashga, doimiy oʻsishga va natijalarga erishishga turtki beradi. Tashqi motivatsiya esa qisqa muddatli boʻlib, asosan moddiy yoki ijtimoiy ragʻbatlar bilan bogʻliq. Shuning uchun futbolchilarni tarbiyalashda ichki motivatsiyani rivojlantirish, ularni maqsad sari ruhlantirish muhimdir.

Murabbiylarning psixologik yondashuvi ham futbolchilarning ruhiy holatini belgilovchi muhim omil boʻlib, ijobiy muloqot, ishonch va ragʻbatlantirish orqali futbolchilarda irodaviy sifatlar va jamoaviy uygʻunlikni shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, futbolchilarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, motivatsion omillarni chuqur oʻrganish va ularni mashgʻulot tizimiga joriy etish sport natijalarini yaxshilashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Astanov A. (2021). Sport psixologiyasi asoslari. Toshkent: Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti nashriyoti.
2. Rahimov B. (2020). Futbolchilarda psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish omillari. "Sport va ilm" jurnali, №3, 45-49-betlar.
3. Weinberg R.S. & Gould D. (2019). Foundations of Sport and Exercise Psychology. Human Kinetics, 8th edition.
4. Cox R.H. (2016). Sport Psychology: Concepts and Applications. McGraw-Hill Education.
5. Uzbekov, A. (2018). Motivatsiya va sport faoliyatidagi psixologik jarayonlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Deci E.L. & Ryan R.M. (2000). Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions. Contemporary Educational Psychology, 25(1), 54-67.
7. Williams J.M. (Ed.). (2017). Applied Sport Psychology: Personal Growth to Peak Performance. McGraw-Hill Education.
8. Gʻafurov N. (2022). Yosh sportchilarda ruhiy tayyorgarlikni shakllantirish metodikasi. "Jismoniy tarbiya va sport" ilmiy jurnali, №2, 33-37-betlar.



PROFESSIONAL KARATE SPORTIDA INNOVATSION MENEJMENT TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Ayapova N.K.

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport
universiteti*

Tayanch so'zlar: innovatsion menejment, professional karate, sport menejmenti, zamonaviy sport texnologiyalari

Ключевые слова: инновационный менеджмент, профессиональное карате, спортивный менеджмент, современные спортивные технологии

Key words: innovative management, professional karate, sports management, modern sports technologies

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada professional karate sportida innovatsion menejment tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda sport tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari hamda marketing innovatsiyalarining professional karate sportidagi o'rni ochib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется концепция инновационного управления в профессиональном каратэ, её сущность и значение в развитии спортивной системы. Также раскрывается роль современных технологий, цифровых систем управления и маркетинговых инноваций в профессиональном каратэ.

SUMMARY:

This article analyzes the concept of innovative management in professional karate, its essence and significance in the development of the sports system. It also reveals the role of modern technologies, digital management systems and marketing innovations in professional karate.

Tadqiqot dolzarbligi: Mustaqillikka erishilgandan buyon jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida qabul qilingan Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari davlat tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berilayotganini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 3-noyabrda PQ-356-sonli "Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni yurtimizda jismoniy tarbiya va karate sportining taraqqiyotini jadallashtirish, uning nufuzini oshirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.



1970-yillarning boshida Sovet Ittifoqi karateni juda faol rivojlantira boshladi. 1970-yillarning oxiriga kelib karate haqiqiy umumxalq sport turiga aylangan edi. Uning amallarini ijodiy va ilmiy ziyolilar vakillari bilan bir vaqtning o'zida jinoiy unsurlar, yuqori amaldorlarning bolalari bilan birga noxush oilalardan bo'lgan bezori o'smirlar, erkaklar bilan bir vaqtning o'zida ayollar ham o'zlashtirish istagida bo'lgan.

Zamonaviy sport sohasining jadal rivojlanishi, ayniqsa professional karate sportining global miqyosda ommalashuvi sport faoliyatiga bo'lgan talab va yondashuvlarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda yuqori sport natijalariga erishish faqat sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik mahorati va psixologik barqarorligi bilan cheklanib qolmay, balki sport tashkilotlari, klublar hamda federatsiyalardagi boshqaruv jarayonlarining ilmiy asosda va samarali tashkil etilishiga ham bevosita bog'liqdir. Aynan boshqaruv tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishi sportchilarning salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi.

Global sport industriyasining kengayishi, professional sport turlarida raqobatning keskinlashuvi hamda raqamli va innovatsion texnologiyalarning sport amaliyotiga faol joriy etilishi sport menejmenti oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, trening jarayonlarini optimallashtirish, sportchilar faoliyatini monitoring qilish, musobaqalarni zamonaviy talablarga mos holda tashkil etish, marketing va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar an'anaviy boshqaruv yondashuvlari bilan emas, balki innovatsion menejment tamoyillari asosida hal etilishini taqozo etadi.

Professional karate sportida innovatsion menejment tushunchasi sport tizimini strategik rejalashtirish, ilg'or ilmiy-uslubiy yondashuvlarni joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda inson resurslarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv sport natijalarining barqaror o'sishini ta'minlash, milliy va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirish hamda professional karate sportining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, professional karate sportida innovatsion menejmentning mazmuni, uning asosiy yo'nalishlari va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy sport menejmenti fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion menejment - bu tashkilot yoki soha (shu jumladan professional sport) faoliyatida yangi g'oyalar, texnologiyalar, jarayonlar va boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, ularni samarali boshqarish va ulardan iqtisodiy, sportiy va ijtimoiy foyda olish tizimi. Professional karate sportida bu tushuncha an'anaviy trening usullarini zamonaviy yondashuvlar bilan birlashtirishni bildiradi, Yani, an'anaviy karate tamoyillari bilan zamonaviy texnologiya, marketing, moliyalashtirish va fan yutuqlarini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Bu nafaqat sportchilarning natijalarini yaxshilaydi, balki tashkilotni raqobatbardosh qiladi.



Tadqiqotning maqsadi: Professional karate sporti sohasida innovatsion menejment tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uni sport tashkilotlari va musobaqalarni boshqarish jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda innovatsion yondashuvlarning sportchilarning natijalari, murabbiylik faoliyati va sport infratuzilmasi rivojiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tatqiqotning vazifalari: Sport menejmentning asosiy rollari va vazifalari:

1. Tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi rol:

Menejment karate federatsiyasining butun tizimini birlashtiradi: milliy terma jamoalarni shakllantirish, yoshlar va kattalar o'rtasidagi musobaqalarni tashkil etish, hududiy bo'linmalarni (viloyatlar bo'yicha) boshqarish. Masalan, 2023 yildan boshlab federatsiya O'zbekiston karate (WKF) assotsiatsiyasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bu orqali joylarda karate rivojlantirish, monitoring va uslubiy qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

2. Ta'lim va kadrlar tayyorlash roli

Menejment O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida karate bo'yicha bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini rivojlantirishga yordam beradi (2024/2025 o'quv yilidan qabul parametrlari 2 baravar oshirilgan). Shuningdek, O'zbekiston karateni rivojlantirish markazi tashkil etilgan bo'lib, u milliy terma jamoalarni tayyorlashning asosiy bazasi hisoblanadi.

3. Innovatsiya va rivojlanish roli

Professional karate tizimida menejment yangi texnologiyalarni (trening dasturlari, video tahlil, jarohatlarni oldini olish) joriy etish, parakarate (nogironlar uchun karate) ni rivojlantirish va musobaqalarni (O'zbekiston chempionati, Kubogi, "O'zbekiston Open" xalqaro turniri) tashkil etish orqali sportning sifatini oshiradi.

Professional karate sportida innovatsion menejment muhim, chunki u sportchilarning jarohatlarini kamaytirish, trening samaradorligini oshirish va global raqobatni saqlashga yordam beradi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar (VR orqali virtual janglar) sportchilarni xavfsizroq tayyorlaydi, maktablar esa yangi marketing strategiyalari orqali ko'proq talaba jalb qiladi. Natijada, sportning tijoriy va professional darajasi oshadi, masalan, risk tahlili asosida trening dasturlari jarohatlarni 20-30% ga kamaytirishi mumkin.

Professional karate sportida innovatsion menejmentning asosiy yo'nalishlari:

a. Texnologik innovatsiyalar va ma'lumotlar tahlili.

Professional karate sportida texnologik innovatsiyalar va ma'lumotlar tahlili yo'nalishi bugungi kunda juda tez rivojlanmoqda. Bu sohada asosiy o'zgarishlar AI (sun'iy intellekt), kompyuter ko'rish, biomekanika tahlili, VR/AR texnologiyalari va real vaqtda ma'lumotlar tahliliga asoslangan. Kata va kumite harakatlarini avtomatik baholash tizimlari ishlab chiqilmoqda. Masalan, 2025-yilda chop etilgan tadqiqotda maxsus AI tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u karate kata harakatlarini texnik jihatdan tahlil qilib, baholaydi. Tizim harakatning aniqligi, kuchliligi, muvozanati va tezligini avtomatik aniqlaydi. Bu murabbiylarga va hakamlarga



qo'shimcha obyektiv baho berish imkonini beradi. Bu an'anaviy hakamlar bahosini qo'llab-quvvatlaydi va murabbiylarga aniq kamchiliklarni ko'rsatadi.

b. VR/AR (Virtual va Augmented Reality) treninglar.

VR orqali virtual raqib bilan sparring: Karatechi VR ko'zoynak taqib, virtual muhitda kumite mashq qiladi. Bu reaksiya vaqti, strategiya va xavfsiz mashq imkonini beradi. 2025-yil tadqiqotlarida VR + AI kombinatsiyasi karate mahoratini oshirishda samarali ekanligi isbotlangan.

HITAI platformasi - bu combat sports (jang sportlari, shu jumladan karate) uchun birinchi sensorlarsiz AI analitikasi. Faqat video orqali real vaqtda zarba soni, kuchliligi, harakat traektoriyasi va samaradorlikni tahlil qiladi. Karate Combat yoki WKF musobaqalarida video yuklab, murabbiylar va sportchilar uchun statistika chiqariladi. 2025–2026 yillarda platforma Android ilovasi orqali kengaytirilgan.

“11 Innovations in Karate” kitobdagi 11 ta innovatsiyani tavsiflaydi, jumladan, sport mashg'ulotlari jarayoni usullarida o'rganish va tajribaviy yondashuvlar. Professional karate kontekstida bu innovatsiyalar sportchilarning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilash uchun ishlatiladi, masalan, yangi mashqlar orqali tezlik va konsentratsiyani oshirish. Sugiyama o'zining umrbod tajribasiga asoslanib, karate maktablarida innovatsion tajribalarni joriy etishni ta'kidlaydi, bu esa professional turnirlarda raqobatni oshiradi.

Tadqiqot natijalari va unung muhokamasi: Innovatsion menejment professional karate sportida an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy talablarni muvozanatlashning muhim vositasidir. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi, innovatsiyalar nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki sportning uzoq muddatli rivojlanishiga, sportchilarning texnik-taktik mahoratini yuksaltirishga va global miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlashga yordam beradi.

Texnologik innovatsiyalar (VR/AR, AI tahlili, raqamli boshqaruv platformalari) karate sportini samarali va xavfsiz qiladi. VR orqali virtual raqib bilan mashq qilish real musobaqa sharoitlarini taqlid etib, jarohat xavfini kamaytiradi va javob tezligini oshiradi. AI kata harakatlarini obyektiv baholashda insoniy xatolarni bartaraf etib, murabbiylarga batafsil fikr-mulohaza beradi. Karate WKFning ScorePlay bilan hamkorligi raqamli kontentni markazlashtirib, federatsiyalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va Olimpiya o'yinlariga qaytish uchun muhim qadam bo'ladi.

Xulosa. O'zbekistonda professional karate tizimida menejment — bu nafaqat sport natijalarini ta'minlash, balki butun bir bog'lashning va rivojlantirishning asosiy mexanizmi. Yaxshi menejment bo'lmasa, karate faqat havaskorlik darajasida qoladi, professional darajada esa global raqobatda muvaffaqiyat qozonolmaydi. Innovatsion menejment professional karateni global sport industriyasiga integratsiya qilishning asosiy omili bo'lib, uning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolgan holda texnik, taktik va tashkiliy rivojlanishni ta'minlaydi.

Karate mazmunida sport menejmenti ko'p qirrali va doimiy rivojlanib borayotgan intizom bo'lib, u nafaqat an'anaviy boshqaruv usullariga, balki innovatsion



menejment yondashuvlariga ham tayanadi. Innovatsion menejment karate sportini samarali nazorat qilish, rivojlantirish va global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv biznes tamoyillari, zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va strategik rejalashtirishni karate sportiga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Karatening mashhurligi dunyo bo'ylab oshib borar ekan, innovatsion sport menejmenti sportni barqaror rivojlantirish, ommalashtirish va professional darajada tashkil etish imkonini yaratadi. Masalan, musobaqalarni tashkil etishda raqamli platformalardan foydalanish, sportchilar faoliyatini tahlil qilish uchun analitik vositalarni joriy etish, marketing va brend orqali karate imijini mustahkamlash innovatsion menejmentning muhim jihatlaridir. Shu bilan birga, karate sportining madaniy va an'anaviy qadriyatlarini saqlab qolish innovatsion yondashuv bilan uyg'unlashtiriladi.

Karatedagi murabbiy va trenerlar innovatsion menejment tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ular sportchilarni yutuqlarga tayyorlashda zamonaviy tayyorgarlik metodlari, texnologik vositalar va ilmiy asoslangan mashg'ulot dasturlaridan foydalanadilar. Dastlabki malakalarni shakllantirish, texnik va taktik tayyorgarlikni oshirish, jarohatlarning oldini olish va sportchilar faoliyatini doimiy monitoring qilish innovatsion boshqaruvning amaliy ko'rinishidir. Bundan tashqari, murabbiylar sportchilar o'rtasida samarali kommunikatsiya, jamoaviy muhit va ishbilarmonlik munosabatlarini rivojlantirish orqali sport tashkilotining umumiy samaradorligini oshiradilar.

Strategik va innovatsion menejmentga asoslangan yondashuv karate sportining sifat jihatidan rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv sportchilar, tashkilotchilar va ishqibozlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, sportning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Oxir-oqibat, karateda innovatsion sport menejmenti sportning kelajagini shakllantirish, zamonaviy yutuqlarni joriy etish va shu bilan birga uning tarixiy an'analari va falsafasini asrab-avaylashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 3-noyabrda PQ-356-sonli "Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
2. Arzibayev Q.O. Karate-kata salomatlik garovi. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolari (Oliy ta'lim professor-o'qituvchilari ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami) 2009.
3. Баранов М.В. Характеристика эффективности индивидуализированной технико-тактической подготовки спортсменов карате-до с учетом стилей ведения поединков // Слобожанский научно-спортивный вестник, 2011.
4. Т., Акбаров Ф.С. Основы менеджмента и его особенности в условиях формирования рынка в Узбекистане. Т., ТГАИ, 2006.
5. <https://www.hitai.pro/>
6. <https://karatekos.ru/>



HARBIY TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIGA AXLOQIY-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Murotaliyev J.R.

IIV Akademiyasi

*Harbiy tayyorgarlik kafedrası
o'qituvchisi, katta leytenant*

Tayanch so'zlar: harbiy tayyorgarlik, axloqiy yondashuv, psixologik yondashuv, ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik, mashg'ulotlar samaradorligi, stressga bardoshlilik, jamoaviy ruhiyat.

Ключевые слова: военная подготовка, моральный подход, психологический подход, духовно-психологическая подготовка, эффективность занятий, стрессоустойчивость, командный дух.

Key words: military training, moral approach, psychological approach, spiritual and psychological training, training effectiveness, stress resilience, team spirit.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida axloqiy va psixologik yondashuvlarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi, ularni axloqiy-psixologik jihatdan shakllantirish usullari va mashg'ulotlarni samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada axloqiy-psixologik yondashuvlar yordamida harbiy jamoada intizomni mustahkamlash, jamoaviy ruhiyatni oshirish va harbiy xizmatchilarning stressga bardoshini kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari harbiy tayyorgarlik jarayonini yanada samarali va ma'naviy jihatdan boyitishga yordam.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья посвящена изучению значения морально-психологических подходов в военно-учебных занятиях. В статье анализируются духовно-психологическая подготовка военнослужащих, методы их формирования с морально-психологической точки зрения, а также основные принципы эффективной организации занятий. Кроме того, статья содержит практические рекомендации по укреплению дисциплины в военном коллективе, повышению командного духа и повышению стрессоустойчивости военнослужащих с помощью морально-психологических подходов. Результаты исследования способствуют более эффективно-му и духовно насыщенному проведению военно-учебного процесса.

SUMMARY:

This article is dedicated to studying the significance of moral and psychological approaches in military training exercises. The article analyzes the spiritual and psychological preparation of servicemen, methods for shaping them from a moral and psychological perspective, and the main principles of effectively organizing training sessions. In addition, the article provides practical recommendations for strengthening discipline in the military team, enhancing team spirit, and



improving servicemen's stress resilience through moral and psychological approaches. The research findings contribute to making the military training process more effective and spiritually enriching.

Kirish. Harbiy tayyorgarlik – bu nafaqat texnik va jismoniy tayyorgarlik, balki harbiy xizmatchilarning axloqiy va psixologik tayyorgarligini shakllantirish jarayonidir. Zamonaviy harbiy xizmat sharoitida muvaffaqiyatga erishish uchun xizmatchilar nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lishlari, balki ma'naviy-ruhiy mustahkamlik va psixologik barqarorlikni rivojlantirgan bo'lishi zarur. Axloqiy-psixologik tayyorgarlik xizmatchilarning qiyinchiliklar va stressli vaziyatlarga bardoshlilikini oshirish, jamoa ichida hamkorlik va ishonchni mustahkamlash hamda shaxsiy va guruh intizomini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Harbiy mashg'ulotlarda axloqiy va psixologik yondashuvlarni qo'llash orqali xizmatchilarning jamoaviy ruhiyati, motivatsiyasi va harbiy tayyorgarlik sifati sezilarli darajada oshadi. Bu yondashuvlar mashg'ulotlarni nafaqat texnik jihatdan, balki ma'naviy-ruhiy nuqtai nazardan ham samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, axloqiy-psixologik yondashuvlar harbiy xizmatchilarda rahbarlik va mas'uliyat hissini rivojlantirish, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish kabi muhim jihatlarni ham shakllantiradi.

Xizmatchilarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish – halollik, fidoyilik, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi prinsiplarni mustahkamlash;

Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni rivojlantirish – jamoaviy ruhiyat va birlikni oshirish;

Stress va qiyinchiliklarga bardoshlilikni oshirish – harbiy xizmatning murakkab sharoitlariga tayyorlash;

Rahbarlik va mas'uliyat hissini kuchaytirish – harbiy xizmatchilarda yetakchilik va mas'uliyatni rivojlantirish;

Mashg'ulotlarni ma'naviy-ruhiy jihatdan samarali tashkil etish – mashg'ulotlarni faqat texnik jihatdan emas, balki ruhiy va ma'naviy jihatdan ham boyitish. Shu yo'l bilan harbiy tayyorgarlik jarayoni nafaqat fiziki va texnik tayyorgarlikni, balki xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, axloqiy qadriyatlari va jamoaviy hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy harbiy xizmat sharoitida samarali va barkamol xizmatchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari nafaqat jismoniy kuch, harbiy texnikaga egalik va taktik ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy va psixologik tayyorgarligini ta'minlashga ham qaratilgan bo'lishi zarur. Chunki harbiy xizmat — bu og'ir sharoitlarda



qat'iyat, fidoyilik, jamoada ishlash, buyruqqa bo'ysunish va o'z burchini teran anglashni talab qiladigan murakkab ijtimoiy faoliyat shaklidir. Aynan shu sababli, harbiy tayyorgarlik jarayoniga axloqiy-psixologik yondashuv pedagogik muammolardan biri sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Axloqiy-psixologik yondashuv shundan iboratki, u o'quvchi-yoshlarning ichki dunyosiga, hissiy holatiga, qaror qabul qilishdagi shaxsiy mas'uliyat tuyg'usiga ta'sir etadi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari nafaqat jismoniy kuch, harbiy texnikaga egalik va taktik ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy va psixologik tayyorgarligini ta'minlashga ham qaratilgan bo'lishi zarur. Chunki harbiy xizmat - bu og'ir sharoitlarda qat'iyat, fidoyilik, jamoada ishlash, buyruqqa bo'ysunish va o'z burchini teran anglashni talab qiladigan murakkab ijtimoiy faoliyat shaklidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shunday ruhda kamol toptirishimiz zarur. Zero, milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik va jamiyat barqarorligini ta'minlashda faqat texnik bilim emas, balki ichki irodaviy va axloqiy bardoshlilik ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.


Axloqiy-psixologik yondashuv shundan iboratki, u o'quvchi-yoshlarning ichki dunyosiga, hissiy holatiga, qaror qabul qilishdagi shaxsiy mas'uliyat tuyg'usiga ta'sir etadi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida axloqiy motivatsiyani kuchaytirish, milliy g'urur, Vatanga muhabbat, sadoqat, sabr-toqat va zo'ravonlikka qarshi immunitet kabi sifatlarni shakllantirish orqali yoshlarning ruhiy-psixologik tayyorgarlik darajasi oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu bobda harbiy ta'limga axloqiy-psixologik yondashuvning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda ta'sirchanlik omillari ilmiy tahlil qilinadi.

Ayniqsa, o'smirlik va o'spirinlik davri yoshlarda hayotga, jamiyatga va o'z "men"iga bo'lgan munosabat shakllanadigan bosqich bo'lganligi sababli, bu jarayonda harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari shunchaki jismoniy chiniqtirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki insonning ichki dunyosini shakllantiruvchi tarbiyaviy maydon sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy-psixologik yondashuv ana shu tarbiyaviy maydonni maqsadli boshqarishga xizmat qiladi.

Bu yondashuv orqali bir qancha pedagogik vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi va uni quyidagicha punktlar orqali ko'rishimiz mumkin:

Shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish: Vatanga sadoqat, halollik, burchni chuqur his qilish, fidoyilik kabi ichki axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda singdirish;

Emotsional barqarorlikni mustahkamlash: stress, qo'rquv va bosim holatlarida o'zini boshqara bilish, qaror qabul qilishda izchillikni saqlash;



Guruhii birdamlikni rivojlantirish: harbiy jamoa ichida o‘zaro hurmat, ishonch, mas’uliyat va sheriklik hissini tarbiyalash;

Shaxsiy mas’uliyat va liderlik ko‘nikmalarini kuchaytirish: yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish va o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his etish darajasini oshirish.

Shu bilan birga, axloqiy-psixologik yondashuv psixodiagnostika va psixokorreksion usullar, psixologik treninglar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatli mashg‘ulotlar orqali harbiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilinadi. Bunda o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari inobatga olinadi, ularning motivatsion ehtiyojlari va shaxsiy orientatsiyasi bilan uzviy bog‘liq pedagogik ishlar olib boriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, axloqiy-psixologik yondashuv nafaqat harbiy ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki yoshlarda kuchli ichki irodani, barqaror ma’naviy immunitetni va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning muhim omilidir. Shu sababli, bunday yondashuv ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik tizim sifatida chuqur o‘rganilishi va ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, axloqiy-psixologik yondashuv nafaqat harbiy ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki yoshlarda kuchli ichki irodani, barqaror ma’naviy immunitetni va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning muhim omilidir. Shu sababli, bunday yondashuv ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik tizim sifatida chuqur o‘rganilishi va ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etilishi lozim.

N.N. Azizxo‘jayevaning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, har bir shaxsning rivojlanishida uning individualligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jihat shaxsning barcha psixik va ijtimoiy xatti-harakatlarida aks etadi. U o‘z tadqiqotlarida A.V. Petrovskiyning fikrlariga tayangan holda, shaxs tuzilmasini quyidagicha tavsiflaydi: shaxsga xos bo‘lgan xarakter, temperament, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari, faoliyatda namoyon bo‘ladigan kuchli hissiyotlar va motivlar, shuningdek, shakllangan qobiliyatlar, bilim va ko‘nikmalar



majmuasi — bularning barchasi shaxsning individualligini belgilovchi betakror uyg'unlikni tashkil etadi.

Azizxo'jayevaning yondashuvida bu jihatlar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida individual yondashuvni asoslashda muhim ilmiy mezon sifatida qaraladi. Shuningdek, tadqiqotlar inson individ sifatida jismoniy va psixik mazmunga ega ekanligini, uning psixikasi esa emotsiya va ong kabi asosiy tarkibiy qismlarga ajralishini ko'rsatadi. Bu esa axloqiy-psixologik yondashuvni harbiy ta'limda nafaqat hissiy barqarorlikni, balki ongli ravishda mas'uliyatni anglashga yo'naltirilgan kompleks pedagogik vosita sifatida ko'rishga zamin yaratadi.

N.N. Azizxo'jayevaning fikricha, o'smirlik yoshidagi psixik rivojlanishning asosiy xususiyatlaridan biri — bu dunyoqarashning shakllanishidir. Aynan shu bosqichda insonda hayotiy tamoyillar, ijtimoiy qarashlar va qadriyatlar asos topa boshlaydi. Bundan tashqari, o'smirlar turli bilim sohalari va faoliyat turlariga qiziqish bildiradilar, ularning ijodiy fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi.

Mazkur fikrlar harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga axloqiy-psixologik yondashuvni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish lozimligini anglatadi. Harbiy mashg'ulotlar faqat jismoniy yuklama emas, balki shaxsning ma'naviy qiyofasini, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini tarbiyalovchi omil sifatida qaralishi zarur. Aynan o'smirlik davridagi bu psixik va ijtimoiy o'zgarishlar pedagogik jarayonning mazmunini chuqurlashtirishga, harbiy-patriotik tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda "harbiy-patriotik" atamasiga ta'rif berib o'tsak, harbiy-vatanparvarlik (patriotik) tarbiyasi — bu o'quvchi-yoshlarda Vatanga muhabbat, sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, harbiy xizmatga ijobiy munosabat va fuqarolik burchini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli pedagogik jarayondir. Bu jarayon yoshlarning harbiy-patriotik ruhda kamol topishini, ularning ijtimoiy faolligini oshirishni, Vatan himoyasiga tayyor turishini ta'minlashga xizmat qiladi. Harbiy-patriotik tarbiya orqali nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalar egallanadi, balki irodaviy-psixologik barqarorlik, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissi, tarixiy xotira va milliy g'urur singari ma'naviy-axloqiy sifatlar ham rivojlanadi. Bu tarbiya umumta'lim maktablarida "Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik" fani, tarixiy shaxslar merosiga tayangan darslar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va sport-tarbiya mashg'ulotlari orqali tizimli amalga oshiriladi.

Mazkur yondashuvni chuqurroq anglashda R. Mavlonova va N.X. Vohidovanning "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida keltirilgan quyidagi ta'rif alohida e'tiborga loyiq: "Tarbiyaviy faoliyat ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlari



yig'indisi bo'lib xizmat qiladi". Ushbu ta'rif harbiy-patriotik tarbiyani faqat didaktik yoki tarbiyaviy vosita sifatida emas, balki jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimi sifatida talqin etishga imkon beradi. Bunday yondashuv harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarining faqatgina jismoniy yoki amaliy jihatlarigagina emas, balki axloqiy, psixologik, ma'naviy va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishdagi o'rnini ham ochib beradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, harbiy tayyorgarlik jarayonlari orqali nafaqat harbiy ko'nikmalar, balki shaxsiy dunyoqarash, ijtimoiy javobgarlik hissi, vatanparvarlik ruhi va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarni ichki ruhiy barqarorlik va tashqi ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik qobiliyatiga ega yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga axloqiy-psixologik yondashuvni tatbiq etish — bu shunchaki harbiy bilimlar va jismoniy tayyorgarlikni berishdan iborat emas, balki o'quvchilarning ichki dunyosini, emotsional holatini, qaror qabul qilish qobiliyatini va ijtimoiy ongini chuqur tahlil qilish orqali ularni mustahkam ma'naviy pozitsiyaga ega shaxs sifatida shakllantirishdir. Ushbu yondashuvda shaxsning hissiy tajribalari, motivatsion holati, stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvchanligi kabi psixologik mezonlar bilan bir qatorda, axloqiy ideallar — mas'uliyat, burch, sadoqat, adolat kabi qadriyatlar yetakchi o'rinni egallaydi.

Yangi davr harbiy-patriotik tarbiyasida yangicha yondashuv sifatida shaxsga yo'naltirilgan, reflektiv (o'zini anglashga asoslangan) va psixologik yordamga tayangan mashg'ulotlar modeli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'quvchini harbiy harakatlarda yoki og'ir ijtimoiy sharoitlarda ruhiy tayanchga ega bo'lgan, o'z qarorlariga mas'uliyat bilan yondashuvchi, tashqi bosimlarga bardoshli shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi. Shu sababli, harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida nafaqat jismoniy va nazariy tayyorgarlik, balki emotsional-axloqiy rag'batlantirish usullari — suhbat, simulyatsiya, rolli o'yin, konfliktli vaziyatlar orqali tanqidiy tahlil, psixologik treninglar keng qo'llanilishi kerak.

Mazkur yondashuvning dolzarbligi shundaki, u harbiy-vatanparvarlik tarbiyani ijtimoiy-psixologik transformatsiyalarga moslashtiradi va o'quvchilarning nafaqat bilim, balki psixologik barqarorlik va axloqiy qat'iyatlik jihatidan ham rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu metodik yondashuvlar orqali yoshlarning Vatanga sadoqat, ijtimoiy adolatparvarlik, do'stlik va birdamlik tamoyillariga sodiqlik kabi sifatlari ongli ravishda mustahkamlanadi.

Mazkur yondashuvning nazariy asoslarini amaliyot bilan uyg'unlashtirgan metodik tadqiqotlar orasida V.I. Bacheskiyning "O'rta yoshdagi maktab o'quvchilarini harbiy xizmatga tayyorlashning pedagogik asoslari" nomli



nomzodlik dissertatsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif harbiy-patriotik tarbiyani shaxsga yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich metodik yondashuv asosida tashkil qilish zarurligini asoslab beradi. Xususan, u harbiy tayyorgarlikni uch bosqichli integrallashgan modul sifatida taklif etadi:

Birinchi bosqich — sinfxona moduli bo'lib, bunda o'quvchilarning ichki dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va o'zini anglash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan suhbatlar, axloqiy-motivatsion topshiriqlar, autorefleksiya usullari qo'llaniladi.

Ikkinchi bosqich - situatsion-trening moduli bo'lib, harbiy xizmat sharoitiga yaqin bo'lgan muammoli vaziyatlar asosida rolli o'yinlar, jamoaviy qaror qabul qilish mashqlari orqali shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi rivojlantiriladi.

Uchinchi bosqich - daladagi yakuniy yig'in moduli bo'lib, bunda o'quvchilar stressli sharoitlarda o'zini tutish, irodaviy barqarorlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini sinovdan o'tkazuvchi psixologik treninglar, poligon mashg'ulotlari bilan shug'ullantiriladi.

Bacheskiy ushbu model orqali harbiy tayyorgarlik jarayonining nafaqat jismoniy va nazariy, balki axloqiy-psixologik jihatdan ham puxta yo'lga qo'yilishini ta'minlash mumkinligini isbotlab beradi. Unga ko'ra, shaxsning ekstremal sharoitlarda ijtimoiy mas'uliyatli qaror qabul qila olish qobiliyati — bu harbiy-patriotik tarbiyaning markaziy natijasidir. Bu yondashuv esa o'quvchi-yoshlarni ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega, vatanparvar, ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol toptirish imkonini beradi.

Bacheskiy tomonidan taklif etilgan uch bosqichli axloqiy-psixologik tayyorgarlik modeli harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga mos tarzda tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, bu yondashuvning har bir bosqichi - sinfxona, situatsion va dalaviy bosqichlar - o'quvchilarda o'z fikrini anglash, emotsional bardoshlilik, jamoaviy muloqot va tezkor qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur modelni O'zbekiston umumta'lim maktablaridagi "Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik" mashg'ulotlariga integratsiyalash orqali harbiy-patriotik tarbiyaning samaradorligini oshirish mumkin. Bunda ayniqsa, milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ijtimoiy ong bilan boyitilgan axloqiy-ma'naviy komponentlar asosida sinfxona bosqichida shaxsiy refleksiya va motivatsiyani rivojlantirish; situatsion-trening bosqichida esa xalqona odob, vatanparvarlik an'analari va zimmadagi burch tushunchalarini muammoli vaziyatlar orqali chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, dalaviy yig'in bosqichida o'quvchilarni real ijtimoiy-psixologik muhitda sinovdan o'tkazish orqali ularning nafaqat jismoniy, balki axloqiy-



irodaviy tayyorgarligi ham tekshiriladi. Bu jarayonlarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abdulla Avloniy kabi milliy qahramonlarimizning namunali jasorati va axloqiy fazilatlarini asosiy ma'naviy tayanch sifatida qo'llash, yoshlar ongida vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini yanada chuqurroq shakllantiradi.

Shunday qilib, Bacheskiy modelini milliy kontekstga moslashtirish orqali biz harbiy-patriotik tarbiyaning nafaqat tashkiliy-metodik, balki ijtimoiy-ruhiy va ma'naviy boyitilgan shaklini shakllantirishimiz mumkin. Bu esa zamonaviy O'zbekiston yoshlarini ruhiy bardam, axloqan yetuk va Vatanga sadoqatli shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiluvchi samarali yo'nalishdir.

Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga axloqiy-psixologik yondashuvni chuqurroq anglashda ijtimoiy psixologiya fanining tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bu nafaqat individual rivojlanish, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar tizimini anglashdir. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning ijtimoiy guruhdagi o'rni, roli, unga bo'lgan ta'sir va uning o'zini tutishi ustuvor o'rinni egallaydi. Xususan, o'quvchi-yoshlarning harbiy tayyorgarlik jarayonida guruh ichidagi emotsional muhit, ijtimoiy baho, tengdoshlari fikri, o'qituvchining psixologik ko'magi ularning motivatsiyasi va psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu yondashuvda harbiy mashg'ulotlar faqat jismoniy tayyorgarlikni emas, balki ijtimoiy muhitda o'zini tutish, rahbarlik qilish, ijtimoiy rollarni bajarish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni qabul qilishga o'rgatuvchi psixologik-madaniy makon sifatida qaraladi. Ayniqsa, ekstremal vaziyatlarga tayyorgarlik bosqichida ijtimoiy psixologiyaning "stressga ijtimoiy moslashuv", "guruhiy birdamlik", "ijtimoiy identifikatsiya" kabi nazariy kategoriyalarini hisobga olish o'ta muhimdir. Bu o'quvchining nafaqat o'zini, balki jamoa ichidagi o'rnini anglashga, shuningdek, guruh bilan uyg'un harakat qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari ijtimoiy psixologik treninglar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili, guruhiy qaror qabul qilish, liderlikni aniqlash kabi usullar orqali shaxsni ijtimoiy guruh kontekstida yetuk, barqaror va vatanparvar fuqaroga aylantirish vazifasini bajaradi. Bunday yondashuv yoshlarni nafaqat harbiy xizmatga, balki umuman hayotiy sinovlarga tayyorlaydi.

Mazkuryondashuvni yanada chuqurroq anglash uchun ijtimoiy psixologiyaning asosiy tushunchalariga e'tibor qaratish muhimdir. Ijtimoiy psixologiya - bu odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi faoliyati jarayonida ularda shakllanadigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar va turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandir. Bu fan shaxsning ijtimoiy muhitdagi o'zini tutishi, guruh bilan o'zaro ta'siri va ijtimoiy rollarni bajarish jarayonlarini o'rganadi.



Shu asosda harbiy-patriotik tarbiyada ijtimoiy psixologiya nafaqat o'quvchilarning ruhiy holatini, balki guruhdagi ijtimoiy jarayonlar - jamoaviy birdamlik, ijtimoiy baho, o'zaro ishonch va rahbarlikka bo'lgan intilishni tahlil qilish imkonini beradi. Harbiy tayyorgarlikda shaxs va guruh o'rtasidagi psixologik muvofiqlikni ta'minlash, ijtimoiy rolga moslashish, jamoaviy muammolarni birgalikda hal qilish orqali shaxsda ongli fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bunday yondashuv ijtimoiy psixologiyaning harbiy pedagogikadagi amaliy ahamiyatini oshiradi va mashg'ulotlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari orqali nafaqat harbiy ko'nikmalar, balki shaxsiy qarashlar, ijtimoiy javobgarlik, vatanparvarlik va ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlarni ichki va tashqi omillar ta'sirida yetuk va barqaror shaxs sifatida tarbiyalash — bugungi ta'lim-tarbiyaning ustuvor vazifalaridan biridir.

S.U. Mavlanovanning ta'kidlashicha, umuman olganda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi — bu uzluksiz va uzviy jarayon bo'lib, u o'zaro bog'liq ta'limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda g'oyaviy-mafkuraviy tadbirlar majmuasidan iboratdir. Bu jarayonda nafaqat ta'lim muassasalari, balki yoshlar bilan ishlovchi davlat va nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etadi. Ular vatanparvarlik ruhidagi ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-omabop tadbirlar orqali yosh avlod ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat, ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur yondashuv ayniqsa maktab bosqichidagi "Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik" fanining mazmuniga bevosita taalluqli bo'lib, harbiy-patriotik tarbiya ishlarini tizimli va ilmiy asosda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Dars jarayonlarida axloqiy-psixologik yondashuv asosida nafaqat bilim, balki ruhiy tayyorgarlik, fuqarolik ongini shakllantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, tarixiy-milliy meros asosida qurilgan loyihaviy ishlar bilan boyitilgan ta'limiy muhit zarur. Aynan shunday yondashuvgina yosh avlodni nafaqat harbiy tayyor, balki ruhiy-axloqan mustahkam va ongli Vatan himoyachisi sifatida voyaga yetkazadi.

Mazkur bob davomida harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga axloqiy-psixologik yondashuvning mazmuni, ilmiy asoslari va amaliy ahamiyati keng yoritildi. Endi ushbu yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarning axloqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy pedagogik vazifalarni aniqlab olish muhimdir. Ushbu vazifalar nafaqat maqsad sifatida belgilanadi, balki ular amaliy mashg'ulotlar, treninglar, rolli o'yinlar va ta'limiy vositalar orqali hayotga tatbiq etilishi bilan o'z dolzarbligini oshiradi.



Quyidagi jadvalda harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga axloqiy-psixologik yondashuvning asosiy pedagogik vazifalari, ularga mos yondashuv usullari va o'quvchilar shaxsida shakllantiriladigan kompetensiyalar tizimli tarzda keltirilgan:

Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida axloqiy-psixologik yondashuvning pedagogik vazifalari, yondashuv usullari va kutilgan natijalari:

Pedagogik vazifa	Mazmuni (mavzudagi asosiy g'oya)	Amaliy yondashuv va metodlar	O'quvchida shakllanuvchi kompetensiyalar
Shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish	Vatanga sadoqat, fidoyilik, halollik, burchni chuqur his qilish	Tarixiy qahramonlar misolida ma'rifiy suhbatlar Reflektiv esse va munozaralar	Vatanparvarlik, axloqiy mas'uliyat
Emotsional barqarorlikni mustahkamlash	Stress, qo'rquv, bosim vaziyatida o'zini boshqara bilish	Psixologik trening (autogen mashqlar) Stress-simulyatsiya o'yinlari	Emotsional o'zini boshqarish, murosaga kelish
Guruhiy birdamlikni rivojlantirish	Jamoadi o'zaro hurmat, ishonch, mas'uliyat	"Lider-guruh" roli o'yinlari Muammoli vaziyatda guruhiy qaror qabul qilish	Jamoadi ishlash, ijtimoiy hamkorlik
Mas'uliyat va liderlikni kuchaytirish	Mustaqil qaror qabul qilish, javobgarlikni his etish	Vaziyatli stseneriylar (A-, B-variant) Liderlik ko'nikmalari bo'yicha trening	Qaror qabul qilish tezligi, liderlik tashabbusi

Jadvalda keltirilgan pedagogik vazifalar harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarining axloqiy-psixologik yo'nalishini tizimli amalga oshirishda asosiy yo'nalishlar bo'lib xizmat qiladi. Ularni amaliyotga tatbiq etish esa, o'quvchi-yoshlarning harbiy-vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish vazifasi - axloqiy-ruhiy tarbiyaning markaziy ustunidir. Chunki harbiy xizmat nafaqat jismoniy chiniqish, balki Vatanga sadoqat, burchni anglash, halollik va fidoyilik kabi ichki qadriyatlarga tayanadi. Ushbu sifatlarni shakllantirishda tarixiy shaxslar hayoti asosida olib boriladigan ma'rifiy suhbatlar, hayotiy vaziyatlar asosidagi munozaralar va reflektiv esse topshiriqlari muhim metodik vosita hisoblanadi.

Emotsional barqarorlikni mustahkamlash esa o'quvchining stressli va bosim ostidagi sharoitlarda o'zini boshqara olish qobiliyatini rivojlantiradi. Harbiy



tayyorgarlik mashg'ulotlarida bu holat ko'p uchraydi: zudlik bilan harakat qilish, jamoa ichida muvozanatni saqlash, qaror qabul qilishda adolatli bo'lish. Psixologik treninglar, autogen mashqlar, stressga bardoshlilik bo'yicha mashg'ulotlar orqali bu vazifa samarali bajariladi.

Guruhiy birdamlikni rivojlantirish harbiy jamoaviy muhitda o'zaro ishonch va yelkadoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. "Lider-guruh" munosabatlarini rivojlantiruvchi rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarda guruhiy qarorlar qabul qilish topshiriqlari bu boradagi muhim metodlardir. Ayniqsa, guruhda o'z o'rnini anglash, boshqalarga ishonch bildirish va jamoa foydasini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish harbiy mashg'ulotlarning asosiy maqsadlaridan biridir.

Mas'uliyat va liderlik ko'nikmalarini kuchaytirish esa har bir o'quvchining shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlashga, mustaqil qaror qabul qilishda ishonch bilan harakat qilishiga xizmat qiladi. Vaziyatli stsenariylar asosida qarorlar qabul qilish, turli xil yechimlarni tahlil qilish, liderlik mashqlari — o'quvchida tashabbuskorlik, tezkor fikrlash va javobgarlikni o'z zimmasiga olish fazilatlarini shakllantiradi.

Mazkur vazifalarning har biri o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, axloqiy-psixologik yondashuvda yagona pedagogik tizimni hosil qiladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida mazkur vazifalarning kompleks tatbiqi o'quvchilarning shaxsiy yuksalishiga, ruhiy barqarorligiga va vatanparvarlik ongining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg'ularini shakllantirish hozirgi davrda axloqiy ehtiyojga aylangan. Bu ehtiyoj esa nafaqat shaxsiy qarashlar darajasida, balki davlat siyosati darajasida e'tirof etilgan bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining ta'lim va tarbiya siyosati markazida turadi. Aynan shu ma'naviy-axloqiy ehtiyojni qondirishda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ajdodlar jasorati vositasida harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini yoshlar qalbiga chuqur singdirish samarali natija bermoqda.

